

Shukur
Xolmirzayev

**0'n sakkizga
kirmagan
kim bor**




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2017

UO‘K: 821.512.133

KBK: 84(50‘)7

X-72

Xolmirzayev, Shukur

O‘n sakkizga kirmagan kim bor: qissa va hikoyalar /
Shukur Xolmirzayev. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2017.
– 384 b.

ISBN 978-9943-27-216-3

Mazkur kitobga O‘zbekiston xalq yozuvchisi, iqtidori
li adib Shukur Xolmirzayevning eng sara qissa
va hikoyalari kiritildi. Ularda sevgi-muhabbatning
o‘zgacha talqini, oshiqlik va ojizlik, matonat va razolat,
inson ma’naviyati bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy va
axloqiy masalalar bayon etiladi.

UO‘K: 821.512.133

KBK: 84(50‘)7

ISBN 978-9943-27-216-3

© Shukur Xolmirzayev. «O‘n sakkizga kirmagan kim bor»,
«Yangi asr avlod», 2017.

O'N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR

Qissa

Jamshid uyg'onib ketib yonini paypasladi – onasi yo'q, hali ham majlisdan qaytmahti. Yig'lagisi keldi-yu, qorong'i uyning sukunati bosib qo'rqi. Sekin derazaga qaradi.

Laxtak-laxtak qora, ho'l bulutlar bog' etagi tomon osilib borar, ular orqasidan sarg'ayib oy ko'rinardi. «Tip-tip» tomchi tovushi keldi. So'ng shamol tomorqadagi daraxtlarni silkitdimi, tom ustiga shovdirab yomg'ir suvi to'kildi. «Yomg'ir tinipti-da», deb o'yladi Jamshid va yana tashqa-riga quloq tutdi.

Nihoyat, darvozaxonada ot kishnadi va yo'lakdan «chilp-chilp» etib qadam tovushlari eshitila boshladi. Tovushlar yaqinlashdi, deraza oldidan oy nurini kesib ikki kishi o'tdi. Biri – o'rta bo'y, ikkinchisi – novcha. Jamshid darrov tanidi: o'rta bo'yi – onasi. Novchasi kim bo'ldi?

Ular ayvonda g'udullab gaplashishdi. So'ng Zaynabxon paltosi etaklarini shildiratib, dahlizga kirdi. Mehmon esa xiyol engashib, loyli oyoqlarini ustunga surkab arta boshladi. Zaynabxon dahlizda biroz ivirsib – aftidan, nimanidir qidirdi – so'ng uyga kirdi. Jamshid shosha-pisha ko'rpadan chiqib, mushtdakkina bo'lib o'tirib oldi. Zaynabxon tokchani timirskilab gugurtni topdi, chiroqni yoqdi, yomg'ir zarralari yiltirab

turgan qoshlarini chimirib o'girilarkan, to'shakka ko'zi tushdi-yu, bo'shashib xo'rsindi.

– Majlis cho'zilib ketdi-da, bolam, – dedi u uzr so'raganday shivirlab va cho'kkalab o'g'lini quchdi, sovuq lablari bilan o'pdi. Jamshid piqillab yig'lab yubordi, junjikib ko'rpa ostiga kirdi.

– Uxla, uxlugin endi, – dedi ona uni erkalab, – mana, men keldim, – keyin o'rnidan turrib, yon-beriga qidirinib qaradi va yana o'g'lining ustiga engashdi. – Mehmonxonaning kaliti qa-yerda?

– Bilmayman, – pichirladi Jamshid ko'rpa tagidan.

Zaynabxon yana yon-beriga qaradi-da, cho'zilib kampirning lo'la-bolishini astagina turtdi. Qora shol ro'molini iyagidan o'tkazib boshini chirmab tashlagan kampir uyg'ondi-yu, cho'kik og'zidan nos bo'yini taratib o'shqira ketdi:

– He, maylising ham ordona qolsin! Bolangning fe'lini bilasan-ku, javob olib kelavermaysanmi?!

– Sekinroq, – shivirladi Zaynabxon. – Majlisda men to'g'rimdayam gap bo'ldi-da, onajon. Meni «G'alaba» kolxzogiga partkom qilib tayinlashdi.

Kampir qiziga tikilgan ko'yi jim qoldi, so'ng boliishi tagidan nosqovog'ini topib, bir-ikki silkitdi-da, uni cho'kirtak tishiga «tiq-tiq» urib nos otdi.

– Bu atrofda unday kalxoz yo'g'-u?

– Dashtda u, – dedi Zaynabxon sabrsizlik bilan. Kampir qiziga og'rinib qaradi.

– Yana ketarkansan-da?

Juvonning chehrasiga daf'atan iliq bir mehr tepib, ma'yus kulimsiradi.

– Ketaman. Ketishim kerak ekan, – so‘ng dera-zaga ko‘z tashlab olib shoshildi. – Onajon, o‘scha kolxozning raisiyam majlisda bor edi. Ilgaritdan tanishmiz. O‘rtoqlardan. Gostinitsada joy yo‘q ekan, olib keldim. Mehmonxonada yota qolsin, erta bilan turib ketadi. Balki o‘zim ham u kishi bilan... – o‘g‘liga qarab olib, davomini aytmadni, kalitni so‘radi.

– Sen o‘rtoqlardan deganing bilan... – g‘udul-ladi kampir, – ming qilsayam erkaksiz uy...

– Onajon...

– Tokchani ko‘r, – dedi kampir.

Zaynabxon kalitni topgach, yana o‘g‘lining yoniga cho‘kkaladi. Uni o‘pib, chiqib ketdi.

Kampir gilamni qatlab, nosini tupurganidan keyin ham tomning vassalariga uzoq tikilib yotdi. So‘ng chuqur xo‘rsindi-da, ko‘zini yumdi.

– Momo, eshikka chiqaman, – dedi Jamshid bir mahal.

– Kiyimingni kiyib chiq, – deb g‘o‘ldiradi buvi.

Jamshid eshikni ochishi bilan qarshisidagi mehmonxona eshigi ham ochilib ketdi. To‘rda sariq etigini ko‘rpacha tagida qatlab o‘tirgan barvasta kishi ko‘rindi. Onasi yenglari shimarilgan, oftoba ko‘tarib chiqib kelardi.

– Ha, ha? – dedi u Jamshidga. – Uxlamading-mi haliyam? Shamollab qolasan, kir uygaga.

– Kim u, Zaynabxon? – to‘rdan gap otdi rais.

– O‘g‘lim, o‘rtoq Jalolov, – dedi Zaynabxon, – Jamshid.

– Jamshidmi? Obbo, sher-ey! Qani, beri ke-chi, tanishaylik munday, – Jalolov o‘z uyida o‘tir-gandek o‘zini erkin tutardi.

– Kir, ko'rish-u, darrov chiqib uxla!
Jamshid bu odamga o'zining ilgaritdan bir qadar tanish ekanini his etib ichkariga kirdi.

Mehmon – yonoqlari keng, betlari tandirdan yangi uzilgan uy noniday qizil, ko'pchigan, o'rtayashar kishi Jamshidni yoniga o'tqizdi. Mal-la, jun chakmonining barini ochib, uni o'radi. Jamshidning dimog'iga qandaydir tanish ko'kat hidi urildi-yu, bu odamni qayerdadir ko'rganday bo'ldi, lekin uni birinchi ko'rishi edi.

– Enamni poylab, uxlamay o'tirdim, de?
Jamshid bosh irg'adi.
– Onang biron yoqqa ketib qolsa, unda nima qilasan?
– Men ham... boraman-da.
– Obbo, sen-ey. Men bilan dashtga bormaysanmi?

Jamshid bosh qimirlatdi.
– Seni qara-yu! Bu yerda nima bor? Dasht yaxshi: keng, har xil gullar ochilib yotipti. Yozilib, yayrab o'ynaysan. Sen tengi Tilov degan o'g'lim bor mening. U bilan o'rtoq bo'lasan. U seni tomosha qildiradi. Borasanmi?

Jamshid iljayib, suzilib eshikka qaradi. Jalolov kuldi.
– Borasan. Enang ham boradi. Eh-he, tuklaring tikkayib ketibdi-yu? Sovqotibsan. Bor, chopingningni kiyib ke.

– Mening choponim yo'q. Paltunim bor.
– Ha, mayli, paltuningni kiyib ke.
Jamshid chiqdi. Lekin hali uyg'oq yotgan buvisi uni mahkam ushlab issiqliqina qo'yniga soldi va qayta chiqarmadi.

- Momojon, dashtga boramiz, – deb pichirladi Jamshid.
- Uxla, – dedi buvisi.
- Uyoqda... onamning o‘rtog‘ining o‘g‘li bor. Tilov degan.
- Bo‘ldi.

Ammo onasi kelib yoniga yotgachgina Jamshid uyquga ketdi.

* * *

Jamshid uyg‘organida deraza oynasida bir dasta olmos nur yonar, tashqarida tovuqlariga don sochayotgan buvisining ovozi eshitilardi:

- Tuv-tuv... beh-beh...

Yonidagi bo‘s sh o‘ringa ko‘zi tushdi-yu, ko‘zlarini uqalab, mehmonxonaga chopdi. Undan chiqib, darvozaxonaga qaradi. Na onasi bor edi, na uning o‘rtog‘i. Darvozaxonada hamisha orqa tuyog‘ining uchini yerga qadab turadigan sariq jiyron otlari ham yo‘q edi.

Shohsupa yonida eski do‘ppidan tovuqlarga qo‘noq sochayotgan kampir:

- Ketishdi, – deya ko‘cha eshigiga erinchoq nazar tashladi.

– Dashtgami?

– Dashtga.

– Nimaga meni uyg‘otmadingiz?

– Oshiqma, qo‘zim. Ertaga kelib seniyam opketishadi. Ko‘chib ketasizlar. Onang joy tayyorlagani ketdi.

– Ur-re! – Jamshid irg‘ishlab pastga tushdi, lekin selgimagan yerda oyog‘i toyib cho‘kkalab goldi: uyga qaytib, qo‘nji uzun botinkasini kiyib

chiqdi. – Dasht yaxshi, momojon! Gullar ko'p!
Borib, Tilov bilan o'rtoq bo'laman! U meni tomo-
sha qildiradi. Siz ham borasiz-a, momojon?

Momo doni bo'shagan do'ppini supaning
qirg'og'iga urib qoqdi.

– Qaydam. Bu mulkni kimga tashlab ketaman,
qo'zim? Har bir daraxti bir bolam-ku! Danagidan
o'stirganman bularni.

Muslima buvi yigirma besh yoshida ikki bo-
lasi – qizi Zaynabxon va o'g'li Abdukarim bilan
eridan qolgandi (eri bosmachilar bilan kurashda
halok bo'ldi). O'shanda bu joylar taqir yer edi.
Shundan keyin kampir boshqa er qilmadi va
qolgan umrini ikki sag'irning tarbiyasi va ular
uchun shu yerni bog' qilishga berdi. Kunduzlari
yer chopdi, ko'chat ekdi; kechalari charx yigirib
bolalarini boqdi-bovlidi. Yillar o'tib, bog'i ham,
bolalari ham odam bo'ldi. Lekin bolalarining biri
otasining izidan ketdi (nemis bosqinchilari bilan
kurashda halok bo'ldi). Zaynabxon esa, Musli-
ma buviga tamom o'xshamaydigan, uchar qush
chiqdi: hali o'qish deb Toshkentga ketadi, hali
jenotdel bo'lib oylab qishloqma-qishloq kezadi,
kechagi urush yillarida-ku, bir kun uyda bo'lsa,
bir hafta bo'lmadi. Sanjar tog'da sarich yig'ayot-
ganlarga bosh bo'lib yurdi. Kampirga hamisha
vafodor bo'lib, shu bog'i qoldi.

«Daraxtlar ham momoning bolasi ekan-da», deya
go'yo buvisi bilan daraxtlar orasidan bir o'xshash-
lik topmoqchiday bog'ga qaradi Jamshid.

Kecha yomg'irda yuvinin tanalari jigarrang
bo'lib qolgan o'riklar oftobda isinayotgandek qilt

etmay turishar, faqat jajji yaproqchalar orasiga biqinib qolgan yakka-yarim burishiq oq gullargina pastga uchar, bog' oralab ketgan yolg'izoyoq nam so'qmoqqa qo'nardi. Olcha butalari orasidan chaqchaqlab uchib chiqqan qorayaloq, shoxlar orasidan ohista suzib o'tib, so'qmoqqa qo'ndi. So'qmoqqa yopishib yotgan gul barglari titrab ketdi.

Jamshid xo'rsinib, sukut qildi. So'ng birdan sergaklanib, toshloq yo'lka bilan darvoza tomon chopib ketdi. Darvozadan chiqib, bog' ko'chaga tushdi. Ko'cha muyilishidagi Parda cho'loqning tevaragi qari tollar bilan o'ralgan hovuzi supasi-ga chiqib, sarhovidagi yantog'i namdan qorayib ketgan devor osha qichqirdi:

– Umid-a! Ho-o, Umid!

Umida – banka qorovuli Norqul akaning qizi. Jamshid bilan bir kechada tug'ilgan. Ota-onalar uchrashib, bolalari ustida gaplashib qolganda, ularning bir kechada tug'ilganini eslashar, o'shanda doya axtarib, bir-birinikiga bola yugurtirganlarini aytib kulishar edi. Buni eshitgan bolalar quvonishar va bir-biriga qattiq, sirli ya-qinlik his qilar, boshqa tengdoshlariga ko'p ham qo'shilavermas edi.

– Ho, Umida!

Chorbog'dan «Ha-a!» degan ingichka ovoz va xotin kishining tegajaklik qilib kulGANI eshitildi.

– Baqqa qara! – Jamshid supadan sakrab tushib, darvoza tomon chopib ketdi. Darvozaga yetmasidan, darvozaning o'zi shig'illab ichkariga ochildi-da, oraliqdan bodom gulli oq chit ko'yvak

kiygan, qoracha yuzi yog‘ surganday yiltiroq yetti yoshlardagi qizcha chiqdi.

– Umid, dashtga ketyappiz! Ko‘chib ketyappiz! Ertaga ketamiz! – Jamshid birpasda dashtning nimaligidan tortib, Jalolov bilan onasining o‘rtoq ekanigacha, o‘zining Tilov bilan o‘rtoq bo‘lishiga-cha aytib tashladi.

– Men ham boraman sizlar bilan, – dedi Umida.
– Mayli, – dedi Jamshid. – Obketaman o‘zim.
– Onam qo‘ymasa, qochib ketaman-a?
– Ha. O‘zim obketaman. To‘xta. Tilovning otasi bilan onam o‘rtoq-ku, biz ham o‘rtoq bo‘lamiz!

Umida guruchday qayta chiqa boshlagan tishlarini ko‘rsatib jilmaydi.

– Ke.
– Seni Tilov bilan ham o‘rtoq qilaman.
– Yo‘q, – dedi Umida. – Faqat ikkalamiz o‘rtoq bo‘lamiz.
– U yaxshi bola. Dashtga borsang, tomosha qildiradi.
– Mayli, – rozi bo‘ldi Umida.
– Nima yeding, og‘zing ko‘k?
– Ismaloq somsa. Onam, yana terib ke, yana yopib beraman, dedi.
– Yur, Yetimtepaga. Ismaloq ko‘p.

Umida ichkariga qaytib kirdi. «Ona! Men Jamshid bilan o‘rtoq bo‘ldim!» – dedi va tesha ko‘tarib chiqdi.

Birpasdan so‘ng ikki o‘rtoq atrofi jiqla daraxt loy ko‘chaning chetlaridan yugurishib, qishloqning qoq o‘rtasidan tuyaning o‘rkachiday chiqib turgan ko‘m-ko‘k tepalik tomonga borishardi.

Narzi juvozkashning zig‘ir yog‘i hidi anqib turgan ko‘chaga taqash bostirmasi yonidan o‘tgach, katta yo‘ng‘ichqapoyaga chiqdilar. Bu yerda bir qancha bolalar paltolari va do‘ppilaridan «darvoza» yasab, futbol o‘ynashardi. Chetdagi kallaklangan tut ostida cho‘nqayib o‘tirgan Mansur loyli qo‘lini tizzasiga tirab, qichqirdi:

- Jamshi-id! Qiziq bo‘lyapti. Ke, baqqa!
- Tepaga boramiz biz! – dedi Jamshid.
- He, qiz bilan o‘ynaydi. Qizaloq! Qizaloq!
- O‘zing qizaloq! Biz o‘rtoq! – dedi Jamshid va yerdan bir changal ho‘l tuproqni olib, kaftida shosha-pisha dumaloqlayotgan Umidaning bilagidan ushladi.
- Ketdik. Tashla-ye.

Umida Mansurga tilini ko‘rsatdi, loyni tashlab, Jamshidga ergashdi. Yo‘ng‘ichqanining yomg‘irda muloyim bo‘lib qolgan kalta-kalta poyalari oyoqqa qadalmaydi – shundoq mayishib yotadi-yu, oyoq olinishi bilan titrab-titrap ko‘tariladi – Jamshidning pochasi shimarilgan oyoqlariga, Umidaning oq ko‘ylagi etaklariga suv sachraydi.

Tepalik etagidagi sariq saqichday loyi chiqib yotgan so‘qmoq yoqasida to‘xtashdi. So‘qmoqning uyog‘i – ustida bug‘ o‘rmalayotgan shudgor. Shudgorda allaqancha oq, ko‘kish xonaki kaptarlar donlab yuribdi. Katta palaxsa kesak usti-ga chiqib olgan bitta chipori tomog‘ini shishirib g‘urillaydi, turgan yerida aylanib ko‘kragini ko‘taradi.

- Ana, Naim akaning go‘ri, – dedi Jamshid kaptarlarning nariyog‘idagi ko‘kimtir bo‘yog‘i

yuvilib ketgan tosh qabrni ko'rsatib. Qabrning o'rtasidan chiqib turgan chorburghak ustunning «bo'yniga» biri qovjiragan, biri so'ligan, yana biri yaqindagina gulgordan uzilgan gulchambarlar ilig'liq edi.

– Yur, – dedi Umida. – Guldan olamiz.

– Yo'q, – dedi Jamshid. – U gulni olish yomon.

Huv u kuni bu yerga ko'p o'quvchilar kelishdi. Abdukarim amakiyam keldilar. Sivizg'a chalishdi. Maylis qilishdi. Biz futbol o'ynayotgan edik, kelib tomosha qildik. Keyin anavi gulni qo'yib ketishdi. Ular ketgandan keyin Mansur, gulni olaman, deb edi, bitta eshakli odam kelib: «Qu-log'ingni kesaman, – dedi. – Gulni olish yomon, – dedi».

– A, ismaloq qani? Yo'g'-u?

– Uyoqda ko'p, – Jamshid tepalikning orqa tomoniga ishora qildi va qishloq chekkasidan otilib chiqqanday, o'ydim-chuqur bag'rini tasma-tasma quyruqday qor bosib yotgan tog'ga ko'zi tushdi. – Tog'imiz baland-a?

– Baland, – dedi Umida. – Bir kun boramizmi?

– Boramiz.

– Tepasigacha chiqamiz-a?

– Tepasigacha chiqamiz.

– Dashtga e-erta bilan ketasizlarmi?

– Uxlab qolma yana.

Umida boshini sarak-sarak qildi.

So'qmoq yoqasidagi nam ko'katlar ustidan yana yugurishib ketdilar. Tomi qizg'ish elektro-stansiya binosiga yetgach, chapga burildilar, tepalik ortiga o'tib, ko'rinxay ketdilar.

* * *

Ertasi kechki payt Jalolov qora to'riq otda, Zaynabxon o'zining sariq jiyron otida qaytib keldi. (1944-yilda Zaynabxon tog'da sirach yig'ayotgan-larga bosh bo'lib yurar ekan, Dubolo tizmasidan raykom berib qo'ygan katta bo'z otini yetaklab o'tayotganida, tosh ko'chgan, ot jarga qulab ketgan edi. Keyin Zaynabxon o'lgan otning egar-jabduqlarini raykomga obkelib topshirgan-u, boshqa ot so'ramay, o'zi mol bozoridan mana shu sariq jiyronni o'n to'rt mingga sotib olgandi. Undan beri, mana, to'rt yil o'tdi, sariq jiyron hamon Zaynabxonning hamrohi.) Shu kecha yana yomg'ir yog'di. Jalolov yana mehmonxonada yotdi. Muslima buvi yana u kishining kelganini yoqtirmay gapirdi. Zaynabxon yana rad etdi. Jamshid yana mehmonxonaga chiqib, Jalolovning yoniga o'tirdi, Jalolov yana dasht haqida gapirdi.

Ertasiga Jamshid uyg'onib, yana deraza oy-nasida bir dasta olmos nur ko'rди. Yana ko'zlarini uqalab mehmonxonaga yugurdi... Jalolov yelkalarining rangi o'chgan moshrang gimnastyorkada, choy ichib o'tirar, yonida janda olacha chophonining barlarini belbog'i orqasiga qistirib olgan tag'in ikkita yigit tiz cho'kkан edi. Chiqib, darvozaxonaga qaradi Jamshid. Otlar o'z o'rnida, ularning safiga tag'in oltita eshak qo'shilgan edi.

Shohsupa yonida onasi bilan buvisi gaplashib turibdi.

– O'zingga, bolangga ehtiyyot bo'lsang bas, – dedi kampir. – Menden ko'ngling to'q bo'lsin.

– Ammamni chaqirtiring bo'lmasam, – dedi Zaynabxon.

– Chaqirtiraman, – kampirning Jamshidga ko‘zi tushib, sertomir, ozg‘in qo‘lini cho‘zdi. – Beri ke, bir o‘pay.

Jamshid yana toshloq yo‘lka bilan darvoza tomon chopib ketdi. Ammo Umidani yo‘lda uchratdi. Onasi bilan shu yoqqa kelishayotgan ekan. Umida ikkita ko‘ylagini ustma-ust kiyib olgan, qo‘lidagi zog‘ora nonni yutoqib kavshardi.

– Men ham boraman-a, Jamshid, boraman-a?
– dedi u shivirlab.

– Borasan, borasan, – dedi Jamshid.

Ammo Ro‘zi opa hovuz bo‘yida Zaynabxonlar bilan xayrlashgach, Umidaning bilagidan mah-kam ushlab, uyga olib kirib ketdi.

II

Jiyaklarini baland barra o‘t va qo‘ziquloqlar bosib ketgan qizil qumoq yo‘l. Unda-bunda yerga singmay qolgan sarg‘ish xalqoblar. Osmon qatqaloqday darz ketgan pag‘a bulutlari bilan ularda sarg‘ish aks etgan. Yo‘lning chap tomoni unga yondosh cho‘zilib ketgan qizg‘ish jar, jar tubida suv miltiraydi, u yerdan fotmachum-chuq va cho‘ponaldag‘ich qushining «chiq-chiq», «qiyiq-qiqiyiq» ovozlari keladi. Narigi betda esa ikki tup yovvoyi olcha qiyg‘os gullab turibdi. Yo‘lning o‘ng tomoni – yam-yashil, to‘lqinsimon adirlar. Jimirlaydi, tovlanadi. O‘sha yoqdan esa-yotgan g‘ir-g‘ir shabada qo‘ziqorin va chirik yan-toq hidini olib o‘tadi.

– Shumi dasht, shumi? – so‘raydi Jamshid.
– Shu. Buyog‘i endi dash! – javob beradi Jalolov. Shamol uning malla chakmoni qo‘ltiqlarini

qappaytirgan, u qoya ustida qanotini yozayotgan burgutga o'xshaydi.

Jamshid uyog'ini ko'rmoqchi bo'lganday oldinga qaradi... Lekin tushgacha manzara o'zgar-madi.

Tushdan keyin qumoq yo'l xiyol oqarinqiradi. Halqoblar ham tugadi. Bulutlar tarqab, osmon ochildi. Quyosh yelkalarni qizdira boshladi. Yo'l chetidagi jar uzoqlashib, qushlarning ovozlari ham tindi. Shabada to'xtab, o't-o'lanning hidi o'tmaslashdi...

Oldinda bir to'p bo'zrang toshlar va ular orasidan o'sib chiqqan bir tup sadaday yulg'un ko'rinardi. Shuning yonidan o'tishlari bilan bir qishloq ustidan chiqib qoldilar. Qo'tirday, g'adir-budur toshlari chiqib yotgan nishab bet-dan tushgan yo'l ikki yonida pastak qalama toshdevor uzun ketgan ko'chaga olib tushardi. Ko'chaning narigi betida bir to'da yosh tollar sariq popuk chiqarib, gullab yotar, ulardan yo-qimli, yengil hid taralardi.

Jamshid qishloqqa tushaverishdayoq chor-bog'larida shamol esayotganga o'xhash bir to-vush eshitgandi. Qishloqdan chiqaverib, u to-vush egasini ko'rdi. Tik va silliq qирг'oqlari zig'ir yog' surilganday daryo ekan. Daryoning ko'prigi juda oddiy edi: yo'g'on-yo'g'on, po'stlog'i archilmagan xarilar yonma-yon qo'yilib, oraliqlariga shox-shabba bosilgan. Eshaklar yurganda ko'pri-k dukurlaydi, likillaydi. Suvga qarasa, kishining boshi aylanadi. Osmonga qarasa, ko'ngil battar behuzur bo'ladi. Jamshid eshakning kalta yoldidan ushlab, engashib o'tirdi...

Har qadamda qizil ro'mol yopinib, ikki uchini tishida tishlab olgan ayollar, qizlar uchrar, tel-pak kiygan barvasta-barvasta yigitlar, o'smirlar, qo'lтиqtayoq tutgan, eski shinel kiygan odamlar duch kelar va negadir ularning birortasi ham otliqlarga oldin salom berishmas, otliqlar salom bergach esa, juda quyuq so'rasha ketar, jilmayishar, boshlarini chayqashar edi.

Daryodan o'tgach, tagi bilan o'tqazib qo'yilgan bog'-bog' bug'doydek qiyoqlar o'sib yotgan sohil bo'ylab biroz yurdilar-da, atrofini son-sanoqsiz so'qmoqlar kamarday o'rab tashlagan baland tepalikka o'rlay boshladilar. Tepalikda, devorlari qizg'ish yolg'iz hovlining chetan darvozasi yonda qizil ro'mol yopingan bir xotin keng yengini peshonasiga tutib, pastdagilarga qarardi. Xotin orqasiga o'girilib, shoshib hovliga kirib ketdi va dam o'tmay qora choponli, yalang oyoq bir bola uning ornida paydo bo'ldi. Pastdagilarni ko'rdiyu, otilib tusha boshladи.

– Mana, bizning Tilov! -- dedi Jalolov. – Tilovbergan, o'rtog'ingni opkeldim! Ol!

Tilov bularga bir necha odim qolganda so'qmoqda chayqalib to'xtadi va Jamshidga ham qiziqib, ham yotsirab qaradi. Jamshid dumaloq horg'in ko'zlarini unga tikib iljaydi. Shu payt jiyyronning tuyog'i so'qmoqdan toyib ketib, oldinga sakradi va Zaynabxon Jalolovning yelkasidan ushlab, qaddini tikladi. Jalolov kuldi. Zaynabxon ham kuldi. Tilovning esa kichkinagina ko'zlari birdan qisilib, yapasqi iyagi tirishib ketdi. Jamshidga xo'mrayib bir qaradi-da, asta burilib tizzasiga

qo'lini tiray-tiray tepalikka qaytib chiqa boshladi. Jamshid ko'zlarini pirpiratib uning orqasidan qaradi. Eshakka bostirib xala berdi.

Eshaklar surilib-suykalib hovliga kirishdi. Qiy va qatiq hidi dimoqqa urilar, hovli o'rtasida of-tobga to'nkarib yoyib qo'yilgan mol tezagi ustida so'fito'rg'aylor uymalashardi. Devorda qo'nib turgan olapopushak «hurr-hup-hup» ovoz chiqarib, kamalakday yelpig'ichini yozib yig'di. Jamshid eshakdan tushib, atrofga nazar soldi-da, xomush tortib, darvozaga qaradi. Tilov tajanglik bilan uy devorini tirnar, otasining chaqirishini kutib, unga tez-tez qarab qo'yardi.

Jamshid butlarini uqalay-uqalay, maymoqlanib Tilov tomon yurdi. Tilov terisi quruq, biqqi qo'llarini yonida osiltirib, Jamshidga tikildi. Jamshidning oyog'idagi qo'nji uzun, eshakning jun ayiliga ishqalanaverib ikki yoni yiltirab ketgan botinkalariga ko'zi tushdi-yu, o'zining kir, yapaloq oyoqchalariga qaradi, battar xo'mraydi. Shu payt hovli etagidagi ichida shuvoq uyib qo'yilgan bostirma tomondan Zaynabxonning yangroq kulgisi eshitilib ketdi. Tilov Jamshidning yonboshidan yalt etib qaradi. Zaynabxon bir uchi jiyyronning yuganiga bog'langan qil chilvirni ushlab tislanib turar, kattakon halqali gulmix qoshiga cho'nqaygan Jalolov chilvirning ikkinchi uchidan ushlab o'ziga tortardi. Tilovning qalin, bo'zrang lablari birdan qattiq yumildi, Jamshidga dard bilan o'qraydi-da, yelkalarini xoda yutganday tik tutib hovlidan chiqdi-ketdi. Jamshid quruqshagan lablarini ochgancha to'xtab qoldi.

Yigitlar eshaklarni hovlida shundoq qo'yvorib, ko'chlarni chapdag'i uzun ketgan ayvonsiz uyg'a kiritita boshladilar. Ularga qishloqdan chiqib kelgan, belbog'i uzuq shinelli chol bilan yuqorigi labi qisqaligidan sarg'ish, baquvvat tishlari ko'rini turgan bir o'smir ham ko'maklashdi. Zaynabxon bilan Jalolov ichkarida turib, narsalarni joylashtirishar, Jalolov yo'lakay choldan allanarsalarni so'rar, Zaynabxonga allanarsalarni tushuntirardi. Bir payt nima ham bo'ldi-yu, ikkalasi ham shoshib uydan chiqishdi. Chimirilib osmonga qarashdi. So'ng Jalolov borib o'z otining, Zaynabxon o'z otining ayilini torta boshladi. Jamshid borib onasining yengidan ushladi.

- Qayerga borasiz? Men ham boraman.
- Hozir kelaman, aylanay, hozir.
- Yo'q. Boraman men ham.
- Men ot ni choptiraman, yiqilib tushasan.

Sen yerga tupurib qarab tur. Tupuging quriguncha qaytib kelaman. Ana, Tilovning oldiga bor. O'ynab o'tir u bilan. Ilhaq bo'p eding-ku unga. Hozir kelaman.

Zaynabxon bir qo'li bilan egarning oq qalpoqli mixlar qoqligan qoshidan, ikkinchi qo'li bilan korsonidan ushlab, amirkon etikli oyog'ini uzangiga qo'ydi, o'zini osongina ot ustiga oldi.

Birpasdan so'ng Jalolov ikkalasi qo'shni tepalik ustida otlarni yeldirib borar, soyalari tepalik etagida chayqalardi. Jamshid chetan darvoza og'zida ularni kuzatib turarkan, ular ko'zdan berkingach, burildi-yu, uy muyilishida g'o'dayib turgan Tilovni ko'rdi. Tilov tumshay-

gan yuzini tezgina chetga burdi. Jamshid hovliga qaytib kirdi. Quyrug'i bilan tezakni yumaloqlab, dumalatib ketayotgan qora qo'ng'izga biroz tikilib turdi-da, yuklari tushirilgan uyga kirdi.

Boyagi qizil ro'molli barvasta ayol deraza oynalarida qotib qolgan ohak tomchilarini ho'l latta bilan artardi.

– Xola, nimaga Tilov unaqa? Gapirmaydi hech? – so'radi Jamshid.

Xola ma'yus iljaydi. Lattani bir qo'lidan ikkinchisiga olib xo'rsindi.

– Enasi esiga tushgandir. O'lgan edi bultur.

Jamshid tashqariga chiqdi. Tilovning ko'nglini ko'targisi, unga qandaydir yaxshi gap aytgisi keldi.

Tilov yolg'iz, devor tagida cho'nqayib o'tirar, kattakon qizg'ish tuyachumolining orqa oyog'idan bosib, uning jon achchig'ida tipirchilashini tomosha qilardi. Jamshid uning «o'yin»iga biroz qarab turdi-da:

– Qo'yvor, – dedi asta. Tilov unga yalt etib qaradi va boshmaldog'i bilan bosib, chumolini nam yerga tiqib yubordi.

– Mana, qo'yvordim! – dedi u, o'rnidan irg'ib turib, choponining barlarini silkita-silkita hovliga kirib ketdi.

Chumolining nam yerdan chiqib turgan qora ipday oyog'i bazo'r qimirlardি. Jamshid cho'nqayib, uni loydan astagina chiqarib oldi-da, kaf-tiga qo'ydi. Chumoli boshini zo'rg'a ko'tardi va omburdek og'zini katta ochib, Jamshidning kaftini chimillatib tishladi. Jamshid chumolini

urib tushirib, o'rnidan turdi. Kaftining qizargan yerini so'rganicha, pastdagi qishloqqa qaradi va og'riqni bir damda unutdi. Bir damda ozg'in qo'lini cho'zib, «bir o'pay», deb turgan buvisi va «boraman, men ham boraman», deya onasining qo'lidan qutulmoqchi bo'lib, tipirchilayotgan Umida ko'z oldidan o'tdi.

Quyosh qo'shni tepalik orqasiga botib, osmonni oppoq yoritdi. Osmon asliga qaytishi bilan tevarak-atrofni yengil bir soya bosdi. Daryo tomondan salqin shabada esib, nam qamish va tollar hidini olib o'tdi.

Zaynabxon aytganday, qosh qoraymasdan qaytib kelishdi. Shu kecha pastdagi qishloqdan ham, atrofdagi tepaliklar ortidan – ovullardan ham allaqancha barvasta-barvasta odamlar kelishdi. Hovlining to'ridagi Tilovlarning quroq ko'rpačhalar solingan uyida allamahalgacha gurung bo'ldi. Oldiniga Jamshid tushunmaydigan allanarsalar haqida gapirishdi, tortishishdi, so'ng navbat bilan do'mbira chertdilar, qadimgi dostonlardan yod aytdilar.

Ertalab Tilov olachadan tikilgan jildiga bir parcha nonni solib, maktabga ketdi. Zaynabxon bilan Jalolov ham otlanib hovlidan chiqishdi. Jamshid Zaynabxonning orqasida, otga mingashib olgan.

Shu kuni ular ko'p qirlar oshdilar, ko'p ovularda bo'ldilar, ko'p o'tovlarga qo'ndilar. Har qadam Jamshid uchun yangilik edi. Lekin hammasidan ham dashtning kengligi va nimasi bilandir shu dashtga o'xshab ketadigan barvasta-barvas-

ta erkaklar-u qizil ro'mol yopingan ayollar uning esida qoldi.

* * *

Kechga yaqin dasht osmonini pastak, ho'l bulutlar burkab olib, havo birdan sovidi. Lekin bahor havosi ekan! Sal o'tmay yana ochilib ketdi-yu, bir tomonda quyosh yiltirab, ikkinchi tomonda iliq yomg'ir yog'a boshladi. Qishloq ustida yarim aylana chizib beqasam kamalak qo'ndi. Kamalak tagidan bolalarning quvnoq chinqirig'i eshitilardi: «Tulki qizini to'y qildi... To'y qildi!»

Sal o'tmay yomg'ir ham tindi. Bolalarning chinqirqlari ham pasaydi.

Eshikning ikki yoniga ikki qo'lini tirab, osmonga qarab turgan Jalolov:

– Xayriyat-e, xayriyat, – dedi.

– Kecha qor yog'adi deb eshitgandik, – dedi Zaynabxon ustixonni siqimlab ushlab, mujiyotgan Jamshidga.

Jamshid derazaga qaradi-yu, daryo tarafdan kelayotgan boshqa, yo'g'on-yo'g'on ovozlarni eshitib, qulqlarini ding qildi. Ovozlar yaqinlashib kelardi: «Ushla! Qo'yma!..»

Jamshid otilib dahlizga chiqdi. Jalolovning qo'ltig'i tagidan o'tib, selgiy boshlagan hovliga yugurdi. Darvoza yonida to'xtab qoldi. Daryo tomondan bir to'da katta-kichik odamlar, goh uyonga, goh buyonga surilib yugurib kelishardi. Ular yaqinlashgach, qandaydir ko'k chil qushni quvib kelishayotgani ma'lum bo'ldi. Jamshid orqaga burilgan edi, Jalolovga to'qnash keldi.

- Nima u, nima, rayis amaki?
- Chil, chilni quvyaptilar.
- Chil?..
- Dasht kakligi.
- Ushlab bering menga, ushlab bera qoling.

Jalolov mo'yloving uchini labi bilan qim-tib kulimsiradi-da, malla chakmonini yechib, Jamshidga tutqazdi va halpillab ho'l chimda sirpana-sirpana pastga tushib ketdi. Hademay to'daga borib qo'shildi. Ichkaridan Zaynabxon ham chiqib keldi. Daryo bo'yidagi ayvonsiz uylar og'zida ham xotin-xalajlar turishar, «piyoda uloqchilarni» qiziqib kuzatishardi.

Chil dam qo'nib, dam uchib Jamshidlar tur-gan tepalik etagidan o'tdi. To'da ham uning orqasidan o'tdi. Faqat yelkalari namiqib battar qoraygan qora chophonli Tilovgina ortda qolib, oq-say-oqsay tepalikka chiqib kelaverdi.

- Otam tutadilar, otam, – dedi u.
- Menga beradilar, menga, – dedi Jamshid.
- Senga? Olasan! – Tilov engashib yo'l-yo'l oq ishtonining yiqliganda o't ko'kartirib qo'yan tiz-zalarini kafti bilan artishga tutindi.

Chil ko'm-ko'k o'tlar ustiga qo'ndi-yu, kulrang qanotlarini yoyganicha qoldi. Shunda to'dadan devqomat, gimnastyorkali bir yigit o'zib oldinga chiqdi va chilni yerdan olib o'tdi.

- Otam tutdi, otam! – qichqirib yubordi Tilov.
- Qizarib, bo'g'riqib ketgan Jalolov chilni kelti-rib Jamshidga berdi.
- Tilov bilan o'yna. Keyin so'yib beraman.

- Yo‘q-yo‘q, so‘ymaysiz!
- Yuragi yorilgan. O‘ladi baribir.

Chilning qanotlari ho‘l, loyga belangan, qip-qizil terisi ko‘rinib qolgan to‘shi issiqqina edi. Jamshid uni hovuchida qaltirab ushlab, Tilovga qaradi. Tilov o‘rnida yo‘q edi.

Ko‘k ochilib ketdi. Dasht yasharib yashnadi.

Quyosh yana kechagiday botib, dashtga yana kechagiday soya tushdi. Yana daryo tarafdan namxush o‘t-o‘lan va yana loyqa suv hidini olib shabada esdi. Qishloqdagi kecha sarg‘ayib turgan yosh tollar endi ko‘karib ko‘rinar, birpaslik yomg‘ir popuklarini urib tushirgan, tagida ko‘rpa bo‘lib yotardi.

Qishloqqa olib tushadigan qo‘tir yo‘lda oq eshak mingan bir yo‘lovchi ko‘rindi. Hali quyosh botmasdan, uning sallasida nimadir yaltirayotgan edi. Eshakli ko‘prikan o‘tib, toshloq yo‘lni kesib chiqqan ariqchada eshagini sug‘orarkan, hovlining qishloqqa qaragan tomonida, baxmalday o‘t qoplagan xarsangda o‘tirgan Jamshid yaltirayotgan narsa yo‘lovchi sallasining o‘rtasidan ikki tomonga qarab chiqib turgan ikkita lampa shisha ekanini ko‘rdi. Jamshid uyga qaytib kirdi va:

- Ketaman momomga, ketaman, – dedi onasi-ga. Ertasiyam, indiniyam shunday dedi.
- Darrov sog‘inib qoldingmi, sher? – kului Jololov.

Jamshid indamadi.

Nihoyat, Zaynabxon uni Sangardakka – buvisining oldiga olib tushadigan bo‘ldi.

Olma shoxlari tagidan, bog'ko'chadan o'tisharkan, Jamshid egar korsonidan ushlab ko'tarilib qichqirdi:

– Umida! Ho, Umida!

Archa yog'ochidan ishlangan og'ir darvoza ichkariga bazo'r tortildi. Oraliqdan Umida chiqdi. Jamshid jiyronning silliq sag'ridan sirpanib tushib, unga ro'para bo'ldi, quruqshagan lablarini yalab jilmaydi. Umida ham guruchday tishlarini ko'rsatib jilmaydi.

– Yana ketasanmi? – so'rab qoldi Umida birdan shoshib.

– Ketmayman, – dedi Jamshid.

– Qani u Tilov? Kelmadimi?

– Yo'q. U bilan o'rtoq bo'lmayman.

– Men ham o'rtoq bo'lmayman.

Muslima buvi shohsupada, yog'och hovonchada uzun qayroqtosh bilan tuz tuyib o'tirardi.

– Momojon! – Jamshid borib momosining quchog'iga otildi va yonog'ida tanish nos bo'yи anqib turgan sovuqqina lablarni sezdi.

Saldan so'ng oila a'zolari jamuljam, beqasam yakandozlar yozilgan ayvonda davra qurib o'tirishar, Jamshid sergaklanib atrofga qarar, nazarida, hamma narsa – bog'lari, o'rikлari ham, uylari, derazalari ham, yo'llari, yo'llkalari, hatto buvisi ham allanechuk kichrayib qolganday edi. Kechqurun esa, u Umida bilan Yetim-tepada chopqillab yurar, botayotgan quyosh tog' bag'ridagi qorlarni yaltiratar edi.

III

Kuz keldi. O'riklardan endi yaproqlar ucha boshladi. Bog' oralab ketgan yo'lakka ham yaproqlar qo'nardi. Endi Jamshid uyg'onganida deraza oynasida bir dasta olmos nur ko'rinxas, quyosh kech chiqardi.

Zaynabxon hamon o'sha «G'alaba» kolxozida partkom bo'lib ishlar, haftada yo o'n besh kun-da, xaltada bug'doymi-unmi, xurjunda so'yilgan echkimi, qo'ymi yuborib turar, o'sha kuni o'zi ham yetib kelardi, goh yakka o'zi, goh Jalolov bilan. U kelganda uyda bayram bo'lardi, yaqin qo'shnilar – Norqul aka bilan Ro'zi xola ham kelishar, xontaxta atrofida davra qurib o'tirishar, Jamshid bilan Umida esa, Zaynabxon ga yaqinroq yerdan joy olib, bir-biriga «o'rtoq» deb murojaat qilar, ota-onalar kulta, xafa bo'lishar, lekin yana ota-onalarining o'zi ularni ovutishardi: «O'rtoqsizlar, albatta o'rtoqsizlar». Muslima buvining bo'lsa lablaridan kulgi arimas, goh mehmonlar oldida, goh o'choq boshida uymalashardi. Albat-ta, Zaynabxonning o'zi yakka kelganida Muslima buvi shundoq bo'lardi. Jalolov bilan kelgani-da esa, kampir bir narsasini yo'qtganday yerga qarab yurar, qiziga gapirmas, lekin unga dardli qarab-qarab qo'yardi.

Birinchi yomg'ir yog'ib o'tib, havoda qurigan o'tlar va qovjiragan xazonlarning talx hidi anqib turgan bir kuni Zaynabxon Jalolov bilan chosh-gohda kirib keldi. Jamshid odatdagicha irg'ish-lab, Muslima buvi tumshayib qarshi olishdi. O'tirib ovqatlanishgach, Zaynabxon Jamshid-

ni o'ynagani chiqarib yubordi-da, uchalasi xoli qolib, allanarsalar haqida xo'b gaplashishdi, o'ylashishdi, maslahat qilishdi.

– Birovning bolasiga birovning otalik qilishi qanday ish ekanini men tushunaman, momo! – dedi nihoyat Jalolov dasturxonda tagi bilan aylantirib o'tirgan piyolasining ustiga kaftini bosib. So'ng kaftidagi piyola qoldirgan aylana iziga qarab oldi-da, kampirga boqdi. – Lekin birovning bolasiga birovning onalik qilishiyam bor: mening ham farzandim bor... Bularni ham o'ylab ko'rdik.

* * *

Kampir tashqariga chiqdi. O'choqdagi lang'llab yonayotgan olov qarshisida cho'nqayib o'tirgan Jamshid qo'lidagi uzun cho'pni ichkariga suqib nimadir qilar, kular edi. Kampir uning yoniga bordi. Shohsupa labida to'ntarib qo'yilgan katta tosni olib, tagidagi palosni yozdi, oyog'ini yerdan uzmay omonatgina o'tirdi.

– Momo, bunga qarang, – dedi Jamshid va qo'lidagi cho'p bilan qozonning olov yalayotgan qop-qora tagiga aylana chizdi. Chizilgan yerdan bodrab-bodrab, qip-qizil uchqunlar chiqdi va tit-rab-titrab o'chdi. Kampir kulimsiradi.

– Endi munga qarang! – Jamshid cho'pni o'tga tutib yondirdi-da, havoda aylantirdi. Havoda ham qip-qizil doira paydo bo'ldi. Qizig'-a?

Kampir bosh irg'adi. Shu payt Jamshid bu-visining xira ko'zlarida o't aksini ko'rди. Yax-shiroq tikilgan edi, o't o'rnida yosh yiltillayot-ganini payqadi.

– Momo-o? – Jamshid suzilib o‘rnidan turdi. Momo qo‘lini yengi ichiga tortib, yengini ko‘ziga bosdi.

– Momojon? – cho‘pni otib tashlab, buvining yengidan tortqiladi Jamshid. – Kim urishdi? Yig‘lamang.

– Yo‘q-yo‘q, qo‘zim, yo‘q, – dedi Muslima buvi va yengi bilan burnini qisib tortdi-da, ko‘zlarini pirpiratib kulimsiradi. – Hech kim urishgani yo‘q. Kim urishadi? O‘zim... Qarilik qursin.

Jamshid sovuqdan junjikkanday qunishib il-jaydi. Kampir yengini shimarib, supadan tushdi. Yog‘ singiyverib qorayib yiltirab ketgan tuvoqni ko‘tardi. Zaynabxonlar keltirgan qo‘y go‘shti qaynayotgan sho‘rvadan xushbo‘y, issiq bug‘ko‘tarildi. Muslima buvi tuvoqni qozon chetiga joylashtirib qo‘ydi-da, yog‘och qoshiqda sho‘rvadan jindak olib kaftiga tomizdi, so‘ng kaftini yalab, tamshanib ko‘rdi. Tuvoqni yana qozonga bostirib qo‘ydi-da, o‘t oldiga cho‘nqaydi, yonboshida uyib qo‘yilgan namxush cho‘plarni tizzasida qayirib sindirib, o‘tga tashlayverdi. Jamshid ham buvisiga o‘xshab cho‘nqayib oldi-da, cho‘plarni tiz-zachasida qayirib sindirib, o‘tga ota boshladi.

– Jamshid, shu kishini yaxshi ko‘rasanmi? – so‘radi buvi ishidan to‘xtamay.

– Qaysi kishini? Rayis amakinimi?

– Ha.

– Yaxshi ko‘raman. Tilovni – yo‘q.

– Otayam qilasanmi?

Jamshid cho‘pni tizzasiga bosganicha buvisiga boqdi. Ota so‘zini kam eshitardi u. Lekin bi-

lardiki, uning ham otasi bo'lgan, «nemislar» bilan urishgani ketgan. Lekin hozir qayerdadir va qaytib keladi bir kun. Jamshid uni tanimaydi, to'g'ri. U ketganda bu juda kichkina, beshikda bo'lgan. U ketayotgan kuni momosi Jamshidni ko'tarib borgan. Otasi Jamshidni osmonga irg'itib: «Men kelaman. Sen katta bo'lasan», degan. Uning sochi jingalak-jingalak ekan. Lekin Jamshidniki jingalak emas. Onasinikiga o'xshab yumshoq, silliq.

- Ota qilasanmi?
- O'zimning otam-chi? Bor-ku?
- Kampir qo'lidagi cho'pni o'tga irg'itdi. Tumshaydi.
 - U otang yo'q. Endi shu odam senga ota bo'la-di... O'zingning otang bo'ladi.
 - O'zimning otam... Bu kishi o'xshamaydi-ku, u otamga?
 - O'xshaydi. U otang ham shu kishiday edi.
 - Yo'q-yo'q. U kishining sochi jingalak-jingalak bo'lgan.
 - Bu kishiyam soch qo'ysa shunday bo'ladi.
- Jamshid o'tga tikildi. O't to'lg'anib qozon tagini yalar, o'zi qizil bo'lsa-da, qozon tevaragidagi tuynukchalardan qora tutun bo'lib chiqardi.
 - Nimaga u otam kelmaydi-ya?
 - Katta bo'lsang bilasan, – dedi Muslima buvi.
 - Katta bo'lsam... Rayis amakiday katta bo'lsam, keyin bilaman-a?
 - Ha. Endi u kishini rayis amaki dema. Ota de.
 - Ota... Yo'q, rayis amaki – yaxshi. U kishi rayis amaki-ku?

- Bas endi. Bor o'yna.
- Jamshid o'rnidan turdi-yu, tappa cho'nqaydi.
- Momo, momo? Endi onam bilan... rayis amakim o'rtoq emasmi?
- Muslima buvi chuqur xo'rsindi.
- Yo'q.
- A, nima bo'lmasam?
- Bor, o'ynagin endi. Bola degan har narsani so'rayvermaydi.
- Ha, ayta qoling. Keyin bittayam so'ramayman. Nima bo'ladilar?
- Uf, qo'yamading-da. Aqling yetmaydi baribir.
- Mayli yetmasa, mayli.
- Er-u xotin bo'ladi. Bildingmi?
- Jamshid bir muddat o'ylanib turdi-da, cho'loq-langanday bir-bir bosib, darvoza tomon yo'naldi.

* * *

Umida chorbog'lari etagida uzun kaltak bilan xazon qoqar, paxmoq quyrug'iga sap-sariq barglar yopishib qolgan ikki yashar qo'chqor chilviri ni sudrab, yerga tushgan xazonlarni bir chekkadan yamlab borardi.

Umida kaltakning uchini shoxga suyab qo'yib, Jamshidning oldiga keldi. Ko'zi bilan qo'chqorga ishora qildi.

- Ko'rdingmi, otam oberdi. Yana oberadi.
- Otam... – pichirladi Jamshid va javdirab Umidaga qaradi. – Mening otam kelmas ekan.
- Kelmas ekan? Nimaga?
- Katta bo'sang bilasan, deydi momom. Endi Tilovning otasi otam bo'lar ekan. Endi u kishi onam bilan o'rtoq emas. Endi er-xotin bo'larkan.

- I-i, – Umida Jamshidga achinib qaradi.
- Umida, er-xotin degani nima-ya?
- Bilmasam. Mana, otam bilan onam er-xotin.

Kechasi birga yotadi.

- U-u! Onam ham men bilan yotmas ekan-da, endi?

- Ha-da, endi eri bilan yotadi-da!
- E-e, yomon ekan, Umida, yomon. Men onamni judayam yaxshi ko'raman.
- Men ham onamni yaxshi ko'raman.
- Yomon ekan er-xotin bo'lish... Umida, Umida, – Jamshid birdan jonlanib, Umidaning qo'llidan ushladi, – katta bo'sak, biz ham er-xotin bo'lar ekanmiz-da?

- Nimaga?
- Mana, rayis amaki bilan onam o'rtoq edi-ku!

Biz ham o'rtoq-ku!

- Ha-a. Gaping chin, Jamshid.
- Yomon bo'ldi endi, Umida, ke, katta bo'sak, er-xotin bo'lamic-u, birga yotmaymiz.
- Yo'q, unaqa bo'lmaydi. Bir kuni onamga, men bilan yoting, deb edim, urishib berdilar. Bo'lmaydi.

- Hay, oshiq-ma'shuqlar! – ayvondan qichqirdi Ro'zi opa. – Bas endi, ertagayam qoldiringlar!

Umida kaltakni oldi. O'rikning qontalash barglari yana havoda dildiray boshladи. Loxonada devor taglaridagi qolgan-qutgan barglarni terib yeb yurgan qo'chqor ipini shitirlatib, buyoqqqa chopdi.

Ro'zi xola uyga qaytib kirgach, Umida kaltakni yerga qo'yib, yana Jamshidning yoniga keldi.

- Endi nima qilamiz, Jamshid?
- Jamshid xo'rsindi va birdan jiddiylashdi.
- Endi gapirmaymiz, Umida, uyat bo'ladi.
- Kichkina bola ko'p gapirmaydi.

* * *

Jamshid uyg'a kelib:

- Onajon, men Umida bilan o'rtoq bo'p yuraversam maylimi? – dedi.
- Haliyam o'rtoqsizlar-u? – dedi Zaynabxon.
- Yo'q, hammavaqt. Ka-atta bo'lganimizdayam.
- Mayli, undan katta bo'lganlaringdayam.
- Keyin er-xotin bo'l, deb urishmaysizlarmi?
- Zaynabxonning ko'zлari katta-katta ochilib ketdi.
- Nimalar deyapsan? Qayerdan topding bu gapni?

Jamshid yig'lashga shaylandi.

- Ha, o'zлaring bo'ldilaring-ku... er-xotin.
- Zaynabxon qo'llarini qovushtirib soniga qo'yganicha jim qoldi. Derazaga qarab oldi. So'ng boshini xiyol ko'tarib, siniq kulimsiradi.
- Sizlar o'rtoq bo'lasizlar. Har doim o'rtoq bo'lasizlar. Er-xotin degan gapni ikkinchi og'zingga olma, xo'bmi?

- Xo'b. Endi rayis amakim... otam-a?

Zaynabxon yana bo'shashib ketdi.

- Ha.
- Men u kishini ota deymi endi?
- Ha.
- Endi o'zimning otam kelmaydi-ya?
- H-ha.
- Katta bo'lsam, keyin bilaman-a, nimaga kelmadilar?

– Ha, ha, ha! – Zaynabxon birdan Jamshid-ni quchoqlab, bag‘riga bosdi. Jamshid bo‘yniga, huv dashtda quyosh chiqib turgan kuni yoqqan yomg‘irday iliqqina tomchi tushganini sezdi.

* * *

Tushga yaqin Norqul aka, Ro‘zi xola, Parda cho‘loq va Salim novvoylar – yaqin qo‘ni-qo‘shnilar kelib qolishdi. Oppoq soqolining uchlari sarg‘aygan Salim novvoy uy biqinidagi tandirda bir talay non yopdi. Norqul aka mehmonxonada sabzi to‘g‘radi. Parda cho‘loq bo‘lsa shohsupsa pastida likonglab o‘choq qazidi. Ro‘zi xola bilan Muslima buvi guruch tozaladilar, yong‘oq chaqib, mag‘zini po‘chog‘idan ajratdilar va erkaklarga choydan qarashib turdilar. Zaynabxon esa chuchvara qovurdi: karam, qizil lavlagi va tuzlangan bodringni to‘g‘rab, bir lagan gazak tayyorladi. Keyin uyg‘a kirib, allaqancha taqsimcha va vazalarga qand-qurs joyladi. Kechki payt Jamshidlarning dashtga ko‘chishida ham birga bo‘lgan o‘sha ikki barvasta yigit bitta hisori qo‘y bilan bitta oq echkini haydab kelishdi. Jalolov bilan uchovlashib so‘yishdi, supada o‘tirib, katta supra ustida nimtalashdi.

Jamshid bilan Umida kattalarga o‘ralashib yurar, ish buyurishsa, chopib-chopqillab qilishar, arzimagan narsalardan ham kulishar, quvonishardi. Odamlar ketib, Umida ham ketib, onasi va bo‘lg‘usi otasi bilan qolgach, Jamshid o‘ziga keldi. Onasini poylashga tushdi. Ona Jalolovga odatdagicha mehmonxonada, u bilan ikki yigit-

ga yonma-yon joy solib qaytib keldi va Muslima buvi to'shab qo'ygan o'ringa kirdi.

– Ke, nimaga qarab turibsan, Jamshid?

Jamshid qora triko kitelini yechib tashlab, tezgina onasining qo'yniga kirdi, uning mayin sochlari to'zg'ib tushgan bo'ynidan mahkam quchoqlab oldi. «Qachon siz rayis amaki... otam... bilan yotasiz-a?» deb so'ramoqchi bo'ldiyu, onasining bugungi «uyat» degani esiga tushib so'ramadi.

Ertasi ertalaboq yana qo'ni-qo'shnilar kirishi. Kechqurun esa, allaqancha: biri Jamshidga tanish, biri notanish mehmonlar keldi. Shu kecha ikki uyda allamahalgacha bazm-ziyofat bo'ldi. Jamshid xizmat qilib yurgan onasining yotishini kuta-kuta shundoq deraza tagida, taqir gilam ustida uxbab qoldi. Ertalab yumshoq o'rinda, onasining qo'ynida ko'rdi o'zini.

Tushdan keyin Zaynabxon o'z oti jiyronga, Jalolov qora to'rig'iga minib, dashtga qaytib ketdilar.

IV

Oradan to'rt yil o'tgach, dashtdagи «G'alaba» kolxozi bilan Jamshidlarning qishlog'idagi kolxoz qo'shilib bitta bo'ldi va Sangardak markaz etib tayinlandi. Kolxozlar qo'shilganda rahbarlarning yarmi u kolxozdan, yarmi bu kolxozdan bo'lishi rasm. Zaynabxonni o'z o'mida – partorgligida qoldirib, Jalolovni bog'ko'chadan chiqaverishda, machitning ro'parasida joylashgan jun qabul qilish punktiga mudir etib tayinladilar.

Zaynabxon yana dashtdan ko'chib keldi. Bu safar Jalolov bilan yuklarni esa, o'tgan safargiday eshaklarga emas, mashinalarga ortib kelishdi. Ular o'zлari bilan Tilovni ham olib keldilar.

Bu vaqtida Jamshid bilan Umida to'rtinchi sinfda o'qishar, bir-biriga hamon «o'rtoq» deb murojaat qilishardi. Yetimtepaga ham chiqib turishardi. Lekin endi bir vaqtlargidek ismalоq terish yoki tomosha qilish uchun emas, Naim akaning qabriga gul qo'yish uchun. Chunki endi ularning o'zi – pioner. Endi Naim akaning kimligini ham bilishadi. Fuqarolar urushining qahramoni, o'n sakkiz yasharli yigit ekan. Jamshid endi o'z otasining nimaga qaytib kelmaganini ham bila-di. Chexoslovakiya uchun bo'lgan jangda 1945-yil 9-mayda halok bo'lgan ekan. Qabri Pragadagi «Sovet jangchilari mozori»da, chex pionerlari u kishining ham qabriga gul qo'yib ketishar ekan. Lekin Jamshid Jalolovni «ota» deya boshlaganiga ikki yildan oshdi.

Jamshid Tilovni ko'rishi bilan dashtni, dasht bilan bog'liq xotiralar va dasht odamlarini ko'rgan-day bo'ldi. Barcha ginalarni unutib, uning qarshisiga chiqdi. Ammo Tilov unga hurkib-hurkib qarab, otasining yoniga o'tdi va qaytib Jamshidga ro'para bo'lmasdi. Shu kecha ikkalasi-ga mehmonxonada bitta joy solib qo'yishgandi, Tilov o'ringa kirdi-yu, Jamshidga teskari qarab yotdi. Ertasiga Zaynabxon bilan Jalolov Tilovni do'konga opchiqib, unga Jamshidnikidek paxmoq shim, qora tuflи va kitel olib berishdi. Indiniga esa, maktabga olib borib, beshinchи sinfga joylashtirib kelishdi.

Ammo Tilov beshinchi sinfga uch kun qatnadi-yu, to'rtinchi kuni rus tili o'qituvchisi bilan urishib qoldi. Dashtda unga armiyadan kelgan bitta hamqishlog'i dars bergan edi rus tilidan. «Yaxshiroq tayyorlanmasang, to'rtinchiga tushirib qo'yaman», – dedi o'qituvchi. Tilov indamadi-yu, ikkinchi kuni o'zi Jamshidlarning sinfiga – to'rtinchiga tushib, orqa partada o'tirib oldi. O'qituvchilar gapirishdi, maslahat berishdi, unamadi... Darsdan chiqqach, Jamshidga qaramay uyga ketdi.

Muslima buvi ancha kungacha hayron bo'lib yurdi. «Nahotki, uyli-joyli, o'ziga yarasha obro'li shunday kishi ichkuyov bo'lib keldi?» der edi o'ziga o'zi. Jalolov esa, beparvo, o'zini erkin tutar, faqat bir uyidan ikkinchi uyiga ko'chib o'tganday edi. Nihoyat, Muslima buvi: «Fe'l keng ekan», deb o'yladi va kuyovi ma'qul tushdi unga.

* * *

Bir kuni tanaffus mahali Jamshid Mansurning qandaydir kitobchani qiziqib varaqlayotganini ko'rib qoldi. Kitobning muqovasida bir kampirni quvib borayotgan ajdarho rasmi solingan, uning tagida «Ikki sandiq» deb yozilgan edi.

– Bir ko'ray, – dedi Jamshid.
– Umidaning oldiga bor, o'tog'ingning, – dedi Mansur.

– Bu kitobdan do'konda ham bor, – deb qoldi qizlardan biri. – Ikki so'm.

Jamshid burila solib, hovlidan chiqdi. «Temirchixon», «Sartaroshxona» yonidan o'tib, novcha-novcha oq qarag'aylar tagida uzun ket-

gan «Qishloq yig‘inining idorasi»ga qarab chopdi. Taxta zinadan ko‘tarilishi bilan qo‘lida chelak, oldiga kir peshgir tutgan farrosh ayolga duch keldi.

- I-i, Jamshid? – dedi u. – Nishliysin munda?
- Onam... – dedi Jamshid.
- Hakimabadga ketgan.

Jamshid iziga qaytdi. Maktabda dars boshlanib ketgani aniq edi. Uylariga burildi.

Tushlikka chiqib kelgan Jalolov bir kosa qatiqqa non to‘g‘rab yeb o‘tirardi.

- Darsing tugadimi? – so‘radi u.
- Yo‘q. Onam kelmadimi?
- Nima edi?
- Hech nima.

Jalolov birdan qah-qah otib kului.

– Tilov qachon darsda och qolsa, indamay chiqib, uyga kelaverardi. Qorning ochdimi?

- Yo‘q, – dedi Jamshid va piqillab yig‘lab yubordi.
- Jalolov uning qo‘lidan tortib, yuziga tikildi.
- Nima bo‘ldi, o‘g‘lim?
- Kitob olmoqchi edim, ikki so‘m kerak edi, – pichirladi Jamshid.
- Seni qara-yu! – Jalolov chorpoya suyanchig‘iga tashlab qo‘ygan galife shimin olib, cho‘ntagidan pul chiqarib, Jamshidga berdi. – Bor, o‘g‘lim, ol.

Biroq Jamshid qo‘zg‘algan edi, uni tutib, o‘ziga qaratdi.

- Nega mendan so‘ray qolmading, o‘g‘lim? Yo meni yomon ko‘rasanmi?

Jamshid titrab ketdi.

– Yo‘q, ota, – dedi pastdan mo‘ltirab. Jalolov uni dast ko‘tarib, peshonasidan o‘pdi.

Jamshid maktabdan qaytib kelgach:

– Ona, kitob oldim... otam pul berdilar, – dedi. Eski paypog‘i bilan amirkon etigining changlarni artayotgan Zaynabxon buni eshitib, Jalolova qaradi. Jalolov kulimsirab bosh irg‘adi. Orqada kelayotgan Tilov bo‘lsa, serryayib turib qoldi. Shohsupaga ham burilmay, to‘g‘ri uyg‘a kirib ketdi. Jildini burchakka uloqtirib, deraza rafiga o‘tirdi.

– Tilovjon.

Tilov boshini ko‘tarib, qarshisida Zaynabxonni ko‘rdi.

– Nima bo‘ldi?

– Hech nima!

– Pul beraymi, kitob olasanmi?

– Kerak emas! – Tilov uydan chiqib, otasining oldiga bordi.

Jalolov gugurt cho‘pi bilan tishini kovlab, bog‘ning adog‘iga qarab turardi.

– Qara, ukang kitob o‘qiyapti, – dedi u.

– Ukam... – pichirladi Tilov va qayrilib darvoza tomon chopib ketdi. Darvozaxonada ko‘zini chaqchaytirib turgan qora to‘riqqa ro‘para bo‘ldiyu, ho‘ngrab yubordi. So‘ng oxurga suyanib, hasrat bilan otning ko‘zlariga boqdi. Narida somon chaynab turgan jiyron ham boshini ko‘tardi.

* * *

Jamshid bog‘ adog‘ida, qip-qizil bo‘lib pishgan tog‘olcha tagida yuzturban yotib kitob o‘qirdi... O‘qib tugatganidan keyin ham xiyla kitobdan bosh ko‘tarmay qoldi.

Kitobda badjahl o'gay ona qo'liga tushgan Zumrad ismli qizchaning sarguzashtlari hikoya qilinardi.

O'gay ona Zumradga kun bermaydi: hamma ishni unga buyuradi. U suv tashiydi, u uyni supuradi-sidiradi, u kir yuvadi – hamma ishni o'zi qiladi. Ammo o'gay onadan bir og'iz ham iliq so'z eshitmaydi. O'gay onanинг chin qizi Qimmat esa, uzoq uyda yotadi, hech ish qilmaydi. Istagan ovqatini yeysi, arzanda... Zumrad faqat o'rmonga, suvgaga borganidagina biroz yayraydi. Chunki o'rmonda uning do'stlari bor: gullar, qushlar, kapalaklar...

Jamshid kitobdan boshini ko'tarib, atrofga qaradi. Daraxtlar. Osmon. Daraxtlar orasidan tog'ga uzoqda o'tlab yurgan qoramol galalaridek archazorga ko'zi tushdi-yu, birdan jonlandi, balki kitobdag'i voqealar shu o'rmonda o'tgandir? Balki Zumrad hozir ham shu o'rmondadir. Balki u ham mакtabda o'qir?

Jamshid asta o'rnidan turdi-da, kitobni tishida tishlab, olchaga chiqdi. Undan devorga o'tib, ko'chaga sakrab tushdi. Umidani topib, kitobni ko'rsatdi.

– O'qidingmi? – so'radi Umida. Jamshid bosh irg'adi.

– Qiziqmi? Aytib ber.

Jamshid aytib berdi.

Umida daf'atan toshdek qotib eshitdi, so'ng kitobni yulqib oldi-da, o'qishga tushdi. O'qib bo'lib, kipriklarini pirpiratdi va:

– Mening ham Zumrad bo'lgim kelyapti, – dedi g'uborli kuz osmoniga boqib. – Men ham o'rmon-

larda yursam... onam urishsa... gullar salom berishsa menga.

Jamshid gangib unga qaradi va birdan xayoli alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Ertakdag'i voqealar bilan o'z oilalari orasida bir o'xhashlik ko'rganday bo'ldi. O'gay onani – Zaynabxon, o'zini Qimmatga, Tilovni esa Zumradga o'xshatdi. O'xshatdi-yu, qo'rqib ketdi. «Yo'q, mening onam unaqa emas, mening onam yaxshi! Men ham Qimmatga o'xshamayman! Tilov ham Zumradga o'xshamaydi!.. Hech birimiz ularga o'xshamaymiz. Lekin Tilov nega shunaqa-ya? Nega u meniyam, onamniyam yomon ko'radi? Yo onam...»

Jamshid uyga qaytib kelganida chorpojada onasi, otasi va Tilov o'tirardi.

– Bolam, seni shu Jamshiddan kam ko'rsam, niyatimga yetmay, – der edi Zaynabxon Tilovga.

– Qo'y, qasam ichma, – der edi Jalolov. – Tilov, o'g'lim, men sening otang bo'lsam, mana shu kishi sening onang bo'ladi. Mana bu Jamshid bo'lsa, ukang bo'ladi. Bu uy, bu bog' sening ham uying, bog'ing. Bunday begonasirama, o'g'lim.

Tilov indamadi.

– Qani, ovqatga qara. Jamshid, o'tir sen ham.

Ota-onalar ishga ketgach:

– Aka, bu kitob qiziq ekan, o'qiysizmi? – dedi Jamshid Tilovga.

Tilov kitobni beparvolik bilan qo'liga oldi va uyoq buyog'ini ko'rib, qaytarib berdi.

– Hozir dars tayyorlayman.

– Oldin o'qiy qoling.

– Aytdim-ku, dars tayyorlayman! – Tilov darsi ni tayyorlaganidan keyin ham o'qimadi.

Faqat kechasi, Jamshid uxlaganidan keyingina asta o'rnidan cho'kkalab chiqib, Jamshidning jildini ochdi, kitobni oldi, chiroqni pasaytirib qo'yib, o'qiy boshladi. O'qib bo'ldi-da, yuzini yostiqqa bosdi va o'ksib-o'ksib yig'ladi.

Ertalab Tilov odatdagicha Jamshiddan oldin maktabga jo'nadi. Ammo darvozadan chiqdi-yu, muyilishga o'tib, g'o'dayganicha turib qoldi.

– Ha, Tilov? – dedi Jamshid.

– Anavi yerda it bor ekan, – dedi Tilov.

It uchramadi. Yo'lda bularga Umida ham qo'shildi. Bu – Tilovning birinchi yurishi edi ular bilan.

Shu kuni darsdan so'ng o'quvchilarni mashoq terishga olib chiqishdi. Hamma kombayndan to'kilgan mashoqlarni terish bilan band ekan. Tilov kombayn chiqolmaydigan tepalikda, chaylada tushlik qilayotgan kolxozchilardan birining o'rog'ini olib, bug'doy o'rishga tushib ketdi. Ko'p o'rdi, charchaguncha o'rdi. Bu ishda yosh bo'lishiga qaramay tajribali ekanini ko'rsatdi. Ni-hoyat, charchab, lablariga yopishgan qipiqlarni artib kelarkan, Jamshid unga peshvoz chiqib, bir krujka iliq suv tutdi. Umida esa, bir parcha non.

– Balo ekansiz-ku! – dedi Jamshid.

– Dashtda ko'p o'rardim... uka, – dedi Tilov.

Uyga kelishlari bilan Jamshid ota-onasidan suyunchi oldi:

– Ota, ona! Tilov akam o'roq o'rib, hammani qoyil qildilar.

– Bobosi dehqon o'tgan, – dedi Jalolov.

– Ishchi o‘g‘illarimdan aylanay-da, – dedi Zaynabxon. Dasturxon boshiga o‘tirgach, ota Tilovga zimdan razm solib, Zaynabxonga gap qotdi:

– Agronom bo‘ladigan kelbati bor-a?

Zaynabxon Tilovga zavq bilan qaradi va Jamshidga ko‘zi tushib:

– Bu bo‘lsa, shoir bo‘ladi, – dedi. – Kitobni ko‘proq o‘qi.

Bu ikki og‘iz gap qo‘qqisdan aytilgan bo‘lsa ham, bolalarga ta’sir qildi. Ertasiga Jamshid onasidan ikki so‘m pul olib, mакtabдан chiqqach, to‘g‘ri kitob do‘koniga kirdi. Anchagacha «qaysini olay?» deb tokchalarni ko‘zdan kechirdi va nihoyat yana o‘sha «Ikki sandiq» kitobidan bitta olib, uyg‘a qaytdi. Yo‘lakay Umidani chaqirib:

– Sen kim bo‘lasan? – dedi.

– Men? Men hech kim bo‘lmayman, – dedi Umida kulib. Tilov esa bu vaqtida shohsupa yonida Yetimtepaga qarab turar, «shu yerga bug‘doy ekishsa, men o‘rsam», der edi.

Oradan yana besh yil o‘tdi.

V

Bu yillarda Tilov bo‘yga kam o‘sdi, yo‘g‘on tortdi. Jamshid bo‘lsa, xivichday ingichkalab ketdi. Umida esa, o‘rtal bo‘y bo‘ldi, to‘lishdi.

Zaynabxon bilan Jalolovda keksalik alomatlarini ko‘rinib qoldi. Uzoq yili Muslima buvi vafot etdi. «Qabrimga shu bog‘imdan bir tup ko‘chat ekinglar», deb vasiyat qildi boyoqish. Bog‘ni asrash, uni parvarish qilishni tayinladi. Yana sal vaqt o‘tmay, xususiy ot asrash man qilingani

haqida qonun chiqdi-yu, bo'ksasi ko'rinib qolgan jiyyronni yaydoq qilib, go'shtga haydab ketdilar. Bu ikki g'am bir bo'lib Zaynabxonni ancha cho'ktirib qo'ydi.

* * *

Qish. Bog'ko'cha tinch, oppoq. Qor bosgan daraxt shoxlari, tom bo'g'otlari, pastdan qara-ganda, oppoq osmonga qo'shilib ketganday ko'ri-nadi. Ko'cha yuziga egilgan olma shoxiga dumi va ko'kragi ho'l musicha qo'ndi. Shox silkinib, oppoq zarlar duv to'kildi. Musicha qanotlarini yig'ib, hurpayib bir zum turdi-da, oyog'i sovqot-dimi, nariga surildi. So'ng yana surildi... nihoyat, pirillab uchdi. Yana oppoq zarlar duv to'kildi.

Jamshid, Umida va Tilov maktabdan qaytib kelishardi.

– Yaxshi-ya? – dedi musichaga ishora qilib Jamshid, nimpaltosining serjun yoqasini ko'tarib og'zini berkitib olgan Tilov, shunday bo'lsa kerak, deganday bosh irg'adi. Umida bo'lsa, yoni-dagilarga zimdan qarab oldi-da, lablarini qimtib, ichida kuldil. Olma tagidan o'tisharkan, shayton qiz sakrab shoxni ushladi-da, tortib qo'yib yubordi. Shoxdag'i qor duvillab pastga quyildi. Umida kulganicha oldinga qochdi. Jamshid chetga qochdi, qunishib kelayotgan Tilov bo'lsa, qocholmay qoldi. Hamma qor uning ustiga tushdi.

– Tinch yurmaysizlar-da, – dedi Tilov g'ijinib va yelkasini ham silkitmay, qorini ko'targanicha yurib ketdi...

Jamshid yelkasini qisdi. Umida burnini jiyirdi.

– Jamshid, shu Tilov xuddi Tixonga o'xshaydi,
– dedi Umida.

- Kim u Tixon?
 - Katerinaning eri-chi? To'ng. Gap bilmaydi.
 - Ha-a.
 - Jamshid, xudo ursin, mening Katerina bo'l-gim keladi.
 - Tixon ham tayyor, – kuldi Jamshid.
 - Hazil emas. Uyog'ini aytsam, Jamilayam bo'lgim keladi. Biz u zamonlarni yomonlaymiz-u, lekin u zamonlarda sarguzashtlar ko'p bo'lgan. Katerina-ning qo'rqliklari, monologlari qanday yaxshi.
 - Men sovqotdim, Umida.
 - Eshitgingiz kelmaydi-ya?
 - Chunki, Umida, har kimga ham o'xshashni orzu qilmaslik kerak-da, menimcha. Tashla shu odatni.
 - Bilaman, lekin tashlolmasam nima qilay?
 - Sen sovqotmadingmi? Aytmoqchi, qizlarning qirqta joni bo'ladi-ya.
 - Shu rost bo'lsa, qirqtasini ham senga berar-dim, Jamshid.
 - Rahmat, men ketdim.
U to'ng'illab o'tiradi.
- Umida Jamshidning orqasidan o'ychan qarab qoldi.

* * *

- Ukang qani? – so'radi Zaynabxon pechga ko'mir solar ekan.
 - Kelyapti, – g'udulladi Tilov.
 - Sovuqqa chidaming yo'g'-a, o'g'lim?
 - Ha.
- Jamshid keldi. Zaynabxon o'g'llarining oldiga, ustiga shakar sepilgan shirguruch suzib qo'ydi...

Jamshid miyig‘ida kulib, Tilovga qarab-qarab qo‘yar, Tilov bo‘lsa qaramas, g‘o‘dayib ovqatni tushirardi. Choyni ichib bo‘ldilar ham, bir-biriga gap qotishmadi. Nihoyat:

- Aka, bo‘ldi endi, kechiring uni, – dedi Jamshid, – hazil qildi-ku u.
- Hazil... – Tilov Jamshidga xo‘mrayib qaradi.
- Nega uning uchun sen kechirim so‘raysan?
- So‘rasam nima qipti?
- Nima qipti... – Tilov turib yechindi, borib divanga cho‘zildi.

Divanning sarg‘ish kleyonka qoplangan bo‘lishi muzdakkina edi. Tilov uzanib karavotdan paryostiq oldi-yu, Jamshidga yalt etib qaradi. Nazarida, Jamshid, bir narsa deydiganday tuyuldi. Jamshid bo‘lsa yosh bolaga o‘xshab, sim bilan pechning tagini cho‘qilar, tushgan qip-qizil cho‘g‘larning asta-sekin qorayishini tomosha qilardi. Zaynabxon narigi uydan sariq jildli bir kitob ko‘tarib chiqdi.

- O‘rtog‘ing tashlab ketdi, Jamshid.

Kitob shu yil armanchadan tarjima qilingan V. Ananyanning «Sevan bo‘ylarida» povesti edi. Jamshid kitobni varaqlab, Armenning Lermontov yurgan so‘qmoqlarga qarab she‘r to‘qiganini onasiga hikoya qila boshladi. Tilov ularga zimdan tikilib turdi-turdi-da, teskari qaradi, yana kiyinib, eshikka chiqdi. Qipiqliq quruq qor yog‘ardi. «Haqiqatan ham sovuqqa chidamim yo‘q, – dedi o‘ziga o‘zi Tilov. – Dashtda bunaqa sovuqlar bo‘lmasdi». Supa pastidagi qor bosgan gulzorga qaradi. Bundan bir necha hafta burun

Zaynabxon: «Gullar ham bitdi. Yulib tashlanglar, ivirsib yotmasin», – degan edi. Tilov yula boshlaganda, Jamshid kelib qolgan, yulgani qo'ymagandi... Yo'lakka engashib turgan rayhonga qaradi Tilov. Rayhonni qor bosyapti. Rayhon egilib boryapti. Bir payt uning yelkasidagi qor sirg'alib tushdi-yu, shoxlari qimirlab ketdi. Butkul qori to'kildi. Yalang'ochlanib qolgan rayhon bir-ikki lapanglab, yana tinch qoldi. Yana uni qor bosa boshladi. Tilov uni kuzatib turarkan, go'yo o'zining ham yelkasidan nimadir bosayotganday allanechuk qimirladi va jiddiy tortib, uyga kirdi. Yuziga issiq havo urildi. Endi bu unga yoqimli tuyulmadi. Shu kuni Jamshid Tilovga bir necha bor gap qotdi. Ammo Tilov yolchitib javob bermadidi. Ertasi Jamshidga ham qaramay, mактабга ketdi. Yo'lakay Umidalarning darvozasi yonida bir to'xtadi-yu, keskin qo'l siltadi...

Ular hamisha darsdan chiqqach, maktabning baland qizil darvozasi yonida bir-birini kutib turguvchi edilar. Tilov bugun atayin hammandan orqada chiqdi. Lekin: «Ular kutib turadi», deb o'yladi. Maktabdan chiqaverib, darvozaga qaradi. Ular yo'lakda kutib turishardi. Tilov bir-bir bosib, zinadan tushdi, ularga qaramasa-da, ularning qarab turganini his etib, qori qirib tashlangan yo'lka bilan darvozaga yaqinlasha boshladi. Darvozadan chiqdi-yu, toptalgan kir qorga oyoq qo'ydi va xayolidan Umidaning kechagi «ishi» o'tdi... «Uni kechiring...» – dedi Jamshid... Tilov ularning yonidan qaramay o'tib, suvi muzlab qotgan ariqchadan hatlab, katta yo'lga chiq-

di. Ketarkan, ularning hozir o‘zi haqida nimani o‘ylashayotganini, nima deyishayotganini bilishga zo‘r berib urinardi. Nihoyat: «Meni so‘kishdi, dasht bolasi hazilni bilmaydi, deyishdi», degan xulosaga keldi-yu, tishlarini g‘ijirlatdi.

* * *

Aksariyat bolalar, qizlar mакtabga ilgari-roq borib, dars boshlanguncha hovlida yaxmalak otishar, qorbo‘ron o‘ynashardi. Tilov keyingi vaqtda ularga ham qo‘silmaydigan bo‘lgandi. Bir kuni bolalarning qiy-chuvi uni ham tashqa-riga olib chiqди.

Bolalar, qizlar navbat bilan yaxmalak otishar, faqat Umidagina bir chetda hovuchini og‘ziga tutib, og‘ir-og‘ir nafas olib turardi. Tilovni ko‘rdi-yu, qaqillab kuldi.

- Siz nega o‘ynamaysiz, Tilov? Xudo ursin, cholga o‘xshaysiz.
 - Cholman-da, o‘zim, – dedi Tilov.
 - Bo‘lmasam kampirga uylanasisiz.
 - Bu mening ishim.
 - Bo‘ldi endi. Buncha kekkaymang, – Umida sirpanib kelib, Tilovning tirsagidan ushladi. – Yuring. Menden xafasiz-a?
 - Nega?
 - Xafa bo‘lmang, Tixon, – dedi Umida iyagini oldinga chiqarib.
- Yo‘lda Tilov Jamshiddan so‘radi:
- Tixon nima degani?
 - Tixon? Tixon – Ostrovskiy pyesasidagi qahramon. Katerinaning eri. Umida sizni Tixon dedimi?

- Ha.
- Siz, Katerinam bo'l, demabsiz-da.
- Tilov indamadi. Biroz yurgach:
- O'zi yaxshi qiz bo'lib boryapti-ya, – dedi g'u-dullab.

Kechki taom ustida gap aylanib, Tilovning kayfiyatiga taqalgan edi.

– Nima bo'ldi, o'g'lim, kuyovbolaga o'xshab suzilib qolding? – dedi Zaynabxon. – Yo rostdan ham kuyov bo'lmoqchimisan?

– Qo'ying-e, opa, – to'ng'illadi Tilov, ammo qizari ketdi. Mehmonxonaga chiqdi.

Ilgari Jamshid ikkalasi mehmonxona biqinidagi avval ombor bo'lgan uychada turishardi. Lekin keyinchalik Tilov Jamshidni u yerda qoldirib, o'zi buyoqqa ko'chib chiqqan edi.

U uy o'rtasida birpas qaqqayib turdi-da, eshikka chiqib, Yetimtepaga qaradi. Tepa ko'rinas, u oppoq osmonga qo'shilib ketganday edi. Shu payt uycha ochilib, kul to'la xokandoz ko'targan Jamshid ko'rindi. Tilov unga hadiksirab tikildi. So'ng paxmoq yoqasini ko'tarib, supadan tushdi. Bir necha daqiqadan so'ng u, Parda cho'loqning hovuzi bo'yida kirza etigi bilan qorni titib, nimanidir qidirar va goh yelkasi ustidan, goh qo'lltig'i ostidan Umidalarning darvozasiga qarrardi. Darvozada tungi qorovulligiga ketayotgan Norqul aka ko'rindi-yu, Tilov yo'qotgan narsasidan umidini uzganday uyga qaytdi.

Ayvonga chiqayotib, Jamshidning xonasiga qarab, taqqa to'xtadi. Eshikni ochib, yop-yorug' xonaga kirdi. Jamshid tik turganicha stolga engashib, bir nimalarni yozardi.

Tilov asta yurib, uning oldiga bordi.

– Nima qilyapsan?

Jamshid kulimsirab, yozgan narsasini kaf-ti bilan berkitdi. Tilov uning she'r ekanini bil-sa-da, xayolidan negadir «xat» degan fikr o'tdi. «Balki Umidaga xat yozayotgandir? Axir, do'stim, do'stim degani bilan bu ham yigit-ku! – deb o'yla-di. – Bu ham sevishi mumkin...»

– Ko'rsat, – dedi Tilov.

Jamshid bosh chayqadi.

– Ko'rsat endi. Yeb qo'ymayman.

– She'r, – dedi Jamshid nihoyat. – Yomon.

Chiqmayapti.

– Lirikami?

– Shunday desa ham bo'ladi.

– Ko'rsat-chi.

– Aytyapman-ku, xom.

Tilov tirjaydi. Bu Jamshidga malol keldi. Kaf-tini olib, yozib chizilaverganidan aji-buji bo'lib ketgan qog'ozni u tomon surdi. Tilov she'rning faqat sarlavhasinigina o'qiy oldi: «Oppoq qor».

Xo'rsinib karavotga cho'kdi.

– Uka, sendan boshqa narsani so'ramoqchi edim.

– So'rang.

– Lekin sen rostini aytasan. O'tir.

– Xo'b.

– Sen... Umida bilan... shunchaki o'rtoqmisan... yo.

– O'rtoqmiz, aka, o'rtoqmiz.

– Faqat rostini ayt.

– Rost.

- Endi hammavaqt shunday o'rtoq bo'lib yuraverasizlarmi yo...
- Hammavaqt o'rtoq bo'lib yuraveramiz.
- Achchig'ing chiqmasin.
- Achchig'im chiqayotgani yo'q. Lekin siz Mansurga o'xshayapsiz-da.
 - O'xshashimning sababi shuki, men... men... o'zim Umidani... yaxshi ko'radiganga o'xshayman. Shuning uchun sendan rostini so'rayapman.
 - Rost, rost, aka, – dedi Jamshid tezgina. Lekin quti o'chdi. Garangsib Tilovga tikildi.
 - Xo'sh, bunga nima deysan?
 - Nima... nima derdim... yaxshi.
 - Qaltirayapsan-a?..
 - Qaltirayapman? Hech-da. Nimaga qaltirarkanman? Faqat... faqat...
 - Nima «faqat»?
 - Faqat... bu qiziq ish-da endi.
 - Nimasi qiziq?
 - Qiziq-da. Nega buncha savol berasiz?
 - Bilish kerak-da, uka, – kulimsiradi Tilov.
 - Bilsangiz shu.... Biz o'rtoqmiz! Tamom!
 - Tamommi?
 - Tamom!
 - Xo'b. Men uni yaxshi ko'raman.
 - Juda soz.
 - Qani endi she'ringni o'qi-chi.
 - O'qib bo'lmaydi.
 - To'xta, uka, a u yaxshi ko'rmayman desa-chi?

Unda nima qilaman?

 - Bilmasam.
 - Sen bo'lsang, nima qilarding?

- Aka...
 - Misol uchun-da.
 - Misol uchun... men indamay ketardim.
 - Hm... yo'q, uka, men indamay ketolmayman.
- O'zing o'ylab ko'r, bugun yaxshi ko'rmasa, ertaga yaxshi ko'rib ketishi mumkin-ku? Mana, misol uchun, yana o'zim: seni necha marta yaxshi ko'rib, necha marta yomon ko'rganman.

VI

Jamshid shu kecha allamahalgacha uxlolmay yotdi. «Nega axir, nega? – dedi o'ziga o'zi. – Menga baribir emasmi? Men axir Umida bilan o'rtoqman-ku! Ha. U ham meni shunday, o'rtoq deb biladi! Tamom!» Lekin yuragini qoplagan g'ashlik yana tarqalmadi. Turib, oyog'ini karavotdan osiltirib o'tirdi-da, kitoblariga tikila boshladi. Javonning eng chekkasidagi ikkita yupqa kitobchaga ko'zi tushdi-yu, izlagan narsasini topganday uni yul-qib oldi, karavotning qoshiga urib qoqdi, kafti bilan changlarini sidirib tashlab, tikildi: «Ikki sandiq». Barmoqlari birdan titradi. Ko'zlarini yumbib, jim qoldi. So'ng sekingina turib nimpaltsini egniga tashladi-da, eshikka chiqdi. Oy yaltirab turardi. Uning sarg'ish nurlari yalang'och daraxtlar orasidan o'tib, oppoq qorda cho'zilgan. Qorda yulduzchalar yonadi. Osmonda ham yulduzlar yonadi. Go'yo osmon ham shu yerdek oppog'-u, farqi: uning yonayotgan yulduzlariga ko'rindi. Ro'parada tol shoxi qimirlab ketdi, qor titilib to'kildi. Chirs etdi bir narsa – bo'g'otda sumalak sindi. Jamshid ayvon ustunidagi chir-

oqqa qarab, qorning yana donalay boshlaganini ko'rdi. So'ng qulqoq soldi: «shitir-shitir», «shitir-shitir» – qor sasi. So'ng yerga tikilib, yog‘ayotgan momiqlarning oq yuzdagi sepkilday soyalarini ko'rdi. Uyga kirib, oynaga qaradi. Sochlari oq, qoshlari oq, yelkalari ham oppoq. Peshonasi esa, ho'l. Hamma yeri yiltiraydi, yiltillaydi. Jamshid ko'zlarini yumib, boshini silkitdi. So'ng soviy boshlagan pechning qorniga qo'llarini bosib isitdi. Isigan kaftlarini yuziga bosgan edi, dimog‘iga zang hidi urildi-yu, qorning ham o'ziga xos hidi borligini his etdi. U hidni bir narsaga o'xshatmoqchi bo'lib xo'b urindi, lekin o'xshatolmadi. Nihoyat: «Dimoqni ochib yuboradigan isi bor», deb qo'ydi ichida. Kelib stulga o'tirdi. Yana «Ikki sandiq»ni olib tikildi va: «Zumrad, Zumrad», deb shivirladi. So'ng ko'rpga kirib, qattiq uyquga ketdi.

* * *

Ertasi uchovlon darsdan qaytib kelisharkan:

– Nega menga buncha tikilasiz? – dedi Umida Jamshidga.

Jamshid qizarib ketdi.

– Tikilganim yo‘g‘-u?

Shu payt Jamshidning biqiniga Tilov turtdi. Jamshid:

– Maktabda kitobim qopti-yu! – dedi-da, qayri-la solib jo'nab qoldi.

– Bunga bir narsa bo'lgan o'zi, – dedi Umida uning orqasidan hurpayib qarab. – Nima bo'ldi bunga, Tilov?

Umida yelkasini qisdi va chimirilib yo'nga tushdi.

Tilov atrofga ko'z qirini tashlab, shosha-pisha unga ergashdi.

- Yiqilib ketasan, astaroq yur.
- Sovqotdim juda, – Umida battar jadalladi.
- Xayr. – Darvozalarini yelkasi bilan itarib, ichkariga kirdi. Tilov nimqorong'i yo'lakda uning depsinib, tosh zinadan ayvonga ko'tarilganini ko'rди.

* * *

Tilov uyda qo'lini orqasiga qilib, plita pechga biroz suyanib turdi-da, qaytib tashqariga chiqdi. Jamshidning uyiga kirib, pechkasining kulini oldi, bostirmadan tarasha va xokandozda ko'mir olib yoqdi. Tutun chiqishi uchun eshikni ochib qo'ydi-da, stulga o'tirib, javondagi kitoblarni loqayd ko'zdan kechira boshladi.

Eshikda Jamshid ko'rindi. Oyog'ini «tap-tap» urib qorini qoqarkan, ichkariga mo'raladi:

– Ona! – Tilov qaddini rostladi. Jamshid kulib yubordi. – E, sizmisiz? – kirib eshikni yopdi. – Qorong'i-ya, – deya chiroqni yoqdi. Tezgina yechinib, qo'llarini bir-biriga ishqay-ishqay, kara-votga kelib o'tirdi. Xo'sh, nima bo'ldi? Gaplash-dilaringmi?

– Yo'q... aytolmadim... Jamshid, o'zing aytsangchi-a?

– Men? Yo'g'e, aka... Men uyalaman.

– O'z do'stidan ham uyaladimi odam? Xo'b, ana, uyalsang, men uchun uyalibsan-da, endi. Akang uchun. Yo akang emasmanmi?.. Uka,

agar ko'nglingda men bilmaydigan boshqa gaping bo'lsa, uni ayt... Men...

– Qo'ysangiz-chi!

– Bo'lmasam...

Jamshid ozg'in qo'llarini tizzalari ustiga qo'ydi.

– Bo'ldi. Aytaman.

– Ana bu boshqa gap...

«Baribir u kimnidir yaxshi ko'rishi kerak-ku!

– dedi Jamshid Tilov chiqib ketgach. – Balki Tilovni yaxshi ko'rib qolar...»

* * *

Maktabga ketishda yo Umidaning o'zi darvozalari yoniga chiqib, Tilov bilan Jamshidni kutib turar, yo ularning o'zi kelib, Umidalarning uyi orqasini dukullatishardi.

Bugun Umidaning o'zi chiqib ularni kuta boshladi.

Quyosh Yetimtepa o'rkachida ojiz, och sarg'ish nurlarini taratib, jimirlar, daraxtlarning uch-uchidagi muzlab qolgan qorlar yiltirardi.

Ko'cha burilishida Tilov ko'rindi. U yolg'iz o'zi.

– Jamshid qani? – so'radi Umida.

Tilov yelkasi ustidan kichkina ko'zlarini pirpiratib, orqasiga qaradi.

– Kelyapti.

– Siz boravering. Men uni kutaman.

Tilovning yapasqi iyagi birdan tirishdi. Sarg'a-yib, muzlab qolgan qorni qasir-qusur sidirib yurib ketdi. Lekin hovuzga yetgan yerda shart qayrildi, qayrildi-yu, yelkasini qisib allanechuk qimtinib turgan Jamshid va xo'mraygan Umidani ko'rdi. Jildini bir kishi tortib oladiganday,

qoʻltigʻiga mahkam qisib, boshini engashtirdi... Darsda ularning birortasiga ham betma-bet boʻlmadi. Tanaffus mahallari sinfga orqa oʻgirib, deraza tokchasiga suyanganicha, oynadagi qirovni tirnab oʻtirdi.

Dars tugashi oldidan drama toʼgaragining boshligʼi Alyorov sinfga kirib:

– Bugun dramtoʼgarak boʼladi. Umidaxon, tagʼin ketib qolmang, – dedi.

Umida oltinchi sinfdan beri drama toʼgaragiga qatnashib kelar, shu kunlarda yangi yil bayrami uchun tayyorlanayotgan «Qorqiz» pyesasida bosh rolni oʼynar edi.

Dars tugadi. Oʼquvchilar sinfdan chiqisharkan:

– Koʼchada kutib turing meni, – dedi Jamshid Tilovga.
– Hali aytmadningmi? – qizarib soʼradi Tilov.
– Yoʼq.
– Uka... mayli, aytma.
– Yoʼq, aka. Kutib turing.

* * *

Umida mashgʼulotdan chiqib, Jamshidning yoniga keldi, yelkasida yostiqchasi bor, koʼkish jemperining choʼntaklariga qoʼlini tiqib, tutash quyuq qoshlari tagidan xoʼmrayib boqdi.

– Yuring, – dedi Jamshid va bir kimsani suzmoqchiday boshini engashtirib yurib ketdi. Umida ergashdi. Umida Jamshiddan bir qarich past, yelkalari esa keng va toʼla edi.

Jamshid duch kelgan «Ximiya xonasi»ni ochib ichkariga kirdi. Turli-tuman kolbalar qoʼyilgan

stol yoniga borib to'xtadi. Derazan bosgan qirov sinf haroratidan erib, oynada reza-reza izlar qoldirib, oqib tushardi.

– Nimaga bunday o'zgarib qoldingiz? – dedi Umida.

– O'zgarganim yo'q, – dedi Jamshid.

– Yolg'on.

Jamshid yutinib ko'zini quyiga tushirdi.

– Ayting, nima gap? Nima?

Jamshid xonaning uzoq burchagiga ko'z yuborib:

– Sizni bir kishi yaxshi ko'radi, – dedi.

Umidaning ko'zlari katta ochilib, Jamshidga qarab qoldi. Jamshid hamon burchakka qarab turibdi. Umida yelkasini qisdi va favqulodda mayda titroq bilan lablari kulgiga yetdi.

– Kim ekan u? – asta so'radi erka tovush bilan.

Jamshid boshini tag'in quyiroq egdi.

– Xo'sh?

– ...

Umidaning ko'zlari birdan qisilinqiradi, yonoqlari lov yondi, dadil qo'l cho'zib, Jamshidning yelkasidan ushladi-da, unga peshonasini qo'ydi.

– Jinnisiz, Jamshid, jinnisiz.

Jamshid entikib, Umidaga yalt etib qaradi, yelkasini asta tortdi. Umida ham tezgina o'zini tortdi, ammo Jamshidning egik gardaniga bir dam tikilib turgach, xiyol qizarib, parishon chimirildi.

– Xo'sh, kim ekan u? – dedi endi sovuq, quruq.

– Tilov.

– Tilov?

– Ha.

- Tilov... he-e... – Umida birdan qah-qah otib kulib yubordi.
 - Kulmang, bu jiddiy, – dedi Jamshid.
 - Xo'sh, jiddiy bo'lsa nima bo'pti?
 - Nima bo'pti?.. Siz bunga nima deysiz endi?
 - Hmm... a, siz-chi? Siz nima deysiz?
 - Nima derdim?!
 - Ha.
 - Axir Jamshid?
 - Nima?
 - Men...
- Jamshid yelkasini qisdi.
- Jamshid? Nahotki sizga buning daxli bo'lmasa?
 - Buning menga daxli bor, Umida, – dedi Jamshid. – siz mening do'stimsiz. Men bu ishga be-farq qarolmayman. Ammo u juda sevib qoldim deydi. O'zi aytishga uyalyapti. Mendan iltimos qildi. Men aytdim. O'zi Tilov yomon yigit emas. Lekin yana ixtiyor o'zingizda.
 - Ixtiyor o'zimda... To'xtang, to'xtang... Men yana tushunolmayapman?
 - Nimasiga?
 - Siz... siz menga o'zi kim deb qaraysiz?
 - Kim deb? Do'stim deb. Yana qanday qarashim mumkin?
 - Do'stim deb?!
 - Ha.
 - Xolos?
 - Bo'lmasam-chi.
- Umida yuragi to'kilib ketganday bo'shab, so'lg'in tortib qoldi.
- Jamshid, siz artistsiz! Meni qiynamang.

- Bu nima deganingiz, Umida.
 - Axir... – Umida peshonasini, u yerda qattiq bir narsa yopishib qolgan-u, uni sidirib tashlamoqchiday olov kafti bilan sochlari tomon siladi va qo'llarini birdan tushirdi. – Shunday qilib... gapingiz tamommi?
 - Shu edi. Umida, sizga nima bo'lyapti?
 - Mengami? Nima bo'lardi menga? Menga hech narsa bo'layotgani yo'q. Borib ayting, men ham uni yaxshi ko'raman. Jonimdan ham yaxshi ko'raman.
 - Umida?
 - Yo'qoling, yo'qoling!
- Umida eshikni sharaqlatib yopib, chiqib ketdi.

* * *

Tilov Jamshidni trotuarda kutib turardi.

- Nima bo'ldi, uka? – so'radi u.
- Hech narsa, hech narsa, – dedi Jamshid.

* * *

Osmon tund. Balandda bir gala qarg'alar aylanadi. Ularning ovozlarida na shodlik, na g'am bor. Faqat qandaydir yovvoyi siniqlik va uzoq bir narsani qo'msash bor. Kechga tomon yana qor uchqunlay boshladи. Endi qarg'alar etakdag'i yong'oq shoxlariga qo'nib olishdi. Tarashaday qanotlarini yonlariga «tap-tap» urib, ba'zisi qo'shni shoxga uchib qo'ndi.

Jamshid ayvon labida turardi. Qorga qo'lini cho'zdi. Bir ushoq qor qo'ndi kaftiga, so'ng u bir on jim turdi-da, qirralari titrab-titrap sindi va tomchi suvga aylandi. «Nahotki, hammasi tuga-di? Nahotki?» shivirladi Jamshid.

Shundan keyin qor ham yog'madi, havo ham ilimadi. Ko'cha-ko'ydag'i qorlar sarg'ayib, qumday shovdirab yotar, mashinalar izidan, odamlar izidan quyuq bo'lib ergashardi.

Shanba kuni sinf rahbari Hojiyev stulning qanotiga kaftlarini tirab:

– Ertaga o'rmonga borishimiz kerak, archa opkelgani. Kim boradi? – dedi.

Bir necha bolalar baravariga qo'l ko'tarishdi. Hojiyev bolalarni ko'zdan kechirib, eng dadili – Tilov deb topdi.

– Jalolov, siz borasiz.

– Xo'b.

– Men ham borsam-chi? – dedi Jamshid ozg'in, uzun qo'lini ko'tarib.

O'qituvchi rozi bo'ldi.

– Qizlar-chi? Qizlar bormaydimi? – so'rab qoldi Umida o'rta qatordan.

– Bo'ladi-yu, lekin bolta bilan ishlashga to'g'ri keladi, – kului o'qituvchi.

– Nima, faqat o'g'il bolalar ishlaganmi? Boramiz biz ham.

Tag'in ikki qiz va uch bola boradigan bo'ldi.

– Ertaga ertalab maktab hovlisidan jo'naymiz.

VII

Mashina uchlariida zag'chalar qo'nib o'tirgan yong'oqzordan chiqib, oppoq tog' bag'irlab ketdi va Pushti O'rdak degan yerda to'xtadi.

Bolalar tapir-tupur pastga tushdilar. O'qituvchi tikka tepalikka qarab yo'l tortdi. Tepalikning o'rkachida osmondan bahaybat maxluqlar to'kib

ketgandek uyday-uyday xarsanglar qalanib yotar, ularning ustlari oq, taglari qora ko'rinardi. Qor kechib xarsanglarga yetgach, ularning tagi bilan ketdilar. Olachipor shiftdan yantoqsimon o'simliklarning qurigan poyalari osilib yotibdi, darz ketgan yerlardan chumchuqlarning xas inlari ko'rinadi. Pastda – yerda esa qor juda yupqa, shishadek, tagida yaxlab qolgan ko'mko'k o'tlar oyoq bossa qisirlab sinadi. Qor tegmagan burchaklarda qush va tuyoq izlari, pat va qumaloqlar – ular ham muzlab qolgan.

Xarsanglar tugab, ularning tagidan chiqqach, o'rmon boshlandi.

– Tovushqon! Muallim, tovushqon! – qichqirib keldi bolalardan biri.

Archa tagidan sapchib chiqqan dumি sarg'ish, ko'kishgina quyoncha qulolqarini bo'yni tomon yotqizib olib, ola-tasir qochib qoldi. Qirq metrlar chamasи yugurib bordi-da, taqqa to'xtab, orqasiiga qaradi. «Iye, kelyapsizlarmi?» deganday qulolqlarini tikkaytirib, tumshug'i ustida oldinma-ketin bir qimirlatdi-da, «dik-dik» sakrab chapga burildi, archa orqasiga o'tib, g'oyib bo'ldi. Uning ketidan yugurgan bolalar qo'l siltab to'xtashdi.

* * *

Atrofi tuman bilan qurshalgan jimjit o'rmon yalangligi. O'rtada gulxan yonyapti. Gulxan atrofida bolalar. Biri o'tga qo'lini toblaydi, biri oyog'ini, biri ho'l archa shoxchasinging jizillab ko'pik chiqarib turgan quyrug'iga botinkasining uchi bilan turtadi, boshqa biri esa, yonib qulagan butoqchani qo'li bilan tezgina olib, olov o'rta-

siga tashlaydi. Archa chirsillaydi, tutun buruq-siydi, qizg'ish alanga to'lg'anib gurillaydi, yerda-gi qor esa pishillab eriydi, suvga aylanib, o'tdan chekinadi. Hojiyev o't yonida tik turibdi. Tutun kirgan ko'zi yoshlangan. Qip-qizil kaftida sirti erib sarg'aygan qor – dumaloqlayapti. Barmoqlari orasidan suv tomadi.

– A, nega bo'lmasam, bu tizmani Farhod deb ataydilar? – so'radi bolalardan biri.

– Cho'qqisini nega Ketmon Chopti deydilar? – so'radi ikkinchisi.

Hojiyev dumaloqlagan qorini kaftidan irg'itib, orqasiga qarab oldi.

– Emishki, Farhod suv chiqaraman deb, shu tog'ga chiqqanmish. O'shanda Sangardagimiz ham quruq cho'l ekan. Farhod tog'ga bir ketmon urib, mundoq pastga qarasa, pastda katta daryo oqayotganmish. Bu daryo qayerdan paydo bo'ldi? Farhod bilmabdiki, bu o'sha yosuman kampir yoyib qo'ygan bo'yralar ekan. U Farhodning ko'ziga daryoday bo'lib ko'rinishdi. Keyin Farhod shartta yengildim deb, yosuman bilan shart bog'lagan-da, o'zini o'zi o'ldiribdi. Tog'ning nomi shundan qolgan – Farhod. Farhodning ketmon urgan yeri esa – Ketmon Chopti. Haqiqatan ham o'sha yerga borib qarasalaring, xuddi ketmon bilan chopganga o'xshaydi. O'ziyam katta bir daraday keladi. Qizig'i shundaki, qishlog'imizni ta'minlab turgan anhorning boshi o'sha yerda. Xuddi ketmon urilgan yerdan chiqyapti. Keyin yo'ldagi buloq suvlarini olib, ko'payib keladi. Bizning bitta qo'shnimiz bo'lardi – chol. Hami-

sha: «Farhod bizning hamqishloq bo‘lgan», deb yurardi, – kului Hojiyev. – Qani, endi savol-javob tamom, – Hojiyev kirza etigining tumshug‘i bilan qorni tepib ko‘chirib, o‘t ustiga tashlay boshladi. Unga boshqalar ham qo‘sildi. O’tni o‘chirishgach, o‘qituvchi chetdagi tanho o‘sgan xushqomat archa qoshiga bolalarni boshlab bordi. O‘chib, qor tagidan – u yer bu yerdan tutun chiqib turgan gulxan boshida faqat Umida qoldi.

Jamshid kaftiga tuflab, boltani ko‘tardi. Archa dirilladi-yu, lekin bolta tig‘ini qaytarib yubordi.

– Yonlatib ur, yonlatib, – dedi Tilov. Nihoyat bolta archa tanasiga bota boshladi.

– O‘zi juda chayir bo‘ladi bu daraxt, – dedi Hojiyev. – Urug‘iyam besh yilda ko‘karib chiqarmish. Olimlar uch yilda ko‘kartiribdi deb eshitdim.

Tilov Jamshidning silkinib, «xix, xix!» – deya bolta urishini kuzatarkan, Umidaning buyoqqa qarab kelayotganini ko‘rdi-yu:

– Menga ber, menga ber-chi, – deb Jamshidning yoniga o‘tdi.

Jamshid istamaygina boltani uzatdi. Bolta Tilovning qo‘liga o‘tishi bilan archa zir titrashga tushdi, shoxlaridagi muzlab qolgan qorlar «tap-tap» etib uzilib tusha boshladi. Tilov boltani urgani sari urgisi kelar, yana beshta archani kes, deyishsa ham kesib tashlaguday edi. Archani bir o‘zi yiqitdi va ko‘pchigan kaftini siypalab Umida-ga qaradi. Umida katta archa uchiga qo‘nib olib g‘ag‘illayotgan zag‘izg‘onga qarab turardi. «Yosuman», dedi Tilov ichida va uni ezib-ezg‘ilab tashlagisi, go‘yo Farhod chiqarolmagan suvni o‘zi chiqargisi keldi.

– Tag‘in bitta kesaylik, – dedi o‘qituvchi.

Tag‘in Tilov boltani qo‘liga oldi. Jamshid esa, bir muddat o‘ylanib turdi-da, burilib gulxan boshiga bordi. So‘ng archa orqasiga o‘tib, g‘oyib bo‘ldi. Umida unga zimdan tikilib turardi. Ikkinchi archani kesib bo‘ldilar hamki, Jamshid qaytmadi. Uning yo‘qligi bilinib qoldi-yu, bolalar chaqirishga tushdi. Jamshid ovoz bermasdi.

– Qayoqqa ketdi u? – tutaqib o‘shqirdi Hojiyev.

Umida indamadi.

– Bu yerda yirtqich hayvonlar ham bor. Nahotki, hech kim ko‘rmadi?!

Umida yana miq etmadi.

– Izlanglar!

Bolalar har tomonga sochilib ketishdi. Umida esa to‘g‘ri Jamshidning izidan ketdi. Qor qalin va muzlab qolganidan Jamshidning izi arang bilinardi.

To‘nkada bukchayib o‘tirgan Jamshid cho‘chib burildi-yu:

– Zumrad? – deb pichirladi.

Umida unga yaqinroq bordi.

– Sizga bir og‘iz gapim bor, – dedi Umida. – Oxirgi gapim.

– Gapiring, – Jamshid o‘rnidan turib, yerga qaradi.

– Rostini ayting. Tilov unaqa demasidan oлdin... yaxshi ko‘rarmidingiz... meni?

Jamshid qimiraldi-yu, javob bermadi.

– Ayting... rostini.

– Umida, – nihoyat bo‘g‘iq ovozda gapira boshladi Jamshid, – men sizni hammavaqt do‘sit deb

yurardim. Hozir ham... Men o'ylab ham ko'rdim, – u to'liqib Umidaga boqdi. – Umida, keling, shu gaplarni qo'yaylik. Do'stligimizni davom ettiraylik. Biz bir-birimizga o'rgangan edik. Men keyingi kunlarda juda siqilyapman. Umida...

Umida asta orqasiga burildi. Uzoqdan bolalarning: «Jamshid! Jamshid!» – deb chaqirishayotgani eshitilardi.

* * *

Mashina qishloqqa kirguncha Umida bir qo'li bilan yuzini to'sib, qimirlamay o'tirdi. Bolalar, qizlar kulishar, bir-biriga gap otishar, «Archa qo'shig'i»ni aytgan bo'lishar, Umida esa eshitmas, u mashinaning bir tekis «g'ing-g'ing» ovoziga qulq solib borardi.

Qishloqqa kiraverishda Umida noxos ko'zini ochdi-yu, tanish ko'chani ko'rdi. Bu ko'cha bilan ham uylariga borsa bo'lardi. Dugonasiga, kabinani ur, deganday qo'li bilan ishora qilib: «Tushaman, tushaman men», – dedi... Tushdi.

Tor ko'chaga kirib, bir zum to'xtadi. Mashina ovozi uzoqlashdi. Orqa devori ko'chani chetlab turgan uy mo'risidan tutun buruqsir, bo'g'otdan suv tomchilardi. Umida unga qarab, dardchil kulimsiradi, ammo birdan chimirildi va yerdagi oppoq qorda ham qasdi borday, uni «g'ajir-g'ujur» bosib ketdi.

Uylariga kirib, cho'yan pech yoniga cho'nqaydi. Singlisi Norgul bir ko'zini qisib, o'yinchoq kinnoni tomosha qilardi.

– Ber-chi, – dedi Umida. Olib ko'ziga tutdi. Kadrda oldingi oyog'i bilan qulog'ini qashiyotgan

quyon rasmi solingan edi. Umida o'yinchoqni otib yubordi. «Buzzing, buzzing», – deya chin-qirib qoldi Norgul. Ammo kinoni olib qaragach, buzilmaganini ko'rdi va tumshayib nariga surildi. Umida unga tikilib turdi-da, yelkasini qisdi. So'ng o'rnidan turib, kamzulini yechdi. Ovqat ustida ota-onasining qayerdaligini so'radi. Norgul, qizi mehmonga kelgan novvoy qo'shnilarinika chiqib ketishganini aytdi. «Borsammi, – deb o'yladi Umida. – Nimaga?» Choyni ham ichib bo'ldi. Butun shu vaqt davomida ko'zi atrofda bo'ldi: bir narsani qidirayotganday. Bir payt derazaga qaradi-yu, ustundagi elektr chirog'i yonganini ko'rdi. Bugun to'garakning mashg'uloti bo'lishi yodiga tushdi. Bugun u rostakam Qorqiz bo'lib, oq surp ko'ylak kiyib o'ynashi kerak edi. Shuni ko'z oldiga keltirdi-yu, bir zum xayolga toldi, so'ng chuqur xo'rsindi.

Umida shu kuni mashg'ulotga bormay qoldi.

VIII

Eshik tortildi, ochilmadi.

– Och, – Tilovning ovozi eshitildi.
– Qattiqroq torting, – dedi Jamshid va karavotini g'ijirlatib turib o'tirdi. Oyoqlarini tarang cho'zib esnadi. Tilov kirib, pechning yoniga o'tdi. Ko'miri yarimlab qolgan paqirning ustiga yo'g'on tarasha qo'yib, o'tirdi. Oyog'inining uchini pechning kulxonasiga tiqib, ikki qo'llab boshini qashidi.

– Uxlamadingizmi? – dedi Jamshid.

Tilov qo'llarini olmay, boshini qimirlatdi.

Jamshid yana esnadi va qidirinib stolga qaradi, devordagi o‘z soyasini ko‘rdi-yu, barmog‘i bilan peshonasidan iyagigacha asta «chizdi», tag“in esnadi.

– Charchadingmi? – dedi Tilov.

– Charchabman-a-aa-h...

– Menga qolsa, hozir dashtga piyoda ketardim.

– Dashtni yaxshi ko‘rasiz-a?

Tilov bosh irg‘adi.

– Men ham, – dedi Jamshid. – Men ham yaxshi ko‘raman... Lekin siz bizning qishloqni yaxshi ko‘rmaysiz.

– Nimaga? Qishloqlaring yaxshi.

– Tarixini bilasizmi?

– Eshitganman.

– Yetimtepaning nima uchun shunday deyilishiniyam bilasizmi?

– Yo‘q. Lekin u tepani yaxshi ko‘raman. Xuddi dashtdan adashib kelganga o‘xshaydi.

– Hali siz uyga qaytdingiz. Biz ko‘chada qoldik. Hojiyev aytib berdi. Iskandar Zulqarnayn poxdini bilasiz-a?

– Xo‘sh?!

– U Surxondaryomiz ustidan ham o‘tgan ekan. O‘sanda Sangardagimiz juda obod savdo-sotiq va madaniyat shahri ekan. Hojiyev muallimning aytishlaricha, umuman, Surxondaryo qadimda, albatta, eramizdan avval madaniyat va san’atning eng rivojlangan markazlaridan biri bo‘lgan. Lekin bosqinchilar uni shunchalik xarob qilganki, u asrlar davomida o‘zini o‘nglay olmagan. Xullas, Iskandar yurish qilib kelayotgani-

da, Denovning ustidan o'taverib, tog'lar orasida joylashgan Sangardagimizni ko'rib qolgan. Sangardak shunday go'zal ekanki, uni tor-mor qilishga Iskandarning ko'zi qiymagan. Biznikilar esa, taslim bo'lmasagan. Qarang, butun dunyoni egallab kelayotgan ya'juz-ma'juzday qo'shinga kichkinagina bir qishloq taslim bo'lmasagan. Keyin Iskandar hujum boshlagan – mana shu dasht tomondan. Boshqa yoqda yo'l yo'q-da. Uch taraf – tog'. Biznikilar daraning og'zida ularning yo'llini to'sib olib, bittasini ham yaqin yo'latmagan. Tog'lar qal'a devorlari emaski, yov ularni taran mashinalari bilan ag'darib kirsa. Jang ko'p kunga cho'zilgan. Iskandarning yonida yurgan tariixchisi Ariyaning yozishicha, Iskandar butun yurishi davomida bиринчи shu yerda eng kuchli to'qnashuvga duch kelgan ekan. Keyin Iskandar noiloj qolib, Gretsiyaning o'zida tog'larda yurish uchun maxsus tayyorlangan qismini ishga solgan. Ular bir necha kun davomida tog'ni aylanib o'tib, tepadan kelganlar va shaharni kunpayakun qilganlar. Obod bir shahar o'rniда kultepa paydo bo'p qolgan. Shundan keyin shahrimizni Yetimtepa deb atay boshlaganlar. Hozir mana shu ikki gektarlik tepalikni Yetimtepa deb ataydilar.

- O'sha Iskandar bizning dashtniyam bosib o'tgan ekan-da?
- Albatta-da.
- Balki u yerda ham katta bir shahar bo'lgandir.
- Shubhasiz. Aka, o'ylab ko'ring. Surxondaryo o'shanda haqiqatan ham madaniyat markazla-

ridan bo'lgan. Mana, oddiy misol. Bultur o'zimiz ekskursiyaga bordik. Teshiktosh g'ori. Axir, arxeologiyamiz tarixida birinchi marta neandertal odamining to'la skeleti topilgan g'or – shu g'orku! Demak, odamzotning paydo bo'lgan yerkaridan biri – yerimiz.

– Rost, rost... Esimga haligi Toshkentdan kelgan trener tushdi. Zerikarli joy ekan, deb ketib qolgandi-ya, ablah!

– Katta shaharga o'rgangan-da... Aka, o'ninchini bitirishimizgayam to'rt-besh oy qoldi.

– Ha.

– Institutni bitirgandan keyin shu yerga kelasizmi?

– Ha. Dashtga kelaman.

– Yana dasht!

– Tug'ilgan yerim-da, uka. Nima, sen bu yerga kelmaysanmi?

– Kelaman, lekin umr bo'yи shu yerda yashab qolishni o'ylasam, yuragim siqiladi. Mana, onam! Momomning aytishicha, tug'ilganlaridan beri tinmagan ekanlar. Hali tog'da, hali dashtda, hali boshqa yoqda.

– Mengayam aytib o'tirardilar. Jamshid, xafa bo'lma, mening bu yerda eng yaxshi ko'rgan kishim – shu, sening momong edi. Momong hamisha shu bog'ni yaratganlari, daraxtlarni urug'idan ko'kartirganlari haqida, bu yerni yaxshi ko'rishlari, buni tashlab hech qayerga ketmaganlari haqida gapirardilar.

– Bildim, – dedi Jamshid. – O'zingizga o'xshagan uchun yaxshi ko'rgansiz. Siz ham faqat dashtim, dashtim, deysiz-u?!

– Kim biladi. Lekin, uka, kishining yaxshi ko‘radigan yeri bitta bo‘lishi kerak, bitta.

– Bilmadim. Lekin meniki hozircha ikkita: bu yer va sizning dashtingiz. Yana boshqa yerlarni, onam yurgan yerlarni, keyin... o‘sha, birinchi otam yurgan yerlarni – Ukrainiani, Chexoslovakiyani ham ko‘rgim keladi, ko‘rsam, balki ularni ham yaxshi ko‘rib qolarman. Qiziq, men o‘zimning otamniyam, sizning otangizniyam yaxshi ko‘raman, onamniyam yaxshi ko‘raman. Siz bo‘lsa, faqat bir kishini, faqat o‘z otangizni yaxshi ko‘rasiz-a? Onamni yoqtirmaysiz, Tilov aka, shunday emasmi?

– Endi buyoqlarga o‘tmaylik-da. Momong haqida gapiroayotganding-u? Xayr bo‘lmasam. Uyqum keldi.

– Xayr.

IX

Umida «Qorqiz» pyesasida o‘ynamadi.

Bayramning ikkinchi kuni edi. Qor qalin tushib, Umidalarning chorborg‘i etagidagi bir qanon devorni mayishtirib qo‘ydi. Umida ertalab onasining qo‘ng‘ir tivist ro‘molini boshiga o‘rab, uni ko‘rgani bordi. Paxsa yorig‘idan ko‘chaga nazar tashladi. Odamlar o‘tib-qaytardi. Bir payt qora plashining yoqasini ko‘tarib olgan bir yigit bilan puchuqqina bir qiz qo‘ltiqlashib o‘tishdi. Qiz Umida bilan tengqur edi. Yettini bitirgach, Qarshiga medtexnikumga ketgan, o‘sha yoqda bu yil shu yigitga tegib, endi amaliyotga kelgandi. «Er-xotin», deb o‘yladi Umida va o‘zining ham

qachon bo'lmasin, kimgadir tegishini his etdi. «Kimga?» Xayolidan lip etib Jamshid o'tdi-yu, bir entikdi, so'ng g'ijindi. «Xo'sh, kimga? Har kimga ham tegib bo'lmaydi-ku! Kimga?» Xayolida hech kim gavdalanmadi, ko'chadan o'tayotgan odamlarning har qaysisiga ham tegishi mumkin-day tuyuldi. Shunda Umida yuragining tubida qandaydir mushaksimon bir tosh borligi, u chir-sillab uchqun otayotganini, u bu o't bilan kimnidir kuydirishga, yondirishga chorlayotganini sezdi. Sezdi-yu, ko'z oldiga yana Jamshid kel-di. Umida o'z sevgisi endi nafratga aylanganini angladi, u nafrat, o'ch, intiqom olishga undayotganini tushundi. «Qanday qilib?» Umida gangib orqasiga qaradi va ayvonda o'zi tomon o'qrayib turgan onasini ko'rди. Ona ikki paqirni shiqirlatib, ayvon labiga qo'ydi.

– Suv opke!

Umida Parda cho'loqning hovuzidan suv olib, qaytib kelayotgan edi, darvozalariga yetgan yerda, bog'ko'chada yonma-yon kelishayotgan Tilov bilan Jamshidni ko'rdi. Ko'rdi-yu, jadalladi. Ammo ularga yetgan yerda oyog'i toyib ketdi, paqirlarning tagi yerga tegib, suvi qalqib to'kildi. Qaddini tiklagan edi, to'kilgan suvdan sirpanchiq bo'lgan yerda yana toyib ketdi, cho'kkalab qoldi. Tilov bilan Jamshid baravariga yetib kelib, uning ikki tirsagidan ko'tarishdi. Umida Jamshidning qo'lini siltab tashladi. Tilovnikini ham siltamoq-chi bo'ldi-yu, lablarida kinoyali tabassum yugu-rib Jamshidga qaradi va Tilovning qo'liga suyanib o'rnidan turdi. So'ng Tilovga mayingina,

«rahmat», dedi-da, paqirlaridagi qolgan suvni ham to'kib tashlab, iziga qaytdi. Hovuzdan qayta suv olib, tosh zinadan tushayotganida, Tilov bilan Jamshid muyilishdan burilib o'tgan, to'g'riga ketib borishardi. Jamshidning boshi xam. Tilov uning biqiniga turtyapti. Umida makrli jilmaydi.

Umida darvozalaridan kirdi-yu, ko'zi yana devor raxnasiga tushdi, nimadir tortdi uni o'sha yoqqa. Paqirlarni shundoq supa chetiga qo'yib, yana o'sha yoqqa ketdi. Endi uning qadamlari yengil, qandaydir sirning kalitini topgan, o'sha yerga borib uni ochadiganga o'xshardi. Raxnaga ro'para bo'ldi-yu, haligina kechirgan o'ylari yana g'uv etib boshiga kirdi: «Kimga tegaman? Hamma – odam... Jamshid... Tilov! Tilov!» Endi safga Tilov ham qo'shildi. Qo'shildi-yu: «O'zi ham yomon emas, – deb o'yladi Umida. – Polvon yigit. Keyin meni yaxshi ko'radi ham». Ko'z oldidan zuv etib ko'chadagi «ish» o'tdi. U Tilovning qo'liga suyanib, Jamshidga kinoyali kulimsirab o'rnidan turdi. Jamshid boshini egdi... Shu «ish» o'tdi-yu, Umida yuragidagi chirsillayotgan mushakning o'ti andak pasayganini sezdi. Labida yana makrli tabassum jilvalandi. So'ng birdan u ko'chadagi ko'rinishni xayolan Tilovlarning uyiga ko'chirdi, ko'chirdi-yu, o'zining qaddi-basti bir gaz o'sgani ni his etdi. Jamshid yana boshini egdi. Umida qah-qah otib kului. U endi Jamshidga bir narsa deb murojaat qilishi kerak edi, qildi: «Jamshid... (yo'q, bu bo'lmaydi)... Qaynim, qayni!» Birdan yuragidagi mushak o'chdi. A'zoyi badanida bir orom yugurdi.

– Tillo topdingmi u yerdan?

Umida o'girilib, yana onasini ko'rdi va negadir endi o'z o'ylaridan o'zi qo'rqib ketdi. Oppoq qorda chuqur botgan izlari ustidan yana bosib, uyga qaytdi.

* * *

Yarim kecha. Qor bosgan hovli ko'r oydin. U yerda tong otayotganga o'xshaydi. Sukunat. «Nimani o'ylayapman? – dedi Umida sovib qolgan cho'yan pech yonida ko'rpani tomog'igacha tortib, derazaga tikilib yotarkan. – Nimani? Axir, baribir kimgadir tegishim kerakmi? Baribir Jamshiddan o'ch olishim kerakmi? Tilov meni ham yaxshi ko'radi, ham Jamshidning yonida... Bas, bo'ldi!» Umidaning birdan kim bilandir, kim bilandir gaplashgisi, maslahatlashgisi keldi. «Kim bilan?» Uning sirdosh dugonasi ham yo'q edi. U qizlariga kam qo'shilar, uning uchun qiz ham, sirdosh do'st ham, hammasi – Jamshid edi. Umida sekin o'tirib olib, yostig'i yonidan paxtaligini olib kiydi. Oyoq uchida yurib, ichkarigi, pech o'rnatilma-gan uyga kirdi. Devorni paypaslab tugmachani bosdi. Elektr chirog'i lop etib yondi, «Toki ko'payibdi», o'yladi Umida ko'zlarini qisib va o'rtadagi ustiga kitob-daftarlari qala-nib yotgan xontaxta yoniga bordi. Darsliklariga tikildi-yu, chetdagi rol yozilgan qalin daftariga ko'zi tushdi. Olib, bir bet varaqladи: «Qorqiz». Umida ichki bir og'riq bilan uni joyiga qo'ydi, lekin yana shart olib, ko'zdan pana – xontaxta tagiga tashladi. Ostiga bo'yra solingan sovuqqina, dag'al gilamni g'ijirlatib bosib, to'r devoridan o'yib yasalgan tokchan-

ing oldiga bordi. Tokchada kitoblari. Kitoblar-ining ko'pchiligi pyesalar. Pyesalarning ichida esa, Umidaning eng sevgan pyesalari: «Momaqaldiroq», «Boy ila xizmatchi» va «Oq chorloq» edi. Umida allaqachonlardan beri bulardagi Katerina, Jamila va Nina obrazlarini o'ynashni orzu qilar, ulardagi kuchli holatlar, bo'ronli kechin-malar va otashin monologlar uni maftun etardi. Lekin negadir bu pyesalarni maktab sahnasida qo'yishmas, qo'yan pyesalari esa, Umidaga yo-qmas edi. Chunki ulardagi bosh qahramonlar – ayollar kelajakka qandaydir ishonuvchi, kishilar uchun bir ish qilish istagida yurgan, quvnoq ayollar bo'lardi. «Nega bu pyesalarda Katerina, Jamila va Ninalarday baxtiqaro, ezilgan, tah-qirlangan va oqibat, biri o'zini suvga tashlagan, biri zahar ichgan, biri telbalik kasaliga mubtalo bo'lgan ayollar yo'q? Yo bunday ayollar asli hayotimizda yo'qmi?» deb o'yldi Umida va atrofdagi o'zi bilgan xotin-qizlarni eslab, ayolligi demasa, u qahramonlarni eslatadigan boshqa bir xususiyatni ko'rmas, so'ng negadir o'zining achchiqma-achchiq qilib ham, shaxsan o'zining ularday bo'lgisi kepetardi. Umida hozir javoniga tikilib turarkan, bu istak uning miyasiga shunday qat-tiq bir kuch bilan o'rashdiki, u orzuni amalga oshirish uchun nihoyat, vaqt yetganday, bugundan boshlab harakat qilishi kerakday tuyuldi. Go'yo: «Salom, Katerina! Salom, Jamila! Salom, Nina! Sizning safingizga yana bir kishi qo'shildi bugundan boshlab! Olinglar meni!» Umida beixtiyor o'zining ham hayotini qachon bo'lmasin bir mashhur dramaturg yozishini, u yozgan pye-

sani tomosha qiluvchilarning oh tortib o‘tirishini va qayerdadir bir qiz, bir qizcha tunlarni bedor o‘tkazib, pyesadagi qahramon qiz – Umidaday bo‘lishni orzu qilishini xayolidan o‘tkazdi.

«Chirs» etdi tashqarida bir narsa – bo‘g‘otda sumalak sindi. Umida cho‘chib burildi-yu, ko‘chadagi chiroq nurida qorlari yiltirab turgan devorga ko‘zi tushdi, u yerda kechirgan va to‘sakda ham unga tinchlik bermagan o‘ylari xayoliga yana quyilib kira boshladi:

«Kimgadir tegish... Hamma bir... Tilov yaxshi yigit, ham meni sevadi, ham Jamshidning aka-si... Jamshiddan o‘ch olish... Bo‘ldi, bas, tamom!»

Umida eshikka qarab yurgan edi, tokchasi-da yotgan, bir vaqtlar tug‘ilgan kunida Jamshid taqdim etgan Lermontovning she’rlar to‘plamini ko‘rib qoldi-yu, borib shart oldi, boshiga ko‘tardi. Ammo muqovadagi shoir rasmiga ko‘zi tushib, bo‘shashdi, asta joyiga qo‘ydi va shart ochdi. Ko‘zi tushgan birinchi misrani o‘qidi:

*Men yashash istayman, istayman g‘amni,
Muhabbat va baxtga achchiqma-achchiq.*

Umida misraga tikilib qoldi va yana o‘qidi, yana va yana. So‘ng gangib, ichida takrorladi:

*Men yashash istayman, istayman g‘amni,
Muhabbat va baxtga achchiqma-achchiq.*

Umida ichida yana takrorladi va birdan tit-roq barmoqlari bilan ko‘zlarini berkitdi. Uning

hamma o‘ylari, kechinmalar go‘yo bir nuqtada uchrashdi. So‘ng barmoqlari orasidan qaradi. O‘zini qandaydir qorli nishab betdan sirpanib, sirli, tumanli bir dunyoga tushib borayotganday his qildi: pastda uni kutib oluvchi qandaydir ayol sharpalari ko‘rinardi...

X

Ertasiga dars tugagach, Umida tezgina chiqib, bolalardan oldin ketdi. Bog‘ko‘chaga kirgan yerda, machit yonida to‘xtab, kimnidir kuta boshladi. Odamlar o‘tdi-qaytdi. Nihoyat, Jamshid bilan Tilov ko‘rindi.

– Tilov, sizga bir gapim bor, – dedi Umida ularga peshvoz chiqib, kulimsirab. – Jamshid, siz yo‘lingizga ketavering.

Tilov qo‘rquv aralash Jamshidga qaradi. Jamshid yelkasini qisdi.

– Beriroq keling, Tilov.

Chetga chiqishdi.

– Tilov, meni yaxshi ko‘rasizmi?

Tilov hayron bo‘lib, Umidaga boqdi.

– Qo‘rqmang, aytavering.

Tilov tanglayi qotib shivirladi:

– Umida, sen...

– Aytavering.

Tilov chimirildi.

– Nima edi?

– Ayting, ayting. Nimadan hayiqasiz?

– Xo‘b, ana... ha.

– Chini bilanmi?

– Chin.

- Uylanasizmiyam?
- Umida...
- Gapiring, gapiring.
- Umida, sen mendan kulyapsan!
- Obbo, Tilov? Xo'sh, uylanasizmiyam?
- Endi... shunday bo'ladi-da...
- Men roziman.
- Nima?
- Roziman. Eshityapsizmi, roziman!
- Umida...
- Qiziq ekansiz-ku! Ishonmasangiz, ertagayoq uyimizga sovchi yuboring.
- Umida, men hech narsani tushunmayapman.
- Qiziq. Menimcha, juda ochiq qilib gapiryapman.
- Endi...
- Demak, ertaga sovchi keladi?
- Umida... Mening boshim aylanib ketyapti. Sen o'zi...
- Men soppa-sog'man! Demak, ertaga sovchi keladi. Sovchi kelsa, meni sevishingizga ishonaman. Kelmasa, demak, sevmas ekansiz.
- Axir, Umida, to'xta-to'xta. Men bu haqda... A, o'qish, maktab?
- O'qiyveramiz ham. O'qishni tashlamaymiz-ku, axir! O'qishni bitirgach, institutga ketaшимиз. Men teatr institutiga, siz qishloq xo'jaligiga. Qorqizni o'ynamaganidan siz gumonsiramang. O'shanda hushim yo'q edi. Hali undan katta rollarni ham o'ynayman.
- Umida, sen rosti bilan...
- Obbo...

– Men... men hozir borib... opamga aytaymi bo'imasam?

– Ayting.

– Hmm... keyin sen?..

– Tilov, axir odam ham buncha...

– Mayli, mayli, bo'ldi-bo'ldi.

Tilov shoshib bir odim bosdi-yu, yana Umidaga tikilib qaradi. Umida xotirjam, kulimsirab turardi.

* * *

– Ukajon, ukajon!.. Jamshid! Kecha bir gapi bor demaganmidim!

Devordagi yo'g'on mixga paltosini ilayotgan Jamshid chimirilib burildi.

– Bu yerga o'tir, o'tir, ukajon! – Tilov Jamshidning bilagidan ushlab, karavotga tortdi, o'tqizdi, so'ng uning tizzasi ustiga qo'lini qo'yib, o'zi stulga cho'kdi. – Ukajon, men... – Tilov bir kuya mahliyo bo'lgan kishiday chayqalib, baroq yoqasini bo'yni bilan orqaga itarganicha, qog'oz shiftga boqdi. – Ukajon... – nihoyat, Umida bilan orasida o'tgan gaplarni bir amallab aytib berdi.

Jamshid tizzasiga suyanganicha bir fursat o'ylanib o'tirdi-da:

– Endi nima qilmoqchisiz? – dedi unga pastdan tikilib.

– Nima qillardim, opamga aytaman.

– Sovchi yuboringlar deb?

– Ha-da.

– Aka, – Jamshid qaddini ko'tarib, Tilovning qollarini ustiga qo'lini qo'ydi, – aka, bir-ikki kun sabr qilsangiz-chi? Balki bir-ikki hafta, bir-ikki oy?

- Nega endi, nega?
 - Mening hech aqlimga sig‘mayapti-da... Buncha tez... Mana bunda bir gap bo‘lsa kerak. Nima dedingiz?
 - Axir... axir, qanday gap bo‘lishi mumkin?
 - Siz sevib qolgan, deb o‘ylaysizmi?
 - Ha. Endi... sevmasa, shunaqa qilarmidi? Yo‘q, uka, men bir gal ham aytgandim-u, bugun sevmasa, ertaga sevib qolar, deb. Mana...
- Lekin...

Tilovning ko‘zlarini birdan gumonli qisilinqiradi.

- Bu yerda hech qanday lekin-pekin yo‘q, – barmoqlarini stol yoniga bosib, bir yo‘la qisirlatdi. – Erta sovchi yuborsangiz, sevganizingizga ishonaman, dedi u. Bu nima degani? Demak, sovchi kelmasa, ishonmayman degani. Demak, ilgariyam shunday deb o‘ylagan u. Nihoyat, bugun shartni ko‘ndalang qilgan. Demak, erta sovchi bormasa, tamom! Men... sovchi yubortiraman, deb va’da berdim.

Jamshid yana so‘zlamoqchi bo‘lib chog‘landiyu, Tilovning tikilib turgan ko‘zlarida qat’iyat va tahqirlovchi gumonni ko‘rib bo‘shashdi.

- Men endi... yana biroz o‘ylab ko‘ring, deyman-da... – dedi chaynalib.

* * *

Tilov chiqqach, Jamshid yana tizzalariga suyandi. O‘yladi, o‘yladi. Tunov kuni Umida suv olib kelib yiqilganida, bular turg‘izishdi. O‘shanda Umida Jamshidning qo‘lini siltab tashlagani va favqulodda Tilovning qo‘liga tayanib turgani, yana Jamshidga kinoyali kulimsirab,

Tilovga mayingina, «rahmat», degani – bular achiqdan, alamdan ekanini Jamshid o'sha payt-dayoq yaxshi tushungandi va bundan so'ng ham shu qabilda ishlar qilishini kutgandi Umidadan. Lekin bunaqa ishni... Yo'q, bu Jamshidning aqliga sig'madi.

Jamshid darsxonasidan chiqib ichkarigi uygakirdi. Tilov divanda oyoqlarini osiltirib o'tirar, tajanglik bilan tizzalari ko'zini childirma qilardi.

- Opam kechikib ketdi-ya, Jamshid?
- Yig'ilishi bordir.
- Ana ovqating, ye.

Jamshid plita ustidagi kostryulni ochdi. Ilitma sho'rvaning hidi dimog'iga urildi.

- Siz yedingizmi?
- Ha. Qolgani seniki.

Jamshid kostryulni ko'tarib oldi. Chiqayotgan edi, Tilov to'xtatdi:

- Aytmoq-chi, uka, tag'in opangga ham... haligi mulohazalariningni aytib o'tirma. Xo'bmi?.. Iltimos, o'zimga qo'yib ber.

Jamshid shart qayrildi.

- Aka, siz hech o'ylamayapsiz. U shunday debdi. Sevibdi ham. Siz ham sevasiz. Lekin... hozir uylanish shartmikin-a? Bundan tashqari, maktab bor, o'quvchilar, o'qituvchilar... yana boshqa... vazifalar... Axir, uyat bo'lmaydimi? Bu maktab tarixida bo'limgan ish. Ikkita o'ninchi sinf o'quvchisi...

Tilov tizzalari ko'zini changallab, lablarini qimtidi-yu, burnidan chuqr nafas chiqarib, Jamshidga tikildi.

– Buyog‘idan ham xotirjam bo‘l, uka. Xo‘bmi? Buyog‘ini ham o‘ylashib ko‘rganmiz. Umuman, sen... ah!

Jamshid chiqib ketdi. Lekin uning darsxonasasi eshigi ochilmasidan Tilov ayvondan «tap-tup» ovoz eshitdi. Derazaga otildi. Zaynabxon erkakcha kalish kiygan amirkon etigini yerga urib, qorini qoqar, Jamshid onasiga xo‘mrayib qarab turardi. Zaynabxon kostryulga ishora qilib, bir narsa dedi. Jamshid bosh irg‘adi. Shu bilan ikkovi ikki yoqqa yo‘nalishdi. Tilov chuqur xo‘rsindi. Iziga qaytib, eshikni ochdi. Zaynabxon kirdi.

– ...Yo‘q, o‘g‘lim, men bu fikringga qo‘silmayman, – dedi Zaynabxon.

– Opajon...

– Aqalli maktabni bitiringlar, keyin bir gap bo‘lar.

– Opa... men shu yoshga kirib, sizdan... kattaroq bir narsa iltimos qilganim yo‘q.

– Bilaman... lekin bu iltimosingni bajarolmayman.

– Axir, axir, u meni yaxshi ko‘radi! Biz yosh ham emasmiz. O’n sakkizga kirdik.

– Ayni yoshsizlar, o‘g‘lim. Hayronman, u seni yaxshi ko‘rsa, sen ham uni yaxshi ko‘rsang, birga o‘qib, o‘ynab yuravermaysizlarmi? Bir-birlaringni ko‘proq sinaysizlar ham.

– Opa, men u bilan, mana oltinchi yil birga o‘qiyapman. Shu olti yildan beri bir ko‘chadan qatnaymiz. Birgamiz... Mana, u... meni... yaxshi ko‘ribdi. Men... ham. Axir, u meni bilmasa, men uni bilmasam... shunaqa bo‘larmidi?

- Lekin sinashganmisizlar?
- Axir, sinashish shudir-da?
- Yo‘q. Sinashish endi boshlanadi, o‘g‘lim.

Mening nazarimda, o‘n sakkiz yasharlik davr kishi umrida eng nozik, mas’uliyatli davrlardan biri. Bu davrda kishining tuyg‘ulari ko‘pir-gan bo‘ladi – aqlga bo‘y bermaydi. Tajriba bo‘lsa, kam.

Tilov tishini tozalayotganday, lablarini cho‘ch-chaytirib aylantirdi. Bu gaplar unga hech narsa bermagani ko‘rinib turardi.

– Mana, sevdim deyapsan, – davom etdi Zaynabxon, – balki bu sevgi ham emas-u, bir havasdir... balki.

Tilov qizarib, haqoratlangan kishidek Zaynabxonga qaradi. Bir muddat lablarini qimtib turdi-da:

- Opa... bo‘larini ayting, – dedi.
- Aytdim, – dedi Zaynabxon.

«O‘rnimda Jamshid bo‘lganida, unga ham shunday dermidi? – dedi ichida Tilov. – O‘gay-da, o‘gay bu... Nega otam boshqaga uylana qolmadi? Balki u...»

- Bo‘lmaydimi, opa?
- Ha.
- Rahmat.
- Enangning fikri ma’qul, – dedi ota ham.
- Otajon... Axir siz...
- Kir, darsingni qil!
- Ota... – yerga qarab to‘liqib gapirdi Tilov: – Opam bilan fikringiz bir... Axir, siz... otam! Men endi... – Tilovning qulog‘iga: «Ertaga sovchi kel-

masa, tamom», degan ovoz eshitildi. – Ota, men... ketaman... bo'lmasa bu yerdan!

– Ketasan? Qayoqqa?

– Mening tug'ilgan yerim bor... – davomini ichida aytdi: «Siz mana shu xotinni deb, u yerni tashlab keldingiz, men u yerni tashlamayman!»

– Tug'ilgan yer... – asta gapirdi Jalolov. – Xo'b vatanparvar chiqibsan-da, o'g'lim. Mayli. Bor! Ket!

Tilov otasiga anqayib qarab qoldi va orqasi bilan yurib-yurib bo'sag'agacha bordi. Divandan turayotgan Zaynabxonni ko'rди-yu, eshikni sharaqlatib ochib, burchakdagi tosni ag'darib chiqib ketdi.

* * *

– Men hech qayoqqa ketmayman! – dedi Umida Tilovning taklifiga javoban. – Nima, o'g'rimizmi, qochib ketamiz?

– Axir, ular...

– Ularni unatish kerak. Yo... sizga boshqa kishini oberishmoqchimi?

– O, yo'q! Aytdim-ku, aqalli o'nni bitiringlar deyishyapti.

– Siz aytmadingizmi, o'nni bitirgach, u boshqa kishiga tegib ketishi mumkin deb? Bo'ladi-ku, shunaqasiyam hayotda?

– Rost... Lekin baribir unashmaydi... Umida, ketaylik! Dashtda o'zimizning uyimiz bor. Dasht juda chiroyli. Juda yaxshi bo'p ketgan. Yashab yuraveramiz. Keyin o'sha yoqdan o'qishga ketamiz... Umida! Men uydan ketdim... Urishdim ular bilan. Otam, ket, dedi. Ketdim. Endi mening

ikkita ilinjim bor: sen-u, dasht! Ketaylik!.. Axir, nimaga? Axir, meni sevadigan bo'lsang, men qayerda bo'sam, sen ham o'sha yerda bo'lishing kerak-ku, a?

Umida jim qoldi. So'ng chuqur xo'rsinib:

– Sizda feodalizm qoldig'i borga o'xshaydi, – dedi. – O'zingizni o'ylaysiz. Nega endi siz istagan yerga men borishim kerak ekan-u, men istagan yerda siz qololmas ekansiz?

– Uf... bu gaping ham to'g'ri, – Tilov yoqasini ko'tarib, g'ujanak bo'lib oldi. – Xayr bo'lmasam, Umida. Men o'zim ketaman.

Tilov asta burildi va nimpaltosi ichiga yashirinib, «g'arch-g'urch» qor bosib ketdi.

XI

Umida Tilovning orqasidan birpas qarab turdi-da, chaqirdi:

– Tilov! Tilov, to'xtang!

Tilov olma tagida to'xtadi. Umida tez borib, uning qarshisida turib oldi, yoqasidan sho'x tortib kulimsiradi.

– Rosti bilan ketyapsizmi?

Tilov chimirildi.

– Nima, yolg'on deb o'layapsanmi?

– Yolg'on, – dedi Umida. – Menga achchiq qilib, yolg'ondakam ketyapsiz.

Tilov boshini qimirlatdi.

– Yo'q. Umida, baribir ketishim kerak edi. Men dashtlikman.

– Siz yovvoyisiz. O'qiganmisiz, Lermontovning shunday she'ri bor:

*Men yashash istayman, istayman g‘amni,
Muhabbat va baxtga achchiqma-achchiq.*

Bir muddat Tilovning oyog‘i ostida qor g“ijirladi.

– Yo‘q, Umida, – dedi u boshini ko‘tarib. – Men g‘amni yaxshi ko‘rmayman. Men g‘amdan qo-chaman. Mana, qochib ketyapman. Unga qarshi kurashishga esa, kuchim yetmaydi. Men dash-timga boraman. O‘ylaymanki, hammasini esdan chiqaraman. Umida, sen dashtni ko‘rmagansan, bilmaysan. Goho eslasam, yig‘lagim kelib keta-di. Tasavvur qilasanmi, Umida, dasht keng, juda keng. Osmoniyam – keng. Bulutlariyam – katta-katta. Dashtdayam shunaqa qishlog‘imiz bor. Lekin uni bu yerdagiday har tarafdan tog‘lar qisib turmaydi. Qishlog‘imizning o‘rtasidan daryo oqadi. Chuqur, tezoqar. Biz unda cho‘milar edik. Bu yerda tolning hidi bilinmaydi. Daraxtlar ko‘pligidan bo‘lsa kerak. U yerda juda yaxshi bilinadi. Biz shu tollar tagida oshiq o‘ynardik. Men sendan yashirmayman: shu opam bilan Jamshidlar bordi-yu, mening oshimga zahar qo‘sildi. Gap shundaki, men otamni juda yaxshi ko‘rardim. Axir, onam o‘lgan... Ayniqsa shun-dan keyin otamga juda bog‘lanib qolgan edim. U kishini o‘rtoqlaridan ham qizg‘anardim... Sen zerikmadingmi, Umida, men...

– Yo‘q-yo‘q, gapiravering. Men bilmas ekan-man, siz juda obrazga kirib gapirar ekansiz.

– Kechirasani, Umida, artistlar obrazga kirib gapiradi... Umida, nega yerga qarading? Senga tegib ketdimi gapim? Men umuman aytdim-da.

– To‘g‘ri-to‘g‘ri. Xo‘s, davom eting.

Lekin Tilov endi davom etmasa ham bo‘lishini tushundi.

– Mayli, endi, – dedi Tilov. – Sen sovqotding, Mana, men ham sovqotdim. Mening o‘zi sovuqqa chidamim yo‘q. Dashtda bu yerdagiday sovuq bo‘lmasdi.

Umida unga tikildi.

– Ketasizmi?

– Ha.

– Ketmasangiz-chi?

– Nima qilaman bu yerda? Yo‘q, Umida, keta-man, – Tilov Umidaning yuzidan ma’no qidirdi. Umida gangib turardi. – Sen ketmaysan-a, Umida?

Umida boshini asta qimirlatdi.

– Xayr, Umida.

– A, maktabingiz-chi? O‘qish-chi? O‘qishni tashlaysizmi yo?

– Buni o‘ylaganim yo‘q... Ko‘rmaysanmi, men hamma tomonidan bog‘langanman bu qishloqqa. Dashtda beshinchи sinfgacha o‘qishadi. Qolgan-lari bu yerga kelib, internatda turib o‘qishadi.

– To‘xtang. Bo‘lmasam... siz ham internatda turib o‘qisangiz-chi?

– ...Qabul qilisharmikan?

– Nega qabul qilmasin? Internatning direktori Toshevni yaxshi odam deyishadi-ku!

– To‘g‘ri, men shu kishiga bir uchrashib ko‘ray... Qiziq bo‘ldi-da.

– Shunday qiling.

– Endi ertagacha xayrlashamiz.

– Xayr, – dedi Umida ko‘limsirab.

* * *

- Muncha yo‘qolib ketding?
- Tarixdan bir mavzuni so‘rab oldim-e.
- Jamshid ekanmi u?
- Ha, – dedi Umida va echki terisidan qilingan paxmoq po‘stakka o‘tirdi.
 - Senga o‘zi bir gap bo‘lgan, – dedi Ro‘zi xola.
 - Boshingni ko‘p aylantirma, o‘qishingni bil, – tizzasida cho‘kkalab dasturxonni u tomon surdi.
 - Keyin... endi ko‘p ham unga yaqin bo‘laverma. Katta bo‘pqoldilaring. O‘rtoqlik, do‘slik o‘z yo‘li bilan. Bas endi.
 - Qo‘ying, ona, shunday gaplarni.
 - Bolam, otang ham aytyapti-da.
 - Xo‘b. Bo‘ldi. Ikkinchı marta u bilan gaplashmayman. Qutuldimmi?
 - Senga bir gap gapirib bo‘lmaydi.
 - Ana, shunday!
- Darvozani kimdir «taq-taq» urdi. Umida sapchib turdi.
 - Hmm, – dedi Ro‘zi xola choyi tushmayotgan choynakni dastasidan ushlab silkitib.
 - Nima «hmm», nima «hmm»?! Boring, o‘zingiz oching! – Umida tappa joyiga o‘tirdi.
- Darvoza yana taqilladi va erkak kishining «Norqul aka!» – degan ovozi eshitildi.
 - Hoy, Mustafo aka-ku! – dedi Ro‘zi xola. – Sen o‘tir! – qo‘ng‘ir tivit ro‘molining yelkasida osilib yotgan uchini iyagidan o‘tkazib, bo‘ynini o‘radi, shimarilgan keng yengini silkitib tushirib, o‘rnidan turdi. Onasi chiqishi bilan Umida engashib, deraza yoniga bordi. Ro‘zi xola ustundagi elektr

nuri yoritib turgan ayvonda bir to'xtab, darvoza tarafga, «hozir», dedi. O'rtada yotgan supurgini oyog'i bilan chetga surib, keng ko'y lagi etaklarini ikki barmog'ida chimchib ushlab, sal ko'tarib, tosh zinadan pastga tushdi. Umida qaddini tiklab bir to'lg'andi va deraza darchasini ochib yubordi. Darvoza shig'illab ichkariga tortildi. Umida boshini burib, qulog'ini darchaga tutdi. «G'o'ng'ir-g'o'ng'ir» ovoz keldi. Lekin hech narsani tushunolmadi. Bir payt supa pastida onasining qorasi ko'rindi.

– Umida, buyoqqa qara.

Umida otilib chiqdi.

– Tilov akangni ko'rmadingmi?

Umida yelkasini qisdi.

– Darsda bor edilar. Ko'ruvdim.

– Yo'q. Shu oqshom? Hali?

– Hali? Yo'q. Ha, hali ko'chaga ketayotganga o'xshovdilar.

Ro'zi xola darvozaga qaradi.

– Ko'chaga ketayotuvdi deydi.

– Hech narsa demabdimi? – ovozini balandlatib so'radi Jalolov.

– Yo'q-yo'q, – dedi Umida. – Yo'q, – ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga sanchib, labini tishladi va tezgina burilib uyga kirdi.

– Nima bo'ptikan? – dedi Ro'zi xola qaytib kirib, ro'molining uchini bo'ynidan olar ekan. – Qovoqlari soliq ko'rindi amakingning. Bemahalda... Tilov qayerga ketarkan? O'zi, bu zamonning bolalariga tushunib bo'lmay qoldi.

Umida ichkari xonaga yo'naldi.

– Choy ichmaysanmi?

– Yo'q! Keyin...

* * *

Jalolov bog'ko'chadan chiqaverishda, machitning ro'parasidagi ishxonasi – jun qabul qilish punkti yonida bir to'xtadi. Kattakon ikki tavaqali darvozaning tirqishidan ichkariga ko'z soldi. Hovli chirog'i yoqiq, burchakdagi qorovulning butkasi ochiq, paxmoq po'stinining barlarini ikki yoniga tushirib, kursida o'tirgan qorovul oyoqlari o'rtasida turgan paqirdagi qip-qizil cho'qqa barmoqlarini toplayapti. Jalolovning dimog'iga o'ziga tanish, lekin negadir payqamay yurgani – tuz va oshlangan teri hidi urildi-yu, boshini tortdi.

Yo'lakka chiqib, to'xtadi. To'p-to'p odamlar kinoteatr tomondan gaplashib kelishardi.

– Ha, Mustafo aka?

Jalolov yo'lakda, yelkasida beshotar, qo'llarini uzun yenglari ichiga solib, banka tomondan kelayotgan Norqul akani ko'rди. Ko'rishdilar.

– Hozirgina Tilovingiz ham o'tib ketgandi shu tomonga, – dedi Norqul aka kinoteatr tomonni ko'rsatib.

– Do'konga chiqargandim, – dedi Jalolov. – Uyda mehmon bor edi.

– Normat berkitib ketdi. Restoran ochiq hozir. «Ko'p og'ir odam-da, – deb o'yladi Norqul aka Jalolovning orqasidan qarab. – Umidani tezroq uzatsam bo'lardi-da. Keyin o'qiyverardi ham. Jamshid aqli. Maqtaydi hamma. Umidani al-batta o'qishga opketadi. Bu zamonning bolalari o'qimagan xotin bilan turmaydi... Lekin Tilovbergan bor-da, orada. Ming qilsayam aka u. Oldin u uylanishi kerak. U qachon uylanadi?..

– Norqul aka uzoqda qorasi ko‘rinib borayotgan Jalolovning orqasidan yana qaradi va yana, – ko‘p og‘ir odam-da», – deb qo‘ydi.

* * *

Film tugab ketgan, pol qilinmagan zalda besh-oltita yigit-qiz tansa tushishar, yog‘och zina orqali chiqiladigan ikkinchi qavatdan rokn-rolning arablar o‘zlariga moslab ishlagan varianti yangrar edi. Tansa tushayotganlarning ko‘pchiliги shu kinoteatr atrofida yashaydigan rus, tatar va o‘zbek bolalari edi. Jamshidlar, umuman, maktab bolalari bularga qo‘silmas, bularni «stilyaga» deb atar va musiqaga ham qandaydir hadiksirash bilan qarashardi.

Jalolov kinoteatr qarshisida to‘xtab, eshik og‘zidan ichkariga qarab turgan kassir ayolni chaqirdi:

- Apipa! Bizning Tilov yo‘qmi shu yerda?
- Yo‘q, Mustafo aka, – dedi Apipa opa, – u kinodan keyin qolmaydi. Hali bir ko‘rinuvdi, kir dedim, kirmadi, ariqdan o‘tib uyoqqa ketdi. Internatga kirgandir – bolalarning oldiga.

Jalolov internat hovlisiga kirib, burchakda qor bilan qo‘lini ishqab yuvayotgan boladan:

- Dashtlik bolalar qayerda turadi? – deb so‘radi. Bola ko‘rsatdi. Ergashtirib borib, eshikni ochmoqchi edi, Jalolov qo‘ymadi. – Rahmat, o‘g‘lim, o‘zim, – yarmigacha parda tutilgan dera-zadan mo‘raladi.

Tilov to‘rda karavotda botib o‘tirar, sochlari kirpining po‘stiniday dikkayib ketgan bir o‘smir yog‘och sopli pichoqning uchini pastga qara-

tib, ichiga qovurdoq solib qotirilgan qo'y qornini qirqardi.

Jalolov bir zum tikilib turdi-da, sekin iziga qaytdi. Restorandan bir kilogramm shokolad bilan oltita somsa olib qaytib keldi. Sal o'tmay bu xona keng peshonali, yonog'i turtib chiqqan bir talay yoshlarga to'ldi...

Yarim kechadan og'ganda, bolalar Jalolov bilan Tilovni kuzatib chiqdilar. Osmon ochilib ketgan, yulduzlar tig'iz, sovuq charaqlardi.

– Shu-da endi, – dedi Jalolov, – odam deganning ko'ngli keng bo'lsa tuzuk. Hali bittalaring ham aytdinglar: kishiga uch gaz yer emas, butun yer shari kerak deb. Ko'p ma'qul gap. Haligi uylanishga kelsak, u qochmaydi, kishi har qanday ishga oshiqsa oshiqsin-u, lekin bu ishga oshiqmagani ma'qul. Men otalaringiz qatoriman, buni bilaman... Endi, yigitlar, kattalar o'zлari qo'yan xatoni kichiklar takrorlamasin, deb gapirodlar-da, – so'ng bolalarni uyga borib turishga taklif etib, xayrashdi.

XII

Yoz keldi. O'riklar pishdi. Jamshid Toshkentga, SAGUning jurnalistika bo'limiga, Tilov esa TIIMSXga kirish uchun tayyorlana boshladi: keyingi vaqtda uning agronom bo'lish orzusi o'zgargan, u injener-irrigator bo'lishga ahd qilgan edi. Umida esa pyesalarga sho'ng'idi.

Ularning o'zaro munosabatlari qanday?

Tilov bu to'rt oy davomida Umidaga biror marta ham yuzma-yuz kelmadidi. Lekin uni ko'rgan-

da, unga o'zi istamasa-da, taqdirga vaqtincha tan bergenini anglatar, go'yo, «yaqin qoldi, yaqin qoldi», der edi.

Umida-chi? U o'sha uchrashuvlardan so'ng bir necha kungacha parishon bo'lib yurdi. So'ng asta-sekin uning tuyg'ulari susaya boshladi. Jamshidga shunchaki ijirg'anib qarar, Tilovga nisbatan ko'nglida shunchaki iliq bir hurmat paydo bo'lgan edi. Lekin gohida obrazlar olamida sayr etarkan, o'sha bo'ronli, tabiiy hayot oqimini ostin-ustun qilib yuborishga qodir tuyg'ulari bir-dan isyon qilib qolar, lekin tezda bosilardi.

Jamshid qanday ahvolda? Buni bilish uchun uning o'ziga shu savolni berish kifoya. U yelkasini qisadi, xolos. Lekin ko'zlarida qandaydir g'ashlik va tushunilishi qiyin bo'lgan bir o'kinch ko'rindi. Shunday kunlarning birida:

– Opa, mana, o'ninchini ham bitirdik, – dedi Tilov Zaynabxonaga.

Zaynabxon Tilovga tikilib, uning vujudida barq urib turgan ishonch va qat'iyatni hamda orziqib kutilgan baxt qarshisidagi hayajonni ko'rdi-yu:

- Yaxshi, – dedi. – To'yni ham o'tkazamizmi?
- Keyin birga o'qishga ketardik-da, – dedi Tilov.
- Xo'b, ertaga sovchi yuboraman.

* * *

- Ertaga sovchi keladi.
- Sovchi? – dedi Umida qoshlarini ko'tarib.
- Ha, – dedi Tilov. – Nima edi?

Umida och pushti tirnoqlariga tezgina qarab olib, kulimsiradi.

- Shunaqami?

- Ha.
- Bilasizmi, Tilov...
- Umida, sen o'zgarib qolganga o'xshaysan?
- O'zgarganga o'xshayman?
- Yashirma, Umida, yashirma.
- Nimani yashiraman?
- Ertaga sovchi keladi. To'y ham shu hafta ichida bo'ladi.
- To'y?
- Umida!
- Sekinroq... - dedi Umida g'ijinib. - Otam uyda.
 - Xo'sh? Mana, jim bo'ldim... Gapir!
 - Men sizga aytgandim-ku, - dedi Umida dona-dona qilib, - ertaga sovchi kelmasa, sevishin-gizga ishonmayman deb o'shanda?
 - A-aa... Demak, hozir ishonmaysan?
 - Umida kulimsiragan bo'ldi, indamadi.
 - Umida, - jilmaydi Tilov, - nima qilasan meni aldab? Boshqani yaxshi ko'rdim, deb aytib qo'ya qolmaysanmi? Qiziq... Axir, o'shanda...
 - Boshqani? Kimni? Qo'ying bunday gaplarni, - Umida xotirjam gapirishga harakat qilgan bo'lsa-da, lekin qizishib borardi.
 - Umida, - Tilovning ovozi birdan pasaydi, - meni aljiratyapsan shekilli?
 - Obbo...
 - Xo'sh, endi men nima qilay? Seni... seni o'zi tushunib bo'lmaydi. Nima bo'lgan senga o'zi?
 - Menga... - pichirladi Umida. Yonoqlari lov yondi-yu, shart qayrilib ichkariga kirdi. Darvoza-ni zanjirlayotgan edi, Tilov tezgina tirqishdan qo'l

solib, uning barmoqlarini ushladi. Umida qo'lini tortib chekindi. Tilov ham ichkariga kirdi va ayvonga ko'z tashlab Umidaning qarshisiga o'tdi.

Umida yig'lardi.

– Umida! – Tilov uning qo'lini tortdi. – Umida, nima bo'ldi? O'zingni tut. Gapir bunday.

– Men o'zimni o'zim tushunmayman, tushunmayman, – dedi asta Umida va ilkis Tilovga boqdi. – Tilov, siz aytинг, men nima qilay?

– Meni... yaxshi ko'rasanmi? Oldin sen shuni ayt? – dedi Tilov.

Umida chetga boqib, bosh qimirlatdi.

– Oldin... yo'q. Hozir... bilmayman. Tilov, bilmayman.

Birdan Tilovning xayoliga: «Qiz uyalyapti», degan o'y keldi va:

– Men ketay endi, – dedi.

– Endi nima bo'ladi? Ertaga... sovchilar keladimi?

– Yo'q, – dedi Tilov sekingina.

– Yo'q?

– Ha. O'zing aytding-ku!

– Uf, Tilov, mening kelajagim yaxshi bo'lmaydi.

– Bekor gap.

– Yo'q, men bilaman, bilaman.

– Qo'y, bunaqa gaplarni... Ertaga sovchi keladi!

Umida unga qaradi-yu, anqayib qoldi.

– Umida, nima bo'lgan senga, nima? – o'shqirdi Tilov.

Umida yerga qaradi va «menga baribir-ku, baribir-ku!» – dedi. Dedi-yu, yana uzoq tumanlar orasidan Jamshid ko'rindi, yana qalbini uzoq

tumanlar orasidan tanish tuyg'ular, fikrini tanish o'ylar o'rab ola boshladi: «Hamma – odam... Jamshid... Tilov meni sevadi... O'ch... Qaynim... Katerina... Jamila...»

– Xo'sh? – dedi Tilov.

– Hozir, – Umida yana bir zum o'ylanib turdi-da, – ertaga ertalab javobini aytaman, – dedi.

Ertasiga:

– Sovchi kelsin, bugunoq kelsin, – dedi.

Tilov Umidaga boqib, o'sha qish kunida, ko'cha muyilishida: «Meni sevasizmi?» – deb turgan shaddod qiz Umidani ko'rdi.

* * *

– Xo'sh, nega sen xursand bo'lmayapsan, Jamshid uka?

– Nega, xursandman, – dedi Jamshid. Lekin uning xursandligini ham, xafaligini ham bilib bo'lmasdi.

* * *

Umida to'yning ertasiga uyg'onib, o'zini qip-qizil baxmallar bilan bezatilgan notanish uy ichida ko'rdi va atrofga gangib nazar soldi. So'ng birdan o'zini Mirzakarimboyga tushgan Gulnorga o'xshatib, ma'yus kulimsiradi. Shu payt hovlidan eshitilayotgan g'ala-g'uvur erkaklar ovozi va kimnidir kimga shoshilinch ish buyurgani qulog'iga kirdi-yu, asta o'rnidan tura boshladi. Yarim turib, egnidagi oq, ipak ko'ylakka ko'zi tushdi va behol tortib qoldi. So'ng cho'chib yoniga qaradi. «Nahotki, shu yerda Tilov yotdi kecha?» Yostiqqa qaradi. Yostiq aslicha, qappa-

yib turardi. Umida garangsib derazaga boqdi. Tashvish, tashvish, tashvish... «Hammasi men uchun», dedi o'ziga o'zi. Eshik qiya ochilib, Tilovning dag'al sochli, keng yuzi ko'rindi. Umida tezgina o'ringa kirib, ko'rpani tomog'igacha tortdi, xayolidan: «Shu mening erim», degan o'y o'tdi. Tilov kirib, burchakdagi stulga o'tirdi. Qo'llarini tizzasiga qo'yib, uyalinqirab, kulimsirab, Umida-ga termildi.

– Nega kirdingiz? Chiqib turing, chiqing, – dedi birdan Umida. Tilov qizarib o'rnidan turdi, chiqdi. Umida ham tezgina o'rnidan turdi-da, xuddi ichki ko'ylagiday oq, ko'kragiga ko'k ipak bilan chiroyli gullar tikilgan, yengi kalta ko'ylagini kiydi. Toshoyna yonida sochini naridan-beri tarab, eshikdan mo'raladi, tezgina dahlizga chiqib, burchakdagi xanikda yuz-qo'lini yuvdi. Qaytib kirib, oppoq sochiqqa artindi va to'shangini yig'ishga tushdi. Yig'arkan, «kampirlar yig'adi», deyishardi, deb o'yladi. – Endi ertaroq turish kerak. Kelinlar erta turishi kerak. Kelin... kelin? – Umida bir daqiqa tinch qoldi. – Endi men kelin? – o'zini ko'zga ko'rinnmas salmoqli bir narssa birdan bosganini his qildi va xayoliga lip etib Jamshid keldi. – Qaynim... qaynim! He, – bu so'z endi unga favqulodda hech qanday lazzat bermadi. Bu so'zda hech qanday haqoratomuz, achchiq bir ma'no yo'qday: ukam, akam, singlim kabi so'zday tuyuldi. O'rinni yig'ib bo'lib, bo'shashib turib qoldi. So'ng asta deraza yoniga bordi. Shohsupa pastida, yero'choqdan chiqarib tashlangan chalalar yonida Jalolov bilan otasi

Norqul aka gaplashib turar, turganlari ko'yi choy ho'plashardi. Umida otasining yuzini ko'rmadi, ammo quvonchini shundoq sezdi. – Hozir otam ketadi. Men qolaman, – deb o'yladi. – Qolaman? Shu uyda? Hamishaga? – Umidaning yuragi siqilib ketdi. – Yo'q, yo'q! Yo'q... O'n kundan so'ng ketaman. Toshkentga! Teatr institutiga, – Umidaning o'yiga bir muddat sahna keldi. Qora kiygan, atrofga qo'rquv bilan boqayotgan Katerina, kimxoblar ichidan tevarakka yig'lab boqayotgan Jamila keldi. Umida birdan o'ziga nazar soldi. – Nega men yig'lamayapman? Nega qora kiyimda emasman men? So'ng ko'z oldiga vaysaqi, och it-day alanglagan Hojiona va Katerinaning to'rsaygan, lorsillagan qaynonasi Kabanixa keldi.

Eshik taqilladi. Zaynabxon kirdi. Umida bilan quchoqlashib ko'rishdi, qanday uxlaganini so'radi. So'ng birgalashib, burchakdagi ustiga oq dasturxon yopig'liq xontaxtani o'rtaga tortilar. Tevaragiga yangi, beqasam ko'rpachalar soldilar. Sal o'tmay, Ro'zi opa ham kirib keldi. Anchagina chaqchaqlashib, kulishib o'tirdilar. Birozdan so'ng Umida yana xoli qoldi. U kutgan, sodir bo'lishi, bo'la boshlashi kerak bo'lgan narsalar qorasini ham ko'rsatmagan edi. Bundan keyin ham ko'rsatmaydiganday tuyuldi Umidaga va birdan uylariga ketgisi kepqoldi. Eshikka yalt etib qaradi, qaradi-yu, shu eshik ham uning ketishiga to'sqinlik qilishini angladi. «Nega? Nega?.. Men endi kelin... Tilovning xotini... Jamshid mening... Jamshid! Qani u? Nega ko'rinxaydi? – Umida yoniga surilib, yana derazaga

qaradi. – Ana-ku u! Tilov bilan gaplashib turibdi. Xursand. Kulimsirayapti. Nega? Nega xafa emas? Nega g‘amgin emas? Nima bo‘lyapti o‘zi? Nimalar bo‘lyapti? Nima qilib qo‘ydim men?.. Qaynim... Oddiy so‘z. Nima bo‘ldi? Nima qildim?»

Shunday qilib, Umida to‘yning ertasigayoq o‘z niyatiga erisholmaganini, o‘zini o‘zi aldaganini, uning o‘ylari bilan tabiiy hayot to‘g‘ri kelmagani-ni tushundi.

XIII

Bir oqshom Tilov xotini bilan kinodan qaytib kelayotgan edi. Kuchli shamol esar, oyoq ostida xazon shildirab yugurardi. Tilovning oyog‘i toshga to‘qnashib ketdi-yu, oldinga sakradi. Umida unga bir qaradi-da, yurishda davom etdi. Tilov kulimsirab, uning qo‘ltig‘idan oldi. Ammo bir necha odim yurmay, Tilovning miyasiga bir fikr keldi: «Umida mening qo‘ltig‘imdan hech ushlab yurmaydi-ya». Yana bir necha qadam yurgach, Tilov astagina qo‘lini Umidaning qo‘ltig‘idan sug‘urib oldi va u bilan yonma-yon keta boshladи. Umida boyagi-boyagiday yurib borar, Tilovning qo‘lidan ushslashni, aftidan, xayoliga ham keltirmasdi. Tilovning ko‘ngli xijil bo‘ldi.

Ko‘chaga egilgan tanish olma shoxi tagidan o‘tdilar. O‘tdilar-u, bultur shu yerdan o‘tisha-yotganda, Umidaning shoxni tortib qo‘yvorgani, qorning hammasi o‘zining ustiga to‘kilgani Tilovning yodiga tushdi. Tilov odatda kinodan chiqqach, yo‘l bo‘yi og‘zi gapdan tinmas, Umidaning ko‘pincha artistlarning o‘yinga tegishli

mulohazalarini shak-shubhasiz quvvatlar, uni davom ettirib, to'g'riligini qo'shimcha misollar bilan isbotlar va filmning o'zi juda yaxshi tu-shungan juda nozik o'rinalarini ham atayin, o'zini go'llikka solib, Umidadan so'rardi. Bu oqshom uyga yetguncha, bir og'iz ham gap qotmadi. Umi-da ham miq etmadi.

Ayvonga ko'tarilisharkan:

– Jamshiddan so'rang, Chexovini bersin. Uchinchi tomini, – dedi Umida.

Tilov titrab to'xtadi. Sekin burilib, Jamshid-ning xonasiga kirdi.

Jamshid karavot boshiga yelkasini tirab o'ti-rar, tizzasining ko'ziga jildi qalin, qora bloknotni qo'yib, qalam bilan bir narsalarni yozardi.

– Keling, aka, – dedi u va bloknotdan bezor bo'lganday uni yoniga tashlab, karavotdan tushdi.

– Chexovning uchinchi tomini berarkansan.

– Pyesalarinimi? – Jamshid turib, stol to'riga taxlab qo'yilgan kitoblar orasidan uchinchi to-mni oldi, ochdi va yozuvchining rasmiga tikilib qol-di. – Xuddi, xo'sh, gapiring, ichingizda nima bor, deb turganga o'xshaydi-ya?

Tilov kulimsiradi.

– Sening ham ichingda ko'p gap bor-a, uka?

– Gapsiz odam bo'limasa kerak.

– Hozir ayt-chi! Shu tobda ko'nglingda nima gap bor?

– Shu tobdam? Shu tobda hech nima yo'q. Lekin bir soniya burun bitta she'rning mazmuni bor edi.

– Qanday?

– Mana, kuz ham kelyapti. Qushlar uchib ketadi issiq ellarga. Nima uchun? Yangi kuch yig‘ish uchun, yangi parvozlar uchun. Ba’zi qushlar esa, qoladi. Ular qiziqmaydi, uzoq ellar bilan. Shu yer, tug‘ilgan yeri yetadi, ularga. Zerikmaydi bular. Shunga hayron bo‘laman.

– Shumi?

– Shu.

– Men esam hayron bo‘lmayman. Bularning qanotlari zaif. Ko‘rmaysanmi, mana, musicha. U bog‘ atrofini bir aylansa, charchab qoladi. Shuning uchun bu yer unga afzal.

– Mening g‘ashim keladi musichaga, aka. U o‘zi yaxshi qush, beozor qush, o‘ylashimcha, bizza unchalik sodiq qush bo‘lmasa kerak. Lekin baribir men uni ayblayman. Chunki uning parvozi yo‘q.

– Parvozni juda sevasan-da, ukam.

– Ha, aka.

– Mana, erta-indin biz ham parvoz qilamiz... birga.

– Aka, siz hech o‘ylab ko‘rdingizmi, nima maqsadda parvoz qilar ekanmiz?

– Bu nima deganining? O‘qishga-da.

– Xo‘sh, nima uchun o‘qiymiz?

– Qiziq, o‘qimasa bo‘ladimi?

– To‘g‘ri, bo‘lmaydi. Lekin maqsadimiz bor. Sizning maqsadingiz nima? Injener bo‘lish? Xo‘sh. Mening maqsadim – jurnalist bo‘lish. Umidaning maqsadi aktrisa bo‘lish. Ha. Nima uchun?

– Uka, sen jurnalist bo‘lmaysan. Faylasuf bo‘lasan.

– Nima maqsadda yashashni o'ylagan odam agar faylasuf bo'ladigan bo'lsa, hamma faylasuf bo'lishi kerak. Aka, bugun Yetimtepaga chiqqan-dim. Sizning xush ko'rgan tepaligingizga. Yana o'quvchilarni ko'rdim. Aka, ishonasizmi, men shuncha vaqtidan buyon, go'dakligimdan shu te-palikka chiqarkanman-u, Naim akaning qabrini ko'rarkanman-u, lekin bu to'g'rida hech o'ylab ko'rмаган ekanman. Nima uchun? Nima uchun Naim aka u yerda yotibdi? Nima uchun odamlar ziyorat qiladilar. Nima maqsadda u o'lgan? Aka, u bizlarning – avlodlarining baxtli yashashlari uchun o'lgan. Mana, bizlar baxtlimiz. Aka, o'ylab qarasam, tariximizda bizchalik, urushdan keyin ko'zi ochilgan avlodchalik baxtli avlod o'tmagan. Nimani ko'rdik biz? Inqilobnimi? Fuqarolar uru-shinimi? Yo qizg'in qurilishlarnimi? Yoki Ikkinci jahon urushinimi? Ko'rmadik. Faqat o'qidik tarixdan, eshitdik odamlardan. Shunda ham ba'zan yaxshi o'qimadik. Keksalar gapirganda esa, ba'zan «ezma» deb, «nasihatgo'y» deb quloq solmadik, ularga. Mana, yashayapmiz. Baxtlimiz. Butun avlodlarimiz tayyorlagan mevaning bahrasini biz ko'rayapmiz. Xo'sh, endi nima qiliш kerak? Shunday yashayverishimiz kerakmi? Otalarimiz nima uchun kurashdilar? Men, aka, otalarimiz deganda, o'sha Naim akamniyam, o'sha o'z otamniyam, onamniyam, boringki, bizning baxtimiz uchun kurashgan kishilarni tushunaman. Ular hayot baxtli bo'lsin, deb kurashgan ekanlar, bizning vazifamiz uni yanada baxti-yorroq qilish emasmi? Shu, aka, bizning o'qish-

ga borishimiz ham, institutlarga kirishimiz ham xuddi shu maqsadda! – Jamshid o‘rnidan turib ketdi. U, Tilov tinglayaptimi, tinglamayaptimi – bu bilan ishi yo‘q, qizishib gapida davom etardi: – Biz o‘z yurtimizni sevamiz. Ammo vazifamiz faqat sevish, zavqlanish, maza qilish emas, yo‘q! Ularni yanada sevimliroq, zavqliroq qilish. Ha.

– Uka, bu gaplarni bilaman men ham. Darsda o‘qiganmiz.

– Ha, o‘qiganmiz! Lekin bu haqda o‘ylab ko‘rganmizmi hech? Mana, bitta kishi... Kechirasiz, sizning xotiningiz...

– Xo‘sh?

– Aka, iltimos, meni to‘g‘ri tushuning. U kishi kim bo‘lmoqchi? Aktrisa! Shundaymi? Xo‘sh, qanday aktrisa? Mashhur aktrisa! Nima maqsadda? Ana, gap qayerda? Men Umida bilan yoshlikdan do‘sit edim. Uning o‘ylari, maqsadlarini oz-moz bilaman. Men ilgari bularga e’tibor bermas edim. O‘sha, yashashimizdan maqsad nima ekanini o‘ylab ko‘rmas edim-da. U aktrisa bo‘lib, xalqqa xizmat qilishni emas, Katerina, Jamila, Nina bo‘lib, hayotdan dod deyishni orzu qiladi. Eshitganmisiz? Bilasizmi? Xo‘sh, shu zamon odami, shu avlod, bizning avlodimiz vakili shunday orzu qilishi yaxshimi? Yo‘q, aka, ehtimol, hozir u bu fikridan qaytgandir. Albatta, qaytadi. Turmush bunga yo‘l bermaydi. Keyin aka, xotiningizda yana bitta yomon odat bor. Bu – birovdan o‘ch olish, to alamidan chiqmaguncha tinchimaslik. Bu yoshligidan bor edi unda. Aka, o‘chda ham o‘ch bor. Otalarimiz tuprog‘imizni bulg‘aganlar-

dan o'ch oldilar, shu yo'lda ko'plari halok bo'l-dilar. Bu o'ch boshqa endi! Bu dushmanga nisbatan o'ch! Qonuniy o'ch! Ammo u o'ch-chi? O'z odamingga, o'z do'stingga nisbatan o'ch-chi?

– To'xta, to'xta, Jamshid, Umida kimdan o'ch oldi?

– Bilmayman... bilmayman... o'zidan so'rang...

Tilov jim turdi, turdi-da:

– Men to'g'rimdayam fikring bormi? – dedi.

Jamshid Tilovga qarab, uning haqoratlangandan-day alamli ko'zlariga to'qnashdi va:

– Aka, endi men o'ylaganlarimni aytyap-man-da, – dedi. – Mayli, gapirmayman.

– Endi, uka, musichayam kunini ko'radi. Agar uyam uzoq ellarga ketsa, bilmadim, sen sevgan bog'lar huvillab qoladi. Uning ham parvozi bor, lochinchalik bo'lmasa ham. Lekin uning aybi: o'zi tug'ilgan, o'sgan yerini yaxshi ko'radi. Umidaga kelsak... haligi gaplaring mening uchun yangi gaplar. Bilmadim.

* * *

– Bitta kitobni opchiqishga shuncha vaqt ketdimi?

– Gplashib qoldim.

– Ana, ovqatingizni yeng.

Umida kitobni yulqib olib, divanga o'tirdi. Stol chirog'ini o'ziga yaqinroq surdi.

Tilov zo'rg'a ovqatlandi. So'ng turib anchagacha nari-beri yurdi-da, Umidaning yoniga kelib to'xtadi.

– Umida, uch kun qoldi ketishimizga. Darsliklarni o'qisang-chi? Buni o'qishga hammavaqt ham ulgurasan.

– Mening darsligim shu, – dedi Umida. Bir muddat kitobga tikilib turdi-da, Tilovga bir qadar muloyim qaradi. – Axir, pyesalarni qancha ko‘p bilsam, shuncha yaxshi-da. Mahoratga qarasharkan.

Tilov burilib, yana nari-beri yurdi. Stolning tortmasidan «Lalmikor yerlar» degan broshyurani oldi. Varaqlagan bo‘ldi, yana joyiga solib qo‘ydi.

- Yotmaysanmi?
- Yo‘q.

Tilov taxmon tomon burilgan edi, Umida kitobni qo‘yib turdi, tezgina joy solib, yana divanga kelib o‘tirdi.

- Tilov o‘rniga kirib qo‘llarini yostiqqa qo‘yib yotdi.
- Umida, sening achchig‘ing tez-a?

Umida indamadi.

- Sen biron kishidan o‘ch olganmisan?
- Nima?

Tilov boshini ilkis orqaga solib, Umidaning tepadan o‘qrayib turgan ko‘zlariga boqdi.

- O‘ch olganmisan deyapman?
- Nimaydi?
- O‘zim.
- Jamshid nima dedi sizga?
- Jamshid? Nima deyishi kerak edi.
- Nima deyishi... men qayerdan bilaman?

Shuncha qolib ketdingiz, biron narsa degandir-da, ilgari chiqmasdi bu gaplar sizdan.

- To‘g‘ri.
- Menga qarang, uxlasangiz, uxlang, bo‘lmasa, menga xalaqit bermang.

Tilov choyshabni tortdi. Umida o'qishda davom etdi. U Ninaning Trigorindan ajralib, aktrisa bo'lish orzulari barbod bo'lib qaytib kelgach, uni jon-dilidan sevuvchi, unga hayotini ham bag'ishlashga tayyor turuvchi Treplev bilan tunda uchrashib qolgan yerni o'qigan edi, yana qayta o'qidi:

«Nina (qulq solib). Tss... Men ketay. Xayr. Men mashhur aktrisa bo'lib ketganimda, ko'rgani keling. Va'da berasizmi? Endi xayr... (qo'lini qisib). Kech bo'lib qoldi. Men zo'rg'a tikka turibman... Juda holdan ketganman, ovqat yegim kelayotibdi.

Treplev. Qoling, ovqat keltiraman.

Nina. Yo'q, yo'q... Kuzatmang meni, o'zim yetib olaman... Otlarim yaqinda turishibdi... Demak, Irina Nikolayevna uni o'zi bilan birga olib kelib-di-da? Mayli, baribir. Trigorinni ko'rganda, unga hech narsa demang. Men uni sevaman. Men, hatto ilgarigidan ham qattiqroq sevaman... Sevaman, qattiq ehtiros bilan sevaman. Ilgari yaxshi edi, Kostya! Xotiringizdam, qanday ravshan, iliq, xushchaqchaq turmush edi. Naqadar totli hislar – xuddi chiroyli, nozik gullarga o'xshash hislar...»

Umida o'qishdan to'xtadi. Bir zumda uning alamli, tajang ko'zları muloyimlashib, siniq, hayajonli va telbanamo bir ifoda qalqdi ularda. Lablari quruqshab, yuzida og'riq ko'pchidi. U xuddi Nina bo'lib oldi va ovoz chiqarmay bu parchani xayolida takrorladi.

Tilov qisqa-qisqa nafas olib yotardi. Nihoyat, chiroyq o'chdi. Umida o'ringa kirdi va teskari qa-

rab yotdi. Tilov titrab uning yelkasidan ushladi.
O'ziga qaratdi.

– Ha? – dedi Umida bo'g'iq.

– Umida, menga bir narsani ayt. Faqat yashirma. Meni... sevasanmi, yo'qmi?

Umida Tilovga tikilganicha jim qoldi.

– Nega o'ylanib qolding, Umida?

Umida derazaga qaradi.

– Shu savolga javob berish ham shunchalik qiyinmi?

– Sekinroq.

Tilov holsizlanib, choyshab chetini tishladi, lekin tezgina tuflab tashladi.

– Jon, Umida, rostini ayt. Senga bir og'iz ham qattiq gapirmayman. Faqat ayt, sevasanmi? Menga sevib tekkanmiding? Rostini ayt.

Umida chucur xo'rsindi.

– Men... endi sizning xotiningizman-ku! – dedi u nihoyat.

– Yo'q, baribir. Qaytaga aytishing kerak.

– Aytaymi?

– Ayt.

– Keyin xafa bo'lmaysizmi?

– Yo'q. Aslo.

– Yo'q, baribir xafa bo'lasiz.

– Aytdim-ku, axir?

– Mayli... Jamshidning menga munosabatini bilarmidингиз?

– Bilardim.

– Qanday edi?

– Do'st... do'stlarcha, do'stona...

– A, menikini-chi?

- Oz-moz.
- Shu. Bilsangiz... men haliyam... uni sevar ekanman.

Tilov og'zini katta ochib, kalta-kalta nafas oldi. So'ng ko'zlarini yumib, yuzini yostiqqa bosdi. Yostiq birpasda qizib ketdi.

- Aytmadimmi... xafa bo'lasiz deb?
- Yo'q-yo'q, xafa emasman, hech xafa emasman, – dedi Tilov tezgina. Oyog'i Umidaning oyog'iga tegib turganini fahmladi-da, darrov torrib oldi.

– Tilov.

Tilov indamadi va yostiqni ag'darib yotdi, lekin yostiqning bu tomoni ham tezda qizib ketdi. Tilov yostiqni g'ijimlab nari surdi.

- Tilov, – dedi Umida yana, – ket desangiz... ketaman, mayli.

– Bas! – Tilov sekin turib, tez tashqariga chiqdi.

Shamol, shamol! Oy ko'rinxaydi, go'yo uni ham shamol uchirib ketgan. Bog' tolg'anadi, shovullaydi. Qars etdi bir narsa – shox sinib tushdi.

Tilov supadan tushib, shamolga yuzini tutib turdi. Sal sovidi. Burildi. Burildi-yu, biqinidagi uycha derazasiga ko'zi tushdi. Chiroq. O'g'riday sekin yurib, deraza yoniga bordi. Deraza balandroq edi. Oyog'ining uchida ko'tarilib qaradi. Jamshid uy o'rtasida qo'llarini yoniga tushirib qaqqayib turar, bir narsaga diqqat bilan qulq solayotganga o'xshardi. Tilov chimirilib, tovonini yerga qo'ydi. Qo'ydi-yu, o'zini birdan g'arib his qildi. «Men nimaga o'rtanyapman? Nimani o'yla-

yapman? Pachoq odam men! A, bu-chi? Jamshid-chi?» Tilov devorga suyandi. So'ng bir-bir bosib uyga kirdi. To'shak tomon borarkan, Umidaning nariga surilganini sezdi. Umidaning kasali bor-u, tegib ketsa yuqib qoladiganday, ko'rpani astagina ko'tarib, chekkaga cho'zildi. Yuzini yostiqqa qo'ydi. Yostiq nam, issiqliqina edi. «Yig'labdi» deb o'yladi. So'ng birdan yuragi achishib ketdi. Unga achindi, o'ziga achindi. Yonida xotini Umida emas, o'z baxtini o'zi qora qilgan, aldangan nochor kim-sa yotganday bo'ldi. Umidaning yelkasidan jur'atsizgina tortdi. Umida itoatkorlik bilan burildi-da, Tilovning bo'ynidan mahkam quchoqladi. Uning yuzlari ham ho'l edi. Bir payt Tilov Umidaning bir nima deb pichirlayotganini eshitdi:

- Men sizni xafa qildim, Tilov, xafa qildim.
- Yo'q, yo'q, - dedi Tilov.
- Siz uni yuragingizdan chiqaring. Mening uchun u yo'q. Allaqachon... allaqachon...

Tilov titrab, uni bag'riga bosdi.

- Meni yakka qoldirmang, qoldirmang.
- «Eshikka chiqqanimda», deb o'yladi va:
- Meni kechir, kechir, - dedi... Biroq oradan ikki kun o'tgach, Tilov Umidani bir yoki bir necha soatga ham emas, uzoq, uch yil muddatga tashlab ketadigan bo'ldi: u harbiy xizmatga chaqirilib qoldi.

* * *

Tilov erta ketadigan kuni Umida tun bo'yi mijja qoqmay chiqdi. Mashina yonida eri bilan xayr-lasharkan, sassiz shunday yig'ladiki, go'yo Tilov uch yilga emas, manguga ketayotganday edi. Tilovni ham favqulodda hayajon bosib, qandaydir,

qo'rqinchli bir narsaning boshlanayotganini, ya-qinlashayotganini his etdi, ammo o'zini tutdi.

– Yig'lama, – dedi Tilov Umidaga, – yig'lama. Hademay uch yil o'tib ketadi... Biz ikkalamiz bir-ga institutga ketamiz.

Oila a'zolari o'zaro kelishib, Tilov harbiyni bitirib kelgunicha Umidaning uni kutishiga, un-gacha biror mактабning drama to'garagida ish-lab turishiga qaror qilgan edilar.

– Sen artist bo'lsan, men – injener. Ko'rasan, bu tog'dan baribir suv chiqaraman, Umida. Umi-da, xudo ursin, men aniq eshitdim. Tog'ning tagi-da suv bor ekan. Bir vaqtlar uni injenerlar ham tekshirishgan ekan. Lekin u suvni ochsalar, bu qishloqni ham, yaqin-atrofdagi qishloqlarniyam suv bosib ketarkan. Lekin men uning yo'lini topaman. Ochaman. Keyin u suvni dashtimizga olib boraman. Sen bilmaysan, bizning dashtni. U yerda hamma narsa bor. Faqat suv yo'q. Kich-kinagina daryochasi nima ishni qila olardi? Suv bo'lsa, mana shu yerdagi chorborg'larday bog'lar bunyod bo'ladi. Balki bu yerdan ham chiroyli bo'lib ketadi. Boyoqish buvimizni eslaysanmi? Nima deb vasiyat qilgan edilar. Uning vasiyatini juda o'rinalatib ham bajaramiz shunda. Umi-dam, men suv chiqargandan keyin seni Shirin deb atayman, xo'bmi?

Umida uvvos tortib yig'lab yubordi. Tilov Zay-nabxon bilan xayrlasharkan:

– Keliningizga ehtiyyot bo'ling, opajon. Bitta il-timosim shu, – dedi. So'ng Jamshidning yoniga bordi. – Mana, uka, parvoz qiladigan bo'ldik.

– Sizga havasim keladi, aka.

Tilov kulimsiradi.

Tilov otasi bilan uzoq gaplashdi. Ota uning gaplarini diqqat bilan eshitdi-da, u so'zini tugatgach, bir narsadan hayron bo'lgan kishiday, o'g'liga parishonhol boqdi, so'ng o'qraydi. Tilov esa boshini egib xo'rsindi.

Uyga qaytib kelisharkan, Jalolov Jamshid bilan Umidaga tikilib-tikilib qaradi.

* * *

«Buyog'i nima bo'ladi?» deb o'yladi Umida shu kecha va shu kecha birinchi marta burilib, orqasiga, bosib o'tgan yo'liga qaradi. Bolalik... o'yin-qaroq bolalik... o'qish... Jamshid... obrazlar... o'ch... Tilov... kelin... uy...

«Nima bu?» Umida birdan o'z hayotida hech qanday ma'nili, tabiiy bir narsani ko'rmadi. Nazarida, shu kunga qadar qandaydir bir rolni o'ynab kelayotgandek edi-yu, favqulodda pyesa tugayotgandek tuyuldi. So'ng shuning uchun o'tmishni eslayotgandek, demak, xulosa, yakun yaqindek tuyuldi. Yakunni o'yladi. Tasavvur qilolmadi. U ham ma'nisiz, notabiiy bo'lishi kerakligini sezdi. «Qachon?» Bu ham noma'lum. «Shunday yashayveramanmi endi? Kim bo'lmoq-chi edim?» Aktrisa... Yo'q, yo'q: Katerina, Jamila, Nina... Endi aktrisa ham bo'lolmaymanmi? Men sahnada o'ynashim kerak! O'ynashim kerak! Qachon? Uch yil... besh yil... Nega Tilovni kutishim kerak? Nima uchun? Axir, men Tilovni sevmayman-ku? Tilov, Tilov! Meni sevma! Men arzimayman! Men aldoqchiman. Zaynab opa, siz meni yaxshi ko'rasiz-a? Meni jigarim deysiz-a? Men

esam, begonaman, ha, begonaman, opajon! Men riyokorman! Men aldab yuribman sizni ham. Men... bu oiladan ketishim kerak! Ketishim kerak. Men, umuman... Yo‘q-yo‘q. Men yashashim kerak! Men aktrisa bo‘lishim kerak!» Shunda birdan Umidaning ko‘z oldiga ilgari o‘qigan pyesalari, ulardagi mag‘rur, kelajakka ishonuchi odamlar uchun bir ish qilish istagida yurgan ko‘ngli ochiq, nurli ayollar keldi. «Meni o‘z saf-laringizga olingizlar, – shivirladi Umida. – Men sizlarning rollaringizni... Yo‘q-yo‘q. Men o‘zimni oqlayman. Men ham pok bo‘laman. Men ham sizlarday yashayman. Men, men, axir, yigirmanchi asr odamiman!

Xayr endi, xayr. Hammangizga xayr!»

Ikki kundan keyin Jamshid ketdi.

Yana ikki kundan keyin esa, ertalab kichkinagina tuguni bilan tashqariga chiqdi Umida. Tevarak-atrofni yengil oq tuman qoplab yotar, Yetimtepa usti och sarg‘ish edi. Umida daraxtlarga, yo‘llarga, uyga, mehmonxonaga bir-bir qaradi. Birdan hammasining qadrdon bo‘lib qolganini his qildi-yu, ko‘ziga duv yosh keldi. Xayr! Tez-tez yurib yo‘lka bilan darvoza tomon ketdi.

Darvozadan chiqib, oq-sarg‘ish tuman ichiga singib ketdi.

Zaynabxon choshgohlarda Umidaning uyiga kirib, stol chirog‘iga suyab qo‘yilgan, Umidaning qo‘li bilan yozilgan bir xatni topdi.

«Opajon! Men uylaringizdan butunlay ketdim, – deb yozgan edi Umida. – Men birov bilan qochib ketganim yo‘q. Yoki sizlardan yomonlik ko‘rib ketganim yo‘q. Balki yomonlik ko‘rganimda shun-

day yashayverarmidim? Opajon, meni kechiring deganim bilan baribir kechirmaysizlar. Men o'zim ham o'zimni kechirmayman. Men faqat bir narsani xohladim: avvalambor sizlarni, so'ngra o'zimni aldab yashagim kelmad... Buning sabablari juda murakkab. Balki Tilov bilan Jamshid keyinchalik gapirib berishar – ular bilishadi. Opajon, shu ketishda men o'z ota-onamning ham yuzini qayta ko'rmasman. Lekin nachora? Odam bo'lib, kishilarni aldamay, o'zimni aldamay, yashagim keldi...»

1964

TABASSUM

Jalil aka deraza tagida yotardi. To'shakda. Bolishi baland. Unga suyanib, boshini ko'tarsa, bog'ni ko'radi. O'zi obod qilgan bog' u. Eng qari yong'oq «oltmish»ga kirdi. U bilan bir vaqtida ekilgan tut kesilib ketdi. Kallaklanaverib quridi. Keyin yiqitib, g'o'la qilib olishdi.

Jalil akaning o'zi ham ketish oldida. O'sma bilan og'rigan. Biladi. Doktorlar ko'p vaqt yashirib yurishdi. Lekin Jalil aka ovqatdan qolayotgani, ozib ketayotganidan qo'rqib yurardi. Bir kuni sevimli nevarasi – yolg'iz o'g'lining yagona qizi Sadafdan so'radi: «Bolam, dardni kasal odam bilsa, o'ziyam tuzalishiga ko'shish ko'rsatar ekan. Eshitganim bor. Sen begona doktorlardan so'ra, bolam. Dardim nima ekan? Faqat rostini aytasan, xo'bmi?» «Xo'b, bobojon», – dedi Sadaf. Oradan bir kun o'tmay Sadaf quti o'chib keldi. Bobosi yoniga cho'kkalab xo'b yig'ladi. Keyin: «Bobojon, aytishga tilim bormaydi-da», – dedi. «Nevaram, men seni o'zim katta qildim... ko'tarib. Meni... bobongni yaxshi ko'rsang, hurmatlasang, borini ayt». «Bobojon, o'zingiz ham unga qarshi... ish qilasiz-a?» «Albatta-da! Nima deb edim senga?» «Bobojon, kasalingiz – saraton ekan». Sadaf yana izillab yig'lay boshladи.

Jalil aka, odamlar aytishicha, Jalil ota karaxt tortib qoldi: qayoqdan paydo bo'ldi bu dard? Ko'p-a, hozir... Qariya ancha sukutga tolib yot-

gach, xo'rsindi. Bu dard – bedavo ekanini eshitgan va chamasi o'zining «kasalligi» ham shunga yaqin-roqmikan, degan xayollarga ham borgan edi.

«Qismat ekan-da, – dedi. – Vo darig'. Yo'g'-e... O'ksish bekor. Birniki o'tdan, birniki suvdan... Meniki shundan ekan. O'zi bir hisobda yoshimni-yam yashab bo'ldim. Men tengi qurdoshlarimdan kimlar qoldi? Ha-a, Mo'min... bor. U mendan ikki-uch yosh katta-ya. Yuragi butun ekan-da! Ha, uning yuragi butun, – Jalil ota g'ashlanib o'ylay boshladi. – U boshqacha... Yomonga, nomardga... o'lim yo'q deydilar-ku! Ha-ye, mayli... Uyam yashasin. Baribir dunyoga ustun bo'lmaydi. Birrovga o'lim tilagandan...»

U o'zining saraton ekani, ya'ni o'sma kasaliga mubtalo bo'lganini eslab, ayanch ila jilmaydi. Kunlar o'tdi, oy o'tdi.

Qariya ba'zan tongga yetishi gumondek sezardi o'zini, ba'zan shu yotishda ming yil yashay-digandek edi. Lekin keyin-keyin o'g'lining ham, kelinining ham o'ziga tikilib-tikilib qarashidan angladiki, kasali nimaligi ularga ham ma'lum. Biroq miq etmadi. Ular... ular otaning hademay turib ketishini bashorat qilishardi.

Bir kuni hovlida yugur-yugur ko'p bo'ldi. Kim-lardir kelishdi. Jalil ota kechasi uxlolmagani, o'ylanib chiqqani uchun kunduzi uyqu bosib yotgan edi.

«Ha, birontasi kelgandir-da», deb qo'ydi.

Biroq kechga tomon hovlida tag'in yugur-yugur bo'lib qoldi-da, keyin hammayoq tinchidi. Keyin qosh qorayganda, o'g'li Shokir novcha qomatini egib, eshikdan kirdi.

- Salom alaykum, ota.
- Ke, o'g'lim, o'tir.
- E, bir-ikki odam keldi. Sizni bezovta qilmasin, deb bu yerga kiritmadim.
- Kim ekan ular?
- Sovchilar-da! Nevarangizga.
- A-a, Sadafning ham bo'yи yetib qoldi. Shuning to'yini... tinchiganini ko'rsam, armonim yo'q edi.
- E, hali chevarayam ko'rasiz, ota.
- Yo'-o'q, bolam... o'lim – haq. Bir yerda gurung bo'lib edi. He, yosh edim o'shanda. Lekin esimda qolgan. Bir komandirimiz bo'lgich edi.

Shokir kulimsiradi.

- Komandir...
- Ha, endi, mullayam bilganini o'qiydi-da, bolam... Bizning yoshlik o'z yo'liga o'tdi. Jang-jadal...

Jalil otaning umri chindan ham «jang-jadal-lar»da o'tgan. Inqilob g'alaba qilganda o'n besh yoshlarda edi. Yigirmanchi yillarda ko'ngilli bo'lib, qizil askarlar safiga qo'shildi: ular xizmatini qilib, otlariga yem tashib, tagini kurab yurdi. Yetimcha qiyofasida bosmachilar qarorgohlariga necha marta borib keldi. Ammo-lekin bir gal... O'shanda...

Keyin «Qizil kaltakchilar» safiga qo'shildi. Keyin qulqlarni tugatish... Ikkinci jahon urushi...

Shunisi qiziqki, Jalil... Jalil aka o'sha qilgan xizmatlari haqiga ittifoqo bitta ham nishon taq-madi. Nishon qayda, bir parcha yorliq ham ol-madi.

Lekin bu narsalarni orzu qilmagan ham edi: u qilishi lozim degan ishni qilar, aksini qilmas,

yo‘q: o‘zligiga qarshi bormas, bunga kuchi yetmas edi. Shuning uchun ba’zi o‘rinlarda «tirsaklandi» ham.

Zero, oddiy ish... xushomad qilish, kattalarga ta’zimda bo‘lish, kezi kelganda, bir gapdan qolish ham... qo‘lidan kelmadi. Aksincha, shunday qilib, obro‘ topgan, martabaga mingan kishilar-dan nafratlanadi hamon... Uning bori – shu ekan.

– Ha, yaxshi gapmidi o‘sha gap?

– U-u, dono gap. – Jalil ota shiftga tikildi. – Rahmatli komandirimiz o‘zi xo‘jalardan chiqqan edi. Lekin yangi hukumatga... sovetga sodiq edi. Nomardlik yomon...

– Uni aytgansiz, – dedi Shokir. – Xo‘jasan deb qamashgan.

– Ha, o‘z jo‘rasi qamadi.

– Haligi gap...

«Shoshilyapti», deb o‘yladi Jalil ota va gapni qisqa qildi:

– Shu kishi rahmatli aytgich edi-da: «O‘limdan qochish kerak! Lekin o‘limniyam bo‘yinga olib yurish kerak!»

– Qo‘ying, ota, o‘limdan gapirmang.

– E, bolam, men ko‘rdim...

– Yana...

– Sen ishingdan qolma... Mening dori-darmonim bor. Ishtaham yaxshi... Faqat sizlarga juda qarab qolganimdan xijolatman, o‘g‘lim. Yo‘yo‘q, sen gapirma...

Shokir jim qoldi.

– Shunday. Endi, na chora! Omonatini olgun-chá kutaman-da.

Shokir iliqqina kului.

– Yoshingiz o‘tib, judayam taqvodor bo‘lib qoldingiz.

Jalil ota ham kului.

– O‘zimam hayronman.

– Ota deyman... Haligi...

– Labbay, gapiraver.

– Sadafingiz bu yil o‘nni bitiradi. Keyin o‘qishga bormoqchi.

– A-a.

– Mayli. Mening qarshiligidim yo‘q. Lekin unga yordam ham berolmayman.

– Ha-a.

– Lekin qayerga ketsayam boshi bog‘liq bo‘lib ketsa, degandim. Keyin o‘qishini sirtqiga o‘tkazish mumkin. Qisqasi, qiz bolaning bir shaharga ketishi...

Jalil ota yana kulimsiradi.

– Sen ham mendan qolishmaysan.

– Nimada?

– E...

Shokir o‘rnidan turdi.

– Mayli.

Bir haftadan keyin yana hovlida yugur-yugur bo‘lib qoldi. Jalil ota hushyor edi. Biroq bu gal ham mehmonlarni bu xonaga kiritishmadi. Bu gal ham ular ketib bo‘lishgach, Shokir kelin bilan kirdi. Otaga qo‘sish salom berib, chetga o‘tirishdi. Keyin Shokir gap boshladи:

– Ota, siz jang-jadal, urush, komandir... deb bejiz gapirmaysiz, – dedi. – O‘sha yillarni siz juda yaxshi bilasiz. Yoshlikdan ko‘p narsa boshin-gizdan o‘tgan...

Chol tetiklanib yotgan joyida bosh qimirlatdi.

– Haqiqat, rost.

– O’sha davrdagi tengdosh jo’ralaringiz ham sanoqli qolgan-a?

– Ha, bolam.

– Shu, Mo’min ota bilan qalaysiz?

Chol o‘g‘liga tikilib qoldi. Keyin, ijirg‘anib, ko‘zini pastga oldi.

– Nimaga so‘rayapsan?

– Endi... sizlarning munday osh-qatiq bo‘lib o‘tirganlaringni hech ko‘rmadik-da.

– Ha, ko‘rmaysan ham.

Shokir sovuq tikildi.

– Nima uchun?

Chol yana birpas sukutga tolib qoldi-da:

– So‘rama, – dedi. Keyin yuzi tirishib ketdi. –

So‘rama... Ont ichganman.

– A?

– Qasam ichganman.

– Tavba!

– Qo‘y uni.

– Endi...

– Bolam, ovora bo‘lma.

– Qiziq odatlaringiz bor-da.

– Shu-shu.

– Ha. Oqshom yana kiraman.

– Xo‘b.

Shu bilan ota-bolaning orasi soviy boshladи.

Shokir kelib, Mo’min aka haqida gap boshlaydi. Jalil ota ko‘zini yumib oladi. O‘rtada boshqa gap qolmagandek. Shokir chiqib ketadi, chol xayol surib, ijirg‘anib yotadi.

Keyin-keyin tusmollay boshladi. Mo'minda ham ikki-uchta nevara bor. Eng kichigi Sadaf bilan tengdosh yo undan bir-ikki yosh katta. O'sha odam qo'yayaptimi Sadafga? Chol titrab ketdi.

U Mo'min aka bilan bir umrga ajralishgan. To'g'ri, joyi kelganda u bilan so'rashgan bo'ladi. Bir davrada o'tiradi ham. Biroq begonalardek.

Biroq uning orqasidan... bir og'iz so'z demagan, demas ham.

Uni eslasa bormi, darrov ko'z oldiga Bobotog' yo'llari, Yolg'izkapa o'rkachidagi ovchilarning pistirmasi, qilich, miltiq, o'q-dori, sovuq tunlar, yulduzli osmonlar gavdalaniб ketadi. O'ksib jimbib qoladi.

O'shanda, tog'dan qaytib tushayotganda, Mo'minga bergen va'dasini eslaydi. Keyin: «Haye, shundayi ham bo'lar ekan-da», deb qo'yadi. Shu, xolos.

...Gap shundaki, Jalil aka Jalilbek bo'lib, Orzixoa ja komandirning otryadida yurganida, bir tun uni o'choq boshiga chaqirib, Orzixo ja shunday dedi:

– Quyun qo'rбoshini bilasan-a?

– Ha, – dedi Jalil.

– Uning ishlarini?

– Eshitganman.

– Bizga topshiriq keldi. Uni tiriklay qo'lga olish kerak.

– Bu qiyin.

– Quloq sol. Qiyinligini men ham bilaman. Lekin uning to'pida Mo'min degan yigitimiz bor...

– Tanimayman.

- Ko'rsang, tanirsan.
- Boramanmi?
- Ha. Quyunning yigitlari ozayib qolgan. Shu kunlarda Bobotog'ning Yolg'izkapa degan dovonida emish. Bir cho'pon ko'ripti. Xabar berdi.
- Uni tutish kerakmi?
- Ha.

Ertasi kuni Jalil janda kiyib, qo'liga tayoq olib, hech qanday quolsiz holda yo'lga chiqdi. Yo'lakay cho'ponlarning ovulida tunab, o'z kuni ni ko'rib, Bobotog'ga yetdi. Nihoyat, Yolg'izkapa-ga ro'para bo'ldi.

Shunda oldidan bir kiyik chiqib qoldi. Keyin bir ovchi ko'rindi. Kiyik Jalildan hurkib, ovchiga burildi. U otib oldi. Jalil chopib borib, kiyikning oyog'ini bosib turdi. Ovchi so'yib halolladi. Keyin Jalil:

- Og'a, bizdan hurkib sizga yo'liqdi, tanimizni bermaysizmi? – dedi.
- Kimsan o'zing?
- Bu dunyoda otasi o'limgan kim bor, onasi o'limgan kim bor?
- Kimsan? Kimlardan bo'lasan? Nima qilib yuribsan?
- Tagi yetimman, og'a... Lekin otamiz beli baqvavat odam o'tgan. Undan besh-o'nta ushoq mol bir cho'ponning qo'lida qolgan, deb eshitar edim... Mana, fursati yetdi deb shuni qidirib chiqdim. Topsam, insof qilsa...
- Bosmachilar yeb ketgan bo'lsa-chi?
- Teshib chiqsin.
- Qizillar yegan bo'lsa-chi?

- Og‘a, yetimning haqqiga kim ko‘z olaytirsa, topadi...
- Oti nima ekan u cho‘ponning?
- Shuni bilmayman-da... Bir cho‘pon deyishdi. Otam o‘lim oldida tildan qolgan edi.
- Shuni izlab yuribsan?
- Ha, qayerda ovul ko‘rsam, boraman. Bir kecha yotaman. Cho‘ponlarni gapga solaman...
- Bu yoqda ovul yo‘q.
- He, tepalikda bir didbon ko‘rinadi.
- A, umi? Qani, yur-chi.
- U yerda odam yashaydimi?
- Bilmadim.
- Esa, qaytsam...
- Ha, yur-chi.

Ovchi kiyikning oyoqlarini kuliklab, dast ko‘tardi. U baland bo‘yli, sariq chakmon kiygan, barvasta yigit. Lekin ko‘zлari horg‘in, zerikkandek edi.

Jalil uning kimligini bilolmay, biroq bosmachi-larga aloqasi borligiga ishongan holda ergashdi. Saldan keyin, kiyikni men ko‘taray, dedi. Yigit qaramadi.

Pistirma qora suvoq qilingan, toshqalama devorli uycha edi. Atrofda xas-cho‘p, suyaklar yotibdi. Nariroqda bir ko‘lmak suv. Lekin rangi qora hamda undan sassiq hid kelar edi. Pistirmaning ichi shinamgina. Biroq uch tomonda to‘rt-besh qavat qilib ko‘rpachalar solingan, ular eskirib ketgan va moy to‘kilgan. To‘r devoriga uchta pilta miltiq va ikkita qiyshiq qilich osig‘liq turardi. O‘rtada o‘choq.

Quyun qo‘rboshi shu ovchining o‘zi ekan.

– Uka, balki sen qizillarning odamidirsan,
– dedi u kiyikning bir sonini qovurib, o‘rtaga
qo‘ygach. – Mayli... men Quyun qo‘rboshi bo‘la-
man. Eshitgan bo‘lsang...

Jalil qo‘rqib ketib, yoqasini ushladi.

– Agar...

– Qasam ichma. Men dunyoda qasamdan
qo‘rqaman, uka... Bir vaqtlar qasam ichib edim...
«Shuncha qizilni o‘ldiryapman. Shuncha mu-
sulmonni qiyratdim. Shuncha uyga o‘t qo‘ydim.
Shuncha suruv molni afg‘onga o‘tkazib, qurolga
almashdim...»

– O‘-o! – dedi Jalil.

– Yurt ozod bo‘lmasa, uka... biz yengilsak, o‘zim
pastga enib boraman, deb qasam ichib edim...
Qaytar dunyo, deydilar. Odam mard bo‘lib o‘lishi
kerak, uka...

– Hmm...

– Shuytib o‘tiribmiz.

– Bir o‘zingiz?

– Yo‘q.

Mo‘min ham ovga ketgan ekan. Ikkita quyon-
ni yelkasiga tashlab keldi. U o‘rta bo‘y, ko‘zlari
kichkina va chag‘ir, sergak va jonsarak yigit edi.

– Bu kim? Senga nima bor? – deb do‘q qildi
Jalilga.

Quyun qo‘rboshi oraga tushdi.

– Qo‘y, tegma... Buyam senga o‘xshagan bir
darvesh-da, Mo‘min. Sen ham qalandar bo‘lib
kelib eding-ku! Tegma bunga... o‘tir.

Mo‘min Jalilga o‘qraya-o‘qraya o‘tirdi.

– Mening jo‘ram, – dedi Quyun qo‘rboshi Mo‘minni ko‘rsatib. – Otgan o‘qi tegmaydi-yu, o‘zi menga sodiq... Uka, qovurdoqdan ol. Bu halol go‘sht... – u g‘amgin kului. – O‘zing ko‘rding-ku, o‘g‘irlikdan kelgan emas...

– Ha, og‘a.

Qovurdoqni yeb bo‘lib, choy ichishdi. Keyin tash-qarida gulxan yoqib o‘tirishdi. Anavi qora ko‘lmakda yermoyi bor ekan. Bir archa shoxini botirib olib, o‘tga qo‘yilsa, talay vaqt yonib turadi.

Bir mahal tog‘dan sovuq shamol esdi.

– Turaylik, – dedi Mo‘min. – Lekin shu yerda gulxan yoqishimiz ham chakki ish, begin.

Quyun hech narsa demay uyga kirdi. Yechin-masdan to‘rga o‘tib yotdi.

– Sen bu yoqda yot, – deb oyoq tomonidagi to‘sakni ko‘rsatdi Jalilga. Keyin Mo‘minga dedi:
– Eshikni yopma, jo‘ra. Havo kirib tursin.

Kechasi allamahal. Jalil bezovta. Qo‘rqadi. Quyundan qo‘rqadi. U ho‘kizdek kuchli. Eng yomoni – o‘zining kimligini sezgandek: juda mayin gapirdi.

Gulxan ham yoqtirdi...

Bir payt Mo‘min uyqusirab turib ketdi-da, so‘kinib bir muddat o‘tirdi. Keyin inqillab tash-qariga chiqdi. Eshik og‘zida biroz serraygach, yon tomonga o‘tdi.

Jalil turmoqchi. Lekin Quyundan qo‘rqadi. Oxiri, Mo‘min bilan gaplashish uchun bundan qulay payt bo‘lmasligiga ishonib, sekin qo‘zg‘aldi.

Tog‘dan izg‘irin esardi.

– Ha, qayoqqa? – deb baqirdi Mo‘min va lapang-lab yurib, Jalilga yaqinlashdi.

– Orzixo'ja aka yubordi meni... – shivirladi Jalil. – Tiriklay tutib borar ekanmiz.

– Jim.

Ular uyg'a qaytib kirishdi. Mo'min o'z joyiga, Jalil o'z joyiga yotdi.

Jalil endi Mo'mindan qo'rqa boshladı... Biroq sal vaqt o'tmay uning o'z odami ekaniga ishon-di. Lekin u nima qilmoqchi? Bilolmasdi. Quyun qo'rboshini esa, o'dirmasdan qo'lga olishga ik-kisining ham kuchi yetmasligi aniq.

Balki kelishib, birdan ustiga tashlanishsa...

Yo'q...

Eshikdan osmon etagidagi yulduzlar ko'ri-nar, ular ham bu izg'irindasovqotib, shuning uchun zo'rg'a miltillayotganga o'xshar edi. Quyun qo'rboshi bir tekis nafas olib uxlayapti. Qorong'ida Mo'minning qimirlab qo'ygani ko'ri-nadi.

Bir payt Jalil uyqu aralash tepasida bir soyani ko'rdi. Ko'zlarini ochdi. Yo'q: tepasida emas. Na-riroqda. Mo'min!.. Qo'lida qilich. U xiyol tislanib, Quyun qo'rboshiga tikildi. Engashdi. Qilichni ko'tardi-yu:

– Vo-o! – deb yubordi. Jalil turib o'tirdi. Quyun qo'rboshi yonboshlab:

– He, Mo'minboy-e, – dedi.

Jalilni sovuq ter bosib, qalt-qalt titray bosh-ladi.

– Begim, meni afv eting! – Mo'min tiz cho'kkancha boshini yerga urib oldi.

Quyun elan-qaran qo'zg'alib, chordana qurdi.

– Ayt, ayt, – dedi. – To'qi endi bir narsa.

- Yo‘q, men...
- Nima?
- Manavi bola... – Mo‘min burila solib, Jalilga o‘qtaldi. – Chopib tashlayman. Bu ayg‘oqchi, begim... Meni yo‘ldan urdi...

Quyun qo‘rboshi kulib, yonidan miltiqni oldi. Qo‘ndog‘i bilan shiftga qadalib-sollanib turgan qilichni turtdi. Qilich yerga tushdi.

- E, Mo‘minboy-ey! – dedi. – Tashqarida nari borsa, ikki og‘iz gaplashdilaring, shunda aldab oldimi?

– Begim, begim!

- Ha, mayli. Yotinglar... Yo yana o‘t yoqamizmi? Tong ham bo‘zarib qoldi.

Jalil eng orqada chiqdi. Har narsaga tayyor: jumladan, qochishga ham. Biroq qochib qutula oladimi? Quyun qo‘rboshi pastroqqa tushib kershidi. Keyin yermoyli ko‘lmak boshidan qumg‘onni olib, pastga endi.

Mo‘min burila solib, Jalilga shivirladi:

- Miltiqni opchiq!
- Tiriklay tutish kerak.
- Tur-e!

Mo‘min o‘zi chopib, uychaga kirdi. Miltiqni olib chiqdi. Lekin pilta miltiqni otish oson emas. Paxtani tutatish uchun chaqmoqni toshga urar ekan, Quyun asta-sekin qaytib chiqdi.

- Nima qilyapsan?
- Shu... tongda ov...
- Ha-ha-ha!
- E-e!
- Shoshilma.

U miltiqni olib, o‘q-dorini to‘kdi, devorga su-yab qo‘ydi.

– O‘t yoqamiz.

Kiyikning yana bir sonini kabob qilishdi. Og‘iz-burunlari, qo‘llari qorakuya va moy bo‘lib, choy ichisharkan, quyosh ham chiqdi.

– Yigitlar, endi gap munday, – dedi, – meni Denov bozoriga olib borasizlar.

– Begin?

– Bek yo‘q... – kulimsiradi Quyun qo‘rboshi. – Qarshingda bir sayoq bevatan turipti.

– Begin...

Quyun qo‘rboshi uyg‘a qaradi. Shimolga – tog‘larga, cho‘qqilarga qaradi. Suyaklar sochilib yotgan yerga qaradi. Chakmonini kiyib, o‘rnidan turdi.

– Bog‘langlar.

U qo‘lini orqasiga qildi.

Mo‘min Jalilga qaradi, Jalil... Quyun qo‘rboshiga qaradi va negadir yig‘lagisi keldi. Mo‘min ham Quyun qo‘rboshiga tikildi-da, asta tislandi.

– E, yigitlar-e, – dedi Quyun qo‘rboshi. – Joy-laringda men bo‘lmadim-da!..

– Endi...

– Rost, – dedi u o‘ychanlik bilan. – Vatan qo‘ldan ketganiga oldinroq ishonganimda, oldinroq o‘zim tushib borar edim. Shahid ketishga nima yetsin?

Mo‘min bir qadam chetga bosdi.

– Qo‘rqma, – dedi Quyun qo‘rboshi. – Bog‘la, uka. Lekin tag‘in bir narsaga ishonishni istayman.

- Ayting, begin!
- Meni sud qilishsin.
- A?
- Bozorda.

Birpasdan keyin Quyun qo‘rboshi – oldinda, qo‘llari ortida bog‘liq holda, xotirjam ketib borar, uning orqasida – Mo‘min, qo‘lida bir miltiq, yelkasida bir miltiq, shaxdam odim otar, Jalil – eng orqada, kiyikning qolgan go‘shti va bir bo‘xcha shol ro‘mol ko‘tarib olgan edi.

Bobotog‘dan enaverishda Mo‘min ancha o‘zgardi. Ovozi ham balandlab, Quyun qo‘rboshiga: – Buyoqdan, uyoqdan yuring! – deydigan bo‘ldi. Keyin uni senlashga o‘tdi. Ilk qishloqqa yaqinlashganda, Jalilga qarab: – Ko‘rdingmi, bosmachini ushslash qanday bo‘ladi? – dedi. Jalil garangsib:

– Siz ushlaganingiz yo‘q, – dedi. Mo‘min taqqa to‘xtadi.

- Esa senmi?
- Bog‘lashga bog‘ladingiz.

Shunda Quyun qo‘rboshi o‘girildi.

– Bola ekansan-ku, Jalil, – dedi. – Buni men bilaman... Bu seniyam otib qo‘yishi mumkin.

– Bas!

– Shuning uchun, uka, bunga xo‘b, de... Sendan nima ketdi? Yo sen ham Quyun qo‘rboshini tutdim deb...

– Nega?

– Unday bo‘lsa, mayli, de.

– O‘t oldinga! – baqirib yubordi Mo‘min. Jalil qo‘rqa-pisa o‘tarkan, Quyun Mo‘minga o‘girilib:

- Bolaga tegma, – dedi.
- Ishing bo‘lmasin!
- Sen bola, qasam ich, – dedi u Jalilga. – Meni bu qo‘lga tushirib bog‘ladi.

– Nimaga?

Mo‘min asta miltiqni unga to‘g‘riladi.

– Ana, – dedi Quyun qo‘rboshi. – Ko‘rdingmi?

Senga baribir-ku! To‘g‘rimi?

– Ha.

– Bo‘ldi-da.

– Nima qilay?

– Mo‘min aka Quyun qo‘rboshini qo‘lga tushirdi, de.

– Axir...

– Deysan!

Jalil ko‘zlari do‘layib:

– Xo‘b, – dedi.

– U yoqdagи gap-so‘zni unut.

– Xo‘b.

...Uni to‘g‘ri qizilkaltakchilar ning qurollangan otryadlari qarorgohiga olib bordilar. Orzixo‘ja Quyun bilan bemałol gaplashdi. Keyin uni Denovga olib jo‘nadi. Sud bo‘ladigan kun jar chaqiritildi. Olomon atrofda devor bo‘lib turar ekan, revkom, ChK va qishloq sho‘rolari nomidan Orzixo‘ja Quyun qo‘rboshiga ikkita savol berdi.

– Nima uchun kurashding?

– Din uchun... – dedi Quyun bosmachi. Orzixo‘ja vakillar yonida saf tortib turgan domla, so‘fi va masjid imomlariga qaradi.

– Quyun qo‘rboshi nima jazoga loyiq?

– O‘lim! O‘lim! – deyishdi ular qo‘rqa-pisa. Orzixo‘ja yana Quyundan so‘radi:

– Tag‘in nima uchun kurashding?

Quyun qo‘rboshi:

– Ozodlik... uchun, – dedi.

– Xalq! – xitob qildi Orzixo‘ja. – Quyun qo‘rboshi nima jazoga loyiq?

– O‘lim, o‘lim!..

Quyun qo‘rboshi shu yerda otildi.

Jalil ota Mo‘min aka haqida o‘ylaganda, mana shular ko‘z o‘ngidan... Shokir kirdi.

– Ota, – dedi bir tizzasida cho‘kkalab, – biz shoshishimiz kerak...

Chol yonboshlab unga tikildi.

– Mo‘minning nevarasigami?

– Ha.

– Yo‘q.

– Ota...

– Yo‘q.

Shokir bir nafas lunjlari tirishib turdi-da:

– Axir, uni yomon ko‘rsangiz – o‘zingizga, – dedi. – Lekin bizga ma’qul.

– Nimasi?

– Mo‘min bobo... fuqarolar urushining qahramoni... Orden-medallari bor. Respublika ahamiyatiga ega... pensioner. Gapi har yerda o‘tadi...

– Ha. Mengayam yordami tegadi, de?

– Odam sal... orqali bo‘lishi kerak-ku!

– O‘, bechora bolam.

– Qo‘ying, kulmang... Siz o‘shanday bo‘limgan bo‘lsangiz, biz aybdor emas.

– Attang.

– To‘g‘ri-da... Hozir qaysi qariya bilan gaplashmang, o‘zidan sal obro‘li tengqurini g“iybat qiladi...

- Men hech narsa demadim-ku!
- Baribir-da!

Chol to'shakda chalqancha bo'lib yotdi. Uning xo'rlici kelar, lekin allaqanday jirkanchli narsa atrofida bor-u... xo'rlandim desa, u maraz yopishadigandek edi. Kunlar o'tdi.

Bir kuni yana hovlida yugur-yugur bo'lib qoldi-yu, Sadaf cholning hujrasiga kirdi. Yonida tiz cho'kib, choynakni ushlab ko'rdi. Issiqliqina. Qopqog'ini ochib ko'rdi.

- Bobojon, ichmabsiz-ku!
 - Ishtaham yo'q.
 - Bobo!
 - Gapir.
 - Meni...
 - Ayt.
 - Mo'min boboning kichik nevarasiga...
- Chol ko'zini ochdi.
- O'zingning ko'ngling bormi?
 - Voy, men uni tanimayman ham.
- Chol birdan yayrab, tabassum qildi.
- Esa...
 - Xo'sh?
- Chol ko'zini yumdi.
- Bobojon...
 - Menden domangir bo'l manglar... O'zlaring bilasizlar.

Shu oqshom uyda, hovlida janjal bo'ldi. Shokir baqirib, xotinini so'kdi. Xotini itni tesha bilan urib, vangillatdi. Sadaf o'zicha yig'ladi. Tag'in bir oycha vaqt o'tdi.

Jalil chol favqulodda sezib qoldiki, o'g'li bilan kelini behad shoshilyapti. Sadaf ovqat olib kirkanda Jalil ota:

- Biroz o‘tir, – dedi. – Sen menga yolg‘on gapir-magansan...
- Ha, bobojon.
- Ota-onang nimaga shoshyapti?
- Aytolmayman...
- Yo‘q, aytasan... Men xafa bo‘lmayman-ku!
Boshga tushganini ko‘z ko‘radi...
- Sizni...
- Nima?
- Termizga yuborishmoqchi.
- Ha-a! – chol hiqillab kulib yubordi. – Ko‘zdan panada tursin deb-a?
- Yo‘q.
- Ha?
- U yoqda katta doktorlarga ko‘rsatishadi.
- He, ona qizim-ey, baribir-da!
Sadaf yig‘lab yubordi.
- Baribir emas.
Chol boshini ko‘tardi.
- Nima?
- Sizni... o‘lib qolsa...
- Jalil ota tushundi.
- To‘y orqaga suriladi?
- Ha...
- U yigitni ko‘rmadingmi?
- Yo‘q.
Sadaf zira solingan shovlani cholga surib qo‘ydi. Qariya ovqat hididan ishtahasi ochilib burildi-yu, shovladan ko‘z uzmay qoldi. Keyin yana chalqancha bo‘ldi.
- ...Ertalab doktorlar kelishdi. Cholni Termizga jo‘natishlarini aytishdi. Jalil ota:

- Men tuzalib qoldim, – dedi. Doktorlar cholni tekshirib, bir-biriga qarashdi.
- Rostdan ham! – dedi biri ostonada turgan Shokirga.
 - O'zgarish bor...
 - A, unday bo'lsa... – u ikki qadam bosib, otasi qoshiga yetdi. Chol mayin jilmaydi.
 - Nimaga kecha ovqat yemadingiz?
 - Qornim to'q edi.
 - Bekor gap!
- Doktorlar chiqishdi.

Chol bugungi kun ham ovqat yemadi. Keyingi kun ham. Undan keyin... O'rmalab borib, obrezga to'kadi. Qo'lini yuvgan bo'lib, ustidan suv quyadi.

U... holdan toyib, o'rnidan qimirlolmay qoldi. Shunda ham tuz totmadi. Endi, kelgan ovqatni to'shagi yonida nos tupurish uchun qazib qo'yilgan chuqurchaga ag'daradi. U karaxt bo'lib qoldi.

Keyin o'g'li, kelini va Sadaf tepasida ko'z yoshi qilib turganda, ketdi. Hammani dahshatga sol-gan narsa – uning yuzida qotib qolgan tabassum bo'ldi. To'y qoldi.

1984

O'ZBEK XARAKTERI

Men bir voqeani aytib beray.

Ikkinchı kursda paxtaga bordik. O'sha Bo'ka tumaniga. Chetdagı bir kolxoziga. Mana shu o'zimizning Surxon vohasiga o'xshab ketadigan joylar ekan: har qadamda qiyolar o'sgan. Bog'-bog' yosh qamishning tagi bilan o'tqazib qo'ygan-day. Yeri jiqla ajriqzor. Mol o'tlaydigan, bolalar chillak o'ynaydigan yer-da!

Qadrdon, men uning o'zimga, mana shu ko'ngil qurg'urga yoqqan joyini aytdim: bunaqa joylar yoqadi-da!

Xullas, ana shu ajriqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi. Yigirma-o'ttiz xonardon tursa kerak. Tomlari bari – loysuvoq, devorlari guvala. Biz borganda jami tomlarga pichan uyulgan, yomg'ir yog'ib o'tgan payt edi, pichanlar sap-sariq. Ba'zisining ustida yosh bolakaylor o'tirardi.

Bizni ko'rib, qiyqirib yuborishdi. Bechoralar... Toshloq ko'chada mashinamiz to'xtadi. O'qituv-chilar o'zaro kelishdilar. Bizni shu yerdan burib, pastlikka endirib ketishdi.

Bitta brigadirning bitmay qolgan peshayvonli imoratiga joylashadigan bo'ldik. Buyam shunchaki somonsuvoq qilingan. Deraza-romlari yo'q. Yer zax. Odadagi... baraklardan farqsiz edi. Farg'onalik, toshkentlik bolalar orasida mendan yoshi ulug'lari ko'p edi: birlari armiyani bitirib kelgan, birlari texnikumni... Biz endi, o'zingiz qatori o'nni bitiriboq, universitetga kira qolgan edik. Shuni aytish kerakki, savod masalasida

ham ulardan kam emas, ba'zan balandlik ham qilib qolardik: harqalay o'nni bitirib, to'g'ri universitetga kirgan bolamiz. Bilimlar hali svejjiy... Bundan tashqari, o'zingizga ma'lum, kamina kutubxonaning, ayniqsa, fundamental kutubxonanining faol o'quvchilaridan.

Lekin uyatchanligimiz ham bor. Baribir ularga – vodiyilik, toshkentlik bolalarga nisbatan qishloqimiz-da, to'g'risi. Balki «uddalik» bobida ham ancha jo'n edik.

Yo'q? E! Sizni o'sha uyga joylab qo'ysa, nima qilardингiz? Kolxoz idorasidagi buxgaltering xonasidan pechni qo'porib kelarmidingiz? Kelolar mindingiz? Yo'q. Deraza o'rниga nima tutar edingiz? To'l... Uni qayerdan topardingiz? Ana shunday... Men endi «udda» deyapman, gap shundaki, o'sha paytda ular menga hatto olg'ir bo'lib ko'ringandi... Ha-da, uy isib qolgandan keyin albatta yoqadi!

O'rmon degan bir kurskomimiz bor edi. Novcha, oriq yigit. Uch yil universitetga kirolmagan. Sibirga pomidor, piyoz oborib sotgan. Poyezddagi sarguzashtlarini eshitsangiz, hee... Pishiq bolalar-da! Komsorgimiz ham Azimjon degan yigit edi. Nuqlu Remark bilan Xemingueyni o'qib: «Bizning yozuvchilarimiz yolg'onchi», – deb yurardi. Men? Albatta, unga qarshi turardim!..

Shunday qilib, joylashib oldik. Yerga poxol to'shadik, ustiga chodir yoydik. Keyin, ko'rpa-to'shakni yozdik. Choynak, chelak ham topib kelishdi.

Kech bo'lib qolgan edi. Bilasiz, dastlabki kecha uqlash qiyin. Latifa aytishardi bolalar: «Siz ko'rgan o'sha afandi, siz bilgan o'sha afandi...»

Bolalar darhol to'rni, yon tomonlarni egallab olishgani uchun menga eshik og'zidagi joy tekkan edi, bilmadim, kechasi eshik ochilib ketganimi, sahar tursam, burun bitib qolgan.

Havoda zildek og'ir, qoramtil bulutlar aylanar, lekin etakdag'i paxtazor yaqqol ko'zga tashlanar edi. Ikkinci terimdan chiqqan. Ko'p g'o'zalar barg to'kib, sarg'ayib qolgan.

Ayvon ustuniga suyanib, tomosha qila boshladim: paxtazor chetida tutlar. O'sha tutlar... U yer bu yerda chug'urchuqlar galasi uchadi. Tutzorning narigi tomonida bo'zrang bir uzun imorat ko'rinardi. Uning oldida bakni qaynatishyapti shekilli, bak karnayidan qizil alanga chiqib qolardi.

Keyin, shundoq pastlikdagi – paxtazorni bizardan ajratib turgan ariq bo'yidagi yolg'iz kulbag'a ko'zim tushdi. Uning ham tomiga pichan bosilgan. Pichan ustida chumchuqlar g'ujg'on: «chiriq-chiriq»... Ariq bo'yida esa bir qoraqalpoq kursdoshim, ha, o'sha – Saparboy maykachan bo'lib chopib yuribdi.

Bet-qo'lni yuvGANI pastga endim.

– Yechin. Yugur. Badantarbiya qil! – dedi Sapar.

– E, badantarbiyam chiqib turibdi, – dedim.

Shunda qarasam, haligi kulba... odam yashaydigan uycha ekan. Men, bilmadim, uni bostirma deb o'ylabmidim, hayron qoldim. Kichkina derazasi bor.

Uychaning oldida esa, bilasizmi nima, o'rmak... o'rmak tikilgan. Bir ayol katta taroq bilan gursilatib urib, kalavani qatimlar orasidan u yoq bu

yoqqa otib, sholcha to‘qiyapti. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko‘ngilga yaqin-da, qadrdon!

Ayol sharpamni sezib, boshidagi gardi ro‘molini peshonasiga tushirdi.

- Salom alaykum, hormang, opa! – dedim.
- Keling, uka, – dedi u. – Xush kepsizlar...

Yaxshi joylashib oldinglarmi?

– Ha, rahmat. Juda-a yaxshi joylashdik... Shu uyda yashaysizlarmi?

- Ha, – dedi u. – Xo‘jayin molga ketgan.

«Molga ketgan!»

- Mol ham boqasizlarmi? – dedim.

- Ha, kolxoz bir otar berib qo‘ygan.

«Bir otar!» O, Toshkentda bu so‘zlarni eshitmaysiz-da, mehribonim. Ana shunday qilib, bularga birdan ko‘nglim ilidi.

- Echkimi, qo‘ymi? – dedim.

- Aralash.

Qarasam, uychaning narigi tomonida uzun qo‘ra bor. Tevaragi shox-shabba bilan o‘ralgan. Sekin o‘tdim. Qo‘y hidi... Ha-ha-ha! Qo‘raning engaragidan qaradim: yetmish-sakson mayda mol sig‘arkan... Men nimagadir, bu yerlarda ham odamlar faqat paxtani biladi deb o‘ylardim. Endi deng, mol tufayli paxtayam ko‘zimga yuz chandon yaxshi ko‘rinib ketdi.

Buning ustiga, havo yumshoq. G‘o‘zalar yuvilgan, namxush. Barglari, poyalari sariq. Ariqchada tiniq zilol suv oqyapti... O! O‘sha paytlar Bo‘kadayam suvlar toza bo‘lgich edi. Ximikatlar ham kam sepilardi, nazarimda. Lekin men bu to-

monlariga e'tibor qilmaganman... Chunki o'zimiz tarafdayam ximikat, suv notoza, ul-bul degan gaplar kam bo'lardi.

Xullas, men Surxonning bir burchagiga kelib qolgan edim.

Shu payt uydan – yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi. Ba'zisi Saparga qo'shilib chopishga tushdi. Ba'zilari paxtazorga oralab ketishdi. O'rmon aka o'rmak to'qiyotgan ayolning qoshiga keldi.

– Qalaysiz, opa? Hormang!

– Bor bo'ling, uka... Kelib zap ish qildilaringda...

– Ha, endi, sizlarga yordam bermasak bo'ladimi? Ko'k choy bormi? Qurug'idan.

– Bor, bor, – ayol etagini apil-tapil tushirib, taroqni tashlab, kulbaga kirib ketdi. Oyog'ida eski kirza etik, uzun sochlari uchida sochbog'. Rangi o'ngib ketgan ko'ylagi g'ijim. Sal o'tmay bir banka bilan bir parcha gazeta ko'tarib chiqdi. Gaze-tani O'rmonga berib, ustiga bankani engashtirdi. Bir hovuchlar choy to'kildi. O'rmon:

– Bo'lar, rahmat, – dedi.

– Kerak bo'lsa...

– Kerak bo'lsa, yana so'raymiz...

– Bemalol, og'ajon. He, paxta, paxta... Mana, sizlar ham o'qishlarni qoldirib, ota-onalarining tashlab keldinglar. Baraka topinglar. Rahmat...

– Endi, terish kerak-da! – dedi O'rmon aka... – Ha, paxtaning kilogrammi necha tiyindan?

– Shu, o'n tiyinmi, besh tiyinmi, men ko'pam farqiga bormayman.

– E! Unday bo'lmasa kerak! – dedi O'rmon aka. Keyin kului. – Yaznamiz (pochcha) bilsalar kerak?

– Ha. U kishi biladilar.

– Yaxshi... Sizlar ham biron yoqdan kelganmisizlar deyman?

– Yo'o'q, biz shu yerning odami.

– Bundan boshqa uchastkalarining ham boradir-da?

– Yo'q, og'ajon. Bori shu... Buyam yaxshi. O'zimiz uch jon. Jiyaningiz otasi bilan ketgan... Cho'pon bo'laman deydi. Halizamon kep qoladi. Choyni qayerda ichasizlar?

– Choyni? Hmm, buguncha endi yotoqda. Keyin yana o'ylab ko'ramiz.

Men O'rmon akani hozir qitmira, suqatoy qilib ta'riflayotganga o'xshayman. Yo'q, bir hisobda u o'zicha haq edi: bizniyam o'ylardi, har qalay.

Shundan keyin terimga jo'nadik.

Kun chiqib, uyam sarg'ayib nur sochyapti. Biz etaklarni bo'yinga ilib, xuddi oshhalolga borayotgan podachiday ketyapmiz. E, do'stim, menga mana shunday kun zarda berib chiqayotganda namxush so'qmoqlardan yurish ham yoqadi-da!

Tepangda chug'urchiqlar o'ynaydi. Oyog'ingga ho'l yaproqlar o'ralashadi. Unda-bunda xirmon joylardan bug' ko'tariladi. Ko'rganmisiz? G'o'zanning qavachog'i yonishga mahtal bo'ladi. Uzoq vaqt uyilib yotsa, tutun ham chiqib ketadi.

O'sha kuni terdik. Uyat o'limdan qattiq... El qatori terdim. Lekin burun ochilmadi.

Qaytayotganimizda haligi kulba biqinida qozon qaynayotgan ekan. Endi Azimjon aka qozonga yaqin borib, hidlab ko'rди-da:

- Osh, – dedi bizga qarab.
- Hu, – dedi O'rmon aka, – qozoni kichik ekan-da.
- Yuring, yuring.
- Shoshmang. Ho, xo'jayin!

Uychadan kalovlanib, qotma, qora chonining tirsaklari yirtilib paxtasi og'gan, soqoli o'siq, chuvak yuzli yigit chiqdi. Xuddi o'ngirini bosib oladigandek surilib-shoshilib kelib, biz bilan bir-bir ko'rishdi.

– Xush kepsizlar, xush ko'rdik! Qani, uyga marhamat!

– Oldin yuvinib olaylik-chi, – dedi O'rmon aka.
 – Aytmoqchi, bir ukamizning tomog'i shamollab opti. Burning ham bitgan-a? – deb so'radi mendan. – Shu, shu... Dori-pori topiladimi? Tibbiyot punktlaring markazda ekan, bu yer – Kamchatka.

– E, topiladi-da. Dori topiladi! – yigit etigini qo'lantayoq kiyib chiqqan ekan, oyog'idan tushib qoladigandek tal panglab uyga kirdi.

Keyin bir bog' ituzum olib chiqdi.

– Shu bo'ladi, tomoqqa bog'lasalar, – dedi.
 – Bo'ladi, bo'ladi! – dedim. – Ozginasi bo'ladi.
 – E, ozginani nima qilasan? – dedi O'rmon aka.
 – Hali yana kerak bo'ladi.

Ituzumni olib, yotog'ga keldim. Unga tikilaman: tanish-da bu o'simlik ham! Qadrdon, bizdayam bir momo bo'lgich edi. Bobomiz bos machilar ning otlariga xashak bergani uchun «xalq dushmani» deb otilib ketgan, undan qolgan o'n bir qursoqni boqaman deb umrini toq o'tkazgan kampir edi. Ularniyam birin-ketin yaratganiga topshirib, bizing maymoq ota bilan qolgan...

O'sha kampir davolardi shunaqa ituzumlar bilan... tomoqlarimizni. Tildan tersak chiqsa, oq gulbutani quritib-ezib, kukunini separdi. Hech narsa ko'rmagandek bo'lib ketardik.

Omborimizda mana shunday ituzum bog'lari dan yog'och qoziqlarga osib qo'yardilar.

Biz ham devordagi bir mixga osib qo'ydik. Keyin mevasidan bir hovuch olib, bo'z etakning chetidan bir parchani yirtib, mevani ezib-ezib tomoqqa ko'tardik.

Ertasi ko'zimiz charaqlab ochilib, terimga chiqib ketdik.

Bizga choy qaynatiladigan bak ortidagi kulbalarning orqasida hududsiz dalalar bor, biz o'shayoqda paxta terardik. Har joy-har joyda mitti-mitti shiyponchalar qo'nqayib turardi. Yeri zax, devorlari qabarib ketgan, atrofida tuproq o'ynab yotar, unda sichqon-kalamushlarning izlari ko'p edi.

Biz goho o'shanday kulbachalarga kirib, dam olardik.

Men o'zim o'shanaqa joylarda izg'ishni yaxshi ko'rardim. Shunday shiyponchalarning yaqinidan albatta biron ariq o'tgan bo'lar, uning qirg'oqlaridan qamishlar g'ovlab ko'tarilgan, qamishlar ichida turfa tikanlar qizil, sariq bo'lib gullagan, o'shalarning ham yolg'iz tomoshachisi biz edik.

Ba'zan egatlar ichida tarvuz, qovun palaklari chiqib qolardi. Albatta, bitta-ikkita burishgan, tirishgan tuynak bo'lardi. Ammo uni yorib yesangiz, mazasi... tilni yoradi. E, azizim, menga – bir

faqir talabaga shunday tuyulgan-da! Bo'lmasa, ichi tushgan, ayniy boshlagan tarrakning nimasi shirin? Balli, odam degan munday injiq bo'lmaydi: boriga qanoat qilish kerak...

Terimda esa, hammavaqt qorningiz to'yan qo'zining qorniday bo'lmasligi o'zingizga ma'lum... Bir tuyur go'sht-u makaron solinib qaynatilgan sho'lan-sho'rva mana shunday... joningizga tegib ketadi: rahmat.

Hozir paxtani yomonlash, uning mehnatini olamdag'i eng og'ir mehnat deb atash modada. Bir hisobda, haqiqatdan ham, shunday. Biroq terim paytidagi romantika!

Tonglarni eslangu! Tuprog'i nam tortgan so'q-moqlarni. Yiroqda arava yo'ldan ko'tarilgan changni ufqdan endi bosh ko'tarayotgan quyosh yog'dulariga yo'g'rilib, zarrin bir to'zonga aylanib turishlarini eslangu! Buning ustiga, o'sha paytda: «Eng ulug' ishni men qilyapman! O'zbekning milliy ifti-xori uchun kurashyapman!» deb o'ylab tursangiz. Bitta o'rtog'ingiz o'yinqaroqlik qilib, kamroq paxta tersa, ko'zingizga yov bo'lib ko'rinsa...

Bitta go'zal, nozik qiz ipakdek barmoqlari chanqlarga tilinib, qoni chiqib, doka bilan bog'lab olib, endi zo'rg'a terayotganini ko'rsangiz: «E, shaharlik oyimqiz! Soyapar-da, soyapar!» deb ichdan haqorat qilar edingiz!

Ha-da, avvalo, o'zim haqimda gapiryapman! Yo hikoyamni tugatib qo'ya qolaymi? Mayli...

Rasvo bo'lib, shalabbo bo'lib yotog'ga yetib keldim. Ertasi saharlab turish kerak, terimga chiqish kerak. Yomg'ir, qor - paxtaning oldida kapeyka!

Kiyim-boshni yuvib, pechga tutib sal-pal quritdim. Keyin bir dono o'rtoqning maslahati bilan: «To'shakda qurib qoladi», deb kiyib yotdik. Ertasi rasvogarchilik.

– Juda nozik ekansiz-da, shoir, – dedi O'rmon aka.

Nozik, xayolparast odamlarni «shoir» deb atash o'shanda rasm bo'la boshlagan edi. Qandaydir nashriyot xodimidan chiqqan deyishadi bu gapni... Bizning tarix-arxeologiya guruhimizdagi talabalar orasidayam nashriyotlar bilan yaqin yigitlar bor edi. Kamina ham nashriyotlar bilan bog'liq gaplarga qiziqardim.

Men kecha «anavi qizlar» yotog'idan kelayotganimda loyga belanganimni ayta boshlagan-dim, Azimjon aka dakki berdi:

– Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni – bo'ri! Siz ketvoribsiz! Biz rosa izladik.

– E, u joy o'zi...

Saparboy – haligi qoraqalpoq yigit menga ya-qin edi. Kim biladi, Surxondagi ayrim elatlarni o'zlariga yaqin olishadimi, deb o'ylardim. Endi albatta bu narsani yaxshi bilamiz... O'shanda shunchaki do'st, hamfikr edik. Shu yigit:

– Qol, sen uchun ikki fartuk paxta terib bera-man, – dedi.

Ikki fartuk paxta – bu olamjahon mehnat! Bu – kamida ikki-uch ming marta egilib-ko'tarilish degani. Yana qancha mashaaqqati bor... Ko'nglim buzilib, unga nima minnatdorchilik bildirishni bilmay qoldim. Boshim aylanar, ichim o'z-o'zidan yonib ketayotgandek edi. Azimjon aka ham peshonamga qo'l qo'yib:

– Qoling. Mumkin emas. Jon ham kerak, – dedi. Qarang, odamlar qanday realist.

Qoldim. Bolalar ketishdi. Uyda yotib qolgan bemor uchun ham shart shu edi: u yoq bu yoqni supurib-sidirib qo'yishi kerak. Birato'la qutulay deb uyni supurdim. Ayvonlarniyam tozaladim. Axlatni imorat orqasiga o'tkazib to'kib qaytayotgan edim, bir manzarani ko'rib qoldim.

Jo'xoripoya chetida, yovvoyi supurgi panasida bitta o'n-o'n bir yoshlardagi bolakay qo'lchalarini tizzasiga tirab, narigi tomonga qarayapti. U yoqda bo'ssa, paxsa devorga taqab to'kilgan somon ostida bir sariq it yotibdi.

Men ham qiziqib, bolaning yoniga bordim. Shunda it g'ingshib, sapchib turdi-da, devordan oshib o'tdi. Saldan so'ng mushtdek kuchukvach-chani tishlab, buyoqqa sakrab o'tdi. Yerga qo'yib yaladi. Yana yotdi.

– Qizig‘-a? – dedim.

Bolakay cho'chib tushdi. Aft-basharasi kir, telpagining qulog'i peshonasiga tushgan edi.

– Ha, – dedi u tashvish bilan. – Bu yer ko'cha, opketishadi bolalar... Men bolasini hovliga o'tkazib qo'yaman, bu uyasiga olib o'tadi. U yoq yaxshi-ku?

Men xo'rsindim.

– Ming qilsayam o'zining uyi-da... Sen kimning o'g'lisan?

Odamzot qiziq-da, a? Uning kimga o'g'il bo'lishini menga nima ahamiyati bor, deng?

– Botir cho'ponning, – dedi.

- Ha-a, ordeni bormi?
- Yo‘q – u g‘amgin tortib qoldi. – Eshimboyning ordeni bor. Lekin qo‘yi kam...

Ana, yosh bolalar ham o‘sha maxinatsiyalarni bilardi.

- Hechqisi yo‘q, – dedim. – Sening otang ham oladi. Botirboy zo‘r cho‘pon! A, uylaring shu devor orqasidagimi?

– E-e! – dedi u ustimdan kulganday. – Anaku! Sizga otam ituzum berganda, men derazadan qarab turib edim... Yana kerakmi? Ko‘zingiz yoshtlanib ketyapti!

- Yo‘q. Ituzum bor, – dedim. – Aka-ukalaring ham bormi?

– Ukam o‘ldi. Doya kampir chala tug‘ilgan, dedi. O‘ldi. Ko‘mib keldik. Kichkina edi.

- Attang, – dedim.

Shu yerga kelib joylashgandan beri haligi ayol bilan erining yashash sharoiti, yotish-turishini ham ko‘rib turardim: ayol tong otmasdan uyg‘onardi: sigir sog‘adi, erini kuzatadi, keyin o‘rmak to‘qiydi... Kun ko‘tarilaver verganda, ariqning u betidagi paxtazorga tushadi: kechgacha bir qopni tikka qilib qo‘yadi. Kechasi ham allama-halgacha ularning kulbasidagi yolg‘iz derazadan ariq bo‘yiga nur tushib turardi.

O‘rmon aka bilan Azimjon aka, tag‘in uch-to‘rt bolalar ularning choyini ichib chiqqan, bir-ikki marta ovqatlarigayam sherik bo‘lgandi.

Shu narsalarni o‘ylab: «Ishi og‘ir, bola tashlagandir-da», deb o‘yladim.

Bilasizmi, ey qadrdon, ko'zimiz ochiq bo'lgani bilan ojiz ekanmiz-da: siz ham shunday g'arib kulbalarda yashayotgan dehqonni, paxtakorni ko'rgansiz. Albatta... Lekin buni tan olmas edig-a? Qanday ablah ekanmiz!

Tavba, buni tan olishdan uyalar edik. Birovlardan ham yashirar edik.

Shoshmang-shoshmang, bu yerda gap bor: bu narsa – faqat qo'rquvdan deb o'ylaysizmi?

Gumonim bor. Bechora o'zbekni bilasiz-ku: o'zi yemasdan mehmonga tutadi...

Kambag'alligini yashiradi. Qizig‘-a? Holbuki, kambag‘al odam o'z holatiga ko'nikkan bo'ladi. Yashirmaydi. Biznikilar negadir... Xuddi juda boy edi-yu, birdan kambag‘al bo'lib qolganday: shuning uchun o'kinch bilan buni yashirishga intilayotganday tuyuladi menga... Balki boshqa – bizning aqlimiz yetmaydigan sabablar bordir?

Bolaning ismi Abduqodir ekan.

Birga-birga ayvonga keldik.

– Itga tegma, – dedim. – Senga o'zingning uying yaxshi, unga o'ziniki yaxshi.

– Bu yerdan yomon bolalar o'g'irlab ketadi. Sotadi, – dedi Abduqodir.

– Kimga sotadi?

– Sotadi-da... Bitta gektarchi karis oltita kuchukni sotib olib ketgandi.

– O'qiysanmi?

– Beshinchida... Tushdan keyin maktabga borramiz. Hey keyinroq ko'rak chuviyimiz.

– O'qish nima bo'ladi?

– To'xtaydi! – deb kului u. – Kelasi yildan paxtaga chiqamiz!.. Men hozir ham paxta teraman.

Opamga terishaman... Kitob o'qiymen. «Robinzon Kruzo» bor. Bitta feldsher tashlab ketgan. O'tgan yili... U kamni ko'rgani kelgandi... Men yig'ladim. Keyin shu kitobni berdi. Yaxshi kitob!

Azizim, men ham xuddi shu bolakayning yoshida o'qigan edim o'sha kitobni. Siz ham...

Tarjimayi holimiz qanchalar yaqin-a?

Hikoyamni cho'zib yuboryapmanmi? Shoshib qayerga borasiz, qadrdon? Goho miriqib gaplashib, o'ylashib olish ham kerak-ku? O'sha damlarni qaytadan yashab, a?

U xotiralar odamning yuragini tozalaydi. Shundoq ham fisq-u fujurga, keraksiz koni ziyon o'ylarga to'lib ketgan, bu ko'krak... Sigaretdan cheking.

Shunday qilib, Abduqodir bilan jo'ra bo'lib qoldik.

Tutzor ortidagi barakda qizlarimiz ham turardi. Ulardan ham ikkitasi kasal bo'lgan ekan, doktor keldi. Meniyam ko'rib, analgin-panalgin deganlaridan berib ketdi.

Uch kun qattiq yotdim.

To'rtinchi kun edi, shekilli, ayvonga chiqayotsam, Botir cho'pon bitta tarvuzni qo'lтиqlab, pastga tushib ketdi. Shu kuni tushdan keyin, havo ochilib, kun yana qizidi.

Kechga tomon yana uyni supurib bo'lib, ayvonda ustun tagida cho'nqayib o'tirgandim. Abduqodir yarim palla tarvuzni ko'tarib, pishnab chiqib kela boshladi.

O'zi bitta tarvuz olib tushishgan edi...

– Sizga. Yeng, – dedi. – Otam berdilar. Opam, yesin, dedilar... Keyin kechqurun uyga kirar ekansiz.

– Yemayman. Rahmat. Qornim to‘q, – dedim.
– Yo‘q. Yeysiz! – dedi u men bilan urishadigan-day. – Siz kasal. Bu tarvuz yaxshi ekan.
– Yemayman.

Abduqodir turdi-turdi-da, tarvuzni shartta yerga qo‘yib, chopib tushib ketdi.

Bolalar terimdan qaytgach, haqiqatdan ham Botir cho‘pon chiqib kelib, bizlarni uyiga aytdi:

– Kelinglar, ukalar. Bir osham osh qilgan edik. Sizlarga rahmat. Bu yerda ota-onalaring yo‘q...

– E, uyingizga sig‘maymiz-ku? – dedi O‘rmon aka.

– Ko‘ngil keng bo‘lsa, bemalol sig‘ishamiz, – dedi cho‘pon. – Tushinglar.

– Biz axir yigirma kishi!

– Bo‘lmasam, yigitlar, o‘ntamiz bugun mehmon bo‘lamiz. O‘ntamiz keyin! – dedi O‘rmon aka.

Meni qo‘ymay olib bordilar.

To‘rt kishi zo‘rg‘a sig‘adigan xona edi. Burchakda g‘ishtin pech. Oqlangan. Lekin choyning dog‘i, yog‘ to‘kilgan. Yerga ikki qavat palos solingan. To‘rda bir taxmon yuk. Ensiz-ensiz ko‘rpachalar solingan. Tiqilishib o‘rnashdik.

Botir cho‘pon iljayib, quvonib dasturxon yozdi. Qo‘s-h-qo‘s h yopgan non qo‘ydi. Bir taqsimcha oq qandni sochib tashladi. Keyin ikki hovuch jiyda bilan mayiz ham sochdi. Keyin kattakon xum choynakka ko‘k choy damladi.

Ikki tovoq palov hash-pash deguncha yo‘q bo‘ldi. Keyin bosib-bosib choy icha boshlashdi.

Men... qanday o‘tirganimni bilmas edim. Kasallikdan tuzalmaganim, injiqlik ham sababdir... Lekin bir burda non yeishga istihola qilardim.

Bu oila – kambag‘al oila edi.

– Ha, paxtalar ham oyoqlab qoldi... Qani, bu yashash qalay endi? – dedi O‘rmon aka. – Yig‘ayapsizlar deyman-a? Ha-ha-ha! O‘zbekning odati shu-da: bolamga bo‘lsin, deydi...

– Ha, endi bizning otalar ham qilgan-da, – dedi Botir cho‘pon. – Opangizga uylantirib qo‘yishdi. Elning oldidan o‘tdik. To‘y deganday, xarajati bor-da...

– Lekin bizni aldashyapti, cho‘pon aka! Kunlik mehnatimiz ovqatimizni qoplamaydi. Bir kiloga o‘n tiyin to‘laydi. Hozir o‘n kilo terish o‘limdan qiyin.

– Ha, endi chidaymiz-da, og‘ajon. O‘zimizning paxta, o‘zimizning hukumat.

– Hey, tushunmay qolaman-da, bu ishlarni!
Ayol meni kuzatib turgan ekan.

– Shu ukamiz hech narsa tatimadi-da, – deb qoldi. – Yo bizni pisand qilmayaptilarmi?

– E, nimaga?.. – olovim chiqib ketdi. – O‘zim shu...

– He, ishtahasi yo‘qdir-da, – dedi O‘rmonjon aka. – Bo‘lmasa, ovqatdan ham tortinadimi odam?

– Ha, ishtaham yo‘qroq... – dedim.

Tezroq chiqib ketgim kelardi. O‘rmon akaning gaplari, so‘roqlari jonimga tekkan edi... Nima? E, qadrdon, meni nahot tushunmaydi deb o‘ylaysiz? Ha-ha! O‘rmonjon akayam o‘zicha haq edi... Masalaning boshqa tomoni ham bor: biz o‘zimiz ham qornimiz to‘yib yashamasdik. Bittasi yarim kilo qand obkelgan bo‘lsa, boshqa bittasi o‘g‘irlardi, birovning kosasidagi go‘shtni birov... Aytishga til bormaydi. Tutab ketasan, kishi.

Nima qilishim kerak bo‘lmasa? Hadeb qo‘l uzataveraymi? Qo‘ying bu gaplarni.

Og‘al! O‘sha sharoitda siz ham mendan o‘zga-cha tutmasdingiz o‘zingizni!

Shu-shu, bularning uyiga qayta kirmadim. Cho‘pon gapiradi, xotini aytadi, o‘g‘li chaqiradi. «Xo‘b», deyman. Paysalga solaman.

Ularning kulbasiga kunora kirib chiqadigan, dasturxonini quritadigan bolalar ko‘zimga yomon ko‘rinib qoldi. Asta-sekin ular bilan ham hamdardlikni uza boshladim.

Shunda, siz tasavvur ham qilolmaydigan bir voqeа sodir bo‘ldi.

Surunkasiga yomg‘ir quya boshladi. Ikki kun ovqatsiz qoldik. Shundoq ham ko‘p bolalar qarz-dor bo‘lishgan edi.

Asta-sekin elchilarimiz qishloq ko‘chalarida izg‘iydigan odat chiqarishdi: kechasi bir mahal-da o‘ntalab, o‘n beshtalab qovun-tarvuz ko‘tarib kelishadi.

Ertasi shtabda janjal: kimdir hovlisiga o‘g‘ri tushganini aytib, shikoyat qilib kelgan...

Ana, o‘g‘rilikkayam o‘rgana boshladik.

Ammo eng katta o‘g‘rilik... Kechasi dovul bo‘ldi. Bir payt eshik qattiq ochilib, shalabbo bo‘lgan Botir cho‘pon ko‘rindi.

– Mollar chiqib qochdi! Yordam beringlar! Qo‘y-echkilarni nima hurkitgan – bilmay qoldim.

Boshqalar qatori chiqib, izlab ketdik. Qishloq ko‘chalarda deng, it ko‘p. Balki bo‘ri oralagan-dir? Yomg‘ir bo‘lsa chelaklab quyayapti... E, ko‘p izladik. Dabdalamiz chiqib, qo‘y-echkilarning bir bo‘lagini paxtazordan, besh-oltitasini ko‘chadan, ayrim xonadonlardan topib keldik.

Cho'pon eshik og'zida fonar yoqib, ko'zlar javdirab turibdi. Nuqlul rahmat deydi. Ayol alqaydi. O'g'ilchasi xursand... Lekin bitta qo'zi topilma-gan edi.

– Uni o'zim topaman. Sizlar dam olinglar endi... Topsam, o'zimning ikki qo'yimdan bittasini so'yib, qovurib beraman sizlarga, – dedi Botir cho'pon.

– Shunday qiling-e, bir go'shtga to'yaylik, aka! – dedi O'rmon aka.

Biz yotog'ga qaytdik. Endi... yana burnim bitdi desam, sizniyam g'ashingiz keladi.

Mayli, bunday deyin: shu kecha besh-oltita yigit ham qattiq shamollagan ekan.

Soat ikkimidi-uchmidi, nafasim qaytib, uyg'o-nib ketdim. Eshik qiya ochiq, g'uvillab shamol kirayotgan ekan. Tagidan tortdim, yana ochildi. Tob tashlaganmi, nima balo. Irg'ib turib tutqich-dan ushlaganimni bilaman, birov eshikni naryoqqa tortdi. Men buyoqqa. Qo'rqdim. Keyin lang ochib yuborgandim, Azimjon aka turgan ekan.

– E-e! Baqqa ke. Ustingga bir narsa il, – dedi u kishi.

Choponni yelkaga tashlab chiqsam, ustun yonida O'rmon aka, Mirzag'olib degan polvon yigit ham turishibdi.

Mirzag'olibning ham yoshi mendan ulug', «Rais» degan laqabi bor, o'zi ehtiyyotkor, «qirqoyoq kiradi» deb, kechasi qulog'iga paxta tiqib yotadi.

Azimjon aka eshikni zichladi-da:

– Yur. Gap bor. Bo'lgan ish bo'ldi... Sen sho'rlik ham bir maza qil, – dedi.

– Lekin guldurgup, – dedi O'rmonjon aka.

Ularga ergashib, yo'lga chiqdim. O'rmonjon aka oldinga tushdi. Yomg'ir tingan, ammo sovuq kunlardan darak beradigan shamol esar, u ust kiyimlarimiz o'ngirlarini ochar, bag'rimizga o'zini urar edi. Endi itlarning tovushi ham o'chgan.

Biz yo'l yoqasidan orqaga – qishloqqa bizni olib kelgan «tomon»ga ketardik.

Ancha yo'l yurib qo'ydik. Dimog'im ham ochildi ancha. Bir-ikki marta:

– Qayoqqa boryapmiz o'zi? – deb so'radim.

Ular aytishmadid. Keyin bo'lsa... Xursand bo'lib ketdim... ha, zimziyo tunda qandaydir sirli ish bilan qayoqqadir ildamlab ketishning ham zavqi bor-da!

He, qishloq orqada qolib ketdi... Boshda aytganim – qiyoqlar bog'-bog' qilib yerga o'tqazib qo'yilganday ajriqzorga yetib keldik. Bu tomonda bir-ikkita it uchradi, qochib ketishdi.

Biz O'rmonjon akaning orqasidan boryapmiz. Ayrim joylardagi qamishlar yondirilgan ekan: namiqqan kulning hidi anqiydi. Namchil yer «g'irch-g'irch» etadi.

Alqissa, qamishlar odam bo'yи o'sgan, chanagalga o'xshash yerga borib qoldik. Shunda bir qo'zichoqning ojiz ma'raganini eshitdim. Ammo hali gap nimadaligini, bu safardan murod nelingini bilmasdim. Oqibat, qamishlarga oraladik va O'rmonjon aka qo'l fonarini yoqdi. Zumdan keyin biz, to'rtovlon oyoqlari kuliklab bog'lab, yotqizib qo'yilgan qoragina, jiqqa ho'l bo'lgan, ko'zlarini yiltirab zo'rg'a ovoz chiqarayotgan qo'zichoq te-pasida turardik.

– Xayriyat, – dedi O'rmonjon aka. – Men daydi itlardan qo'rqqan edim... Ergashvoy, chorvani bilasan, it ham qo'zichoqlarni yeyishi mumkin-a?

– Shunday voqealar bo'ladi, – dedim. – Lekin bu kimning qo'zisi?

– Bizniki... Bizniki endi. Mirzag'olib, boshlang endi! Mana, mening pichog'im o'tkir. Lekin suyakka urmang.

Juda jo'n ekanman deyman-da!

– Vey, shuni so'yasizlarmi? – debman.

– Bor. Hey u yerdan yo'lga qarab tur!

– Yo'q, axir bu kimniki? Balki kolxozniki, balki... E? Botir akaning yo'qolgan qo'zisi emasmi?

– Obbo, senga nima deyapman? – deya O'rmonjon aka yelkamdan ushlab orqaga burdi. – Bor-da endi! Kolxozning yonini oladiganni ko'rdik! Kolxoz... Padariga la'nat! Bizni ochdan o'ldiradi! Botir ham bir qo'zidan ayrlisa, ochdan o'ladigan kimsa emas!

– Axir, insoflaring...

Shu gap bilan bu yigitlar tarbiyalanib qolar-midi? Yo'q! Men o'shanda faqat nafratlanar, nochorlikdan fig'on chekar edim.

To'g'ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bos-dim. Lekin chamasi, kursdoshlar orasida yolg'izlanib qolish, ming bir ta'nalarni eshitish-dan ham qo'rqedim, shekilli.

Bundan tashqari, anglab olmagan esam-da, bu yigitlar to'qlikka sho'xlik qilmayotganlarini ham tushunib turardimki, garchi bu hol ularni oqlashga tirnoqcha asos bo'lmasa ham, ko'nglim-ga tasalli, o'z-o'zini aldash deysizmi – shularning biri edi.

Xullas, men o'sha qo'zining go'shtidan bir bo'lak yemagan esam-da, baribir o'g'rilikka sherk bo'lgan edim.

O'rmonjon akayam, Azimjon akayam bir hafta-largacha mendan xavfsirab ola qarab yurishdi.

Men ular bilan gaplashmay qo'ygandim, xolos.
Nima dedingiz?

Ha, o'sha yerda so'yishdi, Mirzag'olib so'ydi.
Hash-pash deguncha terisini shilib, kalla-po-chasini otvorishdi. Keyin bir to'p qamishni yondi-rib, qo'riga jigarini pishirib yeishdi.

Yemadim dedim-ku! O'zimni ishtahasi yo'qqa urdim-da... Juda bo'lmagandan keyin: «Hamma-laringdan jirkanaman!» – deb chetga chiqdim.
Keyin kutdim.

Be-e, cho'ponga borib siz ham aytmasdingiz.
Keyin ketdim. Yotog'ga kirib yotdim...

Nuqlul yig'lagim keladi, ukkag'ar. Botir aka-ga, ayoliga achinardim. Keyin, yigitlarimizgayam achindim... Ha! Ular qachon kirib yotishganini bilmayman. Biroq uch-to'rt kun go'sht qovurib yeishdi. Yo'q... Qizlar yotog'ida yeishdi. Endi, ular ham jannatda emas edilar-da, qadrdon.

Siz, yozuvchilar, injiq odamsizlar. Yaxshi odam deganda, albatta sutdek oq, musichadek beozor odamni tushunasizlar. Holbuki, unaqalar hayotda yo'q: undaylor, menimcha, g'oya... xolos. Ha-haha. Sizning gapingiz ham «Kommunistik jamiyat odamining axloq kodeksi»ga o'xshab ketadi.

Kodeks chiqdimi, demak, bas, odamlar unga amal qiladi: risoladagidek bo'ladi, deb hisobla-shadi ba'zilar. Bular – chipuxa gaplar.

Kunlar o'tdi.

Qor uchqunlay boshladi... Bizning, o'zingiz bilgan tog'larda bunday paytalar izg'ishlarimiz, sayr-u sayohatlar – endi ertak edi. Biz sovuqda tors-tors yorilgan ko'saklarning paxtasini suvg'a ivitib olgandek sug'urib olardik.

Ha, ikki kishi arqon bilan g'o'zalarning bir chet-dan surib, qorini tushirardi. Keyin diqillab egat-ga kirardik. «Oq oltin»ni terardik. Bu qurmag'ur «oq oltin» etakka tushgach, tugilib, mushtdek bo'lib qolardi. Jiqqa ho'l-da.

A? Qanday qilib quritib topshirishlarini bilmayman. Lekin bir-ikki xonada uyilib, sasib yotganini ko'rganman.

Keyin ko'sak terish boshlandi.

Endi, bizning qadrdonlar – O'rmonjon aka, Azimjon aka, Mirzag'olib, tag'in ularning saf-doshlari – bari sal sovuq o'tdi deguncha yo vaqtida bak qaynamasa, Botir cho'ponning kulbasi-ga kirib tiqilib olishardi.

Cho'pon bilan xotini esa... xursand!

Biz endi yakkamoxov bo'lib qolgandik. Yo'q, sira kirmadim. Qanday qilib kiraman?

Bu yog'iga quloq soling.

Qaytadigan bo'ldik. O'zingiz bilasiz, bunday kunni hech bir o'qituvchi, brigadir aytmaydi... Negaligini hamon tushunmayman. Balki terim-dan sovub qoladi, deb o'ylashadimi?

Lekin kulgili joyi shundaki, bolalar baribir bilishadi. Botir cho'pon ham bilgan ekan. Erta jo'naydigan kunimiz o'zlari xotinlari bilan ke-lib qoldilar. Yotog'ga... Men qandaydir xavotirga tushgan bo'lsam kerak, har holda.

– Assalomu alaykum, kelinglar, mehmonlar! – deb yubordi O'rmon aka.

Azimjon akayam bolalarga to'shakcha solishni buyurdi. Botir cho'pon qulluq qilib, xuddi kirib o'tirmasa – biz u dunyo-bu dunyo yuz ko'rmas bo'ladigandek, ta'zimlar bilan yana uyiga aytdi:

– Shu, labz ekan, ukalar... Tilga olib qo'yib edik. Bitta qon chiqaramiz deb... Shunga qadam ranjida qilsangizlar. Mana, opalaring ham iltimos qilyapti, – dedi.

Men tamom bo'ldim.

– E, qandoq bo'larkan... – dedi O'rmonjon aka.

– Qo'zingiz topilsa, boshqa gap edi...

– Ha, o'sha kecha biz ham yaxshi izlamagan ko'rnamiz, – dedi Azimjon aka ham. – Andak xi-jolatdamiz.

– E, og'alarim-ey, – deb kuldi cho'pon. – Biz xijolatda edik. Ishonasizlarmi, biz?.. Endi, gapni ko'p chuvaltirmaylik, ukalar. Qo'zi topildi hisob. A, xotin? He, Shodito'qaydan topdik. Ul-bulni... O'zimiz tusmollagan edik daydi itlarga yem bo'lganov, deb... Endi bizni xursand qilamiz desanglar, ketar jafosiga bir mehmonimiz bo'lasizlar...

Keyin, o'zlarini ham endi terimga chiqmasliklarini, faqat g'o'zapoya yulishlari va uyda o'tirib, ko'sak chuvishlarini aytdi.

– Qishlog'imizda ikkita grek bor, – dedi xotini keyin. – Bir chelak haligiday suvdan ham oldik.

Hayronmisiz, qadrdon? Men ham hayronman! Albatta.

Shu kechasi bir mahalgacha kulgada o'yinkulgi qilib o'tirishdilar. Tashqarida ham davom

etdi. Men o'zimni uxlaganga solib yotar edim. Yigitlar kelib, chiroqni yoqishgach, men to'g'rimda to'ng'illay-to'ng'illay, o'tirishdi.

Ko'pchiligining kayfi bor edi. Kayfdagi odamning gapiga ishonish qiyin-u, lekin... ha-ha, o'sha, xuddi o'ylagan gapingiz bo'ldi: pushaymonlik... E, biri qo'yib, biri oladi, biri qo'yib, biri...

Chamasi, hammasining og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga.

Azimjon akaning bir nidosi yodimda qoldi:

– Biz ablahmiz! – dedi ingrab. – Ko'ra-bila turib, ablahlik qilamiz. Biz qanaqasiga o'zbek-miz-a? Ana ularni o'zbek desa bo'ladi. Nima deding, O'rmonjon?

– Biz ancha buzilganmiz, – deb po'ng'illadi O'rmon aka. – Lekin hayotning o'ziyam majbur qiladi-da, kishini.

– Ularni majbur qilmayapti-ku?

– Nimaga?

– Shu, endi... Balki pul yig'ib berarmiz-a?

– Bo'lsa!

Keyin yana men haqimda gapirishdi. Bittasi, ovozidan bilolmadim, tik turgancha:

– Shu Ergashvoyning ichiga tepsang-da, – dedi. – Ko'zimga itdan battar ko'rinyapti... Endi, bir umr kulib yuradi bizdan, yaramas. Yovvoyi...

– Parvo qilma, – dedi O'rmonjon aka. – Bu-naqalar hayotda bo'ladi...

Men bu hikoyani o'zimni maqtash uchun ayt-mayapman. U yog'ini so'rasangiz, hozir ulardan ham beshbattar bo'lganman: haqqimni yedirmayman. Har qanaqa avtoritetni odam demayman...

Shu-shu, hozir hammamizning ko‘zimiz ochilib qolgan...

Ha, ertasi... laylakqor yog‘ib turardi. Xuddi tog‘larda yog‘adigandek!

Ko‘chada avtobuslar tizilib ketgan. Yigitlar-ning boshi osmonda. Nihoyat, universitet audi-toriyalariga qaytishadi!

Ayvonda turgandim. Xaltam yonimda. Shu Botir cho‘pon bilan xotiniga bir yaxshi gap, min-natdorchilik bildirgim kelardi. Men ularni juda yaxshi ko‘rib qolgandim-da!

Ha, kelib qolishdi.

– Xush ko‘rdik! Sizlarga ming-ming rahmat, O‘rmonjon! – dedi Botir cho‘pon. – Azimjon, sizgayam... Hammalaringizga. Qaranglar, bir mayizni qirq bo‘lib yeganday yashadinglar... Siz-larning qadringizga yetolmadik biz.

U kishi hamma bilan qo‘l berib xayrlashdi-da, menga qolganda, burilib ketdi. Shunda ayo-li ham xo‘slisha boshladi. Qadoq qo‘llarining uchini berib xo‘slisha-xo‘slisha menga yet-ganda, uyam burilib ketdi.

Men titrab-qaqshab ularning oldiga bordim.

– Botir aka, opa... men sizlarni juda yaxshi ko‘raman, – dedim. – Xafa bo‘lmangizlar.

– Yo‘q, siz bizni yaxshi ko‘rmaysiz, – dedi xoti-ni. – Boshdan yomon ko‘rib edingiz.

– Rost, uka. Pisand qilmadingiz bizni, – dedi shunda cho‘pon ham. – Anavi yigitlar boshqa-cha...

– Axir men sizlarni juda-juda hurmat qilaman.

– Bekor gap, – dedi ayol.

– Ha, – dedi eri.

Abduqodir menga yotsirab qarab turardi.

– Shunaqa.

Xo'sh, bu yerda nimani ko'rding, nima xulosa-ga kelding, deb so'rarsiz?

Men bu yerda... oddiy-jaydari, sodda o'zbek-ning kengligi, to'porilagini ko'rdim.

Ishonasizmi, avtobusga o'tirganimdan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig'lar edim: ana shu o'zbeklarning bag'rikengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe'li tor bo'lмаган, ajib-afsonaviy mehmondo'stligi ins-tinkt kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig'lardim.

Uzr, suhbatimiz «o'zbek xarakteri» haqida edi. Sizlar aytgan zo'r-zo'r hikoyalardayam haqiqat bor. Ammo mening bu jo'ngina, oddiygina hi-koyam – ko'nglimdan o'tgan narsa edi, azizim. Shuning uchun buning menga ta'siri mutlaqo bo'lakcha.

1988

YOSUMAN

Rassom Qo‘ziboyning nazarida, olamdagi insonlarning hammasi ham yaxshi, pok va sami-miydir, lekin... ularning orasida qandaydir odambashara yosumanlar borki, shular buzg‘unchilik qiladi: kishilar orasiga nifoq soladi, aloqalarini uzadi, g‘iybatchilik qiladilar va o‘zlari bu qiliqlaridan xursand bo‘lib yuradilar. Qo‘ziboy sodda edi; yoshi o‘ttizdan o‘tgan bo‘lsa ham, uzog‘i yili Leningrad Rassomchilik akademiyasini bitirib keldi. Urush yillarida ota-onasidan ayrilib, yetim bolalar uyida tarbiya topdi, u yerda shaytonga chap bergen muttaham bilan ham, yotoqdagi choyshab-uodeyallarni o‘g‘irlab, xufiya pullaydigan o‘g‘ri bilan ham, kechasi el yotgach, devor osha hamsoyalarning chorborg‘iga tushib, o‘rada sabzisi bormi, qazilmay qolgan kartoshkasi bormi – kanop qopda orqalab chiqib, bankning qorovuliga sotadigan yaramas bilan ham hamtovoq bo‘lishiga qaramay, o‘zining bolalarcha soddaligi va ko‘ngilchanligi saqlanib qolgan yigit edi. Ana shuning uchun u odamlarning fe'l-atvorlari har xil bo‘lishini ham, nihoyat, kishilar orasiga nifoq soluvchi «yosuman»lardan biri – ular mavqeyidagi farq, yashash sharoitidagi farq ekanini ham tushunmas edi.

Rassomlar uyushmasidan kech chiqqan Qo‘ziboy yo‘lda havaskor rassom do‘smini uchratib, uning mashqlarini ko‘rgani uyiga kirdi; do‘smini kidan soat o‘n birlarda chiqdi. U kam ichar edi, shu sababli bir stakan «oq stolovoy» ham ta’sir qildi, piyoda yo‘lga tushdi. Ikki xonali uyiga ye-

tib kelgunicha allavaqt bo'lib qoldi. Qo'ng'iroqni bosdi. Xotini Afruza eshikni ochdi-yu, yosh qizlarday quvonch bilan:

– Suyunchi berasiz! To'xtang! – dedi.

Qo'ziboy gangib, zal tomonga alang-jalang qaradi, u yerda hech kimni ko'rmay, xotinini o'pmoqchi bo'ldi. Afruza tislanib:

– Voy, uyat bo'ladi! – dedi.

Qo'ziboy eshikni yopdi-yu, uning orqasida berkinib turgan yoshlik do'sti Xudoyorni ko'rdi.

– Xudoyor?! E-e! Xudoyor! – u poyabzallarga qoqilib, barvasta, girdig'undan kelgan do'stini quchoqlay ketdi. Ko'tarib, yerga qo'ydi. Aftiga tikilib, yana: – Xudoyor! Bu senmisan, do'stim! – dedi.

Xudoyor miyig'ida iljayib turardi.

Zalga o'tdilar. Qo'ziboy u yerda ham bir kishini uchratdi: u do'stining o'zidek jussador xotini Norbibi edi.

– E, Norbibi! Keling, kelin! Salom! – dedi u quvonchdan baqirib.

O'tirib so'rashdilar. Qo'ziboy sevinchdan entika-entika mehmonlarning hol-ahvolini so'radi. Xudoyor xotini o'tirgan divan chetidan joy olib, charchagan kishidek stol qirrasiga o'mgagini tirab oldi:

– Mana, – dedi o'zini o'nglab Xudoyor, – uying-gayam kep qoldik! Norbibi qo'yarda-qo'y may shaharga oboring, jo'rangizning uyini bir ko'ray, dedi, olib keldim. Hozir ta'tildaman.

– Do'stim, qachon keldilaring? Hozirmi?

– Ha, hozir poyezddan tushdig-u, to'g'ri bu yoqqa kelaverdik.

– Juda yaxshi bo'pti-da, boshimiz osmon-ga yetdi! Afruz, Afruza, qayerdasan? – Qo'ziboy oshxonan yoqqa qarab, gazning big'illab yonayot-ganini eshitdi. – Ha, choy qo'yyapti! – dedi va stolga ko'z tashlab, unda bir quti shokoladdan bo'lak narsani ko'rmadi: noqulay o'tirib qolgan-dek qimirlab, qoshlarini chimirdi, sekin o'rni-dan turdi: axir, o'zi xotini bilan qishloqqa borib, Xudoyorlarning uyiga kirib qolgudek bo'lsa, das-turxonlari shunaqa bo'larmidi?! – Hozir, hozir! – deya u shoshib oshxonaga o'tdi. – Afro'z, Afro'z... Hm, bu qanday bo'ldi endi?

Choynakka quruq choy solayotgan xotini unga kulimsirab qaradi:

– Nima, nima bo'ldi?

– Hm, – Qo'ziboy cho'ntaklariga qo'lini tiqib, turgan yerida bir aylandi, tomog'ini qirib, o'gray-di: – Bu, stolda hech vaqo yo'q-ku? Nima qildik endi?

– Nima qillardik, hech narsa, – dedi xotini tu-shunmay.

– Yo'q, yo'q, axir... o'zing bilasan-ku, biz borganda, ular qo'ygani joy topisholmasdi, bor nar-salarni oldimizga to'kib tashlardi.

Afruza biroz o'yladi-da, siniq kuldi:

– Nima qipti, ularda bor, bizda yo'q, bo'lganda qo'yardik.

Qo'ziboy boshini orqaga qildi:

– Gaping to'g'ri! – dedi ta'kidlab. – Ularda bor, bizda esa yo'q. Afruza, aqlisan-da! Shunga aqlim yetmay, hayron bo'lib turgan edim.

Afruza choyni damlab, gazga qo'ydi. Qo'ziboy ildam odimlab zalga qaytdi-da, yana chiqdi:

– Abruza, – deya shivirlab uning yoniga keldi: – Non ham yo‘qmi?

– Nonning suvi qochib qolgan ekan, – dedi Abruza. – Qo‘schnining moliga berib chiqqan edim. O‘zlar ham kech kelishdi, hozir do‘konlar berk.

– Ha, – Qo‘ziboy shunday deb qishloqqa borib qolgan vaqtlarida bularning uyiga qachon kirma-sin, hatto tongotar mahalda ham yo‘jni yo‘ndi-rishlarini esladi: – Hm, lekin... bulardan uyatga qoldik-da!

– Nega unday deysiz, axir, o‘zingizning jo‘rangiz-ku! – dedi Abruza. – Men ulardan so‘radim, qornimiz to‘q, restoranda ovqatlandik, deyishdi o‘zlar.

– O, restoranda! – Qo‘ziboy qotib kului, yana zalga o‘tdi. – Xush kelibsani, do‘stim. Xudoyor, kelinjon! Mana bu boshqa gap! Lekin Xudoyor, men seni tanqid qilishim kerak, senda feodallik bor, ha, bo‘yningga ol! Kelinni hech qachon birga olib yurmagansan.

– Mana, endi boshladik-da, – dedi Xudoyor.

Norbibi xuddi eridek horg‘in ko‘rinar, uyning faqir jihozlariga o‘ychan qarar, shokolad qutisini barmog‘ida turtib-turtib qo‘yardi.

Abruza choy keltirgach, Qo‘ziboy uni piyolalar-ga quyib, mehmonlarga uzatdi:

– Marhamat! Marhamat! E, sizlarni qarang-a! – u o‘ylanib, Xudoyordan so‘radi: – Xudoy, qorin qalay? Abruza aytidi, to‘q emish. Sizniki-chi, kelin, to‘qmi?

– Xudoga shukur, to‘q! – dedi Norbibi va Qo‘ziboy kelinning so‘z tarzida qandaydir bepisandlik va kishini tahqirlovchi ohangni uqdi.

– Yo‘q, yo‘q! – deya irg‘ib o‘rnidan turib ketdi: – Yo‘q, bekorginani aytibsizlar! E, Afruza, shularning gapiga ishondingmi? Axir... Ha-ha-ha! Axir, poyezdda restoran qachon berkiladi? Bular yolg‘on gapistishyapti!

Qo‘ziboy oshxonaga chiqdi. Orqasidan kelgan Afruzaning bilagidan ushladi: – Pul bormi?

– Hozir nima topila qoladi? – dedi Afruza.

Qo‘ziboy o‘ylanib qoldi:

– To‘g‘ri! – dedi. – Lekin... biron narsa qilish kerak-da!

– Bir quti chuchvara bor, shuni qaynataymi?

– O, yaxshi, yaxshi! Juda aqli xotinsan-da, Afruzam! Bitta o‘pay!

– Unday bo‘lsa, siz... biron shisha aroq topib keling!

Qo‘ziboyning ko‘zlari charaqlab ochilib ketdi:

– Qoyil! Axir, bular aroqsiz o‘tiradimi?!

Qo‘ziboy yo‘lakka chiqqanda, ortidan Xudoyer yetib keldi:

– Qayerga ketyapsan?

Qo‘ziboy endi o‘z ahcidan mamnun bo‘lib:

– Yo‘q-yo‘q! – dedi. – Sizlar mehmon!.. O‘ti-raturunglar, hozir, darvoqe, mehmonning ixtiyori mezbonda!

Xudoyer ichkariga qaytdi, xotiniga ma’nodor tikilib qo‘ydi. Afruza choynakni Xudoyerning oldiga surib, oshxonaga chiqdi, u kuymalanib, taqir-tuqir qilar ekan, Xudoyer xo‘rsinib, manglayini siladi. Norbibi bo‘lsa, eriga qattiq tikilib turdi-da, piqillab kula boshladи.

– Nimaga kulasan? – dedi Xudoyer do‘q qilib.

Norbibi yana qattiqroq kuldi.

– Ha, endi... bular mehmon kutib o'rganish-magan-da, – dedi Xudoyor. – Shaharlik...

– Shaharlik, – Norbibi xaxolab yubordi, so'ng boshini egib: – Sho'rim qursin! – dedi. – Hoy, meni shu niyatda bu yoqqa opkeldingizmi? Och-dan o'ldirasizmi meni? Yo'lga chiqayotganda shunaqa bo'lishini aytmaysizmiki, yeguligimni olib kelardim.

– Bo'ldi! – Xudoyor esnab, to'ng'illadi: – Restoranda ovqatlanding-ku?

– Restoran emish, – dedi Norbibi. – Tirnoq-cha go'sht bilan ikki dona kartoshka ham ovqat bo'ptimi? – u yana uyni ko'zdan kechirib, kului.

Xudoyor unga do'q urmoqchi bo'lib, ilkis qaradi-da:

– Bas, ovozingni o'chir! – dedi. – Ertalab ketamiz!

Afruza mehmonlardan yana xabar oldi... Bu vaqtida Qo'ziboy past ko'chada mashina kutib turardi. Bir taksi kelib to'xtadi. Qo'ziboy mashinaga o'tirib, shofyorga iltijo qildi:

– Do'stim, menga yarimta aroq kerak bo'lib qoldi... uya aziz mehmon kepqoldi. Tushunasiz-ku? – dedi.

Shofyor aroq sotadigan cholning yoniga obo-rib qo'yishini aytdi.

– Lekin qaytib kelmayman, buyurtma bilan ketyapman, – dedi shofyor.

Qo'ziboy shunga ham xursand bo'ldi.

Uyda mehmonlarning suhbati davom etardi:

– Boshqa yerdayam uylari bormi bularning? Yo shumi?

– Bilmadim, – dedi Xudoyor. – Har holda bo'lsa kerak. Shaharliklarning hovlisiyam, kvartirasiyam bo'ladi.

Norbibi bosh irg'ab qo'ydi.

Chuchvarani qozonga solgan Afruza qaytib kirdi.

– Afruzaxon, – dedi Norbibi, – ertaga hovlilarin-gizgayam olib borasizlarmi? Yo qishloqqa shu yerdan ketaveramizmi?

Afruza tushunmadi:

– Qanaqa hovli? – dedi va kului. – Hovliga deysizmi? Hovlimiz yo'q. Hovlini nima qilamiz? Bu yer yaxshi!

Er-xotin zimdan bir-birlariga qarashdi.

– Shu-shu, – deya chaynaldi Norbibi. – Bor bisotlaring shumi?

– Ha, shu! – dedi Afruza. – Bo'ladi-da!

– Uff...

Qo'ziboy keldi. U Xudoyorni majbur qilib, bir-ikki piyola ichirdi, o'zi ham ichdi... Norbibi yana o'zini tuta olmadi:

– Qo'ziboy aka, mashinaga pul yig'yapsizlarmi deyman?

– Mashinaga?! – Qo'ziboy kulib yubordi. – Mashinaga hojat yo'q. Ana, ko'chada tramvay, trolleybus bor, bo'ladi-da. Mashina sizlarga kerak. Olsalaring bo'ladi...

Norbibi rangi o'zgarib, choydan ho'pladi. O'rинга yotishgach, eriga:

– O'lguday xasis ekan-ku, bular! – dedi.

– Bilmadim, – dedi Xudoyor.

Ular suyanchig'i yozib qo'yilgan divanda yotishar edi.

– Ertalab gum bo‘lamiz bu yerdan! – dedi Norbibi. – Endi bildim! Qani, bular qishloqqa borgach, uyga oborib ko‘ring-chi, o‘zim bilaman! Qo‘ying-e, odamgarchilik ham shu bo‘ptimi? Bular borganda, o‘zimni qo‘yishga joy topolmasdim!.. Bularning esa parvoyiga kelmaydi-ya?

Ertalab mehmonlarni Qo‘ziboy uyg‘otdi-da, shoshib:

– Yuringlar, ustaxonaga kiramiz, – dedi.

Hozir oftob chiqib turibdi. Rasmlar yaxshi ko‘rinadi.

Er-xotinga mezbonning bu «odobsizligi» yoqmadi. Ular eran-qaran o‘rinlaridan turishdi. Yuvindilar. Qo‘ziboy ularni ustaxonaga olib kirdi.

Mehmonlar ichkariga qadam bosishlari bilan bo‘yoqlar hidi dimoqlariga urildi, bu yerdan tezroq chiqib ketish niyatida, ostonada to‘xtashdi.

Qo‘ziboy har xil ramkadagi rasmlarni o‘ngladidi, so‘ng har biriga izoh berib:

– Birinchi taassurot qalay? – dedi.

Xudoyer ham, Norbibi ham bu rasmlarda o‘z qishloqlari, uning manzaralari va odamlarini yaqqol ko‘rishdi. So‘ng rassomdan bularning narxini so‘rashdi. Qo‘ziboy gangib qoldi, dudmol javob berdi. Qaytib chiqdilar.

– Endi ketamiz! – dedi Xudoyer. – Bozorda ishimiz bor, keyin qishloqqa qaytamiz.

– Muncha tez?! – dedi Qo‘ziboy. – Shaharda qurilish ko‘p, ko‘rish kerak.

– Yangi muzey, kinoteatr! – qo‘srimcha qildi Afruza.

– Bizlar qishloqi, kelin, – dedi Norbibi. – Qurilish ko‘p ekan, ko‘rdik, kinoni televizorda ko‘ramiz.

Xudoyor o'ylanib, tushuntirdi:

– To'ychig'imiz bor, bir-ikki yuz metr gazmol olishimiz kerak. Bugun yakshanba, vaqt o'tmasin!

– Choy ichinglar...

– Mana, issiq non olib keldim, – dedi Afruza.

– Qaymoq bor.

Chiqdilar. Qo'ziboy qishloqqa borgan mahallari do'stlarining to katta yo'lgacha kuzatib qo'yishlarini esladi:

– Bo'lmasam, ishlaringiz bitgach, bu yerga qaytib kelinglar... – dedi. – Vokzalga olib chiqib qo'yaman!

Xudoyor kulimsiradi:

– Imkon bo'lsa kelamiz.

Norbibi kuldii:

– Bu yil ertaroq boringlar, kutamiz. Qora kamarga chiqamiz, qo'y so'yamiz, tandir kabob qilamiz!

Qo'ziboy sergaklanib, do'stiga qaradi:

– Bo'pti! – dedi. – Afruza, bu yil albatta borramiz-a? Bir maza qilaylik! Kolbasa jonga tegdi?!

– Bo'pti, bo'pti! – dedi Afruza.

Mehmonlar xususiy mashinaga o'tirib, jo'nadilar.

Qaytib kelishmadi...

Avji bahor kunlarining birida Qo'ziboy bilan Afruza tog' etagidagi qishloqlariga borishdi... Afruzaning tarjimayi holi Qo'ziboynikiga o'xshash edi: u ham urush yillarida ota-onasiz qolib, yetim bolalar uyida tarbiya topgan, shuning uchun ba'zi rasm-rusumni bilmay o'sgan edi.

Qo'ziboy tanish shofyorning uyida mehmon bo'ldi, ertasiga Xudoyorga qo'ng'iroq qildi:

– Salom, Xudoyor! Biz keldik! Do'stim, Qora kamarga chiqamizmi? – dedi.

Xudoyor sukut qildi, so'ng:

– Qo'ziboy, xafa bo'lmanq, vaqtim yo'q. Agar mol kerak bo'lsa, beraman, olib borib so'yinglar! – dedi.

Qo'ziboy allanechuk bo'lib ketdi:

– Mol... hm, biz nima qilamiz molni? – dedi.
– Bizga... yarim kilo go'sht ham yetadi, do'stim!
Sizlar bilan borsak, boshqacha bo'lardi-da.

– Men chiqolmayman, xotinim ham, – dedi
Xudoyor.

– A, hm... unda qachon vaqtingiz bo'ladi, biz ko'p turamiz bu yerda!

– Biz.. vaqtimiz bo'lmasa kerak...

Qo'ziboy gangib, go'shakni joyiga qo'ydi.
Ko'chaga chiqib, xotini yoniga keldi:

– Ketdik, – dedi.

Afruza jilmaydi.

– Gaphaeldim, – dedi Qo'ziboy u yoq bu yoqqa alanglab qarab. – Gaphaeldim... lekin... menimcha, Afruza, Xudoyorni kimdir buzibdi. Ha-ha. Meni unga yomonlagan birov, seniyam... Ha, yomon odamlar, yosumanlar bor, hayotda!

1969

KO'NGIL

Qor tushishi bilan bizga jon kirardi. Tong bo'zarganda qarabsizki, miltiq yelkada, hali iz tushmagan bog'ko'chadan g'izillab ketib boryap-miz tog'ga qarab.

Goh o'rtoqlar bilan chiqsak, goho... yakka o'zim chiqardim. U yerda Nazrulla degan o'rtog'imning tomi – keksa tollarga ko'milgan uylari bor. U yolg'iz onasi bilan yashardi. Ota-si urushda o'lgan. Qiziq bola edi u. Kim, ovga yur desa, ergashib ketaverardi. Bu yoqda maktab bormi, dars bormi – o'ylab o'tirmasdi. Uning miltig'i ham yo'q edi. Lekin u nolimas, onasiga, miltiq olib ber, demas, ovga borayotganlarga ergashib ketaverardi. Ovga borgach, kiyimlarimizni poylab, olov yoqib o'tirar, ovimiz baror olgan bo'lsa, bizdan ortiqroq quvonardi.

Bir kuni saharda ayvonga chiqsam, laylakqor yog'ib turibdi. Shunday tez yog'yaptiki, chorpoya tagida chirqillashayotgan chumchuqlarni ham ko'rib bo'lmaydi.

Shosha-pisha uyga kirib kiyindim. Yarimta nonni bo'lib, kissaga soldim-da, miltiqni olib, devor osha ketdim. Bunday vaqtida birov ko'rmasin deysan. Lekin albatta ko'radi. Devorlar-ning tagi bilan pishillab ketayotsam, «to'p» etib yelkamga bir lo'mboz qor tushdi. Nariga o'tib qaradim. Nurmat Kachal degan odam kuragi-ning sopini ko'kragiga suyab qo'yib, hovuchiga kuhlayapti.

– Ovlar baror olsin! – dedi u. Bosh irg'adim.

– Poylab o'tirarkanmiz-da?

Iljaydim.

...Nazrulla uxbab yotgan ekan. Meni ko'rib, darrov gap nimadaligini tushundi.

– Axir, mактабинг бор-ку? – dedi onasi.

– Maktab qochib ketmaydi, enajon, – dedi Nazrulla.

Qor bo'ralaydi. Tog' ko'rinxaydi. Lekin oyoqlarimiz adashmay olib boryapti bizni. Do'nglikka chiqib bordik. Bu yerda tuman bor edi. Shuning uchun qor siyrak va yumshoq yog'ardi. Atrofga qulq soldik. Kaklik sayrashi eshitilmadi. Engashib, qorni ko'zdan kechirdik. Iz ham yo'q edi.

– Shapaloqxonaga boramiz, – dedi Nazrulla.

Bordik. Kirib chiqdik. Toshlarga yopishib yuradigan cho'ponaldarg'ich qushidan bo'lak hech narsa yo'q edi.

– Huk daraga boramiz.

Ketdik. U yerda ham hech narsani uchratmadik.

– Haydar buloqqa boramizmi?

Ketdik. U yerdayam kaklik zoti yo'q edi.

Hafsalamiz pir bo'ldi. Kunning qay mahal bo'lganini ham bilib bo'lmasdi. Osmon ham op-poq. Bir kamarga kirib, bodomchadan olov qildik-da, nonlarimizni cho'g'ga isitib yedik.

– Men katta yo'l bilan ketaman, – dedim Nazrullaga. – Miltiq uylaringda turatursin.

Kelishdik. Biroq qishloqqa olib tushadigan, ertalabki do'nglikka chiqqan ham edik, chap tomonimizdan, «kak-kak... kakiba-kakiba...» degan ovozlarni eshitib qoldik. Negadir men jahl bilan Nazrullaga «yot!» dedim-da, cho'nqayib yu-

gura ketdim. Do'nglikning labiga – yerdan yorib chiqqanday uyum toshlar yoniga borib, pastga mo'ralasam, bir gala kaklik turnaqator tizilib, yonbag'irni qiyalab boryapti. Qoq belini ko'zlab otdim. Kakliklar chug'urlab ko'tarildi-da, qanotlarini dumlari tomon qayirganicha do'nglikning orqasiga o'tib ketishdi. Faqat bittasigina yerga tusha boshladи. Otdim pastga o'zimni. Dumatay-dumalay, yiqila-surila kaklikka yetdim va qo'llarimni yoyib, o'zimni uning ustiga tashladim. Kaklik qo'linda! U dirillaydi, quralay ko'zlarini jovdiratib, qip-qizil oyog'ini tarang cho'zadi. Pichoq Nazrullada edi, uning kelishini ham kutmay tishim bilan kaklikning kekirdagini uzib tashladim. Shu bilan ovimiz baror olib ketdi. Yo'lda yana bitta kaklik otdik. Nazrullaning quvonchini! Nuqul yelkamga urib, «Yasha, yasha, jo'rajon!» deydi yig'lamsirab. Shunday qilib, ikkita kaklikni belga osib, qishloqqa qaytdik. Men to'g'ri uyga ketmoqchi edim, Nazrulla qo'ymadи:

– Isinaylik.

Onasi darrov ko'rпacha to'shadi, pechkaga ko'mir soldi. Men pech yoniga – po'stakka o'tirib, muzlab tarashaday bo'lib qolgan shirim pocharlarini o'tga toblay boshladim.

– Go'sht qovurib beraymi? – dedi Nazrullaning onasi.

Men, yo'q, dedim. Lekin qovurdi. Yeb bo'lganimizda, kech tusha boshlagan edi. Etigimni kiyib, kakliklarim bog'langan belbog'imga qo'l cho'zdim-u, lekin tomirlarim tortib qoldi: «Axir, kakliklarning bittasini Nazrullaga berishim kerak-ku! Men bilan kun bo'yи yurdi... Lekin ber-

sam, unda bitta kaklik bilan uyga kirib boramanmi? Nurmat Kachal ko'rsa, «Ha, arang bitta otdingmi?» – demaydimi? Yoki «Aslida, otolmabsan-u, birorta ovchidan yalinib olisan-da», – deydi. Ota-onam-chi?»

Belbog'ni unutgan bo'lib, etigimning qo'njini torta-torta eshikka chiqdim. Nazrulla ayvonda belbog'ni chiqarib berdi.

– Nima, ikkoviniyam menga bermoqchimisan?

Kulimsiradi. Yerga qaragancha belbog'ni belimga bog'lay boshladim.

– Unisi semiz ekan, – dedi Nazrulla yalanib, – bunisi oriq ekan, mazasi yo'q.

Men miq etmay belbog'ni bog'ladim. Onasi bilan xayrlashdim-da, bu yoqqa o'tib, kaklikning bittasini beraman, deganday:

– Nazri, senga bir gapim bor, – dedim.

Darvozadan chiqqach:

– Xayr endi, – dedim. – Tezroq borishim kerak uyga.

– Hm... – dedi Nazrulla. – Lekin bunisi jundayam og'ir ekan...

– Ha... – dedim va ketdim. Lekin ko'chaga burilayotib, o'girilib qaradim. Nazrulla bo'ynini qashib turar, menga pastdan tikilardi.

Orqa-oldimga qarayman, sakrab-sakrab keta-man, kaklikni ko'proq qimirlataman. Lekin Nurmat Kachalning chorborg'iga yetguncha biron ta ham yo'lovchi uchramadi. Kachalning darvozasi-ga yetgach, to'xtadim-da, miltig'imning top-toza qo'ndog'ini qor bilan arta boshladim. Milini ham artdim... Yo'q, Kachal yo'q. Kerak bo'lmaganda

ko'chalarda lapanglab yurardi. Hozir yo'q. Juda sovuq qotdim. Bor-e!

Uyga borsam, na onam bor, na otam!

– Bozorqo'm xolang chaqirib ketdi, – dedi momom.

Kakliklarni dahlizzagi tashlandiq shkaf ustiga otdim-da, shart yechinib ko'rpga kirdim.

Kun bo'yi yurib, bo'lganimcha bo'lgan ekanman. Toshdek qotib qopman. Ertalab hech kim-ga gap qo'shmadim. Nonushta qilayotgan edik.

– Qalay, bo'rimi, tulkimi? – dedi otam.

Churq etmay dahlizga chiqdim. Shkafning ustiga qo'l cho'zdim. Hech narsa ilinmadi. Stol qo'yib, chiqib boqdim. Hech balo yo'q!

– Qani kaklik? Momo?!

– Men qaydan bilay, bolajon! – dedi buvim. – Menga bergen bo'lmasang. Gapgayam javob ber-mading-u.

Eshikka otildim. Bog'ning adog'idan, loyxonadan topdim... patlarini... So'ng miltiqni o'qlab, kun bo'yi deraza yonida o'tirdim. Mushuk kelma-di. Ertasi bozor kuni edi. Qor tingan. Yana miltiq olib, tongda yo'nga tushdim. Nazrulla hovlilari sahnidagi qorni kurayotgan ekan. Meni ko'rib, qizargan burnini bir tortdi-da, ishini qilaverdi.

– Nazri... yur, – dedim. U bosh qimirlattdi.

– Bugun otganimning hammasi seniki, – dedim. Nazrulla boshini keskin ko'tardi.

– Nima keragi bor? Zor emasman! Gap... gap ko'ngilda, tushundingmi? – dedi u va kurakni qorga zarb bilan sanchib, uyiga kirib ketdi.

ОY YORUG‘IDA

Samar qoya oralig‘idan o‘tgan so‘qmoqdan yurib, yalanglikka chiqdi. Oy uning qoq manglaysida, soyasi tomon cho‘zilgan edi. So‘qmoq oqarib ko‘rinadi. Yo‘ldan chiqmasa, u tonggacha qishloqqa tushib boradi.

Samar yaqinda xotinidan ajralib, bu yoqqal kelgan, uni shahar ham o‘zidan bezdirgan, bu yovvoyi tog‘ orasida bir-ikki oy yashashga qaror qilgan edi. Bir oqshom garovda yutqazib, aroqqa chuv tushdi. Do‘sining e’tiroziga ham qaramay yo‘lga chiqdi. Mana, yarim kechadan oshganda cho‘ponlar ovuliga qo‘ndi, chalob qovurdoq yedi va ularga rahmat aytib, yana yo‘lga tushdi.

Samar yalanglik o‘rtasiga yetib, ortiga o‘girilib qaradi, endi cho‘ponlarning iti ovozlari ham eshitilmas, o‘tovi oldidagi gulkandan sachrayotgan uchqunlarni ham tun qa‘riga yutgan edi. Atrof jimjit, sirli sokinlik qo‘ynida. Uzoqda ukki sayraydi.

U yana olg‘a ketdi. Yalanglikning adog‘ida qorayib qoyalar ko‘rina boshladи. Yo‘lovchi hademay ularga yetdi. Bu qoyalar orqada qolib ketgan tog‘dan qulagan, dumalab shu yerga, soy labiga kelib to‘xtab qolgan. Oy anchagini ko‘tarilib qolganidan metin xarsanglarning sirti yaltirar, pana joylardagi soya behad quyuqlashib ko‘rinar edi.

Samar qoyaga yaqinlashgan ham edi, yo‘lga egilgan tumshuqda oyoqlarini osiltirib o‘tirgan qora gavdani ko‘rdi. U cho‘chib ketdi, shuning bilan birga sayohat-sarguzasht talab ko‘ngliga sirli zavq oqib kirdi; miltig‘ini yelkasidan asta oldi.

– Qo‘rqmang, – dedi haligi qora gavda va yengil sakrab tushib, Samarga tikildi.

Samar g‘ayritabiiy entikib, o‘zi jinga ishonmasa ham, uni «jin» deb o‘yladi. So‘ng bu mudroq, mungli hayotiga yorqin bir xotira kirganiga iqror bo‘ldi.

– Qo‘rqayotganim yo‘q. Kimsiz?.. Odammisiz?
– dedi.

– Kechiring, – dedi qiz shoshib va Samarni anchadan beri taniydigan odamdek unga yaqinlashdi. – Men sizni anchadan beri poylab o‘tiribman! – davom etdi u. – Siz o‘tovdan chiqqanda izingizdan men ham chiqqan edim, sekin yurar ekansiz.

«Qiz... Tushunib bo‘lmaydi bu xalqqa!» ko‘nglidan kechirdi Samar va:

– Nima, siz shu ovuldanmisiz? – so‘radi.

– Ha, – dedi qiz va shosha-pisha gap boshladi:

– Siz bilan birga choy ichgan cho‘tir odam borku, dadam meni shunga bermoqchi. Men xohlamayman. Men o‘qiymen, shaharga boraman. Shuning uchun uydan qochib chiqdim. Malol kelmasa, sizga hamroh bo‘lsam?

– Marhamat, menga baribir, – dedi Samar va uning yuzini ko‘rmoqchi bo‘lib tikildi, qiz kulchayuz, shahloko‘z, o‘rta bo‘y, xipchadan kelgan, ko‘rinishdan ziyoli oilada tarbiya topganligi seilib turardi.

– Rahmat, – dedi qiz so‘qmoqqa tushib. – Men shaharni ko‘rmaganman, qayoqda ekanini ham bilmayman. Goho cho‘qqidan qarasam, chiroqlari ko‘p bir joyni ko‘raman. Shu shahar bo‘lsa kerak.

– Ha, – dedi Samar va xo‘rsindi: «Ey, qiz, shaharda nima bor senga?»

Samar ham uning ortidan yurdi. Bir necha qadam yurmay, yigitning ko‘ngli g‘ash bo‘ldi:

– Bu, ota-onangiz nima deb o‘ylashadi? Bir o‘tkinchi yigit qizimni opqochib ketdi, demaydimi? Orqamizdan tushishsa, sharmanda bo‘lamiz-ku!.. Unda o‘zingiz bilasiz, mening ahvolim chatoq bo‘ladi, janjalni yomon ko‘raman!

Qiz orqasiga ilkis qaradi.

– Siz qo‘rqmang, men ularning sharpasini sezib qolsam, qochib ketaman, – dedi. – O‘zi shunday deyishingizni sezgan edim... Faqat iltimos, tezroq yoursak!

– A-a, – dedi Samar. – Ishqilib, javobini o‘zingiz berasiz. Men... mening tez yurishga madorim yo‘q, charchaganman.

– Qatdan kelyapsiz! Bu atrofning odamiga o‘xshamaysiz-ku?

– Uzoqdan. Ha, bu atrofning odami emasman, lekin shu atrofning odami bo‘lib qolishni istayman, singlim.

– O! Bu yerda nima bor? – dedi qiz... – Hammayoq tog‘-tepalik! Hamma narsa shaharda-ku!

– Ha, shaharda. Boring, ko‘rasiz, – dedi ensassi qotib.

– Ko‘ramiz, ko‘ramiz, – dedi qiz, u boshini burrib, quchoqqa sig‘mas oyga qaradi. Toshga qo‘qilib ketdi. Kulib, qaddini rostlab oldi. – Oyog‘imda kalish, shaharliklar kulishmaydimi?

– Parvo qilmaysiz-da, kulishsayam.

– To‘g‘ri, – dedi qiz bosh irg‘ab. – Buvim ham shunday der edilar.

Ular qiyalikdan pastlab, yarqirab oqayotgan sayoz soy bo'yiga tushdilar. Suv betiga chiqib turgan toshlarga oyoq qo'yib o'ta boshladilar.

Narigi sohilga o'tganda Samar shag'al ustida qizga qaradi:

– Singlim, bekor qilyapsiz-da, pushaymon yeysiz, – dedi yuragi hapriqib, – bu joylarni sevish kerak. Siz buning qadrini bilmabsiz. Bir kuni qaytib kelasiz.

– Menmi? – dedi qiz... – Ha, qaytaman... Lekin bir oy-ikki oyga.

– Nimaga?

– Chunki men bu yerda yashamayman-da. Bu yerda cho'ponlar, podachilar yashaydi, qo'y boqadi, poda boqadi. Men nima qilaman batda? Sog'inganda kelaman, sayohatga kelaman.

– Siz kimsiz o'zi?

– Menmi? Men oddiy... dadamning qizi. Nima hayron bo'lasiz?

– Xuddi shaharda tug'ilib, shaharda o'sganga o'xshaysiz?

– Yo'q, shatda tug'ilib, shatda o'sganman. Buvim gapirib bergenlar shahar haqida.

– Bovingiz kim? U kishi shaharda yashaydimi?

– Yo'q, Cho'ltoq tog'da... – dedi qiz. – Yuring, yo'ldan qolmaylik, yo'lakay gaplashamiz. Tag'in anavilar orqamizdan qulab kelishmasin.

– To'g'ri gapingiz.

Soy yoqasidagi o'pirilib tushgan qumloq tepaga chiqib, yo'lni yengil changitib keta boshladilar.

– Singlim, bu yurishdan foyda yo'q, – dedi Samar. – Yo'ldan yoursak, haqiqatan ham ular yetib

olishlari mumkin. Chetdan yuraylik, siz yaxshi bilsangiz kerak, bu yerlarni?

– Ha, bilaman, – dedi qiz. – To‘g‘ri aytdingiz, yuring, anavi archazor ichidan ketamiz, hech kim bizni ko‘rmaydi, – qiz yo‘lni qoldirib, oqarib turgan tikanzorga kirdi, etagini andak ko‘tarib olib, tikanlar ustidan sakray-sakray qiya betga o‘rladi. So‘ng yumshoq tuproqda sirg‘ala-sirg‘ala tepadagi archaga yetdi. Samar ham uning orqasidan chiqib bordi, bu yo‘l davomida u charchaganini yana qattiq sezdi, soni birdan uvushib, tarang tortildi. Yigit egilib, uni uqaladi, cho‘zdi. Tomir qo‘yordi. Qiz unga miltiq xalaqit berayotganini ko‘rib, dedi:

– Bering miltig‘ingizni, men ko‘tarib yuray. Siz charchabsiz, og‘irlik qiladi.

Samar yelkasidan miltiqni oldi-yu, qizga tikilib qaradi, ko‘nglida g‘alati shubha paydo bo‘ldi: «Yo‘q... bu yerlik emas bu, – deb o‘yladi. – Tiliyam, muomalasiyam boshqacha... Qiziq, nima qilib yuribdi ekan, bu yerlarda? – Samar battar hayron bo‘ldi: – Men erkak bo‘lsam, seskanmaydimi mendan? Hech narsa ko‘rmagan-day kelyapti... Bir sir bor!»

– Rahmat, – dedi Samar, – o‘zim ko‘tarib yuraman, – u iljaydi. – Momongiz aytgan bo‘lsa, yigit kishining yonida qiz kishining yuk ko‘tariishi odobdan emas...

– Ha, buniyam gapirganlar, yana ko‘p gaplar aytganlar. Bechora, bir oy bo‘ldi, qazo qildilar, – qiz parishon bo‘lib, olisdagi ufqqa, qora qalam bilan chizib qo‘yilgandek tog‘ga qaradi.

So'ng tepalik o'rkachidan odimladi.

– Aytmoqchi, anavi yo'l shaharga olib bora-dimi yo boshqa yo'lgayam chiqamizmi?

– O'sha olib boradi, – dedi Samar.

– Unday bo'lsa, undan uzoqlashmay yuraylik-da?

– Darvoqe, ular quvib kelganda tutqich beradigan darajada yaqin bormasligimiz kerak.

Ular tepalikdan qiyalab tushib, boshqa tepega ko'tarildilar, bundan chiqish ham Samarga azob bo'ldi. So'ogra qop-qora archa soyasi bosib yotgan arnaga duch kelishdi. Qiz shu arna yo-qalab yo'l boshladi. O'rmon jimjit, goho qayerdaridir jir-jir qushi uchadi, uning yangroq ovozi tun sukunatini buzib yuboradi. So'ng yana o'rmonga jimlik cho'kadi. Faqat yo'lovchilarning qadam tovushlari, ular qimirlatib o'tgan shoxning shildirashi eshitiladi. Goho qiz yo'nga ko'ndalang cho'zilgan shoxni iziga qaytarib turadi, yigit o'tib olgach, uni qo'yvoradi va tag'in olg'a chiqib, o'tkir ko'zlar bilan bexato yo'l topib boradi.

– Hm, bir vaqtlar boyagi soyning bo'ylarida archa o'sardi, deng, – dedi Samar va tajanglanib ketdi. Texnika shu yerkargayam yetib keldi... singlim, ana shu hozirgi shaharning, texnikaning sharofati. Bora-bora, bu texnika degan narsa butun tabiatni yutib yubormasa, deb qo'rqaman.

Qiz hayratlanib hamrohiga qaradi:

– Tushunmadim gapingizga, nimaga? – dedi. Cho'ltoq tog'ga birinchi marta vertolyot kelganda ba'zi odamlar, odamxo'r qushlar bu deb qon chiqarishib, xudoyi qilibdi. Buvim bechora kular edi... Hozir vertolyotdan ko'pi yo'q. Odam yurol-

maydigan cho'qqili tog'ga chiqadi, geologlarga yuk tashiydi. Bultur qish qattiq keldi, kiyiklar ham o'tovimiz yoniga kelib qoldi. Shunda vertolyotlar beda-pichan tashlab ketdi. Shu bo'lma-ganda mol qirilib ketardi. Shuyam... texnikami?

– Ha, buyam texnika, – deb qo'ydi.

– Shuning uchun siz uni yomonlamang, – dedi qiz yo'lida davom etib. – Buvim aytar edilarki, odamning hayvondan bitta farqi bor, uyam bo'lsa aqli, der edilar. Rost-da, hayvonda aql nima qiladi? Shuning uchun aql yaratgan mo'jizalar ni hurmat qilish kerak, der edilar... Shu vertolyotni ham aql yaratgan-da? Qani bir ayiqning oldiga shu miltiqni qo'yib ko'ring. Ichida o'qi bo'lmasayam sindirib tashlaydi, negaki, aqli yo'q. Odam bo'lsa bu miltiq bilan o'zini qo'riqlaydi, molini qo'riqlaydi. Miltiq bo'lmasa, siz ham shu yurishdan qo'rqardingiz... O'rmonda jondor ko'p, silovsin bor, to'ng'iz bor.

Samar zimdan tevaragiga qarab qo'ydi:

– Mulohazalaringiz chakki emas, siz o'qisan-giz... o'qib ketasiz, – dedi.

– Ha, men o'qiymen, – dedi qiz. – Shaharni ko'raman, dunyoni ko'raman. Men tushunmay-digan narsalar ko'p, shularni tushunib olaman. Buvim rahmatli armonda ketdi, ikki oyoqdan qolmaganimda bu yerga kelmas edim, o'lim quv-lab keldi meni, der edilar.

– Momongiz... bu momongiz ham antiqa odam-ga o'xshaydilar, – dedi Samar.

– Ha, u kishi dono ayol edilar, – tasdiqladi qiz.
– U kishining ayalari otinoyi bo'lgan.

– Nahotki? – hayron bo'ldi Samar. – Bu yerlardayam otinoyilar o'tganmi?.. Siz aldayapsiz, singlim, bir sirni mendan berkityapsiz? Tilingizda bo'lsa atda, batda, buvim, ayam...

– Dukillayotgan narsa nima?

Samar ham qo'shni adirdan kelayotgan bu tovushni eshitib, miltig'ini o'ngladi. Tuyoq tovushlari borgan sari uzoqlashib ketdi.

– To'ng'izlar, – dedi qiz. – Biz bilmaymiz-u, ular bizni sezishgan, qochib ketdi. Ana, aytmadimmi hayvonlar ko'p deb? Miltig'ingizni o'ng qildingiz... Texnikani yomonlamang.

Samar kerishdi:

– Bo'pti, yomonlamayman! – u behad holdan toygan edi, tomiri yana tortishib borardi; chuqur nafas olib to'xtadi, qiz ham to'xtadi. Shunda u Samarga yana ham sirli bo'lib ko'rinish ketdi... Endi u bu g'alati qiz bilan kelayotganiga ishongisi kelmadi: «Nima, bu tasavvurimmi?» deb ko'nglidan kechirdi. Go'yo qizning tasavvur yoki tasavvur emasligini bilmoqchidek, gapida davom etdi: – Otinoyilar bu yerkarda bo'limgan hisob. Mening tarixdan bilishimcha, janubda din qadim zamonlardan beri sust bo'lgan, ba'zi mandalarda bu o'lka odamlarini «tabar muslimonlari» deyishadi, – u qizning diqqat bilan quloq solayotganidan ilhomlanib, so'radi: – Tabarni tushunarsiz, bolta degani?

– Ha, tojikcha-da, – dedi qiz.

– Musulmon dinini bizga arablar olib kelgan, ular qilich, bolta, tig' kuchi bilan buni aholi o'rtasiga singdirishga harakat qilgan. Lekin bu tog'liklar bo'yinlariga bolta qo'yganda ham, o'zla-

rining otashparastlik dirlaridan qaytmagan, shuning uchun bularga «tabar musulmonlari» deb nom berishgan. Ana shuning uchun bu yerlarda islomning ta'siri qadimdan sust bo'lgan, singlim... Siz bo'lsa otinoyi, deyapsiz. Bu so'zni... bu o'lkada eshitish qiyin. Anavi g'alati so'zlarni qayerdan o'rgangansiz, hayronman!

– Axir, mening buvim Farg'onadan bo'lganlar, buvam Qashqardan qaytayotib, opqochib kelganlar.

– E, shunday demaysizmi? – Samar qizni o'ziga ancha yaqin his etdi. – Tilingizzgayam o'shalarning ta'siri o'tgan deyman?

– Ha, batdagilar bizning gapimizdan kuladi, dadam kulgi bo'lmaslik uchun bizday gaplashmaydi. Siz ayamni ko'rmagansiz, u kishiyam yaxshi xotin.

– Onangiz ham bilmaydimi bunday qochib, yo'lda chiqqaniningizni?

– Ha, bilmaydilar, – dedi qiz olislarga ko'z tashlab. – Lekin u kishiyam meni erga berishlariga norizo edi. Dadam meni mактабдан olib ketganlarida urishganlar.

Samar shoshmas edi, u cho'nqayib o'tirmoqchi bo'ldi, biroq soni qotib qolishidan qo'rqib, yonboshidagi archaga suyandi, archaning chayir shoxlari silkinib, ko'tarib qoldi.

– Qanday maktabdan?.. Shahardanmi? – so'radi Samar.

– Yo'q, aytdim-ku, shaharni ko'rmanman, – dedi qiz. – Olatumshuq qishlog'idan, – u tez-tez gapirdi: – Qishloqda maktab bor-da! Bitta o'qituvchi o'qitadi, birinchi sinf bolasiniyam, beshinchi

sinf bolasiniyam, men yettinchiga o'tgan edim, meniyam shu o'qituvchimiz o'qitardi. Keyin dadam katta bo'p qolding, dedi-da, oldi-ketdi. Men bilan o'qigan bolalar shaharga ketishdi, u yoqda – internatda turib, o'qishni davom ettirarmish. Shunda... ayam dadam bilan urishgandi.

– Tushunarli, – dedi Samar va qizga tikilib savol berdi: – Ayting-chi, singlim, nimaga bir o'tkinchiga ergashdingiz? Men yomon kishi bo'lismumkin-ku!

– Yo'q, ishonmayman, – dedi qiz. – Siz gapla-shib o'tirganda, men chiy orasidan sizga qarab turdim, mo'min-qobil odam ko'rindingiz, – so'ng qizning ovozida boshqa ohang paydo bo'ldi: – Xo'b, yomon bo'sangiz... qo'lingizdan nima ish keladi? Charchab kelyapsiz. Shaharlik odamlar qo'rqoq bo'ladi.

Samarning ko'nglida qizga nisbatan iliqlik, hurmat paydo bo'ldi.

– Yo'q, singlim, men yomon odam emasman, – dedi u ta'sirlanib, – meni turmush xafa qilgan, xolos, – shunday deb o'zining shahar-u madaniy olamni tashlab kelganini esladi: – Umuman, kishi kam narsani bilgani yaxshi, – qo'shimcha qildi u.

Qiz cho'chib qaradi:

– Nimaga, men ko'p narsani bilgim keladi. Qiziq. Ozgina narsani bilib yashash... bu zeri-karli!

Samar unga havaslanib boqdi:

– Nechaga kirdingiz? Aytmoqchi, tanishmadik ham, ismingiz nima, sir bo'lmasa?

– Ismim Hidoyat! O'n yettiga kirdim. Hali yoshman... Siz qarib qolgan ko'rinasiz.

Samar kulimsiradi:

– Nega, men... yigirma beshga kirdim. Bu ayni yigit yoshi.

– Bilmadim, – yelkasini qisdi Hidoyat. – Qandaydir cholga o'xshaysiz, og'ir... La-anj. Charchadingizmi chindan ham?

Samar kuldi:

– Ha.

Yana yo'lda davom etdilar. Arnaning ikki labida tig'iz bo'lib archa o'sgan ekan, uni aylanib o'taman deb balandligi belga uradigan miyazorga kirib qolishdi. O'simlikning shoxlari oyoqlariga o'ralashib, taqir yerga chiqqanlarida, etak tarafdan yana tuyoq tovushlari eshitila boshladи. Bu – bir maromda chopayotgan ot tuyog'ining dukilashi edi. Yo'lovchilar burilib qarab, oy ravshan yoritib turgan soy sohiliga otilib tushayotgan ikki otliqni ko'rishdi.

Ular bu kishilarning kimligini aniq bilishdi.

– Ana, – dedi Samar vahima qilib.

– Ha, shular. Bilardim quvlashini, – dedi Hidoyat. – Baribir topisholmaydi, bu archaning ichidan kunduz kuniyam topisholmaydi. Siz qo'rqyapsizmi?

– Yo'g'e, – dedi Samar. – Ishqilib, janjal chiqmasa bo'lgani.

– Janjal chiqmaydi, bizni tutib olishsa, o'zim javob beraman! Men baribir ovulga qaytib bormayman yo shaharga ketaman, yo o'laman shatda... Shaharga yetib olsam, bas edi! Keyin meni tutsayam obketisholmasdi. Meni himoya qiladigan qonun bor, a? Militsiya...

– Yaxshi o'qigansiz chamamda?

– Ha, yaxshi o'qiganman... Keyin ham yaxshi o'qiyan! Internatga boraman, atda qizlar ham bo'lsa kerag-a?

– Bor, albatta.

– Ana o'shalarning yonida o'qib yashayveraman. Forma beradimi?

– O'tib ketishdi, – dedi Samar gangib qulqoq solar ekan. – Formami?.. Bermasa kerak.

– Mayli bermasa, biror ishgayam kiraman, – Hidoyat osmonga qarab gapirardi, u Samarga ko'z tashladi: – Nima, ishlolmaymanmi? Ishlayman. Sigir sog'aman; pishaman, teri oshlayman! Bunaqa narsani shaharliklar bilmas emish. Haqiga kiyim-bosh qilaman!

Samarning bu yerdan jilgisi kelmas edi, biringchidan, anavi otliqlarga yo'liqishdan qo'rqrar, sal g'alati tabiatli qiz bilan suhbatlashishga ishtiyoqi oshib borar edi.

– O'tiramizmi, Hidoyat?

Hidoyat unga ilkis nazar tashladi:

– Siz o'zi, juda horibsiz, ovozingiz ham xirillab opti. O'tirishdan nima foyda? Qaytamga keyin yurolmay qolasiz. Miltiqni bering menga, og'irlik qilayotgan bo'lsa!

Samar qizning gapi ta'siridanmi, vujudida quvvat sezdi.

– Yo'q, ketdik! – dedi. – Qorong'ida qishloqqa yetib olish kerak, sizgayam yaxshiroq bo'ladi.

Hidoyat jildi. Samar ortiqcha horimaslik uchun savol-javobni ham bas qildi, shuning uchunmi yoki oldida beixtiyor sirli bir majburiyat sezayotgani uchunmi, undan orqada qolmaslikka qaror berdi.

Ular arna yoqalab, tepaning o'rkachiga chiqib borishdi. Bu yer gilamdek yalanglik bo'lib, tuprog'i o'ynab yotar, qiyshaya boshlagan oy nuriда unda behisob izlar ko'rinar edi.

– Uf-f! – dedi Samar ixtiyorsiz va ortidagi archaning qattiq shitirlashidan cho'chib tushdi, qo'lidagi miltiqni shu yoqqa qaratdi. Archa ostidan otlib chiqqan quyon bular oldidan o'tib, o'n qadamcha naridagi archa yonida to'xtadi. So'ng yana «dik-dik» sakrab, g'oyib bo'ldi.

– Quyon, – dedi Hidoyat. – Tinmaydi kechasi bilan. Go'shtini yomon ko'raman, qip-qizil bo'ladi.

Samar miltiqni yoniga suyab qo'yib kerishdi, xo'rsinib olislarga qaradi. Qarshida qiyshayib-buralib, tobora pasayib ketgan archazor adirlar. Etakdagi darani oqish tuman bosib yotibdi. Hamon kakkuning mungli sayrashi eshitiladi...

– Chiroyli-ya? – dedi Hidoyat o'sha tomonlarga qararkan.

– Juda chiroyli, – dedi Samar. – Men bir umr shu yerlarda qolishni istar edim...

Qiz yigitga qiya qaradi:

– Siz bu yerlarda kam bo'lgansiz-da, qishda juda zerikarli bo'ladi.

Oy botishiga bir quloch qolganda ular daraning tugash yeriga yetib borishgan, orqadan izg'irin esar, pastlikdan elas-elas it ovozlarini eshitilar edi.

Samar to'xtagan yerida o'tira qoldi, Hidoyat ham hansirar edi.

– Pastda qishloq bormi? – deb so'radi.

– Ha, – dedi Samar va «men shu yerdan aroq olib qaytmoqchi edim», deya gapini davom ettirmoqchi bo'ldi, biroq qizni dam olishga taklif etdi.

– Yo‘q, – dedi qiz. – Tong otadi hozir... Ketish kerak, yo‘l qishloqdan o‘tadimi?

– Ha.

– Shahar qatda o‘zi? Shahar?

– Shahar... – Samar qishloq chetida oqarib turgan tog‘ni ko‘rsatdi, – shuning orqasida.

– Shunaqami? Bo‘imasam ketaylik, yaqin qop-ti-ku, birato‘la o‘sha yoqda dam olasiz. Dadamlar shu qishloqda bo‘lishi kerak, bizni poylab yotishgandir, shundaymasmi? Qishloqni chetlab o‘tamiz-da?

Samar kafti bilan peshonasini siladi:

– Men shu qishloqda qolsam-chi? – dedi.

– Qolasizmi? – unga shart o‘girildi qiz. – Nima-ga kelayotgan edingiz o‘zi, siz ham sirli ekan-siz-ku?

– Bir narsa olib qaytmoqchi edim, – dedi Samar va qishloq chetlarini qoplab yotgan archazor-lardan qizning yolg‘iz ketishini o‘ylab, xavotirga tushdi. Ayni chog‘da o‘zining unga bog‘lanib, bu qiz bilan yo‘lakay suhbat asnosi, mudroq ruhi ancha tetiklanib qolgani, u ketsa, usiz o‘z ahvolini tasavvur qilolmasligini his etdi. Biroq... unga qol deyishdan ham, orqaga qayt deyishdan ham ojiz edi.

– Hidoyat...

– Ha.

– O‘zingizga ehtiyyot bo‘lasiz-da, singlim.

– Albatta, lekin miltiq bo‘lgandamidi... Sizning miltig‘ingizni so‘rardim-u, o‘zingizga kerak... Munday botirroq yigit bo‘lganingizda...

Samar allanechuk cho‘kib ketdi, zo‘rg‘a o‘rnidan turdi. Endi o‘zi orziqib kelgan bu tog‘-tosh

orasida piyoda yurish ham joniga tekkan, asri-ning, anavi aytmoqchi «aqlning» yaratgan imkoniyatlariga o'rgangan vujudi bu ibtidoiy harakatni inkor eta boshlagan edi. U shaxdamlik bilan miltiqni uzatdi:

– Oling...

– Nima qilasiz, qo'ying! – dedi qiz. – Bu qo'rqinchli bo'lmasa kerak... Qishloq yaqin, shahar yaqin. Nega menga unaqa qaraysiz?

– O'zi, qarashim shunday. Men ishonaman, siz shaharga borasiz, o'qiysiz ham... Lekin shaharda o'zingizga, tuyg'ularingizga yana ham ko'proq ehtiyyot bo'ling!

– A-a, shahardami? Albatta-da!.. Nima, shahar yomonmi? Yo'q, shaharda odam aqli bilan yaratgan mo'jizalar ko'p. Xayr bo'lmasam.

– Oq yo'l.

Qiz boshidagi oqqina qiyig'ini qayta bog'ladı. Yon-bag'ir tuprog'ini changitib tushib ketdi. Samar oyga qaradi, botib borar, kunchiqar tobora oqarar edi.

Shunda yigit birdan bezovtalandi, unga Hidayatning nimasidir yuqqan edi...

SOG‘INCH

Azim tabiatan ko‘ngli bo‘s, ta’sirchan yigit. Lekin besh yil shaharda yashab qoldi: shahar odamlariga xos ishchanlik, vaqtini tejash, sovuqqonlik va bir qadar takabburlik paydo bo‘ldi unda.

Azim har yili qishloqqa borganida, izidan Ismat yetib kelar, u, albatta, quchoq ochib talpinar, Azim esa har gal buni unutib, qo‘l uzatayotganida birdan ustalik bilan qo‘llarini kengaytirib yuborar va yigitni bag‘riga olib, ichida kulimsirar edi.

Ota-onasiga o‘tirishgach, ular Azimni sog‘inganlarini, Ismatning ham o‘zlaridan kam ichikmaganini aytishar, shunda Ismat sodda, otashin bir muhabbat bilan Azimga tikilar, Azim esa yana kulimsirash bilan cheklanar edi.

Azim ota-onasiga ham kam xat yozar, Ismatning esa o‘nta xatiga bitta javob qaytarardi, biroq Ismat shunga ham rozi: quvonchidan boladek o‘ynoqlab, maktubni xotiniga ko‘rsatar, tanish-bilishlariga maqtar edi...

Ular qachon bir-biriga yaqin bo‘lgan, Ismat Azimni qachon sevib qolgan – buni ularning bolaligidan so‘rash kerak: Azim maktab direktori oilasidan, Ismat maktab qorovuli oilasidan; Azim goho darsdan keyin yumshoq kulimsiranicha Ismatlarnikiga borib, uni ovga taklif etar, ov deganda oyog‘i kuygandek tipirchilab qoladigan Ismat unga jon-jon deb rozi bo‘lar va ikkalasi tog‘ga chiqib ketar edi.

Taqdir g'alati ekan: Azim taniqli rahbar bo'lib, shaharda qolib ketdi. Ismat oddiy xizmatchi bo'lib, qishloqda qoldi.

Ular endi yiliga bir marta uchrashar edi – Azimning istirohat oyida yoxud u ish yuzasidan qishloqqa kelganida...

Lekin endi Azim Ismatlarnikiga emas, Ismat Azimlarnikiga keladi; endi u ovga taklif etadi. Azim bu taklifni qaytarmaydi. Ular tong qorong'isida tog'ga ketadilar... Endi Azim ilgarigidek ovlay olmaydi, nishonga olgan o'ljasiga o'qni tegizolmaydi, baland cho'qqilarga ham chopib chiqolmaydi. Tezda charchab, biron qoyagami, daraxt to'nkasigami – o'tiradi, atrofni tomosha qiladi. Ismat bo'lsa, hamon qadimgiday: epchil, chaqqon, mergan... O'lja taqsimotida ham o'zgarish bo'lgan: endi ovni asosan Ismat qiladi-yu, o'ljalar asosan Azimniki bo'ladi. Azim esa, buning haqiga o'zi ham bir narsa berishni istab, Ismat sha'niga bir necha kalima maqtov so'z aytadi: «Haliyam juda zo'rsiz, Ismatjon»... «Shahar bizni urib tashlabdi-da, Ismatjon». Ismat haqiqatan ham katta bir mukofot olgandek, boshi osmonga yetadi.

Azim shaharga ketishi bilan Ismatni izsiz unutadi; u yerga borib kundalik yumushlari, oilasi, o'zga birodarlari davrasiga sho'ng'iydi.

Azim bultur ish yuzasidan aprel oyida qishloqqa keldi. Daraxtlar kurtak chiqargan, ko'chalarda yoqimli sovuq shabada esar, bahor nafasi kelar edi. U uyga yetmasdan ortidan Ismat yetib keldi. Quchoqlashdilar. O'tirdilar. Gaplashdilar va indini tong mahali ovga chiqib ketdilar.

Tanish adirlar qor qo'ynida jim yotar, archazor tog'dan bug'dek tuman oqib kelar edi. Tushgacha yurib, hech narsa otolmadilar, to'g'rirog'i, o'q bo'shatmadilar: na kaklik, na quyon uchramadi. Tushdan keyin qaytdilar.

So'ngra adirlardan biriga chiqqan yerda tuman orqada devordek to'xtab qoldi va ular qori yupqalashib, tagidan ko'm-ko'k ajriqlari ko'rinish turgan betdan tusha boshladilar.

Shunda Azim qor ichidan namozshomgulning so'la boshlagan gulidek bo'rtib chiqib turgan boychechaklarni ko'rib qoldi!

– Boychechak! – u bir nechasini uzib oldi. Gul tepasidagi qorlar tezda erib tushdi... Azim gulning sovuqqina bandidan ushlab, unga tikilib turar ekan, dili zavq-u shavqqa to'lib toshdi. Gul favqulodda nozik va iffatli edi! Uning haligina qor ichidan chiqib turishi shu qadar xayoliy, ajib va go'zal edi! Azimning dilida favqulodda bolaligi uyg'ondi, u favqulodda shahardan kelganini unutdi: shahar bergen yangi xislatlar ham uni bir dam tark etdi... So'ng u birdan bularning hammasini esladi va yig'lagisi kelib ketdi!

Unga kulimsirab qarab turgan Ismat:

– Teraylik bo'lmasam, teraylik! – dedi-yu, chopqillab boychechaklardan tera boshladi; bir dasta qilib keltirib berdi. Lekin bandini kalta uzgan ekan, Azim uning hurmati uchun biroz olib yurdi-da, so'ng sezdirmay tashlab yubordi.

Qor tugab, ko'kalamzor boshlandi.

– Azimjon, Azimjon, kaklik! – deb, Ismat cho'nqayib, olisni ko'rsatdi. Azim ham cho'nqaydi. Olisdagi bir uyum, ho'l, malla toshlar orqa-

sidan bitta kaklik chiqib, bo'ynini cho'zganicha naridagi tosh uyumi tomon chopib borar edi.

– Oting, Azimjon!

Azim ko'zlab otdi, o'q tegmadi. Buning ustiga, u yerda qochqoq kaklikning sheriklari ham bor ekan, chug'urlashganicha duv ko'tarilib, etak to-monga pastlab ketdilar.

– Borasizmi, Azimjon?

– Charchadim.

Ismatning o'zi tiyg'ona-tiyg'ona kakliklar orqa-sidan ketdi. Azim haligina kaklik qochib chiqqan joyda o'tirib, atrofni tomosha qila boshladi. Yarim soatlardan keyin ustma-ust o'q ovozlari eshitildi va Ismat ikkita o'ljaning qanotidan ushlab, hal-loslab qaytib keldi.

– Mana!

Azim olib tomosha qildi, kakliklar hali issiq-qina edi. Keyin qaytarib uzatgandi, Ismat uni Azimning belbog'iga osib qo'ydi.

– E, Ismatjon, – dedi Azim. – Siz hali-hamon o'sha Ismatsiz. Bizni shahar urib tashlapti...

Ismat achinib, mehr to'la ko'zлari bilan do'sting ma'yus chehrasiga boqdi.

Uch kundan keyin Azim shaharga ketdi.

Bu yil Azim istirohat oyini xotin, bola-chaqasi bilan Issiqko'lda o'tkazdi, qishloqqa borolmadni.

Erta aprel kunlarining birida Azim ishdan kel-gan edi, xotini unga telegraphma ko'rsatdi, unda: «Priglashayetes na razgovor s...» deyilgan edi. Yana «17.00» yozilgan. Demak, Toshkent vaqtini bilan soat 8da borishi kerak pochtaga (shundoq rahbar bo'lgani bilan uyiga telefon olib kelolma-gan, bunga zilzila katta to'g'anoq bo'lgan edi).

- Kimdan ekan bu?
- Bilmadim, – dedi xotini.
- Onamdanmikan?
- Onangizdan yaqinda xat kelgan edi.
- Shu... javob yozish kerak edi-da.
- Balki ukangizdandir?
- Ehtimol.

Azim issiq uydan chiqib, pochtaga borishga erindi, oqshomgi gazetani o'qishga tutindi, o'qirikan, «Kim bo'lsayam... kutadi-kutadi, ketadi-da, keyin... vaqt yo'q ekan... deb o'ylaydi».

Biroq soat yetti yarimlar chamasi o'tgach, xotini uning xonasiga kirdi:

– Menga qarang. Borib keling. Shu yarim soat vaqtingiz ularning kutishiga arzimaydi, – dedi.

– To'g'ri, – deb gazetani stolga tashladi.

Pochtaga bordi.

Navbati yetdi...

Qishloq pochtasining navbatchisi: «Gapla-shing!» dedi-yu, Azim olisdan kelayotgan tanish, titroq ovozni eshitdi:

– Azimjon, Azimjon!.. – deb chaqirar edi Ismat.

– Sizmi bu?

– Men, – dedi hayron bo'lgan Azim. – Men.

– Sog'misiz, Azimjon, salomatmisiz?

– Rahmat, o'zingiz yaxshimisiz? – dedi Azim ensassi qotib.

– Azimjon!.. Sizni... sog'indim! Eshityapsizmi?

– Himm... Men ham, – dedi Azim ichida kulimsirab.

– Qachon kelasiz endi? Nimaga kelmadingiz?

– Vaqt bo'lmasdi, Ismatjon... Boraman, nasib bo'lsa.

Azim uyga qaytib kelib, chaqirgan Ismat ekanini, sog'inganini aytdi. Er-xotin yosh bolaga jilmayganday bir-biriga jilmaydi...

Azim shu kecha uqlash oldidan chekkani hovliga chiqqan edi, eti totli junjikib ketdi. Atrofga gangib qarab, yumshoq shabada esayotgani, ko'klam nafasi kelayotganini sezdi va hali ensasi qotgani uchun eslamagan narsasini esladi: Ismatni, ovni... Uning ko'zi oldiga bultur shundoq kunda ovga chiqqanlari keldi: tumanli kun, qor bosgan adirlar... Boychechaklar... boy-chechak!!! Azim birdan tek qoldi: boychechak, sovuqbandli boychechak shundoq ro'parasida turgandek, uni ushlab ko'rgandek bo'ldi!!! U shu qadar go'zal, iffatli va hayoli... Azimning ko'nglida yana o'sha his – bolaligi uyg'ondi, u endi shaharda turganini unutdi: beixtiyor yig'lagisi kelayotganini sezdi!!!

Keyin birdan jiddiy tortdi va Ismatning ataylabdan shundoq kunda telefonga chaqirganini taxmin qildi, keyin birdan o'zini qishloq bilan, bolaligi, ov bilan, yoqimli, ma'yus tuyg'ular bilan bog'lab turgan narsa, unga Ismat bo'lib tuyuldi... va endi Ismatdan hech qachon, hech yerda ajralolmasligini his qildi!!!

Shu his ta'siridami, unga xat yozish kerakligini, uni sog'inishi kerakligini o'yladi.

1965

QADIMDA BO'LGAN EKAN...

O'sar ko'prikchadan shipillab o'tib, ayvon chetidan choydishni oldi, ariq labiga cho'nqayib, qop-qora charmdek bo'lib ketgan kaftiga – hovuchiga suv quyayotgandi, ariqning u tomonida – supada urchuq yigirib o'tirgan rangpar xotini:
– Momongizga salom bermadingiz-a? – dedi.

O'sar yalt etib unga qaradi.

– Momom enangdi... – deb so'kib yubordi. Va shosha-pisha qo'lini yuva boshladi. – Iloyo, shu kampirning yoshiga yetma... O'zing hamku bo'lganiningcha bo'lgansan... – keyin ulfati Nurqul nashavandan eshitgan gapini unga uqdirdi: – Hoy, birovga o'lim tilagandan ko'ra, o'ziga umr tilashi kerak kishi!

Hojar urchuqniyam, kalavaniyam ko'r pacha-ga tashlab, mushtlarini tizzalariga tiradi; eriga o'xshatib bir nimalar deyishga shaylandi-yu, behol tortib teskari qaradi.

– E, xudo, nima gunoyim bor edi? Muncha meni ezadi bu erkak... Tentak! Suyulib ketgan miyasi... Huv, sho'rim qursin. Terakka chiqib imlaganlariga uchippa... Sevadi, suyadi deb o'yabman. Bu jallod ekan!

– He, enag'ar, – deb iljayib turdi O'sar. – Jallod ekan... Kim shu gapga ishonadi? Jallod amir zamonida bo'lgan, savodsiz!

– Siz savodli bo'ldingizmi? – xotin unga o'nglandi.
– Siz-a? Alifni kaltak deysiz-u! Qizingiz xatoyingizni topib o'tiradi-yu! Gazeta o'qiyolmaysiz-u!

– Bo'ldi. Gazetangni osib qo'ydim! – O'sar ayvon oldini to'sib turgan sholcha tomonga jilar-

kan, Hojarga yana uqdirdi: – Gazetang bir pul hozir! Hech kim o'qimaydi... Faqat Nurqul bobo nay qilib, nasha chekadi! – u kulib, allanechuk quvonib, ustunga yetdi. Sholchaning chetini qaytarib, ichkariga qaradi.

Momosi Maqsad beva deraza tagida, shishib ketgan o'ng oyog'ini uqalab o'tirar, oppoq sochlari qo'qib ketgan – ajinadan farqi yo'q edi.

– Momojon, – dedi O'sar ayvon labiga asta o'tirib, – salomalaykum... Azonda chiqib ketib edim. Uxlayotgan ekansiz. Hozir keldim. Mashina oldim, momo. Eski-yu, eplasa bo'ladi. Zavgar uch yuz so'mimni shilib qoldi, enasini...

Kampir nursiz ko'zlarini g'iltillatib va xiyol il-jayib, qiziq bir narsani tomosha qilayotgandek qarab turardi.

– E, Asaljon? – dedi birdan. Va birdan yuzi tirishib, ko'ziga yosh keldi. – Tanimappan... Xayyolim joyida emas. Anavi yerda bir xotin ming'irlagani-ming'irlagan. Kim u o'zi?

O'sarning ham ko'ziga yosh keldi.

– Momojon, axir u – keliningiz-ku! – dedi. – Sizdi onasiday ko'radi...

– Uvv, men o'lay, – dedi kampir va qiqirlab kula boshladi. Ko'rpacha chetida yotgan kir qiyiqni olib boshiga yopdi, sochlari bostirgan bo'ldi. Oyog'iga ko'zi tushib: – Bod, – deb shivirladi. – Bod bu... Meni opketadi...

«Opketsa, tezroq opketsin-e!» degan o'y kechdi O'sarning ko'nglidan. Ammo tag'in shu o'y dilidan o'tgani uchun o'z-o'zidan azoblanib ketdi.

– Yo'q, momojon, – dedi, – o'limni o'ylamaslik kerak. Kishi o'ziga umr tilashi kerak.

– Ho‘, umrди sizlarga bersin, – dedi momo. – Bizди ishimiz pishgan... Tushimga bobong kira-di. «Haliyam juribsанми?» – deydi, – momo kulib-gina qо‘ydi. – «Ha, jurippаn, deyman. Omonatini olmasa, nima qilay?» – so‘ngra u O‘sarga o‘ychan tikilib qoldi. – Kenjaboy qayerda?

Nos otib olgan O‘sар:

– Shahayda, – dedi. Va bir zum boshini bu-rib, xo‘mrayib qoldi. Keyin xo‘rsinib yubordi. – Uniyam isi ko‘p-da, momo. Jo‘jalayi boy. Etajda tuyadi...

Kampir gap ma’nosini yaxshi uqmagan bo‘lsada, bosh irg‘ади.

– Omon bo‘lsin, qayerda bo‘lsayam... Meniki emas, davlattiki. Ha, o‘zginang yaxshi juribsam-mi? Bolalaring... – kampir yana o‘ylanib qoldi. – Bolam, men xayolati bo‘p qoldim... Kelinimgayam ko‘p azob beraman. Kecha kechasi darvozadan chiqib ketippan. Bechora ko‘tarib olib keldi. «Uyga qama meni! Men o‘lay!» – dedim. Keyin u yig‘ladi, men yig‘ladim. Qarilik shu ekan... – Shunda birdan iliqqina jilmayib, nevarasiga boq-di. – Biron-biron joyga oborib adashtirib kelmay-sanmi?

– Nima-a? – dedi O‘sар va nosini yo‘lkaga tuf-lab tashladi. – Esingiz joyidami?

– Endi, – kampir iljaygancha davom etdi: – Bo‘lgan ekan-da, qadimda...

– Qadimni qo‘ying! Bir narsa yedingizmi?

– Jedim. Ekki bo‘lak qand bilan non ber-di kelinim. Iloyi, baraka topsin... Hoy, – dedi so‘ngra mo‘ltirab: – Urush-purush bo‘ladimi yana, bolam?

– Nimaga? Urush yo‘q endi, – dedi O‘sar o‘rnidan turmoqchi bo‘lib. – Davlatlar yarashganiga ming yil bo‘ldi.

– A, nimaga qimmatchilik bo‘larmish?

– Kim aytdi? – O‘sar sholcha chetini tutgancha qo‘zg‘aldi. – Tavba... Hojar aytdimi, enasini...

Kampir kuldi.

– Hazil... So‘k, so‘k. Tus bobongga o‘xshaysan... Umring o‘xshamasin, iloyi. Voy, men sonimdi ochib o‘tirippan-ku, o‘lay men... Bod bu... Bobong o‘lgandan keyin qor kechib, cho‘pchak yig‘ib, tandir qizitaman deb... Huvv...

O‘sar sholcha chetini tashlavorib, kerishdi.

– Hojar, nimang bor? – deya ko‘prikchadan o‘tib, yarim gaz baland supaga sakrab chiqdi.

Hojar urchug‘i bilan eshilmagan kalavasini chetga qo‘yib, ihrab o‘rnidan turdi.

– Nima dedi momongiz? Yana kim yomon – men yomon... Kechasi uyqu yo‘q, kunduzi – tinim. Uf, shu qizingiz ham odam bo‘lsin, joyini topib ketsin, men ham ketaman...

– Ha, ketasan... O‘liging chiqadi bu vatandan, – dedi O‘sar. U ko‘rpachaga chordona qurib o‘tirdi. Keyin, bugun bir necha marta tomiri tortgan oyoqlarini yoniga uzatib yuborib, lo‘la bolishni qo‘ltig‘iga oldi. – Xudoga shukur, o‘ziga shukur, – dedi mammun tortib. – Kampir! Buyog‘iga yaxshi bo‘p ketadi!..

Maqsad momo eridan qolgan uychada yashar, uycha peshayvoni haligi sholcha bilan to‘silgan edi: kampir hadeganda chiqib ketavermasin hamda... birov-yarim kelganda unga ko‘zi tushmasin uchun. Momo shishgan, yuzida oqish dog‘lar

paydo bo'lgan, buning ustiga, chindan ham xayoli kirdi-chiqdi ediki, uni birovlarga ko'rsatishdan or qilardi kelin, zero, kelinning bu tadbiri O'sarboygayam oxiri ma'qul tushgandi. Biroq kampir baribir kechasi bir necha marta pastga tushadi...

Kunduzi uxlaydi-da, kechasi uyg'oq: goho o'zidan-o'zi (balki qo'rqqanidan) hassasi bilan eshik-derazani urib, kimlarnidir so'kadi va go'yo allakimlar bilan gaplashadi...

O'sar Hojarga uylangach (uylanganigayam yigirma yildan oshdi), ana shu eski uychaga taqab bir dahliz va bir mehmonxona-yotoqdan iborat boshpani qurib olgan edi: hamon shu boshpana – bularning qo'rg'oni.

Hojar ana shu «qo'rg'on» ayvonchasiga chiqarkan:

– Yaxshi bo'p ketadi? Nima yaxshi bo'p ketadi? – deb burildi, – yana nashani urib avariya qilasiz...

– Bo'ldi-i! – bo'kirib yubordi O'sar. – He, enangi... Men nima g'amda-yu, bu nima deydi! Og'zing dan chiqib, yoqangga yopishsin, silkasar! Ha?

– Siz meni sil qildingiz.

– Vey, enang nima kasal bilan o'lib ketdi?.. Bo'l, bo'l! Qorin och...

Hojar uh tortib, chayqalib dahdizga kirib ketdi. O'sar yana kerishib: «Ah, qo'l chiqib ketgan ekan-da, – deb o'yladi: u mashina pedallarini bosishdan «oyog'i chiqib ketgani»ni ko'zda tutardi.

– Mayli. Ana endi bir mashina tosh – o'n so'm... Yo'q, hademay yigirma-o'ttiz so'm bo'ladi, – deya o'yini davom ettirdi: – Xo'sh, kechasi tashiyman...

Zavgarga yana berish kerak. Yo'g'asam, mashinani chiqartirmaydi garajdan. He, enag'ar...»

Uning baribir kayfi joyida edi.

Hojar inqillab-sinqillab bir kosa dimlama olib keldi. Chetda chetlari qatlab qo'yilgan dasturxon ga ishora qilib, yana iziga qaytdi. O'sar das turxonni uzalib tortib, ochdi. Qora-qora go'shtlaridan sarg'ish-sarg'ish kartoshka va bo'kkan non burdalari ko'p dimlamani qo'li bilan olib tushirarkan, chodir-sholcha qimirlayotgani ga e'tibor qildi-yu: «Momomgayam ovqat berdingmi? – deya so'ramoqchi bo'ldi. Xotini yana ayvonga yetgan edi, tilini tiydi: kampir eshitadi. – Lekin baribir hidini sezdi», dedi ichida va ta'bi xira bo'lib, battar jahli chiqa boshlad i.

– Hoy!

– Choy qo'ydim, – dedi xotini.

– Choying... – «Bo'lmaydi. Bu ishni bir yoqli qilmasam bo'lmaydi!» – deb o'yladi-da, qo'lidagi kartoshkani kosaga tashlab, bunga sari fig'oni chiqib (yegisi kelyapti!) irg'ib turdi. Shunda charchoq ham o'zini bildirib va bir alami o'n bo'lib, supadan sakrab tushdi.

Yalang oyoq yugurib borib dahlizga kirgandi, ikki otashxonali gaz-plita yonida turgan Hojar tappa o'tirib oldi.

– Urmang-urmang, otasi.

Bu gapni eshitib, O'sarning urgisi kelib ketdi. Hatto, qo'liniyam ko'tardi-yu, so'ngra o'ziyam shilq etib, kigizga o'tira qoldi.

– Hoy, menga qara, – dedi xirillab. – urmayman. Ursam, qo'lim sinsin.

– Nima?

– Kampir, menga ayt, – dedi O’sar boshini egib.
– Shu momom ortiqchalik qilyaptimi, a? – bu gapni ilk bor tilidan chiqargani va demak, qulog“yam eshitgani uchunmi, butun vujudi titrab ketdi.
– Ayt, xotin, – dedi yig‘lamsirab. – Ayt... Enasini uray bu dunyoni, birim ikki bo‘lmadi. Ertadan kechgacha ishlaysan, qizingga bir tupli oberolmaysan. Bu nima... – keyin o‘ng qo‘lini choynakday musht qilib, o‘zining chakkasiga bir tushirdi. – Bu kallayam vaqtida ishlamagan. Kenja o‘qisin, shu odam bo‘lsin deb qora ishchi bo‘lib ketdim. Mana, uyam o‘z kunini ko‘rib ketdi...

– Bachadan nolimang, – dedi shunda Hojar. – Chorbog‘di tashlab ketdi-ku?

– Gapti bo‘lma! – O‘sar endi kigizni mushtladi. Kigizdan ko‘tarilgan chang dimog“iga urib, negadir nasha chekkisi keldi. Biroq bir tutun olsayam to‘pig‘iga suv chiqmay qolishini yaxshi bilgani uchun, yo‘q, momosi yo‘rig‘idagi «ish»ni, nihoyat, «bir yoqli» qilish ahvida turishni va «bir yoqli qilish»ni shart deb bilib: – Ayt! – deya yana xirilladi. – Aytmasang yo seni, yo o‘zimni bir balo qilaman.

Xotin devorga tiqildi.

– Mening u kishiga yomonligim bormi?

– Yomonliging yo‘q... Bilaman. Kampir ham sendan rozi... Lekin sening o‘ylaganing bor...

– O‘sar xotiniga ko‘zлari qonsirab tikildi. – Men sezib yurippan... Ha, meni ahmoq dema! He, sen ushlagan tovuqning dumpatini uzib qo‘yganman!

– Axir...

– Gapir. Ichimdi yeb ketyapti... Ochman. Seniyam yeb qo‘yaman, enag‘ar.

- Enamdi so'kmang.
- Bo'pti, so'kmayman.
- U rahmatli men baxtsizni tuqqanki, sizdi uyingizda cho'rilik qip jurippa...
- Uh! – O'sarning yuragi ezilib ketdi: Hojarni yaxshi ko'radi, Hojarni yaxshi ko'rib olgan...
- Meni kechir, – deb yubordi birdan. – Seni cher-tishga qo'llim bormaydi, shunday yaxshi ko'raman! Lekin... tiling yomon...
- Men ham sizga... azob beray deb gapiroham-mi?.. – Hojar «piq-piq» yig'lab yubordi.
Uni ko'rib, O'sarning ham ko'ngli buzildi.
- Gapir, – dedi hiqillab. – Muddaoni ayt... Bo'ldi, yig'lama. Yig'lama deyappan! – deya baqirib yubordi. – Yana «piq» etsang, aylantirib solaman, enang... Astag'firullo! Odamni kopir qilib yuborasan-a!
- Men, men sizga... – chaynalib gapira bosh-ladi Hojar, – sizga momongizni u qiling-bu qiling deganim yo'q. U kishi – meniyam momom... – uning ko'zidan yana yosh quyila boshladi. – Qizingiz texnikumiga ketadi. O'zim kasal...
- Endi seni do'xtirga ko'rsataman. Boshing-ni ko'rsataman! Toshkentga oboraman! – deb yubordi O'sar va ayolining siniq jilmayganini ko'rib, endi chap mushti bilan o'zining bu chak-kasiga soldi. – O'lay agar, qasam ichaman!
- Mayli, rahmat. O'zingizni urmang, – dedi Hojar. – O'zi siz kallaga urishni odat qipsiz.
- Bas! Xumori tutayotgan bo'lsa...
- Voy, xudo.
- Ayt!

- Uf, endi bir marta og'zimdan chiqib ketib edi-da.
- Ha, balli!
- Axir, tuzuk-tuzuk kishilar ham...
- Ha-ha.
- Anavi... – ayol tag'in ingrab yig'lashga tushdi. – O'lay agar, men o'ylab topgan bo'lsam...
- O'ylagansan. O'ylamagan bo'lsang, o'sha gapti aytmas eding! Xo'sh, nima edi u?
- Axir, bilasiz-ku? – battar ho'ngrab yubordi ayol. – Boshda... o'zingiz topib kelgan edingiz o'sha gapti!
- A-aa, o'zimmi?
- Hal!
- Malades. Keyin siz nima deb edingiz? A? – Tag'in hayqirib qoldi O'sar.
- Astaroq gapiring, e, – yolvordi kelin. – Qu-log'im ochiq, axir! Menga qarang, choljon... ovqa-tingizni jeng. Qorningiz och, jahlingiz chiqyapti.
- Yo'q, Hojar, – dedi O'sar. – Pichoq borib suyakka qadalgan. Endi bu ishni orqaga surib bo'lmaydi... Bugun hal qilamiz, bugun! Eshit-yapsanmi? Hozir...
- A yana nima deyin?
- Hali aytdingmi gapingni?
- Uh... – ayol birdan eriga baqrayib qoldi-da:
- Ha, – dedi so'ngra ovoziyam o'zgarib. – Shu momongizdi... shu qariyalar detdomiga oborsangiz... nima bo'ladi deb edim. Siz nashani urib olgan edingiz, xo'b kuldingiz. Ertasi urho-ur... Mana, chakkamdi yordingiz.
- Ha-a, xo'b ish qilgan ekanman-da. Qani, qaysi chakkangdi yoribman ekan? Endi sog'ini

ko'rsat... – shunday dedi-da, ikki qo'llab kigizni mushtladi. Yana «gup» etib ko'tarilgan chang af-tiga urildi. – He, enasini... bu hayotti...

U sapchib turib eshikdan tashqariga qaradi, beixtiyor ko'zi katta yong'oqning bargi to'kilib so'ppayib qolgan shoxlariga tushdi. Bir shoxga qo'nib turgan chug'urchuqlar «duv» ko'tarildi. O'sar mahzun tortib: «He-e ketdi... Momoyam ketadi. Shu, shu yong'oqniyam ekib o'stirgan-a! – dedi. – Ha-ha, anavi o'riklarniyam, behi, qizil olma, loyxonadagi olchalar... Bu daraxtlar ham kampirning bolalari. O'zi shunday der edi... Ajab, daraxtlar odamzotdan erta qarir ekan-a? Yo'q, bular teng qartayibdi, chamamda. Biroq baribir momom o'lgandan keyin ham bu daraxtlar hosil beraveradi bizga...»

– Chol, – dedi Hojar.

– Nima? Ko'r bo'lgur! – dedi O'sar. – Qara, biz uchun o'stirgan bu bog'ni! Se-ening bolalaring uchun, g'alcha! Mevasiga nevaralarimning og'zi tegadi deb... E-e, falak! – O'sar titrab-qaqshab, bir nimalarni ostin-ustun qilib yuboradigandek shishinib ketdi. So'ngra ming'irlayotgan xotininga qarab: – Hoy, nokas, oborib... oborib tashlab kelolmaymanmi? – deb yubordi birdan. Bu gapidan o'zi hayron qolib hamda nihoyat, topolmayotgan nimarsasini topgandek bo'lib avj qildi: – Yo'q, men hazillashayotganim yo'q.

– Voy, bas, – dedi kelin. – Yaxshisi, meni obo-rib tashlang, o'sha g'aribxonaga.

– Seni? Seni bo'kirtirib ishlataladi-ku u yerda! – hayqirib kuldi yigit. – Nodon! Buning topgan gapini qarang!

- Bo'-o'ldi, boshqa gapirsam, o'lay.
- Sen o'lmysan, ming gapirsang ham o'lmay-san, – g'udurlagan ko'yi boz otashin bo'la boshladi O'sar. – Shu kecha... yo'q, ertagayoq ming'ir-ming'irni boshlaysan yana.

Shunda Hojar yana eriga boqib qoldi-da, sekin turib eshikka yo'l oldi.

- Ha? – dedi O'sar uzalib.
- Torting qo'lingizni...
- Yana nima bo'ldi? – shunda yigitning yuragi qattiq siqilib ketdi: nimaga buncha gapiryapti? Mayda-chuyda gaplar... Axir, muddao aniq-ku!

«Shoshma, biron haptaga oborib qo'ysam-chi, o'sha yetimxonaga?» degan o'y keldi xayoliga. Va bu «reja» unga shunchalik ma'qul tushib ket-diki, bu o'yning ilgariroq kelmaganidan hatto hayron qoldi: axir, bir haftada kampirning qad-ri o'tadi, pushaymon yeysi bu... Buning ustiga, qo'ni-qo'shnilarining ta'nasiga chidolmaydi... Yoki ularga bildirmaydimi? «Ukalari Kenjanikiga oborib qo'ydilar. Sog'ingan ekanlar», – deydi. Le-kin Kenja bu «ish»ni bilsa, rosa yig'laydi... Balki kampirni o'z uyiga olib ketadi...»

Bu orada xotini Hojarning g'oyat iztirobga tushishi – o'zini ming bor la'natlashi va demak, O'sar «tantana» qilishi – xotini ustidan mardona kulishini o'ylab:

- Bo'ldi! – dedi. – Momomning uyiga kir. Ul-bu-lini yig'ishtir... – xotini unga baqrayib qoldi. – Senga aytyapman, ko'zing o'ylgur! – o'dag'ayladi O'sar. – Bo'ldi, muddaongga yetding... Ennasi-ni... bu dunyon! – keyin o'zining gaplari o'ziga

kor qilib, ko‘zlariga yosh to‘ldi. – Bu hukumat nomard ekan, enag‘ar... Kampirni ishlatib-ishlatib, oxiri pensiya ham bermadi... Xayriyat, otam urushda o‘lgani uchun o‘ttiz so‘m beradi...

– Bo‘ldi qiling, shahdingizdan tushing, – erining yelkasigami, yoqasigami qo‘l uzatgan edi, O‘sar tislanib ketdi.

– Yo‘qol! Bor, aytganimni qil!

Hojar iziga qaytdi-da, gazni shartta o‘chirib, boyagi joyiga o‘tirib oldi.

O‘sar uni tepadigandek xezlandi.

– Turmaysanmi?

– Yo‘q!

O‘sar bir zumda uni sulaytirib tashlashni o‘yladi, ammo o‘zi kasalvand, o‘lib qolsa...

«Yo‘q» deyapti-ku? Pushaymon yeya boshladi hozirdan. To‘xta, bir ish qilamanki, o‘zi yugurib qoladi...»

Ana shunda O‘sar shodon qahqaha otadi.

U ildam yurib ayvonga chiqdi-da, ayvonchani bu yoqdan ham to‘sib turgan sholchan shart tortib yuborgandi, sholchaning supaga qaragan tomoniyam shalop etib yerga tushdi. Ayvonga quyosh nuri yopirildi.

Maqsad momo tag“in ochilib qolgan boshiga qiyig‘ini yopmoqchidek paypaslanib, oxiri, kaftlari bilan tepasini pana qilgan bo‘ldi.

– Momo! – dedi nevara ovozi xirillab va tuyqus yig‘lamoqdan beri bo‘lib baqirdi: – Kenjangiz chaqiryapti ekan sizni! Kenjaboy!.. Bittasi aytib ketdi...

– Kim? – deb pichirladi kampir va yuzi yorishib, ko‘zlari yolqinlanib ketdi. – Kenja?

– Ha! Sizni mehmonga aytipti! – dedi O‘sar bir tabaqali, zanjiri tepaga ilinadigan eshik tomon yurib. – Munday odamga o‘xshab borishingiz kerak. Boshqa kiyim-bosh bordir... – keyin nari-gi uyga qarab baqirib yubordi: – Hojar! Baqqa ke!

Hojar eshik og‘ziga kelib turgan ekan, darrov qaradi.

– Nima?

O‘sar ko‘zlarini ola-kula qilib, kampirga ishora qildi.

– Kiyintir momomdi! Axir, axir... aytdim-ku! Kenja uyiga chaqiripti deb! – so‘ng jilmaydi. – Yoki...

Er-xotin uzoq muddat birga yashasa, bir-birining vajohatidan nima demoqchi bo‘layotganini-yam so‘zsiz bilib ketishadi. Shundayki Hojar angladi: eri «Yoki... hazar qilasanmi?» demoqchi.

Hojar kalovlanib buyoqqa yo‘naldi.

– Qani, tez bo‘l! Him, yana ul-buli bo‘lsa, uni-yam ol... Bo‘g‘cha qil!

O‘sar shunday deb ayvondan tushdi. Ko‘pri-chaga yetganda supadagi dasturxonga qaradi-da, jadal borib uning chetidan tortdi. Dimlamani apil-tapil yeb olib, barmoqlarini yalay-yalay darvozaga qarab ketdi.

Uning ko‘ngli xiyla tinchib qolgan edi. Momeni Kenjaning uyiga obormasligi aniq. Lekin yetimxonagayam obormaydi-yu...

Biron o’n daqiqadan keyin O‘sar bodomgulli chit ko‘ylak kiyib, boshiga doka ro‘molini o‘ragan

kampirni ko'tarib, yuk mashinasining kabinasi-siga o'tqizmoqda edi.

Kampir o'rnashib olgach, qo'llarini ko'ksida tutib, ko'zida halqa-halqa yosh bilan oyoq-qo'ygich qoshiga kelgan Hojarga:

– Men sal kunda qaytaman, kelinjon. Bu bog'dan, sizlardan ajralib yasholmayman, – dedi.

– Ke, bir o'pay... Oh!

– Momojon, tez kelmasangiz, o'zim borib op-kelaman, – dedi Hojar.

– Be, mana mashina... Asaljonimdan aylanay! G'ir etib boradi-yu, obkeladi-da momosini. Selsovetdan qo'ng'iroq qilib tur. Ovozingni eshitib turay... Kelinjon, nevaralarimga ena suti bermagan bo'lsam ham, ena bo'lib boqqanman... Huv, u kunlarni xudo ko'rsatmasin!

O'sar xotinini tirsagi bilan turtib yuborib, eshikni yopdi.

– Qolganini menga aytasiz!

Momo qiyqillab kulib, mashina derazasidan qo'lini chiqarmoqchi bo'ldi: barmoqlari oynaga tegib qaytdi. Va keliniga: «Buning gapiga parvo qilma. Hazilkash-da», deganday jilmayib, har ik-kala ko'ziniyam qisib qo'ydi.

Kampir behad shod edi. Shodligi shunchalikki, esiyam butkul o'ziga kelganday...

Hojar ro'molning uchi bilan ko'zini artdi, so'ng uni og'ziga bosib tislandi.

O'sar mashinani tartarlatib va birdan silkitib haydab ketarkan, negadir cho'zib-cho'zib bibiplatdi.

– Momo!

– Labbay, jonim.

– Anavi yerdan ushlang. Ushlang deyapman... He, enag'ardi momosi! – o'zi o'ng qo'li bilan kam-pirning dastpanjasini olib, g'aladonning tutqichi-ga qo'ydi.

– Ha, mundaychikisiyam bor ekan-da... Aylanay mehribonimdan... Sizlarni halol yedirdim, halol kiydirdim. Xudoga shukur. Eshitgansan, bobongdi «virag narod» deb otishganda, bizdan yetti chaqirim nariga qochib edi qarindoshlar ham. Ha, «xalq dushmani»ning bevasi edim-da.

– Xalq dushmani emish...

– A? Ha, uning nimasi dushman edi? Ikkita qo'sh ho'kizi bor edi, bor-yo'g'i. Otang bilan lalmikorda yer haydar edi...

– Bobom hukumatga bermaganmi, o'sha ho'kizlarni?

– Saman otini berib edi. Nuqra juganlari bilan... Huv, opto'ymas, yebto'ymas ekan bu hukumat. Oxiri ho'kizlargayam ko'z...

– Davlat deb gapiring!

– Ha-e... Lekin davlat baribir adolatli ekan. Bobongdi oqladi-ku, oqibat.

– Ha. O'ldirib bo'lib keyin oqladi.

– Hammasi xudodan... Shukur qil, bolam, shukur qil. Urushdan keyingi ocharchilikda beshtalab bolasi o'lganlar bo'ldi. Bir kechada. Xudoyo, tavba qildim...

– Tavba qiling, tavba qilavering... – O'sar mashinani surib, tor ko'chadan chiqararkan, chambarakka «shap-shap» urib: – Dod! – deb qo'ydi. – Urdim nashani, surdim pashani degan ekan bir Nurqul degan avliyo!

Mashina katta ko'chaga tushgach, to'g'riga yo'l oldi. O'sar tezlikni oshirib va har qadamda signal berib, go'yoki o'zining qandaydir «Borsa qaytmas»ga borayotganidan o'tkinchilarni ogoh etayotgan kabi ko'zi ilg'agan tanish-bilishlarga beixtiyor bosh irg'ab, qishloqdan chiqa bosh-ladi. Nihoyat, qishloq soyi qirtog'iga – qizg'ish tovatoshlardan iborat qir bag'riga ilonizi bo'lib o'rلان yo'lga tirmashtirib, hademay o'rkachga chiqardi mashinani va u yog'i – adirga tushirdi.

Bepoyon tekis dasht. Asfalt buzilmagan, biroq yozda erigani bo'yi qat-qat bo'lib qolgan. Yo'lning o'ng tomonida – yiroqda Qoratog' tizmalari tu-man ichida mudrab yotardi. Cho'qqilarda bulut karvonlari sudraladi.

– Momo!

– Ha. Jon... Voy, qo'llaringdan! Bir hayda-yapsan, belanchakda yotganday maza qilyap-man... Hi-hi-hi. Qarilikka yo'rg'alik... – keyin O'sarga angrayib qaradi. – Sen Asaljon-a?

– He, enag'ar... Boshladingizmi yana?

– Nimani?

– Talmovsiramang.

– Voy... – kampir jimb qoldi. – Kenjaning uyiga oboryapsan-a meni? Nechta bolasi bor, uning? Uf, esar bo'p qoldim, bolam.

– Borganda, sanab bilasiz, – dedi O'sar, – Sanaysiz... – shunda jigar-bag'ri bo'g'ziga sap-chigandek bo'lib entikib ketdi: «Kenjanikiga obor-sam mabodo... Nima deb topshiraman buni? O'zi to'rtta bolasi bilan domda siqilib... Gap shu! Momoni biron joyda bir-ikki soatga qoldirib, qay-taman! Shuning o'zi Hojarga yetadi...»

So'ngra kampirni shu atrofda... biron yerda qoldirishga joy izlab, oldinga va yon atroflarga ko'z sola boshladi: anavi yulg'unzordagi oq tug' ko'tarib yotgan qabr – Xotin shahid... Yo'lto'sarlar o'ldirib ketishgan bechorani. Hm, xavfli joy...

Buyoqdagi soylikda pana joy yo'q: toshloqda o'tirgan kampirga o'tkinchilarning ko'zi tushadi, qiziqishadi.

Shunda olisda – yo'lning ikki chetida ikkita pakana g'ujumdek bo'p ko'rinyayotgan daraxtlarga – qo'sh tutga ko'zi tushdi-yu, tuyqus shodlanib ketdi.

Qo'sh tutni shofyorlar «darvoza» deyishar, u qandaydir darajada bekat ham edi. O'sar esini tanigandan beri biladiki, shu tutlar bor: bundan o'n-yigirma yillar burun ham ular – qari, tomirlari yer bag'irlab-bukchayib o'sgan, quchoqqa sig'mas tanasida po'stloqlari kam qolgan, doimo chakalak-kallaklangan shoxlari orasida mitti jiblajibonlar chuv-chuvlab yurishar edi; hamma vaqt otli-eshakli yo'lovchilar tuman markazi-ga kelishayotgandayam, chiqib ketishayotgandayam shu tutlar tagiga qo'nib, biroz hordiq olishar, ulovlarini sug'orish uchun yo'ldan sal narida qoq bor ediki, yozning jaziramasida ham unda suv bo'lardi.

O'sarning «GAZ-157» mashinasi ana shu «darvoza»ga yetgan chog'da birdan tormoz berdi-da, sapchib ketgan kampirni bir qo'lida quchgani-cha ulovni yo'ldan chiqarib to'xtatdi.

– Voy, nima bo'ldi, bolam?

– Hech nima, hech nima... – dedi O'sar va xuddi o'g'rilikka tushayotgan singari allanechuk

qo‘rquv-hadik ila: – Tushaylik, momo, tushaylik, – deya eshiklarni lang ochdi. – Men radiatoroga suv quyib olay.

Buyoqdan aylanib kelib, qo‘lini cho‘zdi va bir-dan kampirni ko‘tarib olib, tut ostiga eltdi. Oyoq-qa qo‘yib: – Suyaning! O‘tirmang, – degancha iziga qaytdi.

Kampirning bo‘g‘chasiniyam keltirgach:

– Buning ustiga o‘tiring!.. – deb qandaydir dag‘dag‘a qildi-da, tislanib, yo‘Ining uyog‘i va buyog‘iga boqdi: hech qora ko‘rinmasdi.

Maqsad kampir tuguniga o‘tirib-o‘rnashib, tutning tanasini siypaladi.

– Voy, qabig‘ini mol g‘ajigan, a? – dedi. Keyin O‘sarga qarab kului. – Nashaga cho‘g‘ bo‘ladi deb olishgan.. Sen nasha chekmaysan-a, Asaljon?

– Chekaman! Bilasiz-ku, – dedi O‘sar. – Xo‘sh... – u o‘zi anglamagan holda ko‘zlarida boyagi qo‘rquv, tag‘in hayajon, xijolat va o‘ta sergaklik bilan kampirning qoshiga keldi. Unga qattiq tikil-di-da: – Qimirlamay o‘tiring, eshitdingizmi? – dedi.

– O‘tirippa-ku, Asaljon!

– Ana, qoqti suvi qurigan ekan. Ana... orqaga qaytmasam bo‘lmaydi. O‘n daqiqada kelaman.

– A, qayerga borasan?

– Aytdim-ku, suvgal!

– Mayli-mayli. Bor, bolam. Men o‘tiraman... Mashinang ko‘p lo‘xshidi. Damimdi olaman... Aylanay sendan. Muni qara, dunyo keng-a, tavba...

– Dunyo – torga – tor, kengga – keng ekan, momo! – O‘sar ixtiyorsiz bir holda Nurqul nasha-vandning hikmatlaridan yana birini aytib yubor-di va bu gap ittifoqo o‘ziga ta’sir etib: «Biz – tor,

men – tor... – deb o'yladi. – Kenjayam biladi meni. Bekorga «injiqsiz» demaydi. Bu hayot asabiy qilib qo'ygan bo'lsa, nima qilay? Axir, Hojarniyam yaxshi gap bilan ovutsam bo'lardi. Nuqul unga achchiqma-achchiq gapiraman. Qo'llim ham...

– Besh daqiqa! – deb barmog'ini o'qtaldi kam-pirga. – Xo'b, yarim soat... Tushundingizmi? Birrov gap so'rasa, javob bermang!

Kampir shunda qiqillab kula boshladи.

– Nimaga kulyapsiz? – deb birdaniga do'q qildi O'sar. Va yana ko'ngli buzilib ketdi. – Momojon...

– He, o'zim... Qadimda bo'lar ekan-da, – dedi momo ko'rsatkich barmog'ini bukib, ko'zlari-ni artib. – Shu-shu... qarigan chol-kampirlardi oborib-adashtirib...

– Aljimang!

– Xayolimga keldi-da.

– Bo'lmasa siz ana shunday xayol suri-ib, o'zin-gizni aldab o'tiring, men tezda qaytib kelaman.

– Xo'b-xo'b, otajon, – dedi kampir va gangib qo'lini fotihaga ochdi. – Iloyim, eson-omon borib kel. Yo'ling oq...

– Hey-hey! Nimalar deyapsiz? Hozir kelaman deyapman-ku, enag'ar!

– Yana xayol...

– Xayoldi joyiga qo'yib... a? – O'sar yana tah-did qilgan bo'lib tislandi-chetlandi va yana bir daqiqa bu yerda tursa, kampirni olib uyga jo'naydigan kabi otilib mashina yoniga bordi. O'toldirgich kalitini izlamoqchi bo'ldi-yu, motor «tir-tir»lab turganidan vaqtি xush bo'lib, kabina-ga kirib o'tirdi.

Keyin shaloq mashinani gurillatib, «darvoza»dan to‘g‘riga o‘tkazib ketdi: kampirga qaragisi keldi – o‘zini tiydi. Biron yuz qadamlar olislagach, yana qarashni istadi: ammo qara-sa, tag‘in bir kor-hol bo‘ladigan singari tezlikni oshirdi-yu, soylikka enaverib, taqqa to‘xtatdi: qayoqqa boryapti?

O‘ziyam xayolati bo‘lib qopdi.

Axir, orqaga burib, tag‘in kampirning oldidan o‘tkazishi kerak-ku, mashinani?

Tezroq uyg‘a yetishi kerak!

Shunda uning yana yig‘lagisi kelib ketdi: «Butun hayotini bizlarga bag‘ishladi, shu kampir. Bobomdan qolganida yosh bo‘lgan-ku! Lekin er qilmagan... Enag‘ar enam bo‘lsa, otamdan kel-gan izvishenini o‘qiboq fe‘li aynigan. Ukam bilan meni tashlab, bir dizirtirga ergashib ketgan...

Momom chapak chalib qolavergan.

Kuygan banda bu... Endi men ham mazax qil-yapman!»

O‘sar shu alfovza yana mashinani to‘g‘riga haydab ketganini bilmay qoldi. Mashina toshloq-da chindan ham «uf-uf»lab to‘xtab qolganidan keyin o‘ziga keldi.

Ha, radiator ish ko‘rsatmoqda edi...

U yig‘lab yubordi-da, kopotni ochib qo‘yib, qaynoq bug‘ning ko‘tarilishini biroz tomosha qil-gach, pachoq chelakni olib, buloq izlab ketdi.

Alqissa, allaqancha vaqtadan keyin shaloq mashinani qaytarib qishloq yo‘liga tushirdi. Tuttalar orasidan shitob bilan o‘tdi. Va qishloqqa ya-qinlashganda...

...Qay ko'z bilan ko'rsinki, qarshisidan ke-layotgan tanish yuk mashinasi ustida...

Hojar tik turgancha kabina tomiga qo'llarini tirab kelmoqda, ro'moli uchlarini tishlab olgan edi.

O'sar mashinani yo'l o'rtafiga burib to'xtatdi.

Kabinadan boshini chiqargan tanish qariyanning salomiga ham alik olmay, oynadan qo'lini-yam chiqarib baqirdi:

– Hey! Baqqa tush, enag'ar!

Hojar erini tanib, titroqli iljaydi-da, kuzov ortiga qarab ketdi. O'sar uning yerga tushishi mushkul ekani uchun o'zi kabinadan chiqdi, aylanib borib, xotinini ko'tarib oldi. Yoshli ko'zlariga tikilib:

– Ha? – dedi va... uning nega yo'lga chiqqanini tusmollagani holda: – Gapir! Qayerga bora-yapsan, enag'ar... a? – deb baqira boshladi.

– Sekin, sekin, – dedi xotin boshini egib va chap qo'lini ko'ksiga bosib.

Shunda narigi mashina qimirladi. Yo'l yoqa-siga chiqdi. O'sar beixtiyor xotinining bilagidan ushlab, o'z mashinasi tomon yo'naldi. Anavi «ZIS» o'tib ketgach, ikkisiyam changga belanib va qo'llarini pashsha haydaganday qilib kabina qoshiga yetishdi.

– Xo'sh? – dedi O'sar. – Uyga qaytamiz-a? Momo qo-oldi... Yuraging sovudimi, haromi? Endi yaylov keng bo'ladi senga! Bog'da javlon urasan, silkasal!

Xotin uning qo'llarini o'pa boshladi.

– Unday demang... Yolg'on gapiryapsiz... Borsangiz, o'zingiz boring o'sha bog'ga... uf, o'laman.

– keyin Hojar chinqirib yubordi. – Qaytaring mashinani! He, nevara bo'lmay o'ling! Mashinani qaytaring!

O'sar qanoatlanib – tomoq qirib, kabinaga kir-di. Motori tag'in o'chiruv�iz qolgan ulovini yur-gizib, aylantirib keldi. Hojar yo'lning bu tomoni-ga o'tib, ichkariga arang kirib o'tirdi-da, tutqich-dan mahkam ushlab, boshini egdi.

– Ha? Pushaymon qilyapsizmi? – dedi O'sar mashinani haydab. Xotin miq etmadi. – Battar bo'l! – keyin yana mammun bo'lib ketdi...

So'ng... momosini qo'sh tutda sarg'aytirib... qoldirib kelganidan...

Yigitning chunonam alami kelib ketdiki:

– Uh, – deb ihradi. – Nimaga tug'ildim men? Shu azoblarni chekish uchunmi?.. Birovlar tug'ilganidan shod, dimog'i chog'! Uyida tinch, qulog'i tinch... – keyin, nosqovoqni tishlariga «tiq-tiq» urib nos otdi. – Gapiy!

Xotin yana churq etmay oldinga boqdi. U qan-daydir shishinqiragan, qovoqlari osilib ketgan, faqat ko'zları g'iltillar edi. O'sarning ayoliga yana rahmi keldi-da, tuyqus uning egnidan o'ng qo'li bilan quchib qo'ydi.

– Bilardim.

Hojar ko'zini yo'ldan uzmay so'radi:

– Qayerga oborib tashladingiz u kishini?
– Qayerga, qayerga?.. Detdomga-da! Bilding-mi? Xursanddirsan?

Xotin ming'irladi:

– Yo'q. Detdomga emas.
– Kenjaning uyiga! Bo'ldimi?
– Bekor gap. Uydan chiqqaniningizga bir soat ham bo'lmasdi.

O'sar o'ng qo'li bilan xotinining basharasiga urib yubordi.

- Anavi shopir bilar ekan, – dedi Hojar.
- Nimani? Nimani?
- Sizning, fe'lingizni!
- Hali unga aytib berdingmi, enag‘ar?
- Ha..
- Voy, do-od!

O‘sar gazni bosdi-ya! Bosdi. Boyagi «ZIS» qaytib kelayotgan ekan, to‘qnashib ketishiga oz qoldi. Nihoyat, juft tutlar ko‘rindi. Asta-sekin kattalasha boshladi. Keyin O‘sar og‘zini ochib, lablari ni yalay boshladi: goh yutinadi, goh xotiniga yaltetib qarab qo‘yadi.

O‘sar mashinani sekinlatarkan, kampir suyanib o‘tirgan tutning tog‘ga qaragan yog‘igayam boqdi: hech narsa yo‘q. So‘ng mashinani sal nariga o‘tkazib to‘xtatdi-da, sakrab yerga tushdi. Chopib daraxt tagiga bordi, negadir tutning shoxlariga qaradi. Keyin esa tanani gir aylandi va kampir o‘tirgan yerga tikildi: chumolimidi – yerga kirib ketsa?..

Hojar kabina eshigini ochib, eriga qarab turardi.

- Nima qilyapsiz? – deb so‘radi.
- E!.. E, xudo, enag‘ar... – O‘sar og‘zini kappa-kappa ochib nafas olgancha, qoq tarafga ko‘z otdi-yu, ko‘lning u sohilida uyilib yotgan toshlar, bodomcha va yantoqlarga tikilib qolib, chuqur xo‘rsindi. – Tush endi... Yetib keldik! – dedi. – He, po‘kka... Senga kim qo‘yib edi yo‘lga chiqishni!

Hojar o‘rdak yurish qilib keldi.

- N-nima gap o‘zi?
- Nima, nima... – O‘sar tag‘in tosh uyumlari yoqqa boqdi. Va yana xo‘rsinib yubordi. – Xudo urgan badbaxtlarmiz... O‘, u kampirning biz uchun qilgan ishlari! Hisobi yo‘q... – shun-

da ko'ngliga boz xavotir tusha boshladi. – Ey, bo'g'chasiyam yo'q-ku!

– Nima? Shu yerda qoldirib edingizmi?

– Momo-o! – deb chinqirib yubordi O'sar. So'ng Yugurgilab qoqning beri tomonidagi tosh uyumlari ustiga chiqdi. – Momo-oo! Ho', enag'ar, momo-o! – shunda payqab qoldiki, nariyoqdagi qalama toshlar orti baralla ko'rinib turibdi: hech zog' yo'q. – E, enangdi... Yerga kirdimi, osmonga chiqdimi? – oyog'i ostiga va ko'kka qarab olib, hovliqib pastga tushdi.

Tut tagiga kelib, yo'lning u boshiga ko'z tikdi, keyin bu boshiga. So'ng kampirni o'tqizgan yeriga.

– E, xudo! Bu nima ko'rgilik? Mana shu yerga...

Bukri tomirga endi Hojar o'tirib qoldi. O'sar yo'lning u betiga o'tdi. Keyin to'g'ridagi soylik tomonga chopib ketdi. Yetdi. Buloq suvi toshchalar oralab oqar, qandaydir o'troq qushchalar «chiy-chiy»lashar edi.

O'sar dodlab, yana orqaga qarab chopdi. Tut ostidan o'tib, yana toshlar ustiga chiqdi.

– Momo-o... – dedi endi ovozi bo'g'ilib. – Axir... – shunda kampirning boyta (O'sar ketayotganda) kulgani, «Qadimda bo'lgan ekan-da...» deganini eslab: «Tag'in birov-yarimga aljigan bo'lsa...» deb o'yladi. Va o'zini – O'sarniyam tanimay qolishi yodiga tushib, holsiz shivirladi: – Obketishibdi.

Yigit xotinining yoniga keldi.

– Balki anavi shopir obketgandir, – dedi xotini.

– Ha, enag'ar-a, sharmanda qilding-ku!

Yo'qolgan kampir «topildi». Ammo u yog'ini yozib o'tirish shartmi?

1990

YOZUVCHI

Xotira hikoya

1

Ketyapmiz. Yo'l uzun, o'ng yonda – Jiportepa qolib ketdi. Chap qo'lda – sayoz Izmasoy. Yo'l adog'ida Qo'shtut ko'rinaldi. Qorayib, bitta bo'lib.

Odil aka oldinda, shofyorning yonida o'tiribdi. Oqi ko'paygan siyrak sochi boshiga yopishib qolganday, tolasi qimir etmaydi. Men u kishining ortida o'tiribman. Hayajonlanaman: yurtimni ko'rayotganim, uning aziz manzaralariga ko'zim tushayotgani va bundan hadsiz quvonayotganim uchungina emas, ilk qissasi «Tengdoshlar»ni o'qiboq mehrim tushib qolgan, ehtimolki, yurtimni sevishga kuchliroq turtki bo'lgan va balki qo'nga qalam olishga-da undagan omillardan biri bo'lgan asarlarini sevgan adibimga ham yoqishini, aytganim – ushbu manzaralar yoqishini istab-tilab hayajonlanaman va og'zim tinmaydi:

– Odil aka, Jiportepa degani – Ifortepa degani. Ifor bor-ku, giyoh... Uni ko'rmagan shoirlar gul, deb tasvirlashadi. Faqat G'afur G'ulom «iforning bo'yi», deb to'g'ri aytgan. Uning hidi... boshni aylantirib yuboradi...

– Zakuskagayam yaraydimi? – Odil aka piqillab kulib qo'yadi.

– O'zi-da, o'zi, – deydi Baxtiyor Ixtiyorova o'xshagani uchun Baxtiyor laqabini olgan shofyor. – Qatiqqa bulab ursangiz, juda keta-di-da!

– He-he-he. Bizbop ekan-da, – deydi Odil aka va soy uzra qorli tog‘ga qarab, jiddiy tortadi: aytgan gaplariga qaytarilajak muqobil munosabat u kishini qiziqtirmaydi. Illo, o’sha sho‘xchan munosabatlari anchayin dildorlik uchun, bizning ko‘nglimiz uchun, gurungimiz qizishi uchun aytilganini yaxshi bilaman. Va men ham birdan jiddiy tortib u kishi ko‘z tikkan tog‘ga qarayman: nimasini ta’riflasam ekan?

Gap shundaki, Odil aka – mehmon: «Yurtingni bir ko‘raylik-chi, muncha maqtashadi...» deb bir-ikki marta aytganlaridan keyin, bir to‘y bahona u kishini safarga chorlagandim va Odil aka qandaydir zarur ishlaridan kechib, menga qo‘silgan edilar. Qolaversa, adib o‘zi tug‘ilgan Turkiston manzaralarini behad sevib tasvirlagan va u manzaralarni o‘zimnikidek sevib qabul qilgan edimki, shoyad mening yurtim ko‘rinishlari-yam u kishiga yoqsa, deb o‘ylardim: yo‘q, istardim va shunga tirishardim.

Odil aka esa haligiday sho‘xchan javoblari bilan munosabatini bildirib qo‘yar va tabiiy, saldan keyin uning nigohini o‘zga suratlar tortar, shu asno men ham u kishiga «ergashardim»: yana ta’rif, tasvir...

Odatda har qanday mezbon ham o‘zining suygan mehmoniga shunday muomalada bo‘lsa kerak.

Biroq ko‘nglimning tagida tag‘in yashirin bir tashvish, aytish mumkinki, sir bor edi: men talay katta-kichik yozuvchi-shoirlar bilan bu yurtga kelganman... o’sha qorli tog‘largacha chiqqanmiz va ayrimlaridan, xususan, «ulkan»laridan qanoat

hosil qilmagan edim: biri, masalan, adashib qolganingda, vahimaga tushib: «Nega adashding?» deb turib olgan va yuragimni qon qilgan, boshqasi qorako'l qo'ylariga, aniqrog'i, qorako'l terila-
riga ko'proq qiziqqan va nuqul o'sha manzillarni «ko'rish»ga ishtiyoqi borligini takror-takror aytgan-
ki, olib borganimda, safardan maqsadi tomosha emasligi ma'lum bo'lgan; o'zimning tengqur adib-
larim haqida eslamayman: ular – o'zga olam...

Endi sirimning pardasini yanada balandroq ko'tarsam, u shudir: Odil aka o'zini qanday tutar-
kan? Nimalarga qiziqib, qanday baho berarkan?

E, xudo, u kishi ham mening yurtimni sevib qolsinlar-da! O'zlariniki kabi...

Xullas kalom, dilimdag'i yashirin tashvish zamirida ana shu hadik ham yotardi va men u kishini beixtiyor kuzatish, ta'bir joiz desangiz, xatti-harakatlariga baho berishgayam mahkum edim: o'z qanoatlarim bo'yicha bahoni ko'zda tutaman...

2

– Shumi Boysuntog?

– Shu! Boysuntovning tizmalaridan biri, – deb gapga tushib ketdim. – Cho'ntog'mi, Cho'mtog'mi – bilmayman. Cho'ntov deyishadi... Sezayapsizmi, Odil aka, tilimizda «jo'qchilik» nomlari ko'proq qolgan. Lekin o'zaro gapdayam bemalol uchrayveradi... Hali uyga boraylik, bizning otani ko'rasiz. Naturalniy qo'ng'irot shevasida gapira-di. Qiziq, sizlar ham shayboniylar tarafidan-u, tillaring toza, a? Adabiychaga yaqin?

- Ha, shunday, – deb parishon javob beradi Odil aka. – A, bu tog'larda yovvoyi hayvonlar ko'pmi?
 - Bor, – deb qo'yadi Baxtiyor.
 - Juda ko'p! – deb toshib, davom ettiraman men. – Ayiq, qor qoploni, bo'ri, tulki, shaqol... bor! – keyin damim ichimga tusha boshlaydi. – Lekin kamayib qolgan, Odil aka... Otishadi haliyam. Brakonyer ko'p...
 - E, geologlar quritdi, – deb gap qo'shadi Baxtiyor.
 - Ha, – deb ilib ketaman. – Tog'da ma'dan ko'pda! Xazina-da bu tog'lar! Ana, ko'mir koni...
 - Geologlar vertolyotdan otishar-da?
 - A-a, bilar ekansiz, – deb davom etaman. – Shunday... Ammo keyingi vaqtida boshqalar ham quritayapti...
 - Noinsoflar, – deb to'ng'illaydi Odil aka. Va men u kishining yuziga qaramoqchi bo'laman: ifodasi ham so'ziga mosmikan? Yoki yo'liga aytib qo'ydimi?
 - Tabiatni muhofaza etadigan idoralar bordir?
- Odil aka so'raydi.
 - Bo-or, – deb qo'yadi Baxtiyor.
 - Lekin tayinlik ish qilmaydi, – deb izoh beraman men. Keyin kuyinib, tushuntirgan bo'laman: – Ularga kim bas keloladi, Odil aka? Harbiylarni aytayapman... Geologlar ham shunday: vertolyotdan otadi-otadi...
 - Nima?
- Odil aka xayoldan ariydi chog'i, keyin:
 - E, shunchaki... – deb pichirlaydi-da, yana birdan kulimsirab shofyorga, so'ng menga qaraydi. – Bizga qolgandir? Ovga opchiqasanmi meni?

– O, albatta, – deyman boyagi kuyinishlarimga zid o'laroq. – Miltiq bor... – so'ng yo'lliga Baxtiyor-dan so'rayman: – Hozir nimalarni otsa bo'larkan?

U menga qiya qaraydi-da:

– Siz bilasiz-da, – deydi.

– Ha, sen biliшing kerak, – ta'kidlaydi Odil aka.

– Sen ovchisan. Matyoqib aytuvdi. Xotinko'pri-kda ondatra ovalagani chiqqan ekansizlar...

– He, ko'p yillar burun... – deyman va chal-g'imasligimizni istayman. – Bu yerda hozirgi vaqtida, Odil aka, xo'sh... to'g'risini aytganda, ov qilish mumkin emas: kakliklar bola ochgan, quyonlar ham tug'ayapti. Bizda uni – tovushqon, deyishadi. Oltaylor tovshon deyisharkan...

U kishi o'ychan bosh irg'adi.

– Yaxshi, qolgan bo'lsa, yaxshi, – deydi. Va birdan qizishib ketadi. – Qolishi kerak-da, cho'rt poberi! Masalan, kelgusi avlodlar ham ko'rishi kerak-ku? Biz endi o'tkinchi...

Men u kishiga tikilib qolaman: asabiylashib ketdilar – rost. Biroq aytgan gaplari – hamma-ning ham og'zidan chiqadigan, zamonaviy gaplar.

Shunga qaramay, u kishining hayajoni beix-tyor mengagina emas, Baxtiyorga ham yuqadi va biz ikkimiz birimiz qo'yib, birimiz olib, o'g'ri ovchilardan hikoya aytgan bo'lamiz, ularni so'ka-miz va hatto, «vertolyotni otish» kerakligi haqidagi jasoratgacha boramiz. Keyin ma'lum bo'ladi-ki, Odil aka Qo'shtutga qiziqib qarayotgan ekan. Ularning atrofida suv yo'qligi-yu, qanday o'sib tur-gani haqida so'raydi va o'zi javob bergen bo'ladi:

– Yo biron kishi suv quyib ketadimi?

Men tomoq qirib qolaman: bu endi – roman-tika. Kim, qaysi azamat yalang dasht o'rtasidagi qari tutlarni sug'orib ketadi? Joni qattiq ekan, yer ostidan nam oladi-da... Biroq Baxtiyorga ko'zgu orqali ko'z qisib:

- Balki sug'orishar, – deyman.
- Unday bo'lsa, yaxshi, – deydi Odil aka. Va:
- Chekamiz-da endi... – deya yonidagi «Tu»dan biri-ni olib, labiga qistiradi. Baxtiyor shoshib yonini kovlaydi. Odil aka: – Nichevo, gugurt bor, – deb tutatadi. – O'rislar bu masalada katta ishlar qilişhayapti, – deya fikrini davom ettiradi keyin.
- «Literaturnaya»da «Klyon – moy klyon» degan maqolani o'qiganmisan?

O'qigan edim albatta va yoqtirgan ham edim. Ammo:

– Yo'q, o'sha son qo'llimga tushmagan bo'lsa kerak, – deyman. Tabiiy, og'aning so'zlashini, mayli-da, maza qilishini istayman va yana nimalardir qo'shimcha etsa, uni eshitib qolishni dilimga tugaman. – Qiziqmi, Odil aka?

– Juda zo'r. Masalan, mana shunday tekis yerda o'sib turadi. Qari bir daraxt. Trassa o'shaning ustidan o'tishi kerak... Uni o'rtada qoldirib, atrofidan aylantirib o'tkazishadi yo'lni.

- O', ukkag'arlar.
- Toshkentdan chiqishimiz bilan tiling o'zgara boshladi. To'g'ri, u yoqdayam bilinardi-yu...
- E, shunchalik ham bo'lmasinmi, Odil aka... Hm, lekin ba'zan atay gapiraman. Esdan chiqib ketmasin uchun...

Odil aka kulib qo'ydi.

- Buyam yomonmas.

3

Darvozamiz. Yo'lkamiz. Onam kelayotir. Opoq: ko'ylagi ham, tusi ham. Ro'molning ham oqidan, kattasidan yopinib, uchini tomog'idan o'tkazib tashlagan. Sezaman: saksondan oshib ketgan esa-da, tomog'idagi ajinlarni...

– Men o'lay, Shukurjon. Ovora bo'p kepsanda... Shunchaki, so'ksayam ovozini eshitib turay, deb edim... Xudoyam omonatini olmaydi, hammani qiyab qo'ydim...

– Bekor aytibsiz. «Omonatini olmaydi» emish, – deb yolg'ondakam jerkiydi darvozani lang ochib turgan kenjamiz – suyukli ukam Xayrulla. – Er-talabdan beri «juragim tushdi», deb hammani qo'rqtib yuribdi. Uch marta do'xtir kep ketdi... Omonatini topshirib bo'psiz.

Onam ham yolg'ondakam kuladi.

– Ukangdi bilasan-ku?.. Shuning boriga shukur. Urpoqdan bo'lgan edi. Tug'ildi-yu, boshmal-dog'ini ema ketdi. Tavba... Momong rahmatli sindiribgina qo'ydi. Ana, ikki chinachog'iyam qiy-shiq pitib qolgan... Assalom-alaykum, mehmon.

– Ha, oldin mehmon bilan ko'rishing, – dakk'i beradi Xayrulla. – Ulingiz qochib ketmaydi... Odil aka, yuring. Torting, aka, ulug'siz.

– Xo'sh kepsiz, mehmon, qadamlaringizdan aylanay... «Ustozim bilan borayappan», deb edi bu shogirdingiz... Qo'llaridan so'mkani ol, mahmadonalik qilma, Xayri!

Shunda yo'lka adog'ida boshiga oqqina qiyiqni chandib olgan, devqomat otam ko'rindi. Yanoqlarining kengligi bilan Odil akaga o'xshab ketadi.

– Ho‘, Shukurboy ham kep qoptilar-ku? Ke-ling-keling, tashkanlik.

– Bu kishi – Odil Yoqubov! Eng katta yozuv-chi! Televizorda ko‘rgansiz! – deb baqirib uqtiradi Xayrulla. – Oldin mehmon bilan ko‘rishing-e, ukkag‘ar.

– Ha, esa shunday qilamiz... Xo‘s h ko‘rdik, meyman... He, o‘zimizga o‘xshab ketar ekan-siz-ku?

– Ajab emas, urug‘dosh chiqib qolsangiz, – deb yana baqiradi Xayrulla.

Kulgi ko‘tariladi. Ko‘rishuv. O‘ziga xos – yarim qo‘pol, yarim yumshoq mulozamatlar.

Hazil-huzuldan Odil aka ham chetda qolmaydi.

– Shunday yaxshi onamiz bor ekan, otamiz bor ekan. Ukangni qara... Shaharda nima qilib yuribsan – hayronman. Masalan, men o‘rningda bo‘lganimda...

Yana kulgi. Men ich-ichimda zavqlanaman: u kishining «onamiz, otamiz» deb, bularni-da o‘ziniki qilib gapirishi menga moyday yoqadi. Yo‘q, titratadi va xayolimning bir qatidan Uchqun Nazarov shu dargohga qadam qo‘yanida, onam-ni menga o‘xhab: «Ena», deb atagani va bundan ko‘zimga yosh kelayozgani esimga tushadi: illo, men do‘stimning onasini u kabi: «Aya», deyman.

Bu xotiraga ergashib, boshqa ikki katta adib-ning bu boradagi muomalasi yodimga tushadi: «Xola» deb atagandi birovi, «kampir dadil...» degan edi ikkinchisi.

«Yuring, marhamat, torting-torting» bilan ho-vuz bo‘yidan o‘tib, boloxonaga ko‘tarilamiz. Meh-monxona. Dasturxon. Ko‘rpachalar, bolishlar.

Cho'kamiz.

– Ha, meyman, xo'sh kepsiz, – deydi otam fo-tihadan keyin. – Bachalar chopayaptimi? Tash-kanlar joyidami?.. Bizding ulimiz qalay, bu yazuvchi? Tekkina juriptimi? So'kadigan odatlari bor... He, bularding hammasi erka bo'lib o'sti...

– A, mana shunday domilalari, og'alari bor-da, – deb otamga tushuntirgan bo'ladi onam. – Qa-damlaridan aylanay...

– Xo'b. Hozircha pastga tushib, bir aylaning, ena, – deydi Xayrulla. – Kelinning bir o'zi...

– Ha, rost aytding. Esar bo'p qolganman. Ma-navini ko'rib, gapdanam adashaman...

– Boring-boring... Ota, sizam kalta qiling... Anavini so'yasizmi yo o'zim...

– Sen bachasan. O'tir, gurung ber... Kakliging qani? Hali shu yerda jurib edi.

– Hozir opkelaman... Ha, bir piyoladan choy ichaylik, keyin... Nima dedingiz, o'rtoq Xolmirzayev?

Odil aka avaylab so'raydi:

– Polvon aka, siz Shukurning chin otasimi?

– E, chiniyam biz, o'gayi ham – biz, – deydi otam. – Bir qarichligida qo'limizga tushgan... Shuning izidan xudayim mana bularni ber-di. Bundan kattakaniyam bor. Apasiyam bor... Shukurbording otasini mulla odam deyishadi. Qamalib, jo'q bo'p ketgan. Sibirda... So'ng ena-si bizding qo'limizg'a tushgan. Xudayga shukur, nolymaymiz, yashab kelayappiz. Bu yag'igayam xuda poshsha... Agar omonatini olmasa, yana uch-to'rt jil...

– E, bo'ldi-e, – deb jerkiydi Xayrulla. – Ukkag'arlar, keyingi vaqtda nuqlu «omonat-pomo-

nat» deb gapiradigan bo'lishdi... Qarishning belgisi bu, ota! Uyat! Bo'yinga opqo'yibsizlar... Unda muddatidan oldin chaqirib qolishi mumkin.

Kulimsirab o'tirgan Odil aka bizlarga zimdan tez qarab oladi va:

– Xayrulla menga yoqdi. Ochiq gapirar ekan... Sizlar ham ko'ngilga olmas ekansizlar, – deydi.
– Shukur, sen ham shundaymi? Toza sipo bo'p qolding?

– O', shundan o'rgangan-da hammasi, – deydi otam. – Ha, esa, men turayin.

U kishi turib ketganidan so'ng Odil aka choydan ho'plab, xonaga zehn soladi. U kishining nazarini kuzatib turgan Xayrulla ayrim suratlar haqida gapirib bergen bo'ladi. Pichoq, miltiq, qamchi haqida so'zlaydi-da, birdan menga qarab im qoqadi: «Halgindan qo'yaymi? Yo go'sht qovurilsinmi?»

Uning nigohini Odil aka sezgan chiqar, har xil xayolga bormasin deb ochiq gapiraman:

– Opkelaver... Nima dedingiz, Odil aka?
– A, unimi? – deb «piq-piq» kuladi Odil aka. – Qarshilik yo'q... Xayrulla – uyning egasi. Unga bo'ysunishdan boshqa ilojimiz yo'q... Shu, oldin qo'lni chayib olsak bo'lardi...

– O'tiring-o'tiring, domilla, – deb turib ketadi Xayrulla. – Dassho' bor, opkelaman... – keyin uydan chiqib, ayvonda baqiradi. – He, Xolbek, qayaqda yuribsan? Men senga nima degan edim?.. Azizani ko'tar! Hovuzga tushib ketsa, o'zing ham tushasan keyin... Kaklik katakka kirdimi?

Shu payt yiroqdan – yo'lkadan yoshlikdagi do'stim Nurillaning sho'xchan ovozi yangradi:

– Salomalekum, Polvon bobo! Qassoblikni yana boshlayapsiz-ku?.. E, unday jotqizmaydi-ye! Menga bering...

– O'ting-o'ting, – deydi otam. – Biz mol so'yib jurganda, siz otangizdi qulog'ida edingiz... Shukur keldi. Meymanam keldi. Odil aka degich. Tepada.

– Ha, esa, harom tomiri esdan chiqib qolmasin...

– E, boring-e, tajikti o'zbakka ish o'rgatganini qarang. Qondan qo'rqadi-yu bu.

– Men qo'rqar ekanmanmi? He, bosmachi... Yo'q, polvon bobo, nimaga meni tojik deysiz? Qatag'an qachondan beri tojik bo'lib qoldi? – astoy-dil kuyinib deydi Nurilla va ovozini ko'taradi. – Hozir yozuvchidan so'raymiz!

– Uyingizdayam jikkillab tajikchalab jotasiz-u, tag'in o'zbekman, deysiz.

– He, endi...

Onamning ovozi eshitiladi:

– Nurillajon, qo'ying u kishini. U kishi uchun qo'ng'irotdan boshqasi bekor.

– Shu-shu, sahroyi-da.

– Kecha gullarimni o'rib, molga berdi. Tavba... Yuqoriga chiqing...

– E, anavi kaptarbozmi? Kechirasani, kaklik-boz, qalaysan? Burgutga o'xsha-ab qarab turibsan, a? Men kaklikka o'xshaymanmi? Sirayam o'xshamayman-da.

– Chiqing-e, ko‘p gapirmay! – dag‘dag‘a qila-di Xayrulla. – Kapitan bo‘ldim, deb, he, tilingiz uzun bo‘p qopti. Bizga yazna bo‘lsangizam qo‘rq-mayman...

– Qo‘rqmaysan-a, qo‘rqmaysan... Akangni hurmat qilaman-da! Yo‘g‘asam sening joying...

Shunda otam baqirib yuboradi:

– Hey, Nurilla, chiqsang chiq to‘baga! Bo‘lma-sa, mana bu arriq ekan, o‘zingdi jotqizaman!

– Eshitdingmi, Nuri? – deb kuladi onam.

– O‘lay agar, xolajon, faqat shu kishidan qo‘rqaman, – deydi Nurilla va zum o‘tmay, zina-poya «tap-tup» etadi-da, yozgi – oppoq militsiya kapitani formasida Nurilla kiradi. – Assalomu alaykum! Turmanglar! Odil aka, o‘tiring-e... Ha-a, rahmat. Xush kepsiz endi? Qiynalmay keldin-gizmi? Uzoq yo‘l, kun issiq... – Odil aka past to-vushda nimalardir deydi. Anglaymanki, o‘zining javobi emas, boshqalarning gap-so‘zi-yu savoli qiziqtiradi. – Ha, siz-chi Shukur? – deb men bi-lan so‘rashadi do‘stim. – Kelin-kepchik, bolalar, a? Hammasi joyida? Yaxshi...

Men Nurillaga choy uzataman. Odil aka esa unga manglayi ostidan boqib so‘raydi:

– Siz qatag‘an urug‘idanmi?

– Chisti qatag‘on, – javob beradi Nurilla jiddiy tortib. – Nimaydi, Odil aka?

– Yo‘, o‘zim, masalan... Kechirasiz, bu yerda qatag‘anlar ham tojikcha so‘zlashadimi?

– Yo‘g‘-e, – deb orqaga tortiladi Nurilla va cho‘kkalab o‘tirib oladi. Keyin menga qarab qo‘yib, davom etadi: – Lekin ko‘p joylarda tojik-chha so‘zlashadi... Nimaga shunday, a, Shukur?

Hayronman. Shukur ham shunga qiziqqan edi, sababini bilolmadik... – u battar tajanglanib ketadi. – Shu Boysunning kam deganda o'ttiz foyiz odami – qatag'onlar. Lekin yigirma besh foyizi desam ham mubolag'a bo'lmaydi, tojikcha gaplashib yuradi. Ana, atlas fabrikasi! Yarim qizi – bizning urug'dan...

– S-slabiyl bir urug'-da, – deb Xayrulla aroqni uning oldiga qo'yadi. – Erta-indin o'rischa so'zlashib ketishiyam hech gap emas... Nima dedingiz, yaznajon? Sizlar oldinda yurasizlar-da, a? Shamol qayoqdan essa, o'sha yoqqa burilib, to'g'rimi?

– Aljima, – deb qo'yadi Nurilla. – O'risga qarshi tashviqot qilayapti, deb dalolatnoma tuzaman.

Xayrulla qiyshiq bitgan jimjilog'ini ko'rsatib, bir nima deydi. Hammamiz kulib yuboramiz.

Odil aka ham silkinib kuladilar-u, keyin men-ga boqadilar.

– Shukur, bizning urug' ham – qatag'an, – deydi. Va mezbonlar bir-biriga yalt-yult etib qara-shadi. So'ng Nurilla shishani olib chayqatadi-da, ukamning boshi uzra ko'taradi.

– Nima qilay, e, qo'ng'irot bacha? Shukur, ruxsat berasizmi?... Mayli, kechirdim. Ammo bilib oldingmi, yaznang kimlardan ekanini? Otang-gayam ayt; enanggayam ayt! Boysunga jar sol... Militsiya kapitani Nurilla Murtazayev Odil Yo-qubovning urug'idan, de!

Ukam boyoqish iymanib, labini qimtib jilmayadi. Men ham qandaydir uyalgan kishidek kulimsirayman.

Biroq ichdan yana hayajondaman: Odil Yo-qubovning urug'doshlari Boysunda! Yo'q: Sur-

xon o'lkasida qancha qatag'on bor? Voy, tavba! Turkiston qayda-yu, Surxon qayda?

To'g'ri, men bu urug'lar tarixini, harqalay, bilaman va bu yurt ham qadim Turkistonning bir parchasi ekani kundek ayon: biroq hayratga tushaman, xolos. Va Nurillaning, nihoyat, jiddiy savolga chog'langanini ko'rib, o'zim ham Odil akaga burilib o'tiraman.

– Odil aka? – deydi Nurilla va jim bo'ladi.

Uning savoli ma'nosini anglagan Odil aka:

– Ha-ha, – deydi chordana qurib va allaqanday bukchayib. – Men eshitgan edim. Sal-pal billardim ham. Masalan... Lekin menga sizlarning muomalalarining juda yoqdi. Bevosita, panimayete... Neposredstvennost bor, a, Shukur?

Men yengil nafas olib:

– Ha, shunday ekan. Men ham bu yerdan uzoqlashgach, sezdim bu holni, – deyman.

Shunda Xayrulla ham xijolatdan chiqqandek, irg'ib turib, taxmondan lo'la bolish oladi-da, Odil akaning tirsagiga qo'yadi.

– Yonboshlab o'tiring...

Odil aka birdan burilib, uning yelkasiga qo'qadi.

– Yaxshi yigit ekansan, Xayrulla... Vot, – deya davraga yuzlanadi. – O'zbekning qiziqligi, rang-barangligi mana shunda, o'rtoqlar. Biz buni tushunib, qalblarimizga singdirib olishimiz kerak, toki bitta yaxlit millat ekanimiz, bitta O'zbekiston degan vatanimiz borligiga har dam, har onda imon keltirib, uning bilan, masalan, faxrlanib, uning himoyasiga har on tayyor turiшимиз lozim, deb o'layman.

– Rahmat. Yashang, Odil aka, – deydi Nurilla benihoya chuqur fikrni eshitgandek. Keyin bir-dan kuladi. – Sen ham eshitdingmi, Xayrulla?

– Bo'ldi endi, – deb to'ng'illab qo'yadi ukam. Va menga qaraydi. – Sal qovurdoq bor edi...

– Opke, – deyman.

– Hozir...

– Matlabga qo'ng'iroq qip qo'y... Bazm nechada boshlanadi? Nurilla, siz bakovuldirlirsiz?

– Ha, shirinxonaga xo'jayinman... Soat... Bir yarim soatdan keyin turamiz... – shunday dey-di-yu, eshik og'zida to'xtab qolgan Xayrullaga do'q qiladi: – Bor endi! Opke opkeladiganingni!.. Oldinroq so'yib qo'yiamsizlarmi shu qo'zini? He, puxta bo'p ketayapsan-da, sen ham...

Xayrulla chopib chiqib ketadi.

5

Birozdan keyin mening yana ikki do'stim: yaqinda Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilingan, «Tog' hikoyalari»ning muallifi Ismat (burun) Norboyev bilan shahar san'atkorlarining ustozi, mashshoq Abduqayum Abdulkayev kirib kelishdi.

Sho'xlikda ular ham Nurilladan qolishmaydi. Xayrulla ukam bilan bemałol gaplashishda ham, onam-otamga erkinsirashda ham. Odil akaga hurmat ko'rsatishda ham darhol bir umumiylilik ko'zga tashlandiki, daqiqalar orasida el bo'lib ketishdi, ya'ni kelganlari bilinmay qoldi.

Nihoyat, so'yilgan qo'zining qovurdog'i ham keldi. Yana shisha ochildi va Odil aka ham davraga qo'shilib-singib, uning bir doimiy a'zo-

sigalaylanib qoldiki, endi mezbonlarning mehmon demasdan, ya’ni Odil akaga ortiq ehtirom bildirmasdan muomala qilishlari-da, qolaversa, hazil-qochirma gap otishlari-yu, Odil akaning baholi qudrat javob berishlarida bilinardi bu...

Shuning uchundirki, bizni to’yxonaga olib ketgani kelgan Baxtiyor qahqahamiz ustidan chiqib:

– Yo, qudratingdan, – deya yoqasini ushlandi, – Odil aka, sizni tanimay qoldim: o’lay agar, tirnoqcha parqlaring bo’lsa... U yoqda – trevoga, mashhur yozuvchi kelarkan, deb ko’chaga chiqishdi odamlar... Turasizlarmi?

To’yxona. Odamlar. Davra. Tekislanib, suv sepilgan maydondan chang hidi keladi. Ammo davra ustidan kesishib o’tgan simlarda chiroqlar yonishi bilan xayol chalg’iydi va qo’lbola o’rindiqlarga o’tirishayotgan qiz-juvonlarga ko’z tushadi. Ularning qoshidan o’tayotgan navjuvon yigitlar-u, vazmin-vazmin erkaklar u tomonga mayin, qitmirona gaplar otishadi va u yoqdan ham shunga munosib tagdor gaplar chiqadi.

– Sizlarda bemalol o’tirisharkan-a? – deydi Odil aka sochining ko’zi ustiga tushganiga atay parvo qilmasdan sigaret burqsitayotgan Ismatga. – Paranji yopinishganmi bu yerda? Bizda, masalan, paranji bo’lmagan hisob...

– G’irt o’zimiz ekansiz-da, domillajon, – deydi Ismat xiyol qizargan ko’zlarini baqrayshtirib. – A, Shukur?.. Ana, Shukur dashtdayam yashagan. Dashtdayam ayollar yuzini ochib yuradi. Bemalol... Tog’dayam. Shaharning markazida paranji yopinishgan albatta... Shuyam, menimcha, boy oilalarda...

– To‘g‘ri aytayapti, – deyman men va tarixga sho‘ng‘iyotganimni bilmay qolaman. – Paranjinning islom dini bilan aloqasi bo‘limgan, Odil aka. Islom tarqalishidan bir yarim ming yil burun ham shu yopinchiq bo‘lgan ekan...

– Shundayam kibor oilalarda.

– Rahmat.

– Har xil tiplar ko‘p ekan-a?

– O‘, domillajon, tentak ham shu yerda, sog‘ ham, – deb xitob qiladi Ismat. – Mana, masalan, mana bu g‘ijjakchining qoshiga qarang. Payvasta... He, akang aylansin! Anavi «jandarmeriya»da tuk ham yo‘q. Nurillada...

Men yana tushuntirishga harakat qilaman:

– Boysunliklar asli – qurama xalq, Odil aka. Qo‘ng‘irot, qatag‘on, tojikdan boshqa – qovchin ham bor, olchin ham bor, chag‘ata-yu turk ham bor...

– E, hammasi o‘zbek-da, – deydi Ismat injiqlanib va jilmayib o‘tirgan Abduqayumni ko‘rsatadi.

– Bu qalamqoshni kim tojik deydi? O‘lay agar, uyidayam o‘zbekcha gapiradi... To‘g‘rimi, o‘zing ayt? Odil aka, qulq soling.

Abduqayum kulib, shikoyatomuz tarzda aytadi:

– Shunaqa, Odil aka. Xotinin bo‘lsa: «Sen o‘zbeklarga sotilgansan», – deydi. Bolalarim ham o‘zbek maktabiga qatnaydi. Tojik maktabi bor. Borishmaydi. Nima qilay?.. Mana bu mirshabning uyiga kirdingizmi?

Stolimiz oldida qo‘lini beliga tirab turgan Nurilla:

– G‘iybatimni qilma, Qayum, – deydi tahdid bilan. – Ana, Mengli keldi. Aytaman, chakkangga yopishtirilgan puldan bir so‘miniyam qoldirmaydi...

– Shunday ham qil, – deydi Abduqayum kulib,
– o‘yinchimga aytaman, orqangdan qolmaydi,
to seni kasod qilmaguncha... Ismat, ishonmay-
siz-da, buni sharmanda qilish mumkin... To‘g‘ri
aytasiz, bundan bir so‘m chiqsa, tamom, uyqu-
dan qoladi... Aytmoqchi, Odil aka, nahot sizning
urug‘ingizdan-a, shu milisa?

– He, kuyibgina kul bo‘l, – deydi Nurilla bu
yoqqa qaramay. – Sen xoyin...

Odil aka sigaret chekadi va qarshimizda kulim-
sirab kelayotgan baland bo‘yli, qirraburun yigit-
ga tikilib qoladi. U yigit kelib, Nurillaga «kisht»
deganday qo‘l uchini silkitadi-da, menga iljayib
qo‘yib, Odil akaga qo‘l uzatadi.

– Assalom alaykum. Xo‘s h ko‘rdik, Odil aka...
Kechirasiz, men shu to‘yning egasiman... Hoy,
nimaga tanishtirmay o‘tiribsizlar? Mayli, hali
ko‘raman... O‘zim tanishtiraman: mana bu yo-
ningizdagi yozuvchiga tog‘a bo‘laman men. Yolg‘iz
tog‘asining o‘g‘liman. Tog‘aman. Xo‘s, men
to‘yga taklif etganman... Mana bu shaykaniyam.
Attangki, bularning hammasi – mening jo‘rala-
rim... «Burun» bilan birga o‘qiganmiz. Abduqa-
yum keyin qo‘shilgan. Bu kishi – o‘rtoq Xolmirza-
yevning o‘rtog‘i. Kelayotib devoridan chaqirma-
dimi?.. Shunday odati bor edi. O‘sha yerda to-
moqni ho‘llab, keyin uyga kelardilar... Ha, sizni
yuzxotir qilgan...

Shunda Nurilla unga do‘q qiladi:

– Munday o‘tirib gaplash! Yaxshi kutib olding,
rahmat... Qaranglar, ko‘chaga chiqib, bag‘ri-
ni ochdi-ya! Axir, bir to‘ychi bo‘lsa, shunchalik
bo‘ladi-da...

Matlabjon uning gapiga parvo qilmay Odil akadan uzr so'raydi:

– Keliningizning urug'lari kelib edi. To ko'rishib, fotiha o'qiguncha...

– E, nichevo, Matlabjon, – deydi Odil aka. – Uzr so'rashingizning hech ham hojati yo'q. Men bu davrada, bilasizmi, masalan, o'zimning yoshlikdagi yor-do'stlarimni ko'rdim. Men Boysunga kelganimdan juda xursandman.

– Iloyi, shunday bo'lsin, – deydi Matlab samimiyat bilan. – Hali xursand qilishga harakat qilamiz... Nuril, ertalab tog'ga chiqasizlar-a? Shukur aka, biz shunday reja tuzdik. Men bu yerda keldi-ketdi bilan bo'laman. Sizlar tog'da aylanib, dam olib kelasizlar. Keyin yana...

– Aytmoqchi, mollaringni ko'rsat menga... Odamlar o'rnashguncha vaqt bor hali, – deb chiraniadi Nurilla. – Semizgina bir uloq bo'lsa bo'ldi. Tandir qilamiz... Odil aka, uloqda yog' kam bo'la-di, kabobi yaxshi chiqadi.

– A, mashhur tandirkabob, – deb qo'yadi Odil aka. – Yaxshi. Matlabjon, siz davraga qarang.

– Rahmat, Odil aka. Kelganingiz uchun ming rahmat... Bu yer – o'z uyingiz. Mana bu yigitlar...

– Odil akamni shaykaboshi qilamiz, – deb pixillab kuladi Ismat. – Eshityapsanmi, hey, mirshab? Jo'raboshilikdan chiqding! – keyin menga qarab, battar pixillarydi. – Bir qatag'andan qutublib, ikkinchisiga tutilar ekanmiz-da...

– Dod, – deb qo'yadi Nurilla.

Kulgi-kulgi bilan Matlab ketadi. Keyin Nurilla ham uzr so'rab, uning izidan yo'rg'alaydi.

Saldan keyin Abduqayum ham:

– Kechirasizlar... Odil aka, ma'zur tutasiz, biz – xizmatga, – deb turib ketdi-yu, uning «g'iybati» boshlandi.

– «Shalola»ni eshitganmisiz, «Shalola»ni? – deb so'radi Ismat Odil akadan.

– A, folklor ansamblimi?

– Otangizga rahmat, domillajon... O'zbekistonda birinchi xalq ansambl! Polshada ikkinchi o'rinni olib keldi. Dunyo bo'yicha. Kumush boltani opkel-di! Muzeyda turibdi... Nasib bo'lsa, ko'rasiz uni... – keyin: – Oh! – deb peshonasiga urdi Ismat. – Shuning evaziga ansambl tarqatildi.

– Kak eto? Tushuntirib ayting, Ismatjon, – dedi Odil aka va menga qarab kului. – Bu – paradoks-ku, Shukur? Uning peshonasini silash o'rniga tarqatsalar.

– Shukur, ayting, aytib bering. Men bir aylanib kelay. Matlabning to'yi... – deb Ismat ham qo'zg'al-di va ro'paramizga kelib, joy olayotgan Xayrullaga tayinladi: – Sen qarash... Xizmatda bo'l! Matlab – sengayam tog'a! Mashinasini haydaysan...

– Tog'am bo'lgani uchun ham mashinasini tashladim, – dedi Xayrulla g'ijinib. – Asalchilik qilaman. Kunim o'tadi... Boring, xizmat qiling. Men qilib qo'yganman... Odil aka, qalay bo'lyapti dam olish? Qishloqning to'yi-da...

– Hammasi joyida, – dedi Odil aka. – Vsyo normalni... – keyin Ismatga qarab kului. – Bizgayam xizmat bo'lsa, aytinglar. O'zimizning jo'raboshi deb qo'ydinglar-ku?

– He, yangi jo‘raboshining qurboni bo‘lay!
– Ismat stolga yopiq dokani shart ko‘tardi.
Noz-ne’matlar ochildi. – Mana, xizmat! Siz bosh-
lab bermaguncha, suzilib o‘tiradi Shukur ham...
Ko‘k choy ichasizmi, qora?

– Bizga baribir. Sizlar ichadiganiyam bo‘la-
veradi... – Odil aka zo‘r askiya qilganday kulib,
mendan so‘radi: – Kechirasan, Shukur, «Shalo-
la»ni nima uchun munday jazoladilar?

– E, «Shalola»ni gapiryapsizlarmi? – dedi
Xayrulla, – u mendan so‘zlashga ruxsat so‘ragan-
day qarash qildi-da, davom etdi: – Bu sho‘rliklar
yurtdan chiqmagan. Turkiyani bolsa, yaxshi
ko‘rishadi... O‘zimiz ham bir hisobda – turk-da.
To‘g‘rimi?

– To‘g‘ri.

Xayrulla jonlanib, bama’ni suhbatga qo‘shil-
ganidan, tabiiy, xursand bo‘lib, davom etdi:

– Qayum akaning aytishicha, bular Polshaga
borgandan keyin Turkiyadan kelgan ansambl
qatnashchilari bilan uchrashib qolishadi. Tagi
bir, tili bir. Bir-birini sog‘inib yurgan emasmi,
mana munday osh-qatiq bo‘lib ketishadi.

Men Odil akaning hayron bo‘lmasligini kutuv-
dim. U kishi, aminman – buning sababini bil-
ganlari holda:

– Nahotki? – deb birdan qizishib ketdi. –
Axir, bu yaxshi hodisa-ku? Masalan, bir xalq
vakillari boshqa xalq vakillari bilan yaqin-
lashsa... Qolaversa, a, Shukur, o’sha ko‘riklar
deymizmi, musobaqalar deymizmi, o‘tishidan
maqsad nima? Xalqlarni bir-biriga yaqinlash-
tirish emasmi?

– Xuddi shunday. Rahmat, Odil aka, – deyman men va qo'llarimni yozib iljayaman. – Na chora...

– Svolochlar, – deb to'ng'illaydi Odil aka va ukam menga olayib qaraydi: «Yomon-ku, bu odam?» – Vot, shunday qilib, tarqalib ketdimi?

– Ofitsialni-da, – javob beradi Xayrulla. – Lekin hozir o'zlarini ko'rasiz. Bularni tarqatib bo'pti...

Odil aka o'yланib qoladi.

7

«Shalola»ning o'zagi – «Yaq-qu!» bo'lsa kerakki, qo'shiqning sur'ati-yu ifoda shakli, ya'ni qo'r to'kkан yigitlarning o'ziga xos raqsi tez orada viloyatdan ham chiqib ketdi; qo'shni viloyat kishilari «Shalola»ni «Yaq-qu» orqali eslaydigan bo'lib qolishdi.

Bu qo'shiqda nima borki, odamni tezda mahliyo qiladi? Va ruhingni ko'tarib, nimadir qiliqlar qilishga undaydi?

Taqiqlangan ansamblning, demak, man etilgan «ko'ziri» ijro etilarkan, davrani deyarli doira-simon o'rab olgan olomon «gurs-gurs» qarsak chalar, ko'plar o'rinalidan turib ketishgan, qandaydir yovvoyi qiyqiriqlar-da avj ola boshlar ekan, o'lay agar, Odil akani tanib bo'lmas edi.

Yapaloq yuzidagi Chingizzxonnikiga o'xshash qoshlari chimirilib ketgan, biroq ul ulug' xondan farqli o'laroq hayajonga yo'g'rilib, o'qtin-o'qtin shivirlar edi:

– Nima bu?

Men u kishi eshitadigan darajada sayray boshladim:

– Ana chol, o‘tiribdi-ku o‘rtada. O‘sha chol oxiri o‘rnidan turib, yigitlarga qo‘shilishi kerak. Ya’ni u tiriladi... Nima uchun tililishi boshqa masala.

– E, o‘shanisi kerak-da. Demak, muhim bir ma’no bor ekan bunda! Lekin so‘zlari...

– So‘zlari ko‘p o‘zgargan.

– Yaq-qu – nima degani? Yaq quvmi?

Odil akaning beixtiyor og‘zidan chiqib ketgan bu so‘z, nazarimda, «Yaq-qu»ning yangitdan kashf etilgan ma’nosidek tuyuldi: chindan ham «yaq» bilan «aq» – ohangdosh, «qu» esa – shundoq ham «quv» shaklida aytildi. Bundan xulosa chiqadiki, o‘rtadagi chol – qandaydir «oq quv», ya’ni oqqush bo‘lishi mumkin... Yaradordir? Kasaldir? Holdan toygandir u? Oqibat, yosh-yalang tazyiqi, shah-di-jahdi bilan o‘rnidan turib ketadi.

– O‘-a, bo‘lishi mumkin, – deyman tezgina yuqorida aytganimni xayoldan kechirib. So‘ngra Abduqayum tashkil etgan bu ansamblning g‘oyaviy rahbari – jiyanim Xoliq Xurramov bilan ushbu so‘z mag‘zini chaqishdagi urinishimizni aytaman: – Lekin Odil aka, qadimgi turk tilida «Yag‘-g‘u» degan so‘z ham bor...

– «Buyag‘» emasmi?

– A-a, buyam qiziq variant. Buyag‘ – unvon, daraja bo‘lsa kerak, a?

– Shunday.

– «Yaa-g‘u»da ma’no ko‘proqqa o‘xshaydi, Odil aka...

Ya-g‘u – yov desak, demak, qabilani yov bosa-yapti, turish kerak – oyoqqa qalqish kerak, degan ma’no borga o‘xshaydi, mana shu harakatlarda... Demak, o‘layotgan chol ham yov bosa-

yotganini anglab, o'rnidan turadi... Bu – o'ziga xos pantomimo...

– Yo'q, anavi sharhingda jon bor... Hm, vsyo-taki, juda qadimgi qo'shiq ekan-da, – go'yo xulosaga kela boshlaydi Odil aka. – Qara, yigit-larning harakatlariyam yovqur.

– Ha..

– He-e, biz ko'p narsani unutganmiz... Unutishga majbur qilishgan: arabiym, forsiyam, o'risiyam...

Men asta tomoq qirib qo'yaman. Ukam ko'zini olaytiradi. Qandaydir xizmatlarini qilib kelib, Odil akaning yoniga – joyiga o'tirib olgan va atay suhabatimizga qulqoq berayotgan Ismat, nihoyat, g'uldurab qoladi:

– O'ris... shu, shu... Shuning siyosati yetdi boshimizga... Xayriyat, Boysun bor... Boysun – muzlatkich, Odil aka. Bunga odamniyam konservatsiya qilib tiqib qo'yish mumkin... Buzilmasdan turaveradi. Bir kun kelib, qarabsizki...

– Ismatjon, gaplaringizni tushunmayapman, – deydi Odil aka. – Keyin aytasiz.

– To'g'ri, keyin aytaman... Lekin Boysun buzildi. Keyingi vaqtda. Usmon rost aytadi: «Ketib qopti Boysundan Boysun!» A-a, otangga rahmat, Usmonjon...

8

Shu payt o'rtani oborayotgan Sobirjon – Matlabning ona tomondan jiyani – jurnalist mikrofonga chertib, tarqalayotgan yaq-quchilarga rahmat aytdi-da:

– O'rtoqlar, jindak gurung ham kerak, – deb qoldi. – Bu harbiy qo'shiqdan keyin, mayli, harbiycha gurung bo'lsin... Nima? O'zim boshlab beraman.

Qayerdandir ortimizga yetib kelgan Nurilla Ismatga bir nimalar deya shivirlar ekan, Odil aka – Ikkinchiji jahon urushining oxirgi kunlari-da Manjuriyada xizmat qilgan sobiq harbiy yana chimirilib:

– Eshitaylik, – deb qo'yadi. Shu bilan qo'shnilar ham jimiysi va Sobirning yangroq ovozi tarala boshlaydi:

– Ana, etakdag Shahid guzarda Omon polvon degan kishi o'tgan ekan. U kishi Afg'onistoniga borib, ko'p polvonlarni yengib, lekin tirishma degan kasalni orttirib kelgan, keyin tirishib va-fot etgan ekanlar. U kishidan bir qiz-u bir o'g'il qolgan bo'lib, o'g'ilning nomi Abdurahmon ekan. U kishi ham otasidek polvon bo'lib yetishadi va Boysunda birinchi marta tashkil bo'lgan xalq te-atrida ishlaydi. Qator ro'llar o'ynaydi...

Odil aka menga savol nazari bilan qaraydilar. Men «sabr qiling, gap bor», deganday ishshayib qo'yaman.

– Juhon urushi boshlanib, Abdurahmon polvon frontga ketadi va Rusiyaning g'arbiy chegaralari uchun bo'lgan janglarning birida bedarak yo'qoladi. Ya'ni Matlab akamlarga shunday iz-vesheniye keladi: «Bezvesti propal...»

Kimlardir:

– Yo'q, unday emas... – deyishdi. Endi Ismat ularni bosdi:

– Oxirigacha eshitinglar. Iltimos, og'ajonlar... Buyam bir narsani bilar...

– Yillar ketidan yillar o‘tadi. Abdurahmon polvon bedarak yo‘qolgancha qolaveradi, – deb davom etdi Sobirjon. – Bu orada Matlab aka er yigit bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik institutini bitiradi. Tumanga kelib, agronom bo‘lib ishlaydi. Nihoyat, «Hamza» sovxoziiga direktor...

– E, tog‘angiz haqida gapiryapti-ku? – deydi Odil aka tuyqus mammun bo‘lib ketib. – Chekishga oling-e... Da, so‘zga chechan ekan bu yigit...

– Shu o‘tgan yillar orasida Matlab aka bir orzu bilan yashaydi, – yana davom etardi Sobir.

– «Otam qanday qilib yo‘qolib qolishi mumkin? To‘rt muchasi sog‘ odam ham g‘oyib bo‘ladimi? O‘lgan bo‘lsa – o‘ligini, tirik bo‘lsa – daragini topaman», deb yuradilar-u, Ittifoqning barcha chegara viloyatlariga ketma-ket zapros yuborib turadilar. Qarabsizki, Belorusiyadan javob ke-lipti: «Otangiz shu yerda dafn etilgan. Qardoshlik mozorida. U kishi partizanlar orasida jang qilgan va qo‘lga tushib, yarador holda ko‘milgan. Fa-shistlar ko‘mib yuborishgan. Marhamat, keling, o‘rtoq Abdurahmonov!»

Odil aka sigaretni yerga tashlab yubordi. Ko‘zi qandaydir yaltirab:

– Fojia, fojia, – dedi. – Ey, o‘ttiz yillab bilishmasa, aytishmasa? «Bedarak yo‘qoldi» – vassalom. Nima bu, odamning qadri shunchalik bo‘ldimi? Axir, u shu Ittifoqni himoya qilaman deb borgan edi-ku?

Shuni aytishim kerakki, davra ahlining bir ko‘zi biz tarafda, aniqrog‘i, Odil akada, shuning uchun bu yerda gap-so‘z bo‘lib qolsa, davraning raisi ham so‘zini to‘xtatib turardi.

Tabiiyki, Odil akaning favqulodda qizishib aytgan gaplarini qatorimizdagilar eshitdi.

Sobir eshitmagan esa-da, ma'nosini taxmin qildimi – ma'qul ishorasi-la bosh irg'ab, tag'in davom etdi:

– Bordik... Matlab aka men bilan Umidjonni ham olib, Belorussiyaga jo'nadilar. Minskdan u yog'iga mashinada, keyin traktorda ketdik. Qor qalin ekan. Borsak, bir qayinzor... – Odil akaning ko'zida yosh ko'rib, meniyam ko'nglim buzildi. U kishi xo'rsinib, aroqdan bir ho'plab qo'ydilar-da:

– He, Shukur, menga naqadar tanish, – dedilar. – «Er boshiga ish tushsa»ni o'qigansan-a?

– Ha...

– Aytmoqchi bo'lgan so'zim shuki, – deb hikoyasiga yakun yasay boshladi Sobir, – agar Abdurahmon polvon tirik bo'lganlarida, shu davraning to'rida savlat to'kib o'tirgan bo'lardilar... Mana, u kishining o'rnida nevaralari Ali-sher o'tiribdi... He, chollarning oldi-da. Karavotda...

Shunda Odil aka:

– Men bir og'iz gapirsammi? – deb qoldilar menga. Men shoshib, Sobirga qo'l ko'tardim. U:

– Gurungni eshitganlaring uchun rahmat. Navbat yana «Shalola»ga! «Halinchak»... – dedi-da, gurros chapaklar ostida mikrofonni tagligiga o'rnatib, qoshimizga yo'rg'alab keldi. – Assalomu alaykum, Odil aka!

– Salom, Sobirjon. Yaxshi yigit ekansiz, so'zamol... Shukur, Sobirga uzating. Tomog'ini ho'llab olsin... Da, kechirasiz, Sobirjon, siz ham armiya-da xizmat qilganmisiz?

– O‘-o‘, bu Afg‘onistonni olaman, deb borib, zo‘rg‘a qutulib keldi-ku! – dedi Ismat.
Kulgi bo‘ldi.

9

«Shalola»ning yulduziga aylana boshlagan Sayyora Qoziyeva ikki yigit yelkasiga obkashdek ko‘targan «arg‘imchoq»qa o‘tirgan holda qo‘sinqaytib «chiqdi»:

– Halinchak-e, halinchak, Halinchakda kelinchak...

Qo‘sinqning uchinchi yo to‘rtinchi marta aytishi – aniqrog‘i, qaysidir zamonlarda aytilgan xalq qo‘sing‘ining qaytadan kashf etilishi ekanki, o‘zaro suhbatimiz bo‘linib qolib, unga quloq tutdik: o‘ynoqi, sho‘x, dilga yaqin...

Nihoyat, qo‘sinqqa o‘yin ulanib ketdi. Xayrul laning yonida – bizga qarab o‘tirgan Sobirjon:

– Odil aka, menga boshqa savollar yo‘qmi? – deb so‘radi. – Balki so‘z aytarsiz, e’lon qilaymi?

Men bosh irg‘adim. Odil aka:

– Aytmoqchi, ha, ijozat bo‘lsa, biz ham ikki og‘iz so‘z aytsak, – dedilar. – Lekin keyinroq... Qizlaringiz ham juda tushishar ekan! A, Shukur?.. Nimaga bittanglar ham bu yerdan uylanmagan-sizlar? Na Usmon, Na Erkin, na sen... He-he-he... Bilaman, tushunaman: taqdir-peshona...

– Shu-shu, – dedim. – Biz Muqaddaslarga yetishganmiz, xolos... Sobirjon, Odil akamning «Muqaddas» qissalarini o‘qigansiz-a?

– Maktabda! – deb yubordi u va Odil akaga qo‘lini uzatdi. – O‘shani yozgan qo‘lingizni bir qisib qo‘yay!

Odil aka iljayib, unga qo'lini berdi. So'ng:

– Vayenniy zakalkangiz bor, – dedi. – Aytmaq-chi, Avg'anda xizmat qilgansiz-a?

– Ha, Odil aka. Afg'oniniyam ko'rdik... Un-cha-muncha sirlarga ko'zimiz ochilib ham keldik...

– Masalan? – Odil aka chamasi yo'liga so'ra-di-yu, keyin qiziqib tikildi. – O'sha sirlardan birontasini aytishingiz mumkinmi? Agar, voyennaya tayna bo'lmasa...

– E, tayna bo'lsayam aytaveraman... Bu jon – foydaga qolgan, Odil aka!

Odil aka jiddiy tortdi: shunday yosh yigit shunaqa desa... Keyin o'yinni ham unutib, tag'in chimirilib oldi.

– Qulag'im sizda.

Sobirjon yosh bo'lishiga qaramay, davralari-mizning sobit ishtirokchisi edi; hazil-huzul bobi-da ham «otasini ayamas», ayni chog'da dangalchi ham edi.

– E, nimasini aytasiz, – dedi u. – Men... shovinizmni ko'rib keldim! – keyin to'xtovsiz davom etdi: – Yerto'laga kirib yashirindik. O'q yog'ilayapti. Tomga tirsillab urilgani eshitiladi. Koman-dirning to'pponchasi tushib qopti. Bizga buyuradi: «Vixaditi, ishite!» deb avcharkaga buyurgan-day... Bizlar endi, tushunamiz, «qoralarmiz». Kim o'lishni istaydi? Chiqqan yigit o'ladi. So'zsiz... Birdan avtamatni o'ziga qaratdim: «Vixadi sam, suka!» – dedim. Bolalar ham avtamatlarini o'nglashdi... He, qo'rmas ekan-da... deb zo'rg'a qutuldi...

Biz uning og'ziga qarab qolgandik. U – Sobirjon anchayin bir narsani aytganday:

– Lekin qasdini oldi, – dedi keyin. – Prosto imkoniyat tug‘ilib qoldi-da unga... Ikki yil o’tdi. Yana uch oy xizmat qildik... Urush-da. Nastayashiy urush...

– Tasavvur qilaman.

– Bizga javob bo’ldi. O’rnimizga papalneniye keldi... Shunda bir zastavani duxlar o’rab olgani ma’lum bo’ldi. Kamandir yalina ketdi: «Bu mala-kasoslar poroxni hidlamagan. Bir reyd qilinglar. Oxirgi marta...» Hammamiz ruhan tayyormiz: ketishga! Yurt ni sog‘inganmiz. Do’stlarni. Ota-onani... Javob berilgan kuni o’lib ketish – abid-na-da! Yo‘q, dedik. Xizmat – tamom, dedik. Biz uje nima uchun, kim uchun urishayotganimizni tushunib bo’lgan edik... «Yo‘q» deb turib oldi. Pasportlarimizni yig‘ishtirib oldi-da: «Tribunalga beraman!» dedi. Noiloj jangga kirdik... O’n sakkiz yigit edik. O’n bittamiz qoldi.

– O’ldi?

– Ha... He, u yerda bizning qadrimiz yo‘q edi... Bir hisobda yaxshi bo’ldi: ko‘zimiz ochildi...

– Ha. Hech qachon qadrimiz bo‘lmagan, – dedi Odil aka boshini egib-irg‘ab. – Uf-f, hayronsan...

Shunda Ismat:

– Bo’ldi-ye, – deb qoldi. – Eslamaylik... Mana, – og‘zini ochib, tilla tishlarini ko‘rsatdi. – Qani tishlarim? Ta’mni biladigan oppoq tishlarim? O‘zga yurtda qoldi, – deb birdan shivirladi. – Raketeniy bazada qoldi. Birovning sochi, tirnog‘i, mening tishlarim qoldi. Bir sutkada chol bo’ldim...

Kulib yubordik. Kulgimiz albatta Ismatga yoq-di. Ammo qadrini yanayam ko‘tarish uchunmi, Xayrullaga do‘q qildi:

– Sen nimaga kulasan, jo'jaxo'roz? Poroxni hidlamagan? Akam yozuvchi deb...

– Da, idite... – deb yubordi Xayrulla. – Qayag'dan bilibsiz iskamaganimni? – keyin Odil akaga qarab shikoyat qildi: – Olti oy gaupvaxtada yotdim. Hozir ham sovuq tegsa, belim og'riydi... Solardim-da, «chuchmek» deganini...

Odil aka qo'lini uzatib, uning bilagidan ushlandi. Keyin boshqa qo'li bilan Sobirning qo'lini tutmoqchi edi – u tutdi. Shunda Ismat ham shoshib, qo'lini cho'zdi-yu, Odil akaning tirsagidan ushlandi. Odil aka unga kulib qo'yib:

– Rahmat sizlarga, – dedi. – Men xursandman... – ko'zlari yana g'ilq yoshga to'ldi. – Men faxrlanaman... Ana endi so'z bersangiz, mayli, Sobirjon.

10

– Aziz mehmonlar! Yigitlar, qizlar! Matlabjon – Abdurahmon tog'amizning... shu Vatan uchun, xalq uchun, kattakon Ittifoq uchun, qolaversa, masalan, Belorussiyaning ozodligi yo'lida jonini qurbon qilib, yetarlicha qadr ko'rмаган og'amizning o'g'illari, Matlabjon! Avvalambor, to'ylaring muborak bo'lsin! – deb odatdagicha qaytariq, izoh va hayajon bilan boshladilar Odil aka. Va «Toshkentdan to'yga yetib kelgan» mashhur yozuvchini olqishlab chalingan chapakka to'lib ketdi davra. Notiq bundan ilhomlanib, ayni chog'da ko'ngli xiyla xotirjam tortgandek, ya'ni ma'raka o'zimniki bo'ldi, degan kabi davom etdilar: – Mening Boysunga kelganimga, masalan, bir

necha soat vaqt bo'ldi, xolos. Biroq men buni, bu qadimgi o'lkani... Alpomishning vatani, Alpomishlar vatanini, yana masalan, Shukur yozganidek, qadimiy Baqtriyaning markazlaridan birini ko'rib-gina qolishga emas, uning mard, tanti va to'g'riso'z yigitlari bilan tanishishgayam ulgurdimki, bundan o'zimni, masalan, baxtli his qilaman... – yana chapak gurillab ketdi. Odil aka so'z izlagandek qo'rimizga ko'z tashlab olib, xitob qildilar. – Biz, yazuvchilar o'zbekning xarakteri deganda, ko'proq Farg'ana vodiysi odamlarini ko'zda tutamiz. Man, masalan, o'zim tug'ilgan Turkiston odamlarini ko'z oldimga keltiraman... Keltirar edim...

Odil akaning nutqini qisqartirib aytish mum-kinki, oqibat, gapni – to'ybola Alisherga optushib bog'lab:

– Abdurahmon aka bobongdek, otang Matlabjondek bo'l! O'zbekda bir maqol bor: «Bolangdan hurmat istasang, otangni hurmat qil», deydilar. Buning ma'nosi benihoya chuqurdir... Otang Matlabjonning o'z padari buzrukrori Abdurahmon polvon uchun qilgan farzandlik burchi – sen uchun saboq bo'lsin, – degandan so'ng Matlabning yor-do'stlarini birma-bir tilga olib: – Bular shu tuproqda tug'ilib o'sgan mard, tanti, so'zi bilan ishi bir o'g'lonlardir! Bularning deyarli hammasini vatanparvar, shu yurt uchun hech narsasini ayamaydigan, uning or-nomusi uchun oxirigacha kurashadigan yigitlardirki, bular ham sen uchun, masalan, ibrat namunasi bo'lib qolishiga ishonaman! Axir, qush inida ko'rgani ni qiladi, deydi-ku, xalqimiz!.. – deya Sobirjon uzatgan piyolani olib va kulimsirab: – Qani, shu

gaplarga qo'shilgan o'rtaqlar shu obi zam-zam-dan ko'targancha olsinlar, – deb, kulgi-qiyqiriq ostida piyolani bo'shatdilar.

Shundan keyin yana qo'shiq, o'yin, so'z aytish davom etdi. Nihoyat, o'yinni bilmaydiganlar ham o'rtaga tushib, so'z berilmaganlar ham nutq irod qila boshlagach, bizlar Nurilla jo'rabsoshi rahnamoligida qo'zg'alib, ushbu davra adog'ida, ya'ni shu bedapoyaning etagida tikilgan o'tovga borib kirdik.

Ertasi «kasal oshi»ni ichib, tog'ga jo'nadik: o'sha qorli cho'qqining poyiga...

11

Adirlar. To'lqindek ko'tarilib-pasayib ketgan va tek qotgan to'lqinlarga-da o'xshaydi. Faqat bular sariq: bug'doypoyalar, lalmikor qirlar. Toshloq yo'lni g'ajigandek o'rlab borayotgan «Gazik» sekinlaganda, sollanib turgan xayrigul shoxida zarg'aldoq sayraydi. U shu qadar xotirjamki, bizdan jilla hayiqmaydi va shu tariqa bizning ko'nglimizga ham bir osudalik, hatto loqaydlikka yaqin tuyg'ular baxsh etadi.

Mashinada chayqalib-chayqalib ketaver-sang... Ammo shaxsan men ko'nglim tagida bu yo'llardan yurganlarimni, saldan keyin qanday muyilish kelishini va chamasi, qaysi joyda ulovni to'xtatib, Odil akaga «maqtanish»ni, to'g'rirog'i, maqtashni o'layman va tuyqus eslaymanki, biron yarim chaqirim o'rlab borgach, o'ngga keskin qayrilib, suvsiz soydan o'tamiz...

Yozning mana shu kunlarida uning suvi quriydi, ya'ni Xo'jaqo'chqor ota ayrisidan tushayotgan

sharsharaning bir hovuch bo'lib qolgan muzdek suvi soyning o'sha yerlarida – tosh oraliqlariga singib ketadi.

– Baxtiyorjon, Qoplondaraga enishda bir to'xtatasiz, – deyman. Va yonimda o'tirgan Nuril-laga qarayman. – Haligi joyni bir ko'rib o'taylik.

– Ha, – deydi Nurilla hushyor tortib. – Odil aka, bir qiziq joy bor-da, yovvoyi xurmo o'sib yotadi... Shukur topgan uni. Aytib bering, Shukur, – so'ng nariga surilmoxchi bo'lib, semizgina uloq-nning bo'ynidan quchganicha mizg'ib kelayotgan Ismatni burchakka tiqadi. Ismat ixraydi. Nurilla uni gavdasi bilan mendan to'sadi. Ismat uning yelkasiga mushtlagach, Nurilla unga ilkis burilib qaraydi va kuladi. – E, sen shu yerdamisan?

Ismat uning yelkasiga yana bir musht uradi. Odil aka kulishni aftidan xayoligayam keltirmaydi.

– Shukur, rosa o'rab tashlagan-a? – deydi. – Axir, kanse kansov, bu hol xalqning g'azabini keltiradi-ku! Qachongacha chidash mumkin...

Hammamiz jim qolamiz. Chunki jilla izohsiz ayonki, biz mustamlaka, qarammiz...

Buni tan olgimiz kelmaydi, xolos...

12

– Ha-ye, zolimgayam boqqan balo bordir-da, – deydi Nurilla. – Hokimiyati abadiy emas... To'g'rimi, Odil aka? Hech qachon hokimiyat abadiy bo'lмаган. Tarixdan ma'lum-da... Nimaga turtasan, burningni eshik qisib olsin! Axir, men tarix fakultetini bitirganman, g'alcha.

– Nurilla, to'g'ri aytasiz, – deydi Odil aka hamon jiddiylik bilan. – Hech qanday istibdod, imperi-

ya, sultanałtar abadiy qolmagan. Bari o'tkinchi. O'zimiz qolamiz, xalqimiz qoladi, yurtimiz qoladi. Faqat ko'p shikastlar yeymiz-da... Shukur, nega qo'shilmayapsan? Nimani o'ylayapsan? Aytmoq-chi, sen bu gaplarni bizdan ham yaxshiroq bilişing kerak, esselaringda ko'p yozgansan... Da, mana shu – tasalli, o'rtoqlar. Lekin qarab turmasligimiz kerak. Har kim baholi qudrat...

Baxtiyor menga qaradi.

– To'xtat, – dedim. – Kechirasiz, Odil aka... Haligi joyni bir ko'raylik.

– Ha, Nurilla aytuvdi.

Soyga enaverishda taqqa to'xtadi mashina. Birin-ketin tushdik. Kunning issig'i darhol bilindi. Atrof chigirtkalarning «chirq-chirq», «jiz-biz» etgan tovushlariga to'la, rangsiz yantoqlar, itqovunlar muallaq turganga o'xshar edi.

Men tikanlar oralab, sohildan biroz yurib, nariji qirg'oq o'rkaçhini ko'rsatdim.

– Odil aka, o'shanda yosh edim. O'n ikki yo o'n uchda edim. Pastda qolib ketgan Padang qishlog'idan bir Ibodullaboy degan chol va uning o'g'li Abdurasul bilan ovga chiqqandim... Mana shu yerga kelganimda, ana o'sha sariq tosh yonidan bir kaklik uchib chiqdi. Chiqdi. Yer ostidan chiqqanday... Otdim. Tipirchiladi-yu, g'oyib bo'ldi. Yana yer ostiga kirib ketganday...

– Yurib gapiring, yurib, – dedi Nurilla. – Bari-bir pastga tushamiz-ku?

– Ey, Shukurjon, qaytishda kirarmiz, salqinda, – deb qoldi Ismat. – Kun qizimasdan archaga yetib olaylik... Uh, qovog'ini qarang. Yuring-yu-

ring. He, bu odamning bo'lgani shu: ming marta xo'b deydi-yu, bilganidan qolmaydi.

Odil aka menga qiziqish bilan qarab turardi.

– Yerga singib ketdi, shundaymi?

– Hm, harqalay, bir gap bor, deb o'sha yerga tushib bordim. Qarasam, bir teshik bor. Ichkari-da suv shildirayapti... Ana shu soyning suvida...

– Qarang, Odil aka, suvning qayoqqa ketishini bilib bo'lmaydi, a? – tushuntirdi Nurilla mam-nunlik bilan. – Holbuki, u anavi arnaga kirib ketadi-da...

– Ha, yerning ostida dara bor ekan, – dedim va so'qmoqdan ena ketdim.

Ular ham bir amallab quyiga, aslida soy o'tgan yerga tushishdi. Men qirg'oq bag'rida qorayib turgan o'yiqqa engashib kirdim. Keyin boshqalar ham kirishdi. Tepadan yorug' tushib turardi, biz chang'arog'i ochiq o'tov ichiga kirgandik: biqinlarni suv yemirib, kamar qilib yuborgan...

– Mana shu yer nimasi bilandir Teshiktoshni eslatadi, a, Ismat? – dedi Nurilla. – Eshitgansiz-a, Odil aka, neandertal odami yashagan tog'ni? Tashqariga chiqsak, ko'rinati!.. Tog'i ko'rindi-da! Katmanchopdining...

– Bo'ldi, bo'ldi. Bilaman, – dedi Odil aka va yana birdan yayrab ketdi. – Ajoyib mamlakat... He, yigitlar, buni sevinglar, bu bilan faxrlaning-lar... Xato qilmasam, Teshiktosh – O'rta Osiyoda yagona tog'.

– Yagona, – dedi Ismat.

– Shu-shu. He, Odil aka, bilasiz! – deb taltayib kuldi Nurilla. – Mana bu Ismat bo'lsa, o'qimagan, bilmaydi... Kitobim chiqdi, deydi. Ishonmayman,

shuning asar yozishiga... Muning aftiga bir qarang: nahotki shu yozuvchi bo'lsa?!

– Otaman seni, – dedi Ismat. – Keyin semiz bir qobonni otdim, deb hikoya qilib yozaman.

Shu payt Baxtiyor shoshilib burildi va teshikdan sirtga chiqdi. Ismat ham g'o'ldirab, uning izidan chiqdi. Nurilla menga hayratlanib qaradi. Men unga. Shu payt tashqaridan Ismatning:

– Nuri-il! – degani eshitildi.

– Bo'ldi, uloq chiqib qochgan, – dedi Nurilla. – Chiqaylik, Odil aka. Qaytishda yana kiramiz. Bu g'orning davomi bu yoqda... Bir kun yursangiz ham oxiriga yetolmaysiz...

Odil aka allanechuk zavqlanib turardi.

– Uloq qochib ketgan bo'lsa, nima qilasizlar? – dedi. Xuddi uning qutulib ketishidan manfaatdor oadamdek. – Shoshmanglar, bu savol-da.

– Javobi shu, – dedi Nurilla. – Shopirdi yeymiz... E, kulasiz-a, Odil aka...

– Yuringlar-e. Omon bo'linglar... Sizlarning muomalalaring ham unikalni...

13

Havo qiziyotir: har do'ngalda, yonbag'irda sarob jimirlaydi. Qushlarning ovozi yiroqlardan keladi. Tuproq yo'lda ilon izlari. Osmon kengayib va chuqurlashib ketgan. Biz uchovlon ham tabiatning bir tolgin bo'lagidek so'qmoqda turibmiz: qoshlar chimirilgan, yuzda horg'inlik.

Chiqib kelgan yo'limiz he-e pastlikda, o'yiqdan o'rlab kelganga o'xshaydi. O'yiq oyog'ida – qishloq qorayib ko'rinadi. Yo'lning davomi bir aylaniboq

palaxsa toshlar sochilib yotgan – qo‘tir qirga tirma-shadi. Qirning o‘rkachlarida palaxsalar yirik-yirik va tobora o‘sib kattarib borganga o‘xshaydiki, oqibat, darz ketgan cho‘qqilar hosil qiladi.

Biz beixtiyor o‘sha tomonga qarab-qarab qo‘yamiz. Nimagaki, uloqning daragi o‘sha yoq-dan chiqadi: uloq-echki jonivor hammavaqt baland-buzuq joylarga qochadi. Olis avlodlari ki-yiklarni eslarmikan, qochayotganda...

Tabiiy, Baxtiyor u yoqqa oldin chopib ketgan. Ismat keyin unga ergashgan...

– Odil aka, mashinaning soyasiga o‘ting. O‘ting, aka. Kun o‘lgir qizidi. Tosh-da, tosh... Yarim soatdan keyin jannatga boramiz. Shukur, Qo‘qqiyaning narigi o‘ngirida yaxshi shabada bor-da... Qiziq, qishin-yozin esib turadi...

Nurillaning gapidan maqsad – Odil akani ovutish, chehrasini ochish.

Odil aka so‘zni to‘g‘ri qabul qiladilar va miq etmay mashina yoniga yo‘l oladilar. Biz ham bu-rilgan chog‘da yuqorida shovqin keladi:

– Ketdi-ii!

Qaraymiz: qora-sarg‘ish uzun junlari (qil de-yishga til bormaydi) selkillab va yaltillab tushib kelyapti uloqcha. Naq ustimizdan enadi.

– Shukur, Shukur, – deb tashvish-la shivirlay-di Nurilla. Xatosiz anglayman: jonivor o‘tib ketib qoladi: biz ham quvlab tutolmaymiz bu bug‘doy-poyalarda. Uni to‘xtatib qolish uchun nima qiliш kerak? Bitta yo‘l bor.

Men:

– Hozir, – deyman Nurillaga va otilib, kabina-ga suqilaman. Timirskilanib, orqa oyna tagida cho‘ziltirib qo‘yilgan birotar ov miltig‘ini olaman.

So'ng o'sha yerdagi dasturxon-u karzinalarni nari-beriga surib, uch-to'rtta karton patronli o'q topaman. Ikkitasini olib, yerga tushaman-da, birini darhol miltiqqa joylayman. Va shu yerning o'zidayoq qo'ndoqni yelkaga tirab, uloqni nishonga olaman: ko'kragi o'ng keldi. Bo'lmaydi: go'shti qorayib ketadi... Hozir, hozir. Baribir buriladi...

Haqiqatan ham uloqcha bizga ko'zi tushib, naq tikanli bug'doypoyaga buriladi va bizlar qimir etmay turgan esak-da, maqsadimizni juda yaxshi biladigandek sakrab-sakrab yonimizdan o'ta boshlaydi. Men uning oldingi oyoqlarini nishonga olaman: cho'kkalagan ko'yi dumalab yonimizga tushadi...

Shunda sezamanki, yonimda uzatilgan qo'l miltiq stvolidan ushlaydi.

– Ha? – deb baqirganimni sezgan paytimda Odil akani ko'raman. – Nega?

– Ot mang, iltimos... – u kishining chehrasida qandaydir xavotirmi-iztirobmi, ishqilib omuxta bir ifodani ko'raman va beixtiyor xavotirlanib qolaman.

– Nimaga?.. Kechirasiz, u ketyapti... Odil aka, qo'lingizni oling.

– Shukur!

Men do'qni eshitaman va a'zoyi badanim bo'shashib ketadi. Ammo hamon umidvorlik bilan uloqning ketidan qarayman: oltmis-yetmish metrlar pastladi. Hozir ham...

Shunda ro'paramizda Baxtiyor ko'rindi va nimagadir qoqilib uchib tushadi. Uning ortidan chiqqan Ismat mendan nafratlangan kabi baqiradi:

– Nega otmay turibsiz?

Nurilla ishora bilan Odil akani ko'rsatadi. U pishnab to'xtaydi-da, Baxtiyorni so'kadi:

– O'l-e, to'g'ri yo'lda yiqilib yursang! Tuf de, kal bo'lasan... Sendan odam chiqmaydi! O'lay agar sen bilan yursam, ochdan o'ldirasan meni... Matlabga aytib, ishdan haydatmasam ko'rasan! Hoy, qayaqqa borayapsan? Mashinani min! Hayda! – Ismat oldimizdan o'tadi. – Kechirasiz, Odil aka, unga yetib bo'lmaydi... E, pichoqni ol, Nurilla!

Nurilla ixtiyorsiz bir tarzda biqinini paypaslaydi-da:

– Kabinada! – deydi.

Men miltiqni buklab, patronni olaman. So'ng stvol ichiga bir ko'zimni qisib qarayman: kirlanibdi... Puflayman. Keyin Nurilladan so'rayman:

– Bu kimning miltig'i o'zi?

– Matlabniki bo'lsa kerak... Ertalab Ismat so'raganda, «mashinada bor», deb edi.

Shunda anglab qolamanki, Odil akani (qandaydir) xijolatdan xalos qilishni istayapmiz.

14

Odil aka asta burilib, xarsang yoniga bordi. Keyin binafsha rang bo'lib gullab turgan abruk tupidan bir changal yulqib olib hidlagancha qo yanining u tomoniga o'tadi-da, soyga qarab o'tiradi.

Biz ko'zlarimiz qisinqirab, etakka qaraymiz: uloqcha hamon qochib borayapti... qutulib keta digandek. Mashina uning izidan tushgan, chang ko'tarib enayapti.

– Shukur, xafa bo'ldilar, – deydi Nurilla ulog'-u mashina haqida gapirayotganday.

- Ha, – deyman. – Ismat o'lgurning gapiyam tegdi... Yuring, ko'nglini ko'taraylik.
- Sezilib qoladi, bir daqiqqa sabr qiling... Cheking. Gugurtcho'pni tashlamang...
- Mashinada ketipti.
- Yaxshi odam-a?
- Ha..
- Ko'ngli ochiq ekan... – so'ng qiqillab kuladi...
- Munday odamni aldash oson.
- O'ling.
- Omadi gap-da bu... Sodda ekanlar. Ey, nimaga shunday bo'ladi, a? Oybekniyam ko'p al-dashar ekan-a? Xotini sotib olgan ko'mirga pul to'lab yurganmi?
- Ular ishonadi, – deyman tumshayib. – Ishonishni istaydi... E, bir-biringga ishonmasang, bu dunyoning nima keragi bor?.. Bilaman, siz hech kimga ishonmaysiz...
- Obbo! Axir, bolalikdan birga o'sdik... Biron marta sezdingizmi sizni aldaganimni?
- Boshqalarni-chi?
- U yana qiqillab kuladi.
- Milisa xalqi sergumon bo'lishi kerak... Lekin menimcha, Odil akaning ko'ngliyam bo'sh ekan.
- Bilmadim... Lekin joyi kelganda, otasiniyam ayamaydi! Shu... bo'riday tashlanadi. Ko'rgaman-da... O'zi mard odamlar sodda keladi, to'g'rimi?
- Shu gapingiz to'g'ri... Ana, tutishdi! – Nurilla shodon baqirib yuboradi.
- Haqiqatan ham, mashina to'xtagani, Ismatmi, Baxtiyormi chang ichida cho'nqayib o'tirganiga ko'zim tushdi. Va asta Odil akaga qarayman.

Nurilla ham qaraydi va ikkovlon jilamiz. Odil aka ham o'rnidan turadi va aftidan nimadir deyish uchun:

- So'yib opkelsa kerak, a? – deydi.
- Albatta, – deydi Nurilla. – Echki shayton bo'ladi-da, Odil aka. O'lishini biladi. Shuning uchun anavinday bog'lab qo'yib pichoqni qayray bering, bag'illay beradi...
- Baribir yirtqichmiz-da... – deydi Odil aka.– Shuni boqamiz, tarbiya qilamiz-da, bir kuni so'yib yeymiz... Shukur, sen ham shafqatsiz ekansan...
- Gap bunda emas, Odil aka, men shunchaki... Ana, qochib ketdi. Baribir so'yildi...
- Yo'q, Shukur, baribir Odil akam haq, – deydi Nurilla. – Uy hayvonini otish, a, Odil aka, sal... nomardlik. Kechirasiz, Shukur, o'sha paytda miltiq qo'limda bo'lsa, men ham... – u yana qiqillab kuladi.
- Odil aka esa o'z harakatiga, nihoyat, sabab topganday:
 - Konechno, nomardlik bo'lardi, – deydi va butun vujudi ishonchga to'ladi. – O'zlarining mard yigitsizlar... Har bittalarin – bir shaxs. Bu – maqtash emas. Hatto, Xayrullaning «chuchmek» deganlariga chiday olmasdan birovlarni urishi ham menga yaqди: odam o'zini, sha'nini himoya qilishi kerak... To'g'ri, bu ishni har kim har xilda qiladi... Masalan, Sobirjonning avtamatni kamandiriga qaratishi ham – bir jasorat, himoya...
 - To'pponchasi yo'qolsa, tribunalga berishadiya? – o'zini anoyiga solib so'raydi Nurilla.
 - Shak-shubhasiz! – deydi Odil aka va bu masalaga nuqta qo'yganday yengil tortib, o'rnidan

turadi. – Kelishayapti... Ismat ham yaxshi yigit. Lekin uning jismoniy kamchiliginu yuziga solish, menimcha, yaxshi emas.

– Vey, Odil aka, uning kamchiliginu yuziga sol-dimmi? – deb hayron bo'ladi Nurilla. – Men faktni aytdim, xolos. Kamchilikka keladigan bo'lsak, uning turgan-bitgani... Astag'firullo! Kechirasizlar.

Kulamiz. Odil akayam silkinib kuladi-da:

– Unday bo'lsa, men... masalan, kaminaga qanday baho bergen bo'lur edingiz?

Nurilla menga ko'z qisib yuboradi-da:

– Sizmi? Yusuf payg'ambardan tirnoqcha farqingiz yo'q, – deb xitob qiladi.

Odil aka buralib-buralib kuladi.

– Yusuf payg'ambar... Hm, masalan, ko'rganmisiz u zotni? – keyin mening bilagimdan ushlaydi. – Men Yusuf payg'ambarga o'xshar emishman... O'zini ko'rganmisiz? – yana so'raydi.

– Ko'rganman, – deydi Nurilla. – Xuddi o'zisiz. Uyam yozuvchi bo'lgan. «Yusuf-Zulayho»ni yozgan.

Odil aka yana chayqalib-chayqalib kuladi. Men esam xudoga shukrona aytaman. Odil aka o'zimizniki bo'ldi-qoldi.

15

«Gazik» yetib kelgach, har qaysimiz o'z joyimizga kirib o'tiramiz.

Va mashina palaxsa toshlar sochib tashlaganday adir betidan g'ingshib, lo'killab o'rlar ekan, kechagi o'tirishning ta'siri bilina boshladi: Ismatning ko'zi yumilib-yumilib ketadi, Nurilla uning

yelkasiga butun og'irligini tashlab oladi. Men oyog'imiz ostida cho'zilib yotgan – allaqachon qotib qolgan uloqchani nari-beri suraman va Odil akaga qarab-qarab qo'yaman.

Nihoyat, past-past archalar uchray boshlaydi va o'rakchdan esayotgan shabada ularning bo'ylarini olib keladi. Men, nihoyat, yengil tortaman: endi Odil aka yayraydi, albatta. Tog'ni ko'rganday bo'ladi.

Odil aka yangi manzara ta'sirini boyagi so'ziga ulab yuboradi:

– Axir, shu yurtni... o'zlarining ham sevibgina qolmay, uning himoyasiga ham tayyor turasizlar-ku! Yoki xato qilayapmanmi? Shukur, meni tuzatib qo'y.

– Xato qilgan bo'sangiz, albatta, tuzatardim, – deyman men. – Biroq bizga oshiribroq baho berayapsiz, xolos... To'g'ri-to'g'ri, bu – bizning vatan...

– Odil akaniyam vatani shu, – jahl bilan deydi Ismat.

– Ha, albatta, – deyman men tezgina va Odil aka:

– Turkiston ham sizlarniki, – deb menga qarab qo'yadilar. – Sho'rlik Turkiston... Kaftdekkina joyni shu nomda ataymiz hozir. Shungayam qarshilik qilinmayotgani uchun shukur qilamiz...

– Nichevo, – deyman men. – Hali hammasi bitta bo'ladi, Odil aka... Bu – bashorat emas. Bu – fakt... Yigirmanchi yillar, Turkiston muxtoriyatini eslang, hamma xatti-harakat shu yo'lda: mustaqillik, ozodlik, Turkistonning birligi uchun bo'lgandi... Cho'lpon, Qodiriylar, Fitratlar...

– Da-da, hammasining g'oyasi shu bo'lgan, – ta'kidlaydi Odil va «piq-piq»lab kuladi. – Oramizda

shipiyan yo‘g‘-a? Yo‘q... Hazillashdim, – so‘ngra oynadan yiroqlarga shoirona tikilib turib, davom etadi: – Ajabo, hammamizning ko‘nglimiz bir-a? Yaratganga shukur deysan, kishi...

– Ko‘nglimizmi, ko‘nglimiz, albatta – bitta, – deb qo‘yadi Nurilla.

– Bunga shubha bo‘lishi mumkin emas, – deydi Ismat bo‘g‘ilib. Va yo‘talib qoladi-da, burchakka tikilib g‘o‘ldiraydi: – Faqat mana shu jandarmeryadan xavfim bor... Odil aka, buning ko‘ngli shu yerda, deysizmi? Xato qilasiz, og‘ajon!... Bu... bu – manfaatning quli! Ichi buzuq, kir...

Unga jilmayib, sabr qilib turgan Nurilla birdan kafti bilan og‘zini yopadi.

– Odil aka, buyuring, bu buzg‘unchini nima qilay? Shu Zovboshidan tashlab yuboraymi?

Odil akani bularning gap-so‘zidan ko‘ra aytilgan bir nom ko‘proq qiziqtiradi.

– Nima «boshi?»

– Zovboshi... – Nurilla ham beixtiyor Ismatni bo‘shatib, o‘ng tarafga qaraydi-da, menga shivirlaydi: – Tomchi buloqda to‘xtaymizmi?

– Mayli, suvi bo‘lsa...

– Suvi bo‘ladi, – deydi va shofyorga buyuradi:

– Baxtijon, huv qamishlar yonida bir oyoq ildir...
Suvi bor ekan... Archaning soyasiga hayda...

16

Mashina darz ketgan yassi tosh ustiga qalqib chiqib to‘xtaydi. Biz shodon inqillashib, pastga tusha boshlaymiz. Ismat savatni ko‘tarib tusharkan:

– Ko‘p to‘xtamaymiz-da, – deydi. – Yuzta-yuzta uramiz-u, dalshi olg‘a! – va Baxtiyorga baqirib yuboradi: – Ko‘rpachani olmaysanmi? Seni to‘sab o‘tiramizmi?

– Pajolusta, – deydi shofyor. – To‘solsangiz...

– O‘lmabsiz shu askiyangiz bilan... Armiyaga borib, kantujin bo‘p keldi... Odil aka, hazil emas, xayoli kirdi-chiqdi bo‘lib qolgan, buning.

Zov labiga borgan Odil aka pastda osmon qadar keng va chuqur darani qoplab yotgan chan-galzor-jungliga tikilar ekan, sergaklanib qayriladi.

– Nima? Bu kishiyam Afg‘onistonga borganmi?

– Qayta Afg‘onistonga borsam yaxshi edi, – deydi Baxtiyor. – O‘zim bilardim nima qilishni...

Ajabo, shuncha manzara Odil akaning yodidan chiqib ketadi va Baxtiyorga boshdan-oyoq zehn solarkan, ko‘ziga bir nima ko‘rinib ketganday shimolga – tuya o‘rkachiday ko‘tarilib ketgan qirlar oralig‘iga tikilib qoladi.

Biz ham beixtiyor o‘sha yoqqa boqamiz-u, oraliq adog‘ida – ko‘ndalang o‘tgan tepalik ustida, qo‘sh archa tagida turgan g‘alati mashinaga ko‘zimiz tushadi: usti chodir bilan yopilgan... G‘alatiligi shundaki, u osmondan tushib qolganday, illo, u yerga mashina zoti chiqsa olmaydi.

– Ismat, nima u? – deyman.

– Mashina, – deydi Ismat. – Ey, Baxti, durbining bormi?.. Mirshab, ular kimlar bo‘ldi? Tuttun chiqayapti... He, ko‘r bo‘l. Chaproqqa qara! Quruq o‘tin yonayapti. Shuning uchun tutuni siyrak... Ey, tepada archa o‘sib turibdi...

– Ha, kim bo'lsayam – begona, – dedi Nurilla.
– Mashinasi... U yerga tiraktir chiqishi mumkin,
Odil aka... Yo sen chiqolasanmi, Baxtiyor?

– Be, shu yerga zo'rg'a chiqdim-u, – dedi Baxtiyor va ikkilanmay aytdi: – Ular voyennilar bo'lishi kerak... Mashina voyennilarniki. Ko'rinishi turipti-ku? Ustidagi tent. Bortovoy... Dam olishga kelgan bo'lishlari kerak...

– Ha, Termiz tomondan kep turishadi. Bolla-chaqasi bilan, – tasdiqlaydi Nurilla. – Lekin o'sha yoqqa chiqishi shartmidi... Ismat? U yerda suv yo'q.

– Ketdik, Odil aka, – deydi Ismat va darhol so'ziga tahrir kiritadi: – Men borib kelay...

– Borsak, birga boramiz, – deydi Nurilla.

– Bo'lmasa, yur!

– Odil aka, siz o'tira turing... Shukur, zovni ko'rsating. Zov degani – tik-tekis bet...

Hamon u yoqdan ko'z uzmay, ammo gap-so'zni tinglab turgan Odil aka favqulodda qizarib ketib:

– Nega... nega meni qoldirmoqchisiz? – deb zug'um qiladi. – Nima bu? Meni ayaganingizmi, Nurilla?

– Kechirasiz, jon Odil aka, – deb yolvoradi Ismat. – Marhamat! O'zingiz yo'l boshlang. Biz endi...

– Xvatit. Meni ayab...

– Bir qoshiq qonimizdan keching... Shukur, ketdik! Ey, Baxtiyor, sen ko'rpachalarni to'shab... anavi archaning soyasiga tushib, a... zakuskani...

– Hammasi tayyor. Men ham boraman, – deydi yigitcha va beixtiyor jilamiz.

Ketayapmiz-u, ich-ichimdan quvonaman: «Xayriyat-e... Odil aka o'zimizniki bo'p qoldi hisob. Yo'q, bizni o'ziniki sanaydi. Yaqinlik shuncha bo'ladi-da... Uning yurishini! O'z bog'ida yurganday! Qanday chiroqli...

Vey, odamzotning bir-biriga yaqinligida ulug' bir sir, balki qudrat borov! Yo'g'asam, nega muncha xursandman?.. Allaqanday Otaboy qishlog'ida tug'ilgan bir o'zbek bu yerda, o'-o', olamning bir burchi-go'shasidagi o'zbeklar orasida «meniki» deb borayapti... Vey, millatdayam o'sha sir-qudrat borov...

Shukur, bu narsalarni kashf etganiningdan ham baxtiyor bo'l. Bu – tansiq holat...

Bilasan: do'stlik yaxshi, yaqinlik – yaxshi... Ammo uni qalbdan tuyish...

Ajab, shu daqiqalarni orzu qilganmiding, bu yoqqa jo'nagan onlaringda? Yo'q, shunchaki...

Shak-shubhasiz!» – deyman keyin va bu masalaga nuqta qo'yaman.

Aytish lozimki, biz to'rtovlon, yo'g'-e, beshovlon qandaydir shahd bilan odim otardik: kimlar ekan u yerda – bizning archalar yaqinida bemalol o't yoqib o'tirganlar? Hammayoq qup-quruq o't-xashakka to'la, bir gugurt chaqib tashlasang yoki gulxaningdan bir cho'g' uchsa, «pov» etadi: yong'in qoplaydi, bu olamni. Tutun ichra qoladi bu olam va keyin o't so'nib, tutun tarqalganda, jahannam siyog'ini ko'rasan kishi: bunday voqealar bo'lib turadi.

Xayolimdan cho'chib ketib, tezroq odim otaman. Va sezamanki, o'zgalar ham men kabi... jim va jadal borayapti: chigirtkaning ko'pligi-yey!

Oldimizda «chirt-chirt» etib, o'ng va so'lga uchadi: go'yo bizga shoshib yo'l bo'shatadi...

Yo'limiz, ya'ni qirlar orasi – ulkan bir daryo-ning qadim o'zanidek va o'zan kabi buriladi-da, biz kengroq joyga chiqib qolamiz.

Ko'ramizki, qarshimizda tepalik ustidagi mashi-na yonida qoqqan qoziqdek bir ola-bula kiyimli askar turibdi. Qo'lida durbin, karabin-miltig'ini soniga suyab qo'ygan. U miltiqni olib, durbinni qo'yvoradi va pastlikka, ya'ni shundoq qarshimizga qarab nimadir deydi. Va biz endi ko'z-durbinimizni uning ovozi yetib kelgan joylarga qaratamiz-u, daf'atan ko'ramiz: baland-baland archalarining tagida uchtadan-beshtadan bo'lib askarlar, keling, soldatlar deyin, o'shalar chalqancha yotishibdi, shu ko'yi oyoqlarini chalishtirib olishganki, etiklarining osti bizga qarab turibdi. To'rda – chaproq-dagi qari archa ostidan tutun o'rlayapti, ikkita soldat bizga orqa o'girgan holda cho'nqayib nimadir qilishyabdi.

Ulardan beriroqda, tekisgina joyda o'ndan oshiq miltiqlar konus shaklida bir-biriga suyab qo'yilganki, qandaydir filmlardagi jangdan qaytgan jangchilarining hordiq olayotgan chog'ini yodga tushiradi.

18

Ajabo, shu daqiqaning o'zida ko'nglimda bir rahm-shafqat hislarini tuydim: bu boyoqishlar qayerdadir – Termizning oltmish darajali jaziramasidami xizmat qilishadi: bizning chegarani qo'riqlashadi...

Ammo shu soniyaning o‘zida bu his so‘ndi: darvoqe, bular – istibdod tuzumning qo‘riqchilari-ku!

19

Tentning cheti ko‘tarilib, kabinadan kimdir erinib tusha boshladi va archa ostidagi askarlar ham birin-ketin qoqinib oyoqqa turishdi. Men do‘stilarimga qarasam, barchasida sergaklik: axir, ular ham Termizzagi voqealarni eshitib turishadi.

Faqat Odil aka bu ishlardan bexabar edi – bu hol tezda bilindi.

– Zdravstvo‘yte, rebyata! – dedi Odil aka. Bir-ikkiasi qiyshayib-kerishib:

- Privet, – dedi.
- Otdixayete?
- Da, tak...

Shu payt kabinadan miqtin kapitan tushdi. Chayqalib ketdi-da:

– Kto oni takiye? Kto vi takiye? – dedi bo‘g‘ilib.
– Mi zdeshniye lyudi. A vi kto takiye? – dedi Odil aka. Va bizlar bir-birimizga qaradik. Bar-chamizning ko‘zimizda hadik paydo bo‘lgan edi.

– Odil aka, – deb shivirladi Nurilla. – Bular boshqachaga o‘xshaydi...

– Nima? – dedi Odil aka Nurilladan jirkangan kabi. – Bu nima deyapti, eshityapsizmi?

- Eshitdim-u, Termizda...

Men ham beixtiyor «Termizda...» deganimni bilmay qoldim.

Illo, Termizda, xususan, Afg‘on urushidan qaytgan rus askarlari «xo‘jayin»lik qilayotgani,

o'zlarini baayni «maradyorlar» kabi tutayotganini Uchqizilda yashaydigan singlim Barnodan ham eshitgan edim. O'sha yerdagi askarlar singlimning do'koniga ham tushishgan ekan. Xayriyat, ularning izlari qumda qolgani...

– Prichyom Termiz? Yo'q, siz buning gapini o'ylab ko'ring. Ma'nosini...

– To'g'ri, mensimayapti, – dedi Ismat. – Lekin Odil aka, bular bilan yaxshilikcha xayrashish kerak... Meniyam g'irt esimdan chiqibdi, Termiz...

– Yana Termiz deydi... – shunday yonimizdag'i archa ostidan yukxaltasini sudrab jilgan askar kapitanga bir nima dedi-da, nariga o'tgan paytida xaltaning og'zidan birin-ketin ikkita oqqina quyon tushib qoldi.

Bilmay qoldim – nima bo'ldi menga? Ildam borib, quyonlardan birini ko'tardim. Qulog'idan tutib, qorniga boqdim: qizil-qizil emchaklari bo'rtib chiqib turardi. Nazarimda, ahmoqona kulimsirab, quyonning qornini Odil akaga qaratdim.

– Bolasi bor, sutga to'la... – so'ng biqinini ko'rsatdim va o'zim ham ko'rddim: ichiga cho'kib ketgan, yolg'iz o'q bilan otilgan. – Mana, hali qotmagan...

Fahmimcha, Odil aka ham mening holatimga tushdimi, gangib kelib, quyonning mammalariga va o'q teshib o'tib ketgan ko'kragiga egilib tikildi. Keyin ko'ziga qon to'lib alanglatdi va uni shartta qo'limdan olib ko'tardi.

– Chto eta takoye? Ya u vas sprashivayu? – dedi beixtiyor yarim aylanib. Va kapitanga yuzlanib qoldi. – Nu, vi otvichayte, tovarish kapitan?

Endi o'ylab qarasam, o'shanda men-u Odil akaning telbanamo qiyofamiz va quyonni bemalol tomosha qilishimiz, so'ngra uning atrofga ko'rsatilishi favqulodda soldatlarni tek qotirib qo'ygan ekan.

Kapitan birdan chang solib, quyonni tortib oldi va egasiga otib yubordi.

– Nu, kakoy otvet tebe nado, kazax? – dedi. Va shahd bilan yonidan to'pponchasini chiqardi. Keyin negadir xo'rangan-tahqirlangan kabi ovozda chiraniq baqirdi: – Rebya-yata! Akrujat ix... etix cherna... ix!

Askarlardan uch-to'rttasi shoshilinch miltiqlarini qo'lga olishdi. Qolganlari norozi qiyofada bir-biriga zimdan qarashgani, hatto bittasi shofyorga: «Uni ushla» deganday imo qilganini ko'rib, sal yengil nafas oldim.

Do'stlarim karaxt edi. Ular ham vaziyatni anglashdi va bir yengillik sezildi.

Odil aka esa hayron edi, xolos... Keyin bemalol o'ng-u so'lga qarab kului.

– Nu, vi molodsi, – dedi. – Ne ojidal, ne veril... Nu, chto j, strilyayte, svolochi! – shunday chinqirib yubordiki, o'lay agar, to'pponcha-yu miltiqdan emas, u kishining ovozidan qo'rqib ketdim va shu onning o'zida shunday quvonch ichimdan chiqdimi, ichimga kirdimi, entikib qoldim. – Banditi! – baqira boshladni Odil aka. – Ne voini vi... Ya teper – nakonets uznal, kto vi takiye... – keyin yana nutq irod qilayotganday davom etdi: – Xotya ya slujil... v Manchjurii! Zashishal etu vlast...

Shu payt hali shofyorlariga ishora qilgan soldat shaxdam yurib kelib, kapitanning to'ppon-

cha tutgan qo'lini ko'tardi-yu, bilagidan ushladi. So'ng asta pasaytirib, qurolni g'ilofiga soldi. Keyin Odil akaga qarab:

– Ne ari, starik. Ubiraysya! – dedi.

– Ya? Mne ti govorish? – battar chinqirib yubordi Odil aka va biz tamom bo'ldik. – Ti, vi, vse vi ubiraytes k chyortu! Eta – maya, maya rodina, ponemayesh! Rodina... Maya zemlya... Ya – zdes xozyain. A vi vse...

– Xorosho, xorosho, – dedi haligi soldat va kapitanni itarib, keyin ko'tarib, kabinaga joyladi. Eshikni sharq etkazib yopishi bilan mashina jildi. Soldat – soldat ekan-da: «pashli, pashli», deyishib, miltiqlari-yu safar xaltalarini olishib, chopishib, bortga chiqib olishdi.

Oxirida kuzovga chiqqan boyagi yigit ko'zini qisib qo'yib, mushtumini bizga, to'g'rirog'i, Odil akaga to'g'riladi-da, qo'lida to'pponcha bordek, ko'rsatkich barmog'ini bosib qo'ydi. Keyin kulib, u yoqqa qaradi. Mashinalari vezdexod kabi silkinib-silkinib yelib tushib ketdi.

Odil akaga qarasam, rangi oppoq: hamon jahldan tushmagan. Holbuki, biz tirik qolganimiz uchun shukur qila boshlagan edik: bunga shubham yo'q.

– Yaramaslar, – dedi Odil aka nihoyat. – Qaranglar-a, tavba... Vabshe, bu aqlga sig'maydi... Uf! Chekishga bormi? A-a, pastda qolgan edi. Ketdik...

Biz, do'stlar yana bir-birimizga qarab olishar, to'g'rirog'i, biz Odil akadan hayratda edik. Shu hisning oqibatidami, darhol «ketdik»ka bo'ysunib, qimirlay qoldik. Va so'zsiz, tarang bir

holatda anchagina yurib qo'ygach, xotirjam tortib, tilimiz chiqa boshladi, illo, bizga Odil aka-ning holati yuqqan ediki, bu holat ayni chog'da – buyuk bir saboq ham edi.

20

Zovboshiga engach, shu yerdan jilgimiz kel-may qoldi: uning pastidagi bahaybat qozondek daraning qalin-ibtidoiy changalzorlari-yu, huv yiroq janubda tasmasday oqarib ko'rinish turadi-gan Amudaryoning sehri-tarixi, qolaversa, bu yerlarning endi bizga esdan chiqmas esdalik bo'lgani ham, pirovardi, o'zimizni bu yerda beix-тийор qo'riqchilardek tuyganimiz ham bunga sa-bab bo'lsa kerak; balki boyagi bir necha daqiqalik to'qnashuv bizni favqulodda toliqtirib qo'ygan ediki, tappa-tappa o'tirib cho'zilish va o'sha vo-qeani-yu keyingi holatlarimizni hazm qilishni is-tardik...

Tik turgancha yarim piyoladan otib olgach, lab-larimizga kulgi yugurib, tandirkabob tashvishiga tushib ketdik. Nurilla tosh qalab tandircha qu-rishga tushdi. Ismat uloqni muzxonadan olganday ko'tarib, qamishlar ortida terilay boshladi.

Men negadir miltiqni olib, tomosha qilaman, hidlayman va hatto shuniyam uyoqqa olib bor-maganimizni o'ylab, hayron bo'laman: axir, sol-datlardan qo'rqqulik edi...

Odil aka dam chordana qurib o'tiradi, dam ildam turib, shahar ko'chasida kezgandek na-ri-beriga borib keladi: qo'li orqasida, boshi egik, ba'zan kulimsirab:

– Shukur, qiziq bo'ldimi?.. – deydi-yu, daraga va uzoqdagi daryoga qarab qoladi. – Juda katta-ya, bu mamlakatimiz... E-hee, masalan, Kobul...

– Toshkent bu yoqda...

– Bilaman, – deb shimolga buriladi-yu, ko'zi yo'nga qadalib qoladi. – Bu yerdan mashina o'tib turar ekan-da... Bu yaqda qishloqlar bo'lsa kerak, a?

– Ha..

Shunda Baxtiyorning ovozi eshitiladi:

– Matlab akalar kelishyapti!

Ko'rishuv. Shunda bir nozik hol seziladi: biz ularni sog'inib qolganga o'xshaymiz, yo'q, biz ular bilan qayta uchrashmasligimiz ham mumkin edi-yu, uchrashganimizdan baxtiyormiz. Ular, tabiiy, nechun bu yerga qo'nib qolganimizni so'rashadi va bizlar – har kim o'zicha kulimsirab va ayni chog'da iymanish aralash g'urur bilan kechgan voqeani ayta ketamiz.

Odil aka «qahramon»ga aylangan chog'da men ich-ichimda buyuk qanoatni tuyaman va maqtangim keladi: «Yozuvchilar borki, durust yozdilar. Ammo shaxs sifatida... gaplashging kelmaydi. Ular siz-u bizga do'st ham bo'lolmaydilar. Chunki odamga «material» deb qarashadi, o'zları bilmagan holda... Ha, Shaxs-Yozuvchilar kam bo'lar ekan: xayriyat, bittasi yonimizda...»

– Ha, Odil aka, yamon ekansiz, – deydi Ismat.

– Hm, men ham qoyil bo'ldim, – deydi Nurilla.

– Men qo'rqb edim, – deydi Baxtiyor. Odil aka esa:

– E, eto uje slishkom, – deb chayqaladi. – Man ham bittalaringman, masalan... Endi o'ylab qarasam, o'sha yerda soddalik ham qilibman ekan...

– keyin piqillab kuladi. – Otib qo'ysa, a, Shukur? Kennayingga nima der eding?.. Kelinglar, eslamaylik. O'tgan ishga salavot. Bu yog'iga omon bo'laylik. Bir-birimizga mehr-oqibatli bo'laylik, masalan...

– Masalan, sizday yozuvchilar bizga qancha tez-tez kelib tursa, shuncha o'samiz, ko'nglimiz o'sadi, – deydi Matlab va hayqirib yuboradi: – Akamiz uchun! Biz ulkan yozuvchini emas, jigardek og'amizniyam ko'rib turibmiz!

Shunda Sobirjon:

– Shukur aka, siz biron narsa yozing, – deydi.
– Shu safar haqida...

– Da, yomon bo'lmasdi, – deb qo'yadi Odil aka ham. Va Abduqayumni eslab so'raydilar: – Qani u?.. Tashlab keldinglarmi, to'yxonaga? Bironta kuy chertib berardi...

– Keladi. Bugun tog'da dam olamiz, – deydi Matlab va kuladi. – Yovni haydabsizlar. Ko'ngil tinch... – keyin uzun qo'lini uzatib, Odil akaning kiftidan quchadi.

Baxtiyorning yonida chekib turgan ukam:

– E, yashanglar, Shukur aka. Uyalib ketyapman men... – deydi. – Yozing endi bir narsa, o'zingizni oqlang... Yozuvchi. Yozuvchi mana Odil akaday bo'ladi. So'ziyam, harakatiyam – bir. Kitoblaridagi geroylariday...

Ukam mening ko'nglimdagini aytgan edi...

Oradan o'n yillar o'tib, bir munosabat bilan o'sha voqeani xayolan ko'z oldimga keltirib, ushbu hikoyani bitdim.

Bu yog'i boshqa hikoya...

1982 – 1994-yillar

XUMOR

Assalomu alaykum!.. Rahmat. Yo'lda tushaman. Termizga yetmasdan. Statsionarga boryapman. Rangimni ko'rib, hayron bo'ldingizmi? Kasalim yuqumli emas. Ishonavering... Rahmat-e. Avtobusga yetib borgunimcha jo'nab qoldi... Kuz tushib qoldi-ya. Ah, qanday yaxshi fasl. Shoirlarning sevgan fasli. Abdulla Oripovni yaxshi ko'rasizmi? Menga juda yoqadi. Eslaysizmi, kuz turkumi bor:

*«Ochiq ayvon ostin maskan etgan dam
Xazon davrasida kutaman seni...»*

Yaxshi-i.

Paxta tergansiz-a? E, nima deyapman? Paxta termagan o'zbek bolasi bor ekanmi?

Ammo-lekin boshqalarni bilmayman-ku, men... paxta terimi desa, jonim qolmasdi: qanot bog'lab uchgim kelardi. O'ziyam yaxshi-da, a?

Shunday ochilib, charv moyday oqib yotgan bo'lsa! Etakni emas, qopni sudrab ketaversang-u, og'zini ochib, tergan paxtangni ichiga otaversang. Men shunaqa qilib terardim. Yaxshi terimchi edim, o, ilg'or edik. Texnikumdayam alohida brigadada terardim... Sizga xalaqit bermayapmanmi? Yo'q, chalg'itmayapmanmi demoqchiman?.. Rahmat. Juda zerikdim... Bir kishi bilan gaplashgim keldi. Qarasam, yap-yangi mashina yaltirab kelyapti. Kel-e, deb tavakkal qilib qo'l ko'targandim. To'xtadingiz. Baraka toping. O'zi bu yerning odamiga o'xshamaysiz? A-a, o'zimam

sezdimov! Tomosha yaxshi-da, birodar! Ayniqsa, kuzda!..

Men «kuz-kuz» deyapman, hayron bo'l mang. Mana shu dardim ham kuz bilan bog'liq, aka. Shunday... E-e, kuz! Ha-ha-ha! Siz she'r yozgan-misiz? Men yozganman. «Kuz» deb... «Ku-uz!» deb, yo'g'on undovni qo'yganman-u, tamom! Ni-mani yozishni bilmayman. Bir kecha oy haqida yozmoqchi bo'ldim. Undayam shu ahvol: «Oy!» deb sarlavha qo'ydim-u, qoldim. Deraza oldida o'tirgandim. Oyga tikilaman deng. U ham shahar osmonida xira bo'lib ko'rinadi.

Texnikumda o'qib yurganimda... Xadradagi «Gorkiy texnikum»ni bilasizmi? Imoratning nomi shu. Biz qurilish texnikumida o'qirdik, yotog'imiz ham o'sha yerda edi.

Men to'rtinchi qavatda turardim. Pastda – fontan. Qizlarning kokillaridek...

Yaxshi vaqtlar edi.

Ba'zan texnikumga shoirlarni chaqirardik. O'zim to'garak boshlig'i edim. Haligi ashula, raqs to'garagimiz bor edi. Rubobniyam o'shanda du-rust chertardik.

Ajoyib vaqtlar edi.

Lekin bizni biron qiz ham yaxshi ko'rmas edi-da!.. Mana, aftimga qarang... Kechirasiz, qara-masangiz ham mayli. Juda badbasharaman-da. Tag'in, gormon bezlari taraqqiy etganmi, qarang, mirzaterakday bo'lib ketganman. Mana, kallada soch ham yo'q... Soch-ku, keyin to'kildi... Lekin bitta marg'ilonlik qiz sal mayl bildirgan edi. Yolg'onchi bo'lmay. O'zlariyam juda novcha, xip-chha qiz edilar. Yonimizda filfakda o'qirdilar. Yax-

shi ashula aytardilar. Biz rubobda jo'r bo'lardik... Goho filfak bilan kelishib, konsert qo'yardik-da. Shunda repetitsiyada uchrashardik. Bir marta... xonamga kelganlar. E, aytishga uyalaman: xo-nani ozoda qilib o'tirsang, o'lasanmi deng! O'zing shoirtabiat-u, ahvoling bu... Xonaga kirishingiz bilan achigan non-u yuvilmagan paypoqning hidi anqirdi.

O, u kishi o'shanda mening bir maykamni yuvib bergen edilar. Begona qiz-a! Voy, qanday olijanob edi!.. Men bo'ssam, uyatdan o'lib qo'ya qolay derdim. Rostini aytsam, keyinini o'ylamasam, to'rtinchi qavatdan o'zimni tashlardim...

U kishimi?

Bitta domlasiga tegib ketdi.

Ular Bo'ka tumanida paxta terishardi-da. Biz Oqoltinda. Borib turardim. Qovun-tarvuz olib... Bir ajoyib yigit bor edi. Tarixdan juda zo'r edi. Ularning brigadasiga yetgandan keyin, o'sha yi-gitni topardim. U Nasibaxonni chaqirib chiqardi.

He, ba'zan kechasi yetib borardim. Biz ham paxta teramiz-da! Keyin u yoqqa jo'nardim... Ke-yin u kishi shiyponga ketardi. Men Oqoltinga qaytardim. Yo'li anchagina bor. Ba'zan xo'rozlar ikki qichqirganda yetib kelardim... Lekin sira xafa emasman. Xafalik qayda! Chopib-chopqillab, o'sha yo'lni bosib o'tardim.

E, u tunlar!

Kechirasiz, bu juda laqqi bola ekan, demang... Rahmat. Endi odam xijolat bo'ladi-da.

Biz borganda, ya'ni men borganda, Nasiba-xon chiqqandan keyin xirmonjoyga o'tardik-da, yashirinib, paxtaning ichiga kirib olardik. Yosh

bolakaylardeг-a! Keyin yonma-yon cho'zilib yotib, gurung qilardik. Haligi paxtaning chigitini «qirs-qirs» chaqib... G'alati ta'mi bo'ladi, bilarsiz?

Nima to'g'risida gaplashganimiz esimda yo'q. Romantik ekanmiz-da! U kishiyam g'irt romantik ekan!

Ana shunda uchinchi yili paxtaga chiqqanda, Nasibaxon aytdilar. «Men erga tegaman», – dedilar. Lekin, «Siz xafa bo'lmanq, hamisha yuragimda qolasiz», – dedilar.

Ana!

Sentimentallikmi? Ha. Lekin bo'lgan gap – shu. Men indamadim. Keyin, ishonasizmi, yig'labman: «Siz ham mening yuragimda qolasiz», – debman.

Endi o'sha gaplarni eslasam, uyalaman.

Lekin o'shanda... qiziq-da, shunday deyish, hatto yig'lash ham menga yoqqan edi.

Shunday holatga tushganmisiz? E, kechirasiz...

G'alati ekanmiz-da...

Keyin biz o'qishni bitirib, vatanga qaytdik. Nasibaxonni burnog'i yili televizorda ko'rdim. Vodiyning qaysidir bir tumani havaskorlarimi, folklor ansamblimi – chiqish qildi. Shunda xorda ko'rdim. Kim biladi, balki o'xshatgandirman.

Nima?.. Uylandim, uylandim. Xotinimdan roziman. Juda xursandman.

Tumanga kelgandan keyin qurilishda ishlay boshladik. Injener yordamchisi. Pul bor... Lekin bu yerdayam bitta qiz qaramasa bo'ladimi! Tavba qildim: mendan xunuklar uylanib ketyapti. Men – so'qqabosh. Bitta kampir onamiz bor. Kimning uyiga borsa, rad javobi olib keladi.

Sababini keyin eshitaman: sochim kammish, yuzim bujirmish... Yuzga donacha chiqqandan keyin buziladi-da...

Bor-e, o'zbek topilmasa, boshqasiga uylanaman, dedim. Qo'l ostimda qizlar ko'p edi: biri – betonchi, biri g'isht teradi. Bechoralar qora mehnatdan qochmaydi-da. Bizda, masalan, rus qizlari paxta terishni bilmaydi, og'ir mehnatdan qochadi, deyishadi. He, bekor gap. Qaysi o'zbek qizingiz qurilishga borib, g'isht terib yuribdi? Qaysi biri bo'yoqchilik qilyapti? Kombenizonni kiyib olib... To'g'ri, boshqa joylarda bunaqa ishlarda o'zbechkalar ham bordir, albatta. Lekin bizda yo'q edi. Bu – fakt.

Shunday qilib, bittasiga uylanib oldim. Meni tushunadi. Shundan ortiq baxt bormi?

Men savolni dangal qo'yanman: «Xunukman. Kalman... Mana, arvohga o'xshayman», – degaman. Anisa: «Seni shu xunukligingni, arvohga o'xshashligingni yaxshi ko'raman», – degan.

E, sevishib qolganmiz!

Oldin haliday uzoq-uzoqdan qarash, keyin salom-alik... Keyin qo'lim bo'sh bo'ldimi, unga qo'shilib g'isht tera boshlardim: nima uyati bor?

Shunday qilib... Yo'q, bola yo'q, aka. Ikki marta yetti oylik, sakkiz oylik bo'lib tushdi. Hayronman. Lekin endi-endi buning sababini turshunyapman...

Aka, siz paxtaga sepiladigan dorini hidlaganmisiz? O, unda gapimiz qovushmaydi...

E, qiziqmisiz! Hidlash ham gapmi?.. Men sizga qanday tushuntirsam ekan?

O'ylab ko'ring: oltinchi sinf bolasisiz. Endi o'n ikki-o'n uchga kirgansiz. Lekin bizning tuman-

dasiz... Bizda paxta ekilmaydi-da. Tog'lik. Ammo paxta terishga orzumand bo'lib yuribsiz. Yo'q narsa – hamisha qiziq bo'ladi. Buning ustiga, paxta – o'zbek xalqining boyligi, g'ururi, deb tursalar!

Kitoblarda – uning rasmi! Pioneer jurnallari, gazetalarida yosh terimchilarni to'xtovsiz maqtashadi, deng.

Eslang: paxta naq ochilganda, dalaga kiraniningizda, dastlab dimog'ingizga nimaning hidi urilgan?

Dorining.

Balli!

Endi, aka, har kim – har xil bo'ladi. Men o'zi go'daklikdan ta'sirchan, har narsaga beriluvchi bo'lsam kerak-da. Ishoning-ishonmang: ilk bor paxtazorga kirdim-u, dimog'imga o'shaning qo'lansa hidi urildi. Sal boshim aylanib ketdi.

Keyin o'zimga keldim. Keyin, yana ishonmasangiz, o'zingiz bilasiz, paxtaning hidi deganda – men o'sha dorining hidini tasavvur qiladigan bo'lib qoldim.

O'ziyam shunday-da.

Ayniqsa, o'sha yillarda...

Yo'q-yo'q, siz uning hidini hidlab, ochig'ini aytaman, menday rohatlanib ko'rmagansiz.

Nega kulasiz?

Tasavvur qiling: keng paxtazor! Orzu qilgan paxtazoringiz! Oppoq ochilib yotibdi. G'ururингиз, faxringiz... Xo'sh, uning hidi sal qo'lansa ekan, nima bo'pti?

Buning ustiga, o'shanda uni hech kim «ximikat – yomon», demasdi. Bemalolchilik... Shiyponimiz anavi yerda-yu, bu yoqdagi ikkinchi terimdan

chiqqan dalaga samolyotdan dori sepishardi. Sal sasirdi-yu, baribir-da: u sepilishi kerak, g'o'zanning bargi to'kilishi kerak. Aks holda mashina kirolmaydi. Terim kechikadi.

Keyin sharmandalik!

Men uning hidini yomon degan kishi bilan o'shanda ham... bo'g'ishardimov.

Ishoning, u mening... o'sha hid mening eng aziz taassurotlarim bilan bog'liq!

Bundan tashqari, men sizga ochig'ini aytishim kerak, kishi o'sha hidga o'rganar ekan! Mana, sigareta chekasiz, yaxshi. Birovlar nos otadi, na-sha chekadiganlaram yo'q emas... Xullas, dast-lab chekishganda, boshlari sal aylanadi, ko'ngil bezovta bo'ladi, hatto qusadi. Lekin keyin-chi?

Men bu doriga ana shunday xumori bo'lib qol-gan edim desam, hayron bo'lmanq.

E, aka!

Bu dunyoda yaxshilab, o'ynab-kulib, zavqlanib yashash kerak... Endi o'zingiz o'ylang, me-ning butun zavqim, yashash tarzim o'sha hid bilan bog'liq-da! Hali men, «dardim kuz bilan bog'liq», dedim shekilli. Qarang, to'g'risini aytib qo'ya qolgan ekanman.

Bolalik ham, he, texnikum, Nasibaxon bilan xirmonda gurung... O'sha xirmondan ham men rohatlanardim-da: nima, chigitni «qirs-qirs» sindirib – tishingizda sindirib yotganingizda, o'sha hidni sezmaysiz-mi?

Siz sezmagansiz-da, xolos.

Biroq o'shaning nash'asi sizning tomirlarin-gizdayam bor!

E, nimalar deyapsiz?

Kechirasiz...

Nima? Paxtadami?

E, o'n yilcha ishladik-da!

Qurilishda ishlab yuribman, deng. Keyin... Turib-turib yuragim siqilardi. Bir narsalarning xumori tutadi. Nasibami, deyman. Aylanaman, izg'iyman... Ittifoqo, kuz kelib qoldi-yu, bizdan ham besh-o'n kishini qo'shni tumanga paxta temrimiga olib chiqishdi.

Bordim. Xirmonjoydan o'tdim. Dalaning yoqasida turibman. Ishonasizmi, aka, xuddi begona joyga kelib qolgan musofirdekman. Paxtayam paxta emasday.

Bilsam, bu dalaga ancha kunlar oldin bir marta dori sepilgan ekan-u, havoga uchib ketgan ekan.

Ta'bim xira bo'lib, orqaga qaytdim: dalaga kirgim kelmaydi. Tentirab yurib, bir garajga borib qoldim. Ko'p tunuka banka, temir bochkalar qashlib yotgan ekan.

Shunda dimog'imga go'yoki atirning hidi kelib qoldi-ku! Chopib bordim. Xuddi ovcharkaga o'xshab iskalanib ketdim. Bular butifosdan bo'shagan idishlar ekan.

Shu hidlayman-e!

Ko'pdan beri hidlamaganim uchun bo'lsa kerak, bir mahal boshim aylandi, ko'zim tindi, o'xhib chiqib ketdim. Ariq bo'yiga borib o'tirdim. Biron soatdan keyin o'zimga keldim.

Keyin... shunday roha-at!

Bilaman, siz menga qarshi gapirasiz hozir: bu fikrlarimga mutlaqo qo'shilmasligingiz mumkin. Mayli. Men sizga «Nega chekyapsiz? Sigareta ziyon?» – demayman, ammo.

Mensiz ham, ana, qutisiga yozib qo'yibdi.
Endi-endi, paxta dorisi ham zararli degan
gaplar chiqa boshladi.

Inkor etmayman: bo'lishi kerak!

Ammo... paxta-chi? U davlatga kerakmi,
yo'qmi, aka? Axir, paxta davlatimizning tirkak-
laridan, ustunlaridan-ku! Boyligimiz, faxr...

Biz uni yetkazishimiz kerak ekan, sal ziyon
ko'rsak, nima qipti?

U yog'ini so'rasangiz, zararsiz narsaning o'zi
yo'q!

Shu nafas olayotgan havoyingizdayam zararli
mikroblar bor. Mashinaning orqasidan chiqayot-
gan tutun ham – koni ziyon... E, hamma narsani
o'ylab, har narsadan hadiksirab yashasang, ya-
shashning qizig'i qolmaydi...

Hozirmi?

Yarim kilo selitram bor. Ustiga suv purkab tu-
raman. Shuni iskab-iskab qo'yaman. Namiqqan
tuzning hidi keladi-yu, harna-da...

Ha-da, chiqdim-da keyin ham...

Bultur Jindibuloqqa borib, sakkiz kun mexa-
nizatorlarga qarashdik. U yerda ikkita dalaga
samolyotdan butifos sepishayotgan ekan. Keyin
men atay ularning xizmatiga o'tdim.

Yaxshi to'lasharkan. Shunga qaramay, u yer-
da ishlovchilar, talabgorlar kam ekan.

Qiladigan ishim – beton hovuzdan dorini
paqirlab olib, oborib, samolyotning bakiga qu-
yish. Ba'zan hovuzdagи doriga suv ozroq qo'shil-
gan bo'lsa, odamni juda tentiratib qo'yadi. Shun-
da hech kim ishlamay qo'yadi.

Men ishlardim...

Axir, kimdir ishlashi kerak-ku?

Keyin, ancha-muncha pul bilan, maza qilib qaytib keldim.

Nega menga bunday tikilasiz?

Rangim...

Aytdim-ku, agar kasalligim bo'lsayam, yuqumi emas. Yuqumli bo'lganda, allaqachon Anisaga yuqib qolgan bo'lardi. U xotinim, axir!..

A? Yo'q, bilmaydi. Aytmayman: nima qilaman aytib?

Bilaman, u qarshilik qiladi. Yaxshi bilaman, u mening aroq ichmaganimdan xursand. Tama-ki chekmaganimdan xursand. Rus ayoliga nima kerak?

Kechirasiz, men endi... o'zimizning ayollarga qiyoslab gapiryapman.

Labbay? Ha, ba'zan qon qusaman. «Sil bo'ldimi?» deb do'xtirlarga uchrovdim... Statsionarga jo'natishdi. Bir tekshiruvdan o'tishing kerak, deyishdi...

Bugun uyga qaytsam kerak.

Ha-ha, soch ham keyin, ayniqsa, bultur to'kilib ketdi. Og'izga qarang, o'zimining tishim emas. Yarmi sadaf, yarmi plastmassa...

Ha, quvvatim yo'q... juda oz, aka... Hali ayt-dim-ku, avtobusga yetolmadim.

O'zimizning shifokorlar, «malakov», deyishdi. Jigar ham sal og'rigan bo'lishi kerak.

E, issiq jon-da! Odamlar samolyotga tushish-dan qo'rqadi. Mashinaga minishdan qo'rqadi-ganlari ham bor. Ammo o'shalar to'g'ri yo'lda bir qoqilib tushishsa, olamdan o'tib ketishi mumkin.

Ammo ertalab juda mazam qochdi. Ta'bim an-cha xira bo'ldi...

Nima dedingiz?

Yot desa – yotamiz-da...

Kuz kelib qoldi-ya, aka!

Qarang, chug'urchiqlar ham kelibdi! He-e!
Ku-uz!.. Shoirlarga yaxshi-da!

Bizlar... bizlar zavq olishni bilamiz, xolos.

A? Uzoqroq yotib qolsam, o'rmalab bo'sayam
chiqaman. Kuz kelibdi-yu, dalani ko'rmasam
bo'ladimi?

Maqsad? Ham xumorni qondirish, ham hissa
qo'shish.

Labbay?.. Siz bir narsani tushunmayapsiz: u
dori – mening... kayfim, mahbubam, Nasibam...
Qolaversa, tarjimayi holimga singib ketgan, axir!
Tushunyapsizmi? Mening butun... hayotimning
ma'nosi, Vatan oldidagi burch, ilk muhabba-
tim... o'shalar qatorida turadi.

Undan voz kechish...

...Ha-ha-ha! Siz sigaretani tashlab ko'ring-chi!
Qayda! O'pkasi chirib ketayotganini apparatda
ko'rganlarning ham chekishni tashlamaganini
bilamiz.

Shunaqa bo'lar ekan-da hayot!

Amerikada taqiqlangan?

Iltimos, to'xtating... Anavinga qarang! Yo'l yo-
qasiga! Ajriqzorgayam sepishibdi-ku? Sap-sariq
bo'lib yotibdi!

Nima?

Yo'q-yo'q, bir kayf qilib olay... Boshqa mashi-
naga osilarman keyin. Bu yog'i yaqin qoldi.

USTOZ

Meni bilasan, birovdan tili qisiq joyim yo‘q, hamma narsam bor: mashina, dacha; kitoblarim chiqib turibdi. Hamma unvonlarni olib bo‘ldim. Nimadan qo‘rqaman?.. Faqat ehtiyot bo‘lish kerak: odam og‘ziga ehtiyot bo‘lishi kerak. Til o‘lgur yomon: bejiz tilni, «suyaksiz», demaydilar. Har xil gapni har kimning oldida gapiravermaslik kerak. To‘g‘ri endi, hozir rostgo‘ylik – modada. Ammo moda – o‘tkinchi. Siyosatning buqalamundan farqi yo‘qligini ko‘rganmiz-da...

Meni bir shogirdim bo‘ldi. Sen uni bilmaysan: asarlari chiqmadi. Eh, attang. O‘ziga o‘zi qildi. Keyin...

Juda dangalchi edi-da. Eng «nozik» gaplar ni ham bemalol gapiraverardi. Kattani – katta, kichikni – kichik, demasdi. Ko‘ngliyam ochiq edi-da, ul bechoraning. Eh... Uning iqtidori! Yo‘q, mana, salkam yetmishga borib, adabiyotimizda unday iste’dodni ko‘rgan emasman! Yo‘q! Yozganda, shundoq ko‘z oldingga keltirib qo‘yardi. Tili! Biram obrazli, de. Shunday detallar topardiki, og‘zim ochilib qolardi. Qahhordayam, Chexovdayam topolmaysan, u topgan detallarni. Ko‘zi o‘tkir edi!

Boyoqish o‘ziyam ancha qiynalib o‘sgan. Qilmagan hunari qolmagan. Hayotni yaxshi bilardi. Lekin hayotni bilgan, achchiq-chuchukni tatigan kishilar odatda kamsuqum, vazmin bo‘lishadi. U bo‘lsa... mag‘rur edi. Odamga tik qarasa, men ham qo‘rqib ketardim.

Bir kun Yozuvchilar uyushmasiga kirsam, kitob do‘koni oldida bir bola turibdi. Meni ko‘rib:

– Assalomu alaykum, ustoz, – dedi.

Men hayron bo'lmadim, uni qayerdadir bir ko'rganimni esladim. Odatim shu-da, bolam, qaysi viloyatga bormayin, yoshlarning boshini silayman.

– Keling, shogird, – dedim.

– Sizni so'roqlab kelgan edim, – dedi u. – O'sha uchrashuvdan keyin ko'p vaqtlar o'tib ketdi... To'xtovsiz yozaver, mashq qilaver. O'zingga ishon, degan edingiz... Mana, endi ishonib, bir-ikkita mashqlarni olib kelgan edim. Iloji bo'lsa, shunga bir ko'z yogurtirsangiz. Agar yoqmasa, mana shu axlat paqirga yirtib tashlayman.

Eshityapsanmi, uning gapini?

Har qalay, uni «jinniboy» deyish ham mumkin edi. Darvesh desang ham bo'ladi. Bir hisobda yozuvchilar o'zi – darvesh xalq. Mana, men ham bir darvesh bo'lmamasam, seni mashinangga tushib, shu yoqqa yo'l olamanmi? Material yetmayaptimi menga? Yozuvchi uchun har qanday narsagayam bir qarash – kifoya. Qolganini o'zi fantaziyasi bilan to'ldirib olaveradi...

Bolaga qiziqqanimdan uning qo'lyozmasini uyimga olib ketdim. Shu kecha: «Qani, nimani yozipti ekan?» deb varaqlay boshladim-u, uzilolmay qoldim.

U bir balo ekan: tasvirlaydigan narsasini shu qadar yaxshi biladiki! Lupa bilan qaraganmi, deysan. Qahramonlarning dialogi. Ko'tarilgan muammolarini aytmaysanmi!.. Ha, hech kimga o'xshamaydigan bir talant edi.

Kechasi bilan uxlolmadim. O'ylatadi-da... Lekin senga aytishim kerak: qaltis joylariyam ko'p. Ma-

salan, bir joyda raykom sekretarini tanqid qiladi... Bilama-an, Markazqo'mning ko'ziga cho'p solib yurgan arboblar ham bor! Ammo ularni adabiyotga olib kirib «urish»? Yo'o'q... Oddiy xo'jalik odamini ol: ana uni xohlagancha tanqid qilaver. Shuning uchun men ko'proq peyzajga zo'r beraman, lirkaga zo'r beraman: bular beziyon mavzular. Qolaversa, umrboqiy mavzular. To'g'rimi? Ana shunday...

Ertasi vaqtli turib, uyushmaga kelsam, zinapoyada qiyyayib turibdi.

Salom yo'q, alik yo'q:

– Sizga yoqmasayam yirtib tashlamayman, ustoz, – dedi u. – O'ylab ko'rsam, ulardan ham tuzuk narsalar yozolar ekanman.

Men o'sha hikoyalar ta'sirida edim. Do'konchi ayol ham, qorovul ham shu yerda. Bolani shartta quchib o'pdim.

– Tabriklayman, o'g'lim. Sen allaqachon yozuvchi bo'libsan, – dedim.

U bir daqiqalar dirillab qoldi. Keyin:

– Rahmat, – dedi.

– Seni tushunibmanmi?

– Ha...

Bolani podvaldag'i oshxonaga olib tushdim. Rangidan sezgan edim: maishatining mazasi yo'q. Ovqat olib berdim... Bilasan, men pulga sig'ingan odam emasman: ziqnalarni o'lgudek yomon ko'raman.

Bechora bola! Odobli-da, ovqatni oxirigacha yemadi. Chamamda, mening maqtovim bilan to'yib qolgan edi...

Keyin:

– Jur, redaksiyaga boramiz, – dedim.

Lo‘mbillab yonimga tushdi. Sen ustozning bunday paytdagi holatini bilmaysan-da: yonida shogirdi bo‘lsa, tag‘in talantli bo‘lsa, o, undan quvonchli bayram yo‘q, uning uchun!

Shunday qilib, jurnalga bordik... Ha, o‘sha jurnalga. Hikoyani kam beradi-yu, lekin beradi. Muharriri yo‘q ekan, bo‘limga opkirib, mudir bilan tanishtirdim. Hikoyalarini maqtadim. Lozim bo‘lsa, «Oq yo‘l» yozib beraman, dedim.

Bola xursand bo‘lib ketdi... Xursandligi shunchalikki, hoziroq «mardikor bozori»ga borishini aytdi...

Oradan uch-to‘rt kun vaqt o‘tdi. Bolaga telefonimni bergen edim. Qo‘ng‘iroq qilmadi. Bir kun yana uyushmaga kelsam, xuddi o‘sha kitob do‘koni oldida turibdi.

– Salom, ustoz! – dedi.

– Nega qo‘ng‘iroq qilmaysan?

– Xalaqit bergim kelmadni. Ishlayotgan bo‘lsangiz...

Ko‘rdingmi, uning odobini? Boya aytganimday dangal, o‘lgudek mag‘rur bola, tag‘in bunaqa andishali edi.

– Ha, nima yangilik bor? – dedim.

– Bosilarmish! – dedi u ko‘zlari chaqnab. – Sizni so‘rashayotgan edi.

– A, ketdik!

Tag‘in uni mashinamga o‘tqizib, tahririyatga bordim. Bo‘limga kirsak, hikoyalarini allaqachon tahrirdan chiqarib, mashinistkaga berishgan. Bolani tabrikladim.

Keyin o‘zim muharrir xonasiga kirdim... Uni bilasanmi? O‘lgudek qo‘rqaq odam-da. Jurnalda bitta orfografik xato o‘tib ketsa, sochini yuladi.

U ham bolaning hikoyalalarini o'qigan ekan.

– Tabriklayman! Zo'r talant topibsan-ku? – dedi.

– Topamiz-da, – dedim. – Talantlar sening tahririyatingga emas, tahririyatim bo'lmasayam menga keladi.

Keyin u bolaning qayerdan ekani, nima ish qilishi, xullas, rosa surishtirdi. Aytib berdim.

Yetimlar uyida o'sgan, universitetning filologiya fakultetiga kirolmagan. Sirtdan jamiyatshunoslik bo'limida o'qirkan.

Xullas, u o'sha kuni tahririyatdan chiqqandan keyin nimalarni gapirib bergen bo'lsa, aytib berdim.

Keyin, muharrir mendan unga «Oq yo'l» yozib berishni so'radi.

– Jonim bilan yozib beraman! – dedim.

Lekin uka, men o'zimni vijdonli odam deb hisoblayman. To'g'rimi? Unga qarshi borolmayman. Yo'q-yo'q... Xullas, muharrirga masalani yotig'i bilan tushuntirdim:

– Sen bemalol bosaver, – dedim. – Tanqidchilar bor, ular o'z hukmini chiqarishadi. Qo'rqadigan joyi yo'q... Lekin ba'zi qaltis momentlar bor, – dedim. – Masalan, ayrim joylarda rahbar shaxslarga tegib ketgan. Raykom sekretarigayam... Demak, siyosatga!

He, yaramas! Rangi o'chib ketsa bo'ladimi? Aytdim-ku, o'lgudek qo'rkoq, deb!

Lekin o'sha paytda boshqa gap gapirmadi.

– Yaxshi, o'ylab ko'ramiz, – dedi.

Shu gapidan sal gumonsiragan edim. O'ylagan nimday bo'lib chiqdi.

Hikoyalarni qoldiribdi!

Ha.

Tag'in bir kun bolani o'sha kitob do'koni oldida ko'rdim. G'amginlik bilan kuldida:

– Meni tushunishmadi, – dedi. – Niyatimni...

Muharrirni – og'aynim bo'ssayam – rosa so'kdim: unga o'xshagan kishilar talantga yo'l berishmaydi, uka. Ba'zan hayron bo'lasan: shunday kishilarga matbuotning rulini berib qo'yishadi.

– Xafa bo'lma, boshqa bir ish qilamiz! – dedim.

– Jur, mashinaga kir.

Mashinada nashriyotga borayotganimizda, boyoqish asta so'radi:

– Rahbar ham odam-ku, a? Unda ham insoniy ojizliklar bo'ladi-ku?

Nima, men unga «ojizliklar» – kamchiliklardir, ularni tuzat, yumshat, zamonaga boq, deyishim kerakmidi? Yo'q, bu gapni mensiz ham aytishgan bo'lsa kerak, tahririyatda. Balki chiqib qolsa, keyin tanqidchilar aytishardi.

– Bo'lganda qandoq! – dedim.

Yosh talantning darrov yo'lini kesib, qo'rqtib qo'yishim mumkin. Talantni o'z holiga qo'yish kerak: ana shunda u bemalol o'sadi. O'zligini topadi: mening unga aytadigan har bir gapim – go'yo mening yo'limga tush, deganim bo'ladi.

Endi o'ylab qarasam, uka, unga o'sha paytda ochiq gapirsam bo'lar ekan...

Lekin uning qabul qilmasligini ham bilardim-da! Asarlaridan ko'rinish turardi!

Hikoyalarni u chin e'tiqoddan yozgan.

Birinchi kundagi bir gapini aytdim, shekilli:

«Hikoyalarim sizga yoqmasayam, yirtib tashlamayman!»

Tushunarli-da.

Mening vazifam – uni qanday bo'lsa, shu holida chiqarish edi.

Buni adabiyotdagi demokratizm deydilar, bolam. Hech kim birovga o'z fikrini o'tkazmasligi kerak.

Nashriyotga bordik. Direktori – eski og'aynim. Bolani to'g'ri uning oldiga olib kirdim. Rosa maqtadim.

– Kitobi chiqsa, nashriyotingga obro' keltiradi,
– dedim. – Buning ustiga, bitta talantni ochgan bo'lasan!

Direktor mening gapimni ikki qiladimi?

– Bosh ustiga. Bitta retsenziyaga beramiz. Tamom. Rejaga kiritamiz. Qarabsizki, ikki yildan keyin kitobi chiqib turibdi, – dedi.

– Bir yildan keyin, – dedim.
– Ha, bir «okno» ochilsa, tushirib yuboramiz,
– dedi.

– Lozim bo'lsa, «So'zboshi» yozib beraman.

– Olam guliston!

Keyin, bolani chiqarib yubordim-da, direktor ga yotig'i bilan tushuntirdim.

Nima, men rost gapni... O'z e'tiqodimni aytmasligim kerakmi?

Qolaversa, uka, uning mas'uliyati – mening bo'ynimda edi: asari chiqqandan keyin biron joyda gap qo'zg'alsa, men javob berishim kerak. Us-tozning burchi bu...

Shuning uchun bu tomonini ham puxta qilishim kerak.

To'g'rimi?

– Mana shunday gaplar... Sal qaltis demasang,
bunaqa hikoyalar yaratilmagan...

E, odamlar, odamlar!

Qo'lyozmani olib ketib, direktorning o'zi o'qib
chiqibdi-da, keyin retsenziyaga beribdi.

Retsenziyachilar ham har xil bo'ladi, bolam.
Ba'zisi rahbarning qovog'iga qarab turadi. Agar
o'sha asar haqida direktorningmi, bo'lim mudi-
riningmi sal gumoni bo'lsa, bas, «yaramaydi»,
deb retsenziya yozib keladi.

Ana shunday bir ablahning qo'liga tushgan
ekan: yo'qqa chiqarib kelibdi.

Bola hikoyalarini olib ketganini eshitdim. Endi
o'zini surishtiraman, de!

Hech yo'qliki – topilsa!

Senga o'xshagan shogirdlar ko'p-da, o'g'lim.
Meni o'zi yoshlari yaxshi ko'radi.

Birigayam qattiq gapirmayman.

Nima uchun endi gapirishim kerak?

Uning yo'lini o'zgartirishim kerak?

Yo'q!

Lekin u bola...

Xullas, daragi o'chib ketdi.

Bir kuni de, uyushmaga kelsam, xat bor. Ol-
sam, o'shandan. Falon kasalxonada yotibman,
siz bilan bir hasratlashgim keldi, ustoz, deb
yozibdi. Tag'in ming bir andisha... Sezdim: u be-
jiz meni yo'qlamayapti. Uyimga qo'ng'iroq qilish-
dan cho'chigan bola kasalxonaga chaqirib tursa!

Kun sovuq edi. Dekabr oyi edi-da. Avtoni su-
rib haydab, bozorga bordim. Olma, nok xarid
qildim. Ikkita issiq non. Bir qog'oz xaltaga solib,
kasalxonaga bordim.

Men u kasalxonada hech bo'lмаган edim.
Shaharning chekkasi. Aytgiligi yo'q.

Palatasiyam sassiq, tor, olti kishi yotibdi.
Osma ukol olayotgan ekan.

Rangida rang yo'q.

Ko'nglim buzilib ketdi:

- Nima bo'ldi? – dedim.
- Jigarim shamollabdi.
- Ko'zing sariq emas-ku?
- Sarig'i sirtga tepmabdi.

Voy-voy, cho'p bo'lib qolgan ekan. Biroz gaplashib o'tirdim: shunda uning bolalari tashlab ketgan bir rus kampirning balkonida – ijara-da turishini bildim. Rosa urishdim.

Axir, menga ochig'ini aytsa, men unga joy topib berolmasmidim? Ana shunaqa edi-da...

– Xo'sh, mendan nima yordam kerak? – dedim. – Bu yer juda iflos-ku?

– Iflosligiyam mayli, – dedi u. – Lekin dorilar uzilib qolgan. Bu yilgi dori ado bo'pti. Yanzvardan berishar ekan. Shunga sal-pal... Bu yerdalodamlarning qarindoshlari topib kelishyapti. Mening hech kimim yo'q...

Dod deb yuborayozdim.

– Seni yaxshiroq kasalxonalardan biriga o'tkazaman, – dedim.

Tashqariga chiqqach, shifokorlar bilan sal aytishdim ham: bunaqa kasalxona-yu, undagi dori muammosini fantaziya qilib ham topolmaysan, axir! Juda g'alati-da...

Keyin yugur-yugur boshlandi: bilmadim, uning o'z otasi bo'lgandayam menchalik chopmasdi.

Chopgan bilan hech narsaga qo'li yetmasdi.
Rayzdravga kirdim. Keyin oblzdravga kirdim.
Gorzdravga kirdim. Qor, muz. Mashinamning
balonlariyam dabdala bo'ldi, hisob. Ijodim qolib
ketdi.

Ishqilib, shunga yordamim tegsin, deyman-da.
...Oxiri yo'li topildi.

Hukumatga yaqin shifoxona bor edi. Kirib,
o'zimni tanishtirdim.

Juda yaxshi qabul qilishdi.

– Shunday-shunday... Bir shogirdimiz bor,
ahvoli chatoq... – deb tushuntirdim.

Bosh shifokor yaxshigina odam ko'rindi.

– Xo'b bo'ladi. Bir og'iz so'zingiz... Qo'ng'i-
roq qildirmasdan to'g'ri opkelaversangiz bo'lar
ekan, – dedi. – Bizda zaxira dorilar bor, yaxshi
qarashamiz...

– Rahmat. Salomat bo'ling!

U meni yo'lakka kuzatib chiqdi.

Xayrlashayotib... nima deb o'ylaysan?.. Inda-
may ketishim kerakmidi?

Yo'q. Vijdonim yo'l qo'ymasdi, uka. Qurg'ur
vijdon azobi qattiq bo'ladi-da!

Buning ustiga, u menga shogird bo'lgandan
keyin, uni bu yerga o'zim keltirib yotqizganim-
dan keyin... haligi mas'uliyati ham bo'ynimda
bo'ladi...

– Kechirasiz, – dedim. – Juda yaxshi, o'ta ta-
lantli bola-yu, ba'zan jindak, nima desam ekan,
betgachoparlik odati bor... Yosh-da. Sizlarda hu-
kumat odamlari kelib davolanadi... Shu, nima
desam ekan, uqtirib qo'yasizmi?..

– Tushundim, tushundim, – degandi bu...
yaramas ham! Keyin ko'chaga ham kuzatib

chiqqanini ko'rib, juda ko'nglim tinchigandi. Le-kin: – Bolani o'zimiz olib kelamiz. Yo bugun, yo erta... Ishqilib, joy bo'shashi bilan, – deganiga parvo qilmabman.

Juda charchagan ekanman, uyga ketdim. Shu kecha toza havodan nafas olay deb hovliga chiqqan edim, boshim shamollagan ekan, haro-ratim ko'tarilib, to'rt kun yotdim.

Beshinchi kuni zo'rg'a o'rnimdan turdim.

Xayolim bolada!

Sen hozir tushunmaysan: katta bo'l, yozuvchi bo'l...

Keyin birovni shogird tut. Ana undan keyin mening holatimni tushunib olasan: bamisol bolang-jigaringga aylanib qoladi, shogirdlaring!.. Ammo u bitta edi!

Mashinani bir amallab garajdan chiqardim. Xotinim hay-haylab turibdi. Qaramadim.

Eski kasalxona oldidan o'tayotib, to'xtadim. Tavakkal qilib ichkariga kirdim. «Priyomniy pokoy»ning oldidan o'tayotgandim, o'sha kuni aytishib qolgan shifokorim chiqib qoldi.

– Assalomu alaykum, domla!

– Vaalaykum, – dedim, xayolim joyidamas-da. O'tib ketishimga...

– Marhamat, kiring.

– Bizning bolani opketishdimi? Qachon opketishdi?

– Yo'q. Hech kim so'rab kelmadi, – dedi shifokor. Qarasam, rangi bir xil...

E, nima deysanki, uni o'tgan kuni opchiqish-gan ekan. Shu tobda morgda yotgan ekan...

He, shunday kuydim, shunday kuydim...

Uni kim o'ldirdi? Endi o'ylab ko'r, o'g'lim:
odamlar mana shunaqa. Qo'rqoq, vahimachi, vij-
donsiz!.. Bu gaplarni senga aytyapman.

* * *

Men mashinani to'xtatdim.

– Tushing, domla!

– E, nimaga?

– Men o'lishni istamayman.

1987

BITIKLI TOSH

Boyquvar eshikni asta ochib, boshini suqdi. U yoq bu yoqqa qarab, to'rda oqish sharpani ko'rdi.

– Assalomu alaykum! – u otilib kirib, yo'rta ketdi. Shu borishda uzun stol qirrasiga urildi va iljaygancha tislaniб, to'rga tikilgandi, oqish sharpa yorishib, oq kofta kiygan, to'lagina yuziga dog' toshgan Dilnura... yo'q, Dilnura Qosimova... tuman partiya komitetining ideologiya sekretari ko'rindi.

Shu asno xona ham yorishib va kengayib ketdi. Devorda plakatlar, o'ngda kitob javoni, devor yoqalatib qo'yilgan stullar va yaxlit derazalar ham o'zini ko'rsatdi.

Uning ko'zi ravshan tortib ketgan edi.

– Nimaga tentiraysiz? Mastmisiz? Ko'zlarining g'alati? – dedi Dilnura Qosimova va o'rnidan adl turib, unga dadil qo'l uzatdi. Keyin qo'li birovning panjalarini ushladimiyo'qmi, aslo sezmay, stol yonidan joy ko'rsatdi. – O'tiring!

– Xo'sh, xo'sh... – Boyquvar stulga asta o'rnashdi-da, oldidagi gazetaga tikilib, uni ag-darib ko'rdi.

– Nima qib yuribsiz?

– Nima? – Boyquvar og'zini katta ochib, sekretarga qaradi. Uning tanish... bolalikdan tanish qiyofasini yaqqol ko'rib jilmaydi. – Hech nima, o'zim... – keyin shoshib qoldi. – Chaqirgan ekansiz! O'rtoq Keldiyev aytdilar. Shu bilan chopaverdim, – keyin nafasini rostlab, xo'rsindi.

– O'zingiz ishlab, charchamay yuribsizmi, Dilnura? He, biz juda faxrlanamiz, sinfdoshimiz raykom sekretari bo'ldi, deb...

– Qo‘ying, xushomadniyam eplolmaysiz, – dedi Dilnura Qosimova. – Nimaga otangizning qabriga marmartosh qo‘ydingiz?

– Qanday... A-a! – Boyquvar kulib yubordi. Keyin Dilnura hech narsani tushunmaydigan yoshgina qizalog‘-u, o‘zi murabbiydek: – U marmartosh emas, granit, – dedi. – Granit! – so‘ng yengilgina xo‘rsindi. – Marmar topolmadim. Shahrisabzgayam bordim, – kuyunib davom etdi. – Yo‘q deyishdi. Boshqalarga bersa kerag-u, mendan shubhalanishdimi, bilmayman.

– Nimaga tosh o‘rnatdingiz, deb so‘rayapman?

– Nimaga?.. – Boyquvar birpas gangib qoldi.

– Nimaga... nimaga qo‘ymasligim kerak ekan? – Dilnuraga qaragandi, u yana sharpaga aylana boshladi.

– Dinga qarshi kurash haqida yangi kampaniya boshlandi. Gazeta o‘qiysizmi o‘zi?

– Qo‘limga tushgandayam... o‘qiy olmayman.

– Hayotdan orqada qopsiz... Xo‘s, javob bering!

Yigit bor kuchini yig‘ib unga tikilgandi, tag‘in u jamol ko‘rsatdi. Xayolini yig‘ib:

– Mening otam u, – dedi. – Urushga ketib, olti joyidan yarador bo‘lib kelgan! Shu oskolkaning jabrida ketdilar...

– U kishi mulla o‘tgan ekan-da?

Boyquvar angrayib qoldi-da, yana qarshisida yoshgina qizaloq o‘tirgandek xayrixohona jilmaydi.

– Yo‘q, Dilnuraxon... – keyin tetiklanib ketdi.

– Axir, o‘zingiz ko‘rib yurardingiz-ku? U kishi qachon mullalik qipti?

– Nega u kishini so‘pi deyishar edi?

Boyquvar yayrab kulib yubordi.

– Ashula aytgani uchun. Ovozlari baland edi-da! Shu yerda turib baqirsalar, o‘zimizning Qurisoyga eshitilardi! E, o‘zlarining sigirlaring yo‘qolganda, esingizda bormi, gujumga chiqib, jar solganlari? He, esdan chiqaribsiz-da, Dilnura.

– Kechirasiz, ko‘p Dilnura-Dilnura, demang. Biz rasmiy idorada o‘tiribmiz.

Boyquvar qizib, hatto terlab ketdi.

– Kechirasiz, – dedi ovozi zo‘rg‘a chiqib. Keyin o‘ylanib qoldi. – A, nima? So‘pi deganlari yomonmi?

– Siz ko‘p talmovsiramang, o‘rtoq Boybo‘riyev! – stolga ruchkasini urib qo‘ydi sekretar. – Savolga javob bering. Nima uchun otangizning qabriga... granit tosh qo‘ydingiz? Unga «Mulla Boybo‘ri o‘g‘li Boyquvvatovga», deb yozdirdingiz? Tag‘in «O‘g‘lingiz Boyquvardan», deb ham yozdiribsiz... Chektiribsiz! Kim u ishni qilib berdi?

– Shahrisabzda qilib berishdi, – dedi Boyquvar. – Bitta armaniga yozdirdim. Toshdan uy qurar ekan, toshyo‘nar ekan... Ular bunday ishga juda usta bo‘ladilar.

– Nimaga yozdirib... qo‘ydingiz?

Boyquvar unga qarab-angrayib turarkan, tag‘in sekretar bir zumga uzoqlashib ketdi va tag‘in yaqinlashdi.

– E, o‘rtoq Qosimova, siz qiziq savollar berasiz-a! – dedi u jiddiy tortib. – A, nima bo‘pti tosh qo‘ydirsam? Ha-a... – yana kulimsirab, kulib yubordi. – Bizda rasm emas-a? – keyin uni ko‘zdan yiroqlatmaslik uchun tikilgancha

so‘radi: – Siz Toshkentda bo‘lgansiz-a? Chig‘atoy qabristonida-chi? – keyin o‘z xatosini tuzatdi: – Albatta, bo‘lgansiz-da. Xodimlar har hafta Toshkentga borib keladi...

– Menga qarang, nimaga «Mulla Boybo‘ri o‘g‘li-ga...» deb yozdirib...

– A, nima deb yozdirishim kerak edi? Shunchaki...

– Siz meni kalaka qilyapsiz.

– Voy, voy! O‘lay agar, Dilnuraxon... Axir men... biz siz bilan faxrlanib...

– Bas!

– Xo‘b, xo‘b.

– Chiqing! Dahlizda kutib turing. O‘zimiz chaqiramiz!

– Xo‘b bo‘ladi.

Boyquvar tislanib ta’zim qildi. Burilgandi, tag‘in ko‘z oldi shafaqlanib qoldi. Turtinib ketmaslik uchun tavakkal qilib to‘g‘riga yurdi. Eshikni paypaslab ochib chiqdi. Kotiba qiz yoni dan o‘tayotganda, ko‘z o‘ngi xiyol yorishdi-yu, nimqorong‘i yo‘lakka chiqqach, devor yoqalatib qo‘yilgan stillarni zo‘rg‘a topdi.

Dilnura Boyquvarning chiqib ketishini beixtiyor kuzatib turardi. «Bechoraning ko‘zi xiralashgani rost, – deb ko‘nglidan kechirdi. – Qurib ketsin, butifos degani... E, o‘zidan ko‘rsin! Kim unga samolyot dori sepayotganda kultivatsiya qil, depti?»

Xayolidan shu o‘ylar kechgach, shoshib telefonda raqam tera boshladи.

– O‘rtoq Keldiyev? Salom... Bir keling! Hozir! Boshlang‘ich partiya tashkiloti sekretarini-

yam ola keling! A? Ha-da! Shu yerda... E, gapini tushunib bo'lmaydi! Baribir... Bir ish qilaylikki, qarorga javob bo'lzin. Ha... Hm, shundaymi? Bo'lmasam, o'zim ham boraman. E, bemalol.

Dilnura Qosimova javon yonidagi shkafdan deputatlik nishoni qadalgan kostyumini olib kiydi. Chiqib, kotiba qizga, o'zining internat-maktabga shoshilinch ish bilan borayotgani, agar «Birinchi» yo'qlab qolsa, darhol Keldiyev bilan ulashni uqtirdi.

Boyquvar stulda boshini xam qilib, ko'zini yumbib o'tirar, otasining qabri ustidagi bahaybat yam-yashil gujumlar naq qarshisida shildirab turar, ular shoxidagi qushlarning chug'urlashlarini ham eshitar, ustiga tuproq uyilgan qabr va uning bosh tomoniga tuproqqa sanchib, tagi somon qorishmasida suvalgan qoratosh xuddi yaraqlar edi.

«Ha-a, juda chiroyli bo'ldi-da! Lekin bularga uning nima og'irligi tushdi? – deb o'ylar edi. – Marmar emas... Marmar qimmat-a! Men o'ttiz so'mga oldim, xolos! Agar marmar bo'lganda, qimmat turardi, chog'i. Ana unda buning pulini qaydan topding, desa, haqqi bor edi...»

To'g'ri-da, internat qorovulida katta pul qaydan bo'ladi? Marmar qo'yganimda, internatdan bir nimani o'g'irlab sotibsan, desa bo'lar edi... Tavba, o'g'irlab sotadiganlar ham bor-a? Bolachalarning haqiga jabr qilib... E, dunyo!»

– Boyquvar!

– Labbay! – o'rnidan turib ketdi yigit va qarshisida g'ira-shirada Dilnura Qosimovani tanidi.

– Ha? O'zingiz chiqibsiz?

– Yuring! – sekretar yo'lak bo'ylab ketdi.

– Qayoqqa? A-a...

Boyquvar unga ergashib ketaverdi. Zinalardan tushdi. Kattakon oynaband eshik.

Eshikdan chiqishi bilan go'yo uyqusi ochilib ketgandek, tevarak-atrofni yaqqol ko'rdi.

Quyosh porlab turibdi. Beton lavhalar yotqizilgan maydon adog'ida, yashil qarag'aylar ostida tumshug'ini bu yoqqa qaratib turgan turli mashinalar.

Dilnura yo'lakda kelayotganda Boyquvarni o'zi bilan birga olib ketishni o'ylagan edi. Endi tashqariga chiqqach, hali juda katta xatoga yo'l qo'yishiga oz qolgandek, shart burilib:

– Internatga o'ting! Hozir... O'sha yerda gaplashamiz! – dedi.

– Internatga? Xo'b, xo'b. Hozir yetib boraman. A, siz...

Qosimova uning gapini eshitmay jildi. Mashinasiga yaqinlasharkan, qarag'ay ortidagi beton hovuzcha bo'yida cho'nqayib o'tirgan shofyori turib kelib, kabinaga kirdi.

– Maktab-internatga! – dedi Dilnura ham kabinaga kirgach. Keyin Boyquvarga shuncha qaramay desayam mashina burilayotganda ko'zi tushdi.

U kalovlanib, hovuzcha yonidan to'g'riga tushgan zinalardan enmoqda edi. Yana unga achinib ketdi.

Internat. Direktor Husan Keldiyevning kabineti. Jamoat jam ekan. Boshlang'ich partiya tashkilotining sekretari Shoyim Shaydulov bilan uning byuro a'zolari ham irg'ib-irg'ib turishdi.

Dilnura Qosimova ular bilan iliq jilmayib ko'rishdi. Har biridan bo'g'iq, yasama sho'xchan ovozda ahvol so'radi. So'ng Shoyim Shaydulovga hazillashdi:

– O'zingizam namoz o'qisangiz kerag-a?

Past bo'yli, yelkalari keng, yuzi chorkunj, boshida tuk yo'q Shaydulov juda zo'r askiya eshitgandek boshini egib, pix-pixlab kului.

– Qaror chiqmasayam shunday dermidingiz? – keyin siyrak qoshlarini kerib gapirishga, demak, o'zining namoz o'qishdan necha-necha chaqirim naridagi odam ekanini so'zlashga shaylangan edi, uning sergapligini biladigan Dilnura:

– Xo'sh, nima qarorga keldinglar? – dedi.

Barvasta, sarg'ishdan kelgan, ko'kragi baland Husan Keldiyev:

– Nima bo'lardi, o'chiramiz-da, – dedi. – Uyo-g'ini so'rasangiz, Dilnuraxon, u kommunist bo'lib go'r bo'larmidi? Vaqtida cho'lquvar deb o'tkazib qo'yishgan-da.

– Shu, shu. Kampaniyachilik juda avj olgan edi-da! – deb gapga qo'shildi Shoyim Shaydulov.

– Men, masalan, o'ttizinchi yillarda...

– O'zingiz borib ko'rdingizmi qabrni? – so'radi Dilnura direktor Keldiyevdan.

– He, o'tgan kuni lagerni ko'rgani o'tayotib, mashinani to'xtatdim. Borsam, bir parcha qora doska turibdi. Yozuviyam bor.

– Qora doska emas, granit, – dedi Qosimova. – Shahrisabzdan opkehti. Shundan shuncha joyga borib kepti. Unga qolsa, marmar olmoqchi ekan.

– O', azamat! – dedi Shaydulov. – Marmar-a! Ammo-lekin o'rtoq Qosimova, hammamiz ham g'aflatda qolib yurganga o'xshaymiz.

Boyquvar ochiq darvozadan kirib, g‘unchablab qolgan gulzor yoqasidan turtinmay-qoqilmay (o‘rganib ketgan) o‘tib, to‘g‘ri direktorxonasisiga yetdi. Yerdagi to‘sanchani qaramayoq topib, kirza etigini artdi-da, eshikni dangal ochdi.

– Mumkinmi?

Krupskayaning portreti yonida uymalashib turgan kattalar burilib to‘zib qolishdi.

– Kir, kir! He, uying bug‘doyga to‘lgur, – dedi Husan Keldiyev. – Bo‘ldi... O‘sha yerga o‘tir!

– Xo‘b, bobo.

– Him, qani o‘rtoqlar... O‘rtoq Qosimova, bu yoqqa o‘ting. Shundaymi? Mayli. Xo‘sh, hamma bor. Majlisimiz ochiq. Demak... E! Shoyim aka, o‘zingiz turing!

– Ha, byuroni partiya tashkiloti sekretari obo-rishi kerak, – dedi Qosimova.

– Marhamat, – dedi Husan Keldiyev. – Lekin qisqaroq bo‘lsin, Shoyim aka.

– Xo‘b, xo‘b, – Shoyim Shaydulov sal to‘rga o‘tib, sollanib, kostyuming yengi juda uzun-u, osilib ketayotgandek har ikkala qo‘lini ham te-paga ko‘tarib, yengini tirsak tomon tushirgan bo‘ldi. – Gapning qisqasi, masala bitta, – dedi. – U ham bo‘lsa, kommunist, bizning qoravul Boyquvar Boybo‘riyevning kommunistlik sha’niga aslo to‘g‘ri kelmaydigan... kommunist degan nomga dog‘ tushiradigan, kechirasizlar, dog‘ tushirgan, shuning bilan birga, bizning Krupskaya nomli internat maktabimiz boshlang‘ich partiya tashkilotining obro‘sini to‘kkkan... tuman partiya komiteti oldida yuzimizni shuvut qilgan, xo‘sh...

– ...ishini muhokama qilish, – dedi Keldiyev.
– Ha, muhokama qilish! – takrorladi Shoyim Shaydulov. – O'rtoqlar, bizlar ateistlarmiz. Kechagi qaror esa bizni yanada hushyorlikka...

Dilnura unga ijirg'anib qaradi.

- Biron kishiga so'z bering!
– Ha. Juda to'g'ri!

– Men gapiroman, – deb o'rnidan turdi Husan Keldiyev. – O'rtoq Qosimova, byuromizga kelganingiz uchun rahmat. Biz o'zimiz bu bolani muhokama qilib, ko'zini joyiga tushirib qo'yamoqchi edik... – keyin Boyquvarga tepadan tikildi. – He, o'l-e, senday otali! Kim biladi, shu otadan bo'lgansanmi, boshqadanmi?

Dilnura unga og'ringan ko'z bilan qaradi.

- O'rtoq Keldiyev...

– E, endi, odamni quyushqondan chiqarib yuboradi-da! Mana, shuni deb ishdan qolib o'tiribmiz. Buyam mayli... raykom oldida, Shoyim aka aytganlaridek, yuzimiz shuvut bo'ldi! – yana Boyquvarga do'q qildi. – Erta meni raykomga chaqirib so'rasa, bu nima degan gap? Bir odamingiz mulla otasining qabriga tosh qo'yibdi, desa... nima deyman, ahmoq?!

– So'kmang!

Boyquvar shunday degach, garangsib, stol tevaragida o'tirganlarga qaradi. So'ng bor kuchini ko'ziga to'plab, bir-bir tikilib chiqdi-da, Shoyim Shaydulovning hali aytgan gaplarini esladi. Keyin hayron qolib va nafasi bo'g'ilib, Keldiyevga ko'z tikdi. So'ngra Dilnuraga qaradi-da:

– E, – dedi, – sizlar meni muhokama qilyapsizlarmi?

– Tavba! – deb jilmaydi Shoyim Shaydulov. – Artistlikdan ham ancha-muncha bor ekan. Biz ko'rganmiz...

– Nima balo, merov-perov bo'lib qolganmisiz?
– dedi Dilnura Boyquvarga.

– Nima... men.. Yo'q! Yo'q! Men tushunmayapman, xolos, – deb Boyquvar o'rnidan turdi. – Qaror... qaror chiqaveradi-da!

– O'tir-e! – dedi Keldiyev. So'ng Dilnuraga murojaat qildi: – O'rtoq Qosimova, bu yigit... dinni tashviqot qilgani uchun bizning xuddi shu kundarda yuritayotgan... juda g'ayrat bilan kirishib yo'lga qo'yayotgan ateistlik tashviqotimizga qarshi borgani, atay qarshi borgani uchun uni... buni darhol partiyadan o'chirishni taklif etaman. Bu bilan mayda-chuyda gap qilib o'tirishga hojat yo'q! Kimlar qarshi? Kimlar...

– O'rtoq Keldiyev... – dedi yana Dilnura zorlangan ovozda. – Siz axir rais...

– E, kechirasiz, Shoyim aka!

– O'rtoqlar! – deb yana sollandi Shaydulov va dam Dilnuraga, dam direktorga manglay ostidan qarab: – Bo'lmasam men... ovozga qo'yaman, – dedi.

– Shoshmang, – deya unga ham o'rnini ko'rsatdi Dilnura. – Xo'sh, Boyquvar, aybingizga iqrormisiz?

– Nima... ga? – angrayib, yana o'rnidan turdi-da, baqirib yubordi. – Qanaqa aybim bor? E, odamni... Axir, odamsizlar-ku? Kommunistsizlar-ku?

– Mulla otangizning qabriga...

– Tosh qo'ydim!

- Nega?
- A, nima... – u ko‘zlarini katta ochdi. – Meni dinchi... dinni targ‘ib qildi, deb ayblayapsizlarmi?
- Tavba, hamma narsani tushunib turib-di-yu... – Shaydulov boshini chayqab iljaydi. – Lekin...
- E! Sizlar qiziq ekansizlar-ku? Nimaga... Toshkentda... Chig‘atoy qabristoniga borganmisizlar? Yo‘q... Demak, bormagansizlar! O‘, u yerda... – Keyin ming‘irlab qoldi: – Bizda esa, qabristonda eshak yuradi...
- Shoyim Shaydulov Dilnuraga olayib qaradi-da:
 - Esa ovozga qo‘yaman. Men «za!» – dedi.
 - Men ham, – deya Husan Keldiyev ham qo‘lini ko‘tardi.
 - Essiz, yigit... – deya Dilnura ham barmog‘ini ko‘tardi.
- Shu bilan boshqa uch kishi ham ular qilgan ishni qilishdi. So‘ng Shoyim Shaydulov:
 - Demak, siz partiyadan o‘chdingiz, – dedi Boyquvarga. – Qani, biletti opkelib qo‘ying, bu yerga!
 - Boyquvar xuddi qopqonga tushgan hayvondek ularga mo‘ltirar edi. Birdan hushyor tortib:
 - Yo‘q. Bermayman! – deya chap ko‘kragiga kaftini bosdi.
 - Opkelib qo‘ying!
 - Yo‘q!
 - E! Senga milisa chaqirish kerakmi? – dedi Husan Keldiyev. – Kerak bo‘lsa, milisaning ishini-yam o‘zimiz qib qo‘yamiz. Chiqar! Keltir! Ahmoq bo‘lma!
 - Men, men... – Boyquvar ko‘kragiga qo‘lini

bosgancha, chamasi, qochib ketish uchun alang-jalang bo'lib o'rnidan turayotgandi, Dilnura juda ezilib ketib:

– Boyquvar, menga ishonasizmi? – dedi.

– Endi yo'q.

– Unda o'zingiz bilasiz. Men aytmoqchi edimki, – yon-veridagilarga zimdan ko'z tashlab, davom etdi: – ma'lum bir vaqt o'tsin... Siz, umuman, yomon xizmatchi emassiz. «Paxtakor»da ko'zni chatoq qilib kelganingizniyam bilamiz. Bu yerdayam, umuman, xizmatingiz yomonmas ekan. Mana, o'rtoq Keldiyev ancha ijobiy fikr-da... Hm, qulq solyapsizmi?

– Ha, ha!

Dilnura chaynalib:

– Xullas, bizda ayb... abadiy qolmaydi, – dedi.

– Hatto xalq dushmanlari ham amnistiya qilingga vaqtlar bor...

– Tushundingmi? Buyog'i o'zingga bog'liq! – deb Dilnurani tang holatdan qutqardi Keldiyev.

– To'g'rimi, o'rtoq Qosimova?

– Ha. Men ham shunday demoqchi edim.

– A-a, uning uchun nima qilishim kerak?

– Birinchi navbatda... – Shoyim Shaydulov tag'in yengi tushib ketayotgandek qo'llini tepaga ko'tarib qo'ydi. – Sen hozir borib... xo'sh, – jamoaga maslahatomuz qarab oldi, – hozir borib, qabrtoshni olib tashlaysan! Yo'qotasan! Toki hech kim uni eslamaydigan bo'lsin. Birov qiziqmasin.

– Ana! Eshitdingmi? – dedi Husan Keldiyev partkom sekretarining taklifidan favqulodda mamnun bo'lib.

– Eshitdim, – dedi Boyquvar. – Lekin...

- «Lekin-pekin»i yo‘q!
 - Unda... – Boyquvar chap ko‘kragidan qo‘lini oldi. Keyin birdan baqirib yubordi: – Keyin alda-maysizlarmi?
 - E, yosh bolamisan?!
 - Hmm, mayli, – Boyquvar qo‘yniga qo‘l solib, chiroqli qizil jildga solingan biletini chiqardi-da, kaftida biroz avaylab ushlab turgach, qo‘zg‘aldi. Stol yoniga kelguncha ikki bor to‘xtab o‘ylandi. Keyin uni shartta stolga qo‘ydi. – Mana!
 - Endi bizga javob, – dedi Dilnura. – Boyquvar, siz bilan – endi direktoringiz gaplashadi...
- Dilnura Qosimovani kuzatib partkom kotibi ham chiqqach, Husan Keldiyev stol qoshida bir qo‘lini beliga tiragancha ikkinchi qo‘lini cho‘zib:
- Ana, qog‘oz, ruchka... Yoz, yoz! – dedi stulda burgutdan qo‘rqqan tovuqdek pisib o‘tirgan Boyquvarga. – Rasmi shu, uka. Ariza. Tushunding? Yoz! O‘zim seni uch-to‘rt oydan keyin...
 - Ishga olasizmi?
 - Olaman! – dedi Keldiyev derazaga qarab. – Raykom sekretarining gapini eshitding-ku?
 - Ha..
 - Ana shu-da!
 - Unday bo‘lsa... – Boyquvar sharikli ruchkaning uchini labiga tegizib olib, qog‘ozga engashdi. Bir zumlik zo‘riqishdan keyin nigohi ravshan tortib va bundan allanechuk shoshilib yoza boshladи: «Krupskaya nomli internat direktori... shul haqdakim, meni o‘z ixtiyorim bilan qorovullikdan ozod...»
- Keldiyev arizani tortib olib:
- Senga javob. Ozodsan, – deya to‘rga o‘tdi.

- Men endi...
- Shoyim akaga uchra! Gap bor.
- Xo‘b.

Boyquvar tashqariga chiqqanida gardishi te-paga qayirib qo‘yilgan shlyapasini boshiga kiy-gan Shoyim Shaydulov bitta byuro a’zosining «Moskvich» mashinasi yonida edi.

– Kel, kel-e, uka! Anavi ketmonniyam ola kel!
Ol! – dedi.

Boyquvar gulzor yoqasidan ketmonni olib kel-di. Shoyim Shaydulov shofyorning yoniga kirib o‘tirdi.

Boyquvar turtina-turtina orqa o‘rindiqqa joy-lashib, ketmonni butlari orasiga qiyshaytirib qo‘ydi.

Mashina hademay tumanni chetlab o‘tib, Qurisoya endi. Undan o‘rlab, katta traktga qo‘shiladigan asfalt yo‘l yoqasida – yuz qadamlar ichkarida yashil «bulut»lardek hurpayib turgan gujumzor tomon burildi.

Shoxlardagi qushlar chug‘urlashib uchdilar. Atrofni bir maromdagи «shitir-shitir» ovozlari tutib ketdi. Bu yer juda salqin, shu bilan birga, tog‘ tomondan shabada esardi.

Qabrning biqinidan qizg‘aldoq ungan ekan. Nozik bargaklari titrar edi.

– Ha, qaranglar-a! – dedi Shoyim Shaydulov qo‘llarini orqasiga qilib, salqi qornini oldinga chiqargancha qarshisida kirdi-chiqdi, to‘lqinsimon bo‘lib yoyilib yotgan qabristonga qarab. – Ana, birov ot bog‘labdi!

– Shu, shu, – dedi Boyquvar ketmonga su-yanib, qabrdas bir narsa bor-u, uni ko‘radigan-

dek tikilib turarkan.

– Ha. Buz, buz, – dedi Shaydulov. Keyin tuproqqa xiyla botgan qora yapaloq tosh ustiga borib engashdi. Iljaygancha dona-dona qilib o'qidi: – «Mulla Boybo'ri... Boyquvardan». Xo'-o'sh! Yo'qot! – bir narsadan hazar qilgandek chekindi. – He, nodon bola! Olib tashla! Sindirib tashla!

Boyquvar ketmonning sopini qo'yvorib, engashgancha tosh oldiga bordi. Keyin oyoqlarini kerib, toshning ikki chetidan ushlagancha tilini tishlab, tortdi.

Nihoyat, tosh tagiga yopishgan qorishma bilan birga ko'chdi. Boyquvar uni bir on tutib turdi-da, qo'yvorgandi, tosh ag'anab, pastga dumaladi. Buloqdan chiqib ko'lmaklab turgan suvga tushdi. Bir qismi botib qiyshayib qoldi.

«Ketdi, – deb o'yladi Boyquvar toshdan ko'z uzmay. Nazdida, otasining murdasi ham qayoq-qadir ketgandek edi. Keyin cho'nqayib o'tirdi-da, bulturgi yantoqdan sindirib olib, beixtiyor tishini kavladi. Keyin tupurib tashlab, o'rnidan turdi. Toshga tikilib: – E, buni sindirish kerak edi-ku?» dedi.

Biroq ketmon bilan sindirishning imkoni yo'q.

Boyquvar uni urish, parchalash uchun boshqa tosh izlab qarandi. Bu yerda yilt etgan tosh yo'q. Bari go'rlar yam-yashil. O't-o'lan. Ayniqsa, baxmal gullar ko'p.

– Boyquva-ar!

Yigit cho'chib tushib:

– Ha! – deganicha ularning qoshiga halloslab bordi.

– Bo'dimi?

- Bo'ldi.
- Lekin qayta qo'ysang...
- E, nega...
- Shunday bo'sin, o'g'lim. Zamon nozik... Ketmonni ol. Mashinaga sol, - go'rga qiya qaradi. - Turaversin. Erta-indin o't-o'lan bosib, bilinmay ketadi.

Boyquvar yana qabrga tikilib qolgan, tosh ko'chirilgan joyda endi chumolilar g'imirlashar, ular juda ko'p, ba'zisining og'zida oq-oqqina tuxumi bor edi.

«Moskvich» birdan gurillab, Shaydulov:

- Xayr esa! - dedi.

Boyquvar ketmonni mashinaga solishni unutgan, zero, shofyorning o'zi olgan edi.

- Xayr, - deb pichirladi yigit. Mashina silkina-silkina ketdi. Toshloq yo'lga tushdi, burildi. Keyin asfaltga o'tib, tumanga qayrildi.

Boyquvar ma'nosiz nazar bilan qarab turarkan, beixtiyor cho'nqaydi-da, yana nimanidir timirskilab oldi. Qo'yning qumalog'i ekan. Ezib tashladi.

Keyin o'rnidan turib, yana qabrga boqdi. So'ng buzilgan joyini apil-tapil tuzata boshladi-yu, xuddi birov uni poylayotgandek birdan chekindi. Shunda qo'lini chumoli chaqdi. U qashinib, to'ng'illab, eng katta gujum ostiga bordi. Uning tanasini siypalab, bo'rtma qobig'ini ko'chirib, biroz turdi-da, birdan chopib, toshloq yo'lga o'tdi. To'xtagandi, ko'z oldi qop-qorong'i bo'lib qoldi.

Biroz vaqtadan keyin nazari tiniqlashgach, xuddi yana dunyosini qorong'ilik bosadigandek shoshilib, shu yo'l bilan shimolga jo'nadi. Bo-

ra-bora, o'rikzor bog'ga kirdi.

Bir necha oy o'tdi.

Boyquvar uch marta raykomga borib, «o'rtoq Qosimovaga» ishi borligini mashinistka qizga bildirdi. Qiz chiqib, bir gal: «U kishining vaqt yo'q», dedi, keyingi ikki gal: «Kutar ekansiz. O'zлari chaqiradi», – dedi. Boyquvar internat mакtabга ham uch marta bordi. Husan Keldiyev uch gal ham: «Opaning gapini eshitding-ku? Sabr qilasan-da endi!» – deb javob berdi.

U ko'chalarda tentirab yurar, uyiga bormas... borsa ham na kamgap xotini bilan, na-da olti yashar qizalog'i bilan gaplashar, ba'zan hovlisida kun bo'yи ketmon chopar va tol ostida uxlab qolardi. Keyin yana chiqib ketar edi.

Bora-bora, odamlardan chetda yurgani bilan boshiga tushgan «savdo»ni hamda uning sababini ular allaqachon bilib ketganlariga ishondi-da, choyxonalarga kiradigan bo'ldi.

Asta-sekin ming'irlab, duch kelgan hamsuhbatga o'z dardini aytadigan odat chiqardi:

– ...Men tushunmayman. Men o'zim ateistman! Qanday qilib, dinni targ'ib etarkanman?

Yana:

– ...Kimga boray? Kim tushunadi?

Oqibat, hech kim bilan chaplashmay, odamovi bo'lib qoldi.

Bir kuni dovdirab, Qurisoya tushib yuvindi-da (kun issiq edi), asta gujumzorga chiqib bordi. Biram salqin! O'sha qushlar ovozi! O'sha shabada!

Boyquvar birdan hansirab otasi qabriga yetdi. Go'r ustidagi o't-o'lanlar qovjirab bitgan,

go'rning oddiy do'ngchadan farqi qolmagan edi. Shunda qabrtoshni eslab, buloq bo'yiga chopdi. Tosh yo'q. Kimdir olib ketibdi.

Yigit bo'shashib, yana qabr boshiga qaytdi. Keyin qo'llarini qovushtirib, bir qadam beriga o'tirdi-da:

– E, ota, ota, – dedi. – Qayoqdan ham senga tosh qo'yish xayolimga kelgan ekan? Attang... – keyin Toshkentga borgani (cho'ldan kelgach), Chig'atoy bozorchasida yurganida bir tobutni ko'tarishish asnosi kirib qolgani qabristonni esladi. Yashil daraxtlar, qarag'aylar. Haykallar o'rnatilgan, katta-katta marmartoshlar qo'yilgan qabrlar xayolida ko'rindi. Bir zumga maza qilib, hatto iljayib o'tirdi (u xayol surayotganda ko'zini yumar edi). So'ng ko'zini ochdi-yu, qarshisida befayz, g'arib, tosh qotgan tuproq uyumini ko'rib, ingrab yubordi.

– Bu, nima ahvol o'zi? Chig'atoy qabriston-nigayam shu kunlar tushadimi? Yo'-o'q. U yoqda esli odamlar ko'p. Rahbarlar boshqacha bo'lishi kerak! Yo'g'asam... hammayoq eshak o'tlaydigan dashtga aylanarov... – keyin beixtiyor bulutli os-monga qarab qoldi-da, o'sha bulutlar ortida sirli bir olam-u sirli va qudratli zot bordek tuyuldi. Va shu zahoti unga tavallo qila ketdi: – Ey, Tangrim, agar bor bo'lsang, bu ahvolni... mening ahvolim-niyam ko'rib turibsan! Senga topinguvchi mu-sulmonlarga muruvvat qilur emishsan... Mana, men ham senga yolvorayotibman. Chunki sendan boshqa zot qolmadidi...

Boyquvar beixtiyor qo'llarini oldinga cho'zib shu tariqa tavallo qilar ekan, uni toshloq yo'ldan

kuzatib turgan bir kimsa (qabrga tosh qo'ygani-ni raykomga yozib bergen qari veteran) miyig'ida jilmayib qo'ydi-da, g'izillab yo'lga tushdi.

Shundan keyin Boyquvar goho kunora, goho uch kun-to'rt kunda bir marta nimadir tortayot-gandek bo'lib bu manzilga kelishni odat qila boshladi: illo, bu yerda u endi hordiq chiqarar, halovat topar, goho tili o'z-o'zidan ko'zga ko'rinnas Zotga ibodatmi-tilovatmi qilib qolar va naz-dida, hayotida o'zgarish bo'layotgandek tuyular-di. Va darhaqiqat, uyiga, bog'iga qaytib borgach, g'ayrati qo'zib, ketmonni qo'lga olar, qandaydir - kimgadir bergen va'dasining ustidan chiqadigan-dek bir shahd ila goh jo'yak tortib ko'chat o'tqa-zar, goho daraxtlarning tagini yumshatar, goh go'ng tashir va sochar ediki, bundan kamgap xo-tini-da xursand bo'lib, unga choy tutar, qizalog'i esa quvnay-quvnay izidan ergashib yurardi...

Alqissa, ilgari ishlagan joyi – maktab-internat ham, uning rahbarlari ham, hatto sobiq mak-tabdoshi – raykom sekretari Dilnura ham unga uzoq o'tmishdek tuyuladigan bo'la boshladi.

Ha, u qandaydir tabiiy va ibridoiy hayot tarzi-ga tushgan, buni butun borlig'i bilan his etar va boshqa e'tiqod-u botiniy ishonchlar unga madad berar edi.

Tabiiyki, Boyquvarning mozorchaga qatnashi va otasi qabri boshida o'tirib, yuziga fotiha tortishi tuman ahliga ovoza bo'lib ketgan – bu holdan ba'zilar xursand esa, ba'zilar kinoyali jilmayishar edi.

1987

OMON OVCHINING O'LIMI

U o'zi ham o'lishi mumkinligini o'yamasdi. U o'ldirishni... hayvonlarni, parrandalarni, xullas, Olatog'da ov qilishga arzirli o'lja borki, u qo'liga miltiqni olishi bilan o'zi anglamagan holda, ular-dan nimanidir otish – o'ldirishni o'yardi. Ba'zan, masalan, kiyik oviga ketayotgan bo'lsa, yo'lida duch kelgan kaklik, chillarni ham ayamasdi. Zag'izg'on-u cho'ponaldag'ich qushi uchrasa ham tirik qo'ymasdi.

Mabodo, ovdan qo'li quruq qaytsa – bunday vo-nea juda kam bo'lardi – u bamisoli otasi o'lgandek aza tutar, qovog'i ochilmas, shunda xotini ham ko'ziga yomon ko'rinish, bechora biron-bir yetish-movchilikdan zorlansa, u: «Jonga tegding-ku, sen ham!» – deya miltiqni qo'lga olardi...

U odam otmagan, biroq undan ko'plar qo'r-qishardi, uni yolg'iz uchratganda xushomad qilishar, gavjum joylarda unga yaldoqlanib ovi baror olib turganmi ekanini so'rashardi. Omon sovuqqonlik bilan qisqa javoblar berardi.

Uning otasi Rahmon polvon qirq yoshida ham kurashda yiqlimagan, keyin bir o'rta yashar o'rtacha polvon bir qoqmada yiqtib qo'yanida – dardi shunchalikki, omborga bo'yra to'shab, ustidan suv sepib, unga bag'rini berib yota-yota, oldin yo'talni orttirib, keyin qon qusa-qusa, o'lib ketgandi.

U kishi Omonga o'n uch yasharligida, «indamas» miltiq – melkokolibr miltig'i olib bergen, Omon birotar ov miltig'ida emas, shunda qush otishni o'rgangan, shu tariqa o'tkir mergan bo'lib

yetishgan edi: u bolalikdan yovvoyi qush-u yovvoyi hayvonlar otish va yeish uchun yaratilgan deb o'ylar, har qanday ovchida ham ma'lum bir yoshda paydo bo'ladigan rahmdillik unda hamon uyg'onmas, chamasi, uning yuragi ham baquvvat ko'kragidek qattiq ediki, buning sabbini ehtimol uning otasiga xos jihatlardan izlash mumkin.

Ular Olatog' bag'ridagi uylari bir-biriga mingashgandek kichkina qishloqda yashardi. Atrofda undan bo'lak qishloq yo'q, tuman markazi sakkiz chaqirim etakda edi.

Maktabda begonalar orasiga tushib qolgandek har kuni markazga tushishda sakkiz chaqirim, qaytishda sakkiz chaqirimni bosib o'qigan Omon o'sha paytlarda rasm bo'lgan harbiy darsga qatnashish uchun maktabga boradiganga o'xshar, chindan ham uning boshqa fanlarga qiziqishi yo'q, harbiy darsda – otishdan o'qituvchini ham yo'lda qoldirardi.

U harbiy xizmatga borganida ham shu jihti bilan darhol mashhur bo'lib ketgan, ularning qismlari o'rmonga yaqinmasmidi, ofitserlaridan ovga ishqibozlari Omonni ergashtirib olar, Omon rus o'rmonida los, ayiq otishni ham shu asno o'rgangan, rusak quyonlarini otish – uning uchun ermak edi.

U harbiydan qaytgan yili otasi qazo qilib, Omon uning ishini oldi: qishloqchaga tutash sakkiz gektar o'rikzor bo'lib, otasi Rahmon polvon unga qorovul, ayni chog'da unga bog'bon ham edi.

Ikki yildan keyin onasi uni uylantirdi. Onani ham tuproqqa topshirgan yili o'g'il ko'rdi.

O‘g‘li to‘qqizga qadam bosganda...

...Omon bir kuni ovdan quruq qaytdi: Zovboshida bir qobon, bir megajin va o‘ntacha churpani kamarga qamab chiqishini kutib yotgan edi, tepada geologlarning vertolyoti paydo bo‘ldida, naq kamar ustiga pasayib shunday shovqin ko‘tardi, shamoli joni qattiq archalarni ham titratdiki, qamaldagi cho‘chqalar sel bosganday vahimada chiqib, xuddi Omon pisib turgan archa tagiga o‘zlarini urdi. Omon kalovlanib, archa orqasiga o‘ta oldi, xolos. Cho‘chqalar odamning beliga uradigan miyazorga oralab, ilonizi yo‘l qoldirib ketibdi. Omon birinchi marta o‘zini o‘q bo‘shatishdan tiydi: bunday paytda o‘q qobonga tegadimi, bolasiga tegadimi – bo‘ldi, qobon burila solib, ovchiga hujum qiladi.

Omonning ta’bi xira bo‘lib, qishloqqa qaytgandi.

Xotini sigir sog‘dirmayotganidan koyinib edi, Omon o‘zi xurmani olib, sigir tagida cho‘nqaydi. Endi yelinni ushlaganini biladi, sigir bir qimtindi: oyog‘i ko‘zani urib, chil-chil qildi. Omon o‘rnidan turib chetga chiqdi. So‘ng xotirjam kavshanayotgan hayvonga birpas qarab turdi-da, pichanga sanchib qo‘ylgan panshaxani olib, sigirning beliga ikki tushirdi. Jonivor og‘ir mo‘rab yuborib, yotib goldi: «dir-dir» titraydi.

– Voy, inakni o‘ldirdingiz-e, beshafqat! – deb yig‘lab yubordi xotini.

Omon miq etmay tumanga tushib ketdi. Yolg‘iz jo‘rasi Hamdamni oshxonada uchratib, u bilan ko‘k choy ichayotgan edi, Omonning qisqa bo‘lsa-da, birovlar uchun qiziq suhbatiga ishqiboz uch-to‘rt yigit bular stoliga o‘tishdi.

Keyin davraga tuman gazetasidan bir muxbir yigit ham qo'shilib:

– Omon aka, hayvonlarga rahmingiz kelmaydimi? Otar emishsiz? – dedi.

– Shu gapni aytgan bekor aytibdi, – dedi Omon.

– Bo'lmasam nimalarni otasiz?

– Nimani otishimni istar edingiz?

– Bilmadim endi, masalan, quturgan hayvonlarni, molga o'rgangan bo'rini, ishqilib, odamlarga shikast yetkazadigan jondor borki, u o'limga mahkum...

Omon mengan somsaxonani to'sgan taxta devorga bir nafas qarab turdi-da, sekin hikoya qildi:

– Bir kuni Kuntegmasdan chiqsam, bir eshaklli shudgorda chirqillab kelyapti. «Ha?» dedim. Xalacho'p bilan orqani ko'rsatadi: nima deganini tushunmayman. U yoqqa qarasam, yo'g'onligi boldirday bir ilon o'rmalab kelyapti. Otdim. Ilonni ko'zlamay otsang ham o'q tegadi, deydilar. Bekor gap... Ko'zlab otdim. Ilon joyida qoldi... – Omon nihoyat kulimsiradi. – Uni otishim mumkin edi-ya?

Mushtumini iyagiga tirab tinglayotgan muxbir ishshayib:

– Yo'g'onligi qanday dedingiz? – deb so'radi.

– Boldirday.

Muxbir u yoq bu yoqqa qarab, qiqillab kuldida:

– Iye, bu siz ajdarholarni yenggan milliy qahramonlarimiz an'anasi davom ettirayotgan kishi ekansiz-ku, aka! Sizni maqtash kerak ekan!

– dedi.

Narigi stoldagilar kulishdi. Omon unga o'qra-yib turdi-da, piyolasidagi choyni uning yuziga sepib yubordi. Muxbir boshini egib qoldi.

– Ketdik, – dedi Omon Hamdamga.

Omon uyga qaytib kelganida, xotini tag'in sigirni eslab:

– Jonivorning bir emchagi shishib qizarib ketgan ekan, menam bilmagan ekanman, – dedi.

– O'zi qalay?

– Ovqat yemayapti.

– So'yamiz.

Omon ertasi kuni sigirni so'ydi. Beli sinib ketgan ekan. Yarim go'shtni qo'shnilaraga ulashib berishdi, yarim go'shtni qovurib, xumga solishdi.

Shundan keyin qishloqda Omon sira kutmagan voqeа sodir bo'la boshladi: qo'shnilar binin-ketin janubga – Bandixon cho'liga ko'chib keta berishdi: cho'lquvar bo'lib... Omon ularni gangib kuzatar, bu qishloqni, shimoldagi Olattog'ni va unda bor archazorlar-u hayvon-parandalarni tashlab cho'lga – pashsha qaynagan Qiziriq cho'liga tushib ketayotganlarini aqliga sig'dirolmasdi...

Qovunni ko'rib, qovun rang olgani shumi – hademay qishloq bo'shab qoldi.

Bu endi qishloq emas, satti chordevor edi: tomlari buzilgan, yog'och to'sinlari ham olib ketilgan. Tez orada u yerda kalamush va sich-qonlar ko'paydi. Keyin esa ularning kushandalar boyqushlar ko'paydi: ba'zisi kunduz kunlari ham devor kemtiklarida hurpayib o'tirar edi.

Omon negadir bularni sira otmas, aksincha, ularni uzoq-uzoq tomosha qilishni yaxshi ko'rар,

ba'zan kechalari tashqariga chiqib boyqush sayrashini eshitganda – yurak seskanishi qayda – parishonxotir bo'lib tek qolardi.

Shunda u bu tun qushlarining mungli hamda nimasi bilandir tunga o'xshab ketadigan unlari-ga allaqanday singishar, go'yo o'zi ham shu tun-ga, shu mungli unga, boyqushga aylanib qolardi.

Uyda xotinning g'ishing-g'ishingi ko'paygan edi.

– Yovvoyi odamlarga o'xshaymiz... Siz ket-ganda, kunduz kuniyam qo'rqaman, bu yerda... Yosh bola bir o'zi markazga qatnaydi. Hademay qish kiradi...

– Men hech qayoqqa bormayman... Men ham shuning yoshida qatnar edim markazga... – deb qo'yardi Omon.

Bir kecha boyoqish juda zorlandi:

– Shamollabdi o'g'lingiz. Ichiray desam, sut yo'q, tomog'iga malham bo'lardi. Tog'dagi juva-nalaringiz inak bo'lguncha kosamiz oqarmas ekan...

– Xotin, chidasang – shu, chidamasang – jo'na!
– dedi Omon.

Xotin bir muddat boshini xam qilib turdi-da:

– Mayli. Taloq qilsangiz... – dedi.

– Bor. Taloqsan, uch taloq! – so'ng ayvonga chiqib birpas turdi-da, qaytib kirib, o'g'liga: – Sen qol... Anaviday miltiq olib beraman, – dedi.

– Menga miltiq kerak emas, – dedi bola.

– Bo'lmasam, sengayam katta yo'l!

Ertasi Omon tajang holda ovga ketdi. Yoz edi. Pishiqchilik. Har qanday shafqatsiz ovchi ham bunday paytda tog'ga chiqib, endi jo'jasini uchir-ma qilayotgan kaklikka yoki bolalari mushtdek

bo'lgan quyonga o'q uzmaydi: ularning ham ti-rik jon, surriyot qoldirishga huquqli ekanini his etishmi bunga sabab, balki ne bir sirli tuyg'u ularning ham inson qavmiga yaqin ekanini sezdi-radimi...

Omon ovchi shu ketishda katta bir burgutni ham otib, so'ng uni xo'b tomosha qilib, keyin uning xuddi besh yashar bolaning panjalaridek oq-sariq, biqqi barmoqli oyoqlarini kesib olib, uyga qaytib kelganda bari jihoz o'z o'rnila, faqat xotin bilan bola yo'q edi.

«Enam ham otamdan chiqib ketgan edi bir-ikki marta. Keyin qaytib kelib edi. Bular ham keladi hali...» deb o'yladi u va g'ashlanib esladi: o'shanda u har gal otasi yonida qolar edi.

Kiyik ovlarga chiqqanda to'rt-besh kunlab kimsasiz kamarlarda yotib, pistirmalarda tunab, yolg'izlikka mutlaqo o'rganib ketgan Omon mergan xotinsiz uyiga ham ko'nikdi. Boladan uning ko'ngli xotirjam edi...

Sakkiz gektar chiqadigan o'rikzorga qarash, qishda qovus suvi berish, bahor ayozlarida chalma tutatish, yoz boshida qurigan shoxlarini kesish (bir miqdor o'tin toplash rejasi ham bor) va hosilini yig'ib, qoqi qilib berish ham Omonning bo'ynida edi.

Ana shu – o'rikni qoqib, turshak qilish paytida uning ishi ko'payar, kunora tuman markaziga qatnashga majbur bo'lardi. Chunki sovxoz odam bermaydi. Odamni, ya'ni o'rikni qoqib teradigan va bo'yralarga yoyadigan «ishchi kuchi»ni u choyxonalarda valaqlashib o'tiradigan, ko'cha muyilishlarida to'p-to'p bo'lib, tekkanga tegib,

tegmaganga kesak otadigan bekorchilar orasi-dan yig‘ishi kerak. Yaxshiyam Omon ovchining ov sarguzashtlari ko‘plarni qiziqtirardi: ko‘plari hikoya eshitish uchun kelardi. Lekin har kun emas-da!..

Uning boshiga bir og‘ir kun tushdi.

Shundan uch oy oldin u qop-qop turshakni mashinaga ortib jo‘natgach, o‘ziga tegishlisini ham bir mashinaga yuklab markazga tushdi. Tayyorlov idorasiga topshirib, pulini oldi. Tentirab, Hamdamning uyiga bordi.

U televizor ko‘rayotgan ekan.

– Ke, ke. «Hayvonot olamida» bo‘lyapti, – dedi.

Omon do‘sining xotini bilan so‘rashib, ko‘rpa-chaga cho‘kdi. Rangli ekranda Kavkaz tizmala-ridan biri bag‘ridagi qo‘riqxona ko‘rsatilmoqda edi. Och jigarrang yonbag‘irda bir talay yovvoyi echkilar tizilib turardi. Boshlarini mag‘rur burib, pastga qarashadi. Pastlikda toshqin daryocha oqyapti. Tepadan tosh ko‘chdi. Kiyiklar «dik-dik» sakrab, yonbag‘irni aylanib o‘tib ketishdi. Keyin ularni boshlab yurgan shoxi gajak arxar cho‘qqi-da paydo bo‘ldi. Omon bu manzaraga bir qadar horg‘in ko‘z bilan tikilib turarkan, xayolan arxarni nishonga oldi: «Bo‘ynidan otsam... Yo‘q, o‘q yo kurakka tegadi, yo qulog‘idan pastroqqa... Obbo, bu yoqqa burildi-ku! O‘q sirpanib ketadi...»

– Yaxshi-ya! – dedi Hamdam. – O‘zimizning kiyiklardan farqi bormi?

– Yo‘q, – dedi Omon. – Lekin bizda kam qoldi. Operatorlar suratga olib bo‘pti!.. Keyin bular qo‘riqxonada ekan, odamga o‘rgangan, qo‘rq-

maydi. Echkiga o'xshaydi... Biznikilar juda shar. Odamning isini bir kunlik yerdan biladi.

Hamdam do'stiga choy quyib berdi.

– Bu yil ham kiyik oviga chiqasanmi?

– Chiqaman.

– Bir kiyik uchun besh yuz so'm jarima to'lar-mish... otgan kishi. Miltig'iniyam olarmish... – Hamdam Omonga yuzlanib o'tirdi. – Sen beparvo bo'lma u muxbirga. Orqangdan tushgan, jo'ra.

– O'lgisi kelgandir. Otmaganim – odam edi...

– keyin Omon ham unga yuzlandi. – Milisaning boshlig'i nima deb edi senga?

Hamdam uning tizzasiga urdi.

– Yaxshiyam eslatding... «Satti kiyik go'shti-ni Omon polvonning bir o'zi yeydimi yo sizlarni mehmongayam chaqiradimi?» – deb edi. Uni mehmonga chaqirmaslik kerak. Lekin Omon, ke, tavakkal-da, bir oqshom uning uyiga besh-to'rt kilo kiyik go'shti oborib tashla. Hozir emas, keyin, otganingda-da. He, qishdami...

– Besh-to'rt kilo go'sht nima bo'ladi? Butunini oborib tashlayman.

– Mayli-yu, Hamdam Omonning jo'rasi deb, qo'ynimga qo'l solib ko'rgan bo'llishiyam mumkin...

– Oyog'i sinib yotgan ekan, harom o'lmasin deb, so'yib oldim, deyman...

– Ha, bu gapingam ma'qul. U yer bu yerini atay sindirib qo'ysang, a?

– O'q yegan bilan darrov o'lmaydi. Shunda biron joyiga ursang, qon uvishib qoladi. So'yaning-dayam bilinib turadi... Keyin urib sindirishdan foyda yo'q.

– O‘, sen bilasan.

O‘riklar bargi qontalash bo‘lib to‘kila bosh-lagan, yomg‘ir savalab turgan kunlarning birida Omonni sovxoz idorasiga chaqirib, Bandixonga – paxta terishga borishini ma‘lum qilishdi. Omon «Bandixon» nomini eshitib, oyoq tirab turib oldi: «U yoqqa bormayman. Boshqa nima ish buyur-sangizlar, qilaman... Mayli, boshqa tumanga bor denglar, boraman», – dedi.

O‘rmon xo‘jaligiga qarashi lozim bo‘lgan ko‘p joylar, archazorlar hamda yovvoyi hayvonlar-u ov qushlari mo‘l bo‘ladigan qir-adirlar vaqtı za-monida sovxoz chegarasi ichida qolgan, sovxoz unga qorovul qo‘ymas, bunday shtat ham unda yo‘q, shu xususda viloyat gazetasida bir tanqid – maqola bosilgan ekan.

Sovxoz direktori shuni tilga olib:

– Mana, hademay qish tushadi, uka. Bu yil qish qattiq keladi, degan gap bor... Sovxoz o‘z chorvasi bilan parrandasini bir amallab qish-dan chiqaradi. Anavi yovvoyilar qirilib ketsa, yana boshimiz baloga qoladi, – dedi. – Shuning uchun, Omonboy, tog‘da, xususan, bizning yer-larimizda – qayerlarda haliday yovvoyi hayvon-lar ko‘p bo‘ladi, qayerda kaklik, chil ko‘p bo‘ladi, bular sizga ma‘lum...

Xullas, Omonning yoniga tag‘in bir kishini qo‘shib beradigan bo‘lishdi. Qiladigan ishlari: kiyiklar bor joylarda bitta-yarimta oxur yasab qo‘yish, kakliklar suv ichadigan, demak, o‘rganib qolgan buloqlari atrofini simto‘r bilan o‘rash... toki ularga sochib qo‘yiladigan donni o‘tkinchilar tashib ketmasin.

Omon merganga bu vazifa juda ma'qul tushdi. Keyin o'ylanib so'radi:

– Men to'g'rimda har xil gap yuradi, direktor bobo... Shu jihatdan meni sinash emasmi bu?

– Insosingiz bor-ku, uka! – dedi direktor. – Agar qo'yni bo'riga topshirib qo'ydi, deb o'z bil-ganiningizni qilsangizam xudo bor-ku!.. Oxiri yaxshi bo'lmasa kerak.

«Nima bo'lardi? – deb o'yladi Omon. – Izimdan tushgan odam meni qo'lga tushirmasa, hech nima bo'lmaydi. E-e, tushirib bo'pti!..»

Omon mengan tunda: o'rmonda, tog'da hech narsadan qo'rwmagani kabi jin-ajina degan nar-salarga ham ishonmas, shu ma'noda «qon tutadi», «gunoh», «ko'z tegadi» degan gaplarning ham uning uchun ma'nosi yo'q edi.

Masalan, qadimdan qolgan gap bor: ovchi kiyikdan bitta otishi kerak... Aks holda, bir falokat yuz berishi mumkin emish. Omon bu gapga ham panja orasidan qarardi. Chunki bu gap – qadim-qadimdan kiyiklarni asrab qolish, ularni qirib yubormaslik uchun diniy tus berib aytilgan, deb o'yldi.

Tag'in, xalqda: «Har kim o'z kasb-koridan topadi», degan hikmat bor. Buning yaxshi ma'nosi o'z yo'liga, yomon ma'nosi – shu kasb-kor yo'rig'ida olamdan o'tadi, degani bo'lsa kerak. Masalan, o'taketgan zo'r qassoblar umrining ma'lum bir pallasida shu darajaga yetarmishki, yostiqdoshi ehtiyot chorasi deb uning pichog'ini yotganda yashirib qo'yarmish...

Shundayki, «ovchiyam ovdan topadi», deyishadi. Bunga ham hayotda misollar ko'p...

Omon mergan bu xil hangomalarga ham panja orasidan qarardi va eshitgan har bir hikmati ta’biri o’zga bir mantiq bilan izohlab bera olardi.

Omon sovxoz idorasidan qo’shilgan yigit bilan bir hafta Olatog‘ atrofidagi sovxoz yerlarida kezib, topshirilgan vazifani ado etib qaytdi-da, bu ishga beixtiyor qiziqqani uchun uyidan ikki do’ng naridagi Quruqsoy yoqasida ham kakliklarga bir kichik qo’riqxona yasashga kirishdi: Hamdanning yordamida yuz gaz simto’r topib kelib, soy jiyagidagi Yolg’izbuloqning atrofiga tutdi.

Soy bejiz Quruqsoy deyilmas, u ko’klamda to’lib oqqani bilan yoz o’rtasiga yetmay, suvi qu’rib qolar, tevarak-atrofdagi bir necha gala «o’troq kakliklar» shu – Yolg’izbuloqning sal nariga oqib borib, yerga singib ketadigan suvidan ichardi.

Omon ovchi bu kakliklarni o’z xo’jaligidek bilar, tog‘ga chiqishga xushi bo’lmaganda, ulardan uch-to’rttasini otib olib, xumorini bosardi.

Shu orada – shu qish ichi uning boshiga og’ir kun tushdi.

Qor tingan, havo ilmiliq edi. Omon «indamas»ni zanglatmaslik uchun o’rikzorga oraladi. Bitta zag’izg‘on otdi. So’ng uni olvolish, tog‘da tulki ko’rgan yerlariga qo’yib poylashni o’yladi-yu, buni o’ziga ep ko’rmadi. Otilgan zag’izg‘on otvorildi...

U kiyik oviga jo’nadi. Uy orqasiga o’tganda bo’ri izini ko’rdi. Iz naridagi choldevorlar tomon ketgan, qorda baayni bitta bo’ri yurgandek edi. Biroq Omon bitta emas, kamida ikkita bo’ri yurganini izning kattaligidan bildi: odatta, bo’rilar ovga chiqqanda, bir-birining izini bosib yurishadi.

Omon jilmayib qo'ydi. Ertalab ovchiga bo'ri uchrassa, ovi baror oladi, deydilar. Shuni eslagan edi. Keyin bu udumning aksini qilishni istab, qishloqni chetlab o'tib ketdi.

Qor qalin va yumshoq edi. Omon mergan mahsi ustidan choriq kiyib olgan, oyog'i yengil, qorga botmasdi.

U Olatog'ning ilk cho'qqilaridan biriga yetguncha havo ochilib, kun chiqdi: ayni kaklik ovlaydigan payt bu. Kun sovuq emaski, kakliklar kamarlardan chiqmasa. Tuman ham yo'qliki, uni ko'rish qiyin bo'lsa.

Omon mergan Olatog'ning o'zi toshini sangan so'qmoqlaridan biriga tushganida, yuqorida-gi cho'qqilardan qor ko'chdi. Guvillagan tovush tingach, jarlikdan oq to'zon ko'tarildi. Shunda qarshisida bir kiyik o'ynoqlab chiqdi-ku!

Omon uning qoq manglayini nishonga olib otdi. Jonivor tepaga bir sakrab, pastga qulab ketdi. Shunda... uning o'rnida yana bir kiyik paydo bo'ldi. Omon miltiqni o'qlay solib, uni ham otdi. U ham tepaga bir talpinib, quyiga uchdi. Keyin esa, shoxi gajak bir arxar ko'rindi. Omon miltiqqa o'q joylar ekan, allanechuk shoshar edi. Arxarning ham ajali yetgandek qochmasdan quyiga qarab turib qoldi. Omon uni ham otdi...

Keyin ancha kutib yotdi. Boshqa jonzot ko'rinnadi. O'z-o'zidan ma'lum: bu kiyiklar ko'chidan vahimaga tushib qochgan, orqasidan bo'ri-mo'rining quvgan bo'lishi ham ehtimol. Aks holda o'zini o'qqa tutib bermasdi, bular.

Omon otishga... shunchalik berilgandiki, kiyiklarning qayerga yiqilib tushayotgani haqida

ham o'ylamasdi: yana otgisi, jonivorning sakrab tushib ketishini tomosha qilgisi kelardi.

Nihoyat, u iz tushmanagan so'qmoqdan qop-londek yengil yurib borarkan, ular yiqilgan joy suv urib ketgan arna ekani, kiyiklar u yerda bo'lmasa, etakka uchib ketganlarini tusmolla-di. Borib qarasaki, uchovi ham shu yerda, os-tin-ustun bo'lib, qonga belanib, hamon tipirchi-lab yotishibdi.

Omon ular yotgan joyga bir qur ko'z yugur-tirib, birini ham ola bilmasligiga ishondi: ular besh-olti gaz pastda – tokchada, ikki tomon esa tik devor.

Omon mergan ular ko'p tipirchilasa, pastga tushib ketishlari uchun har biriga yana bittadan o'q bo'shatishni ma'qul ko'rdi. Masofa arzimas darajada. Cho'nqayib, birining qulog'idan, biri-ning yuragidan otdi.

Kayfi chog' holda kechki payt qishloqqa qaytib keldi.

...U kiyik otishga berilib, ularning qayerga tu-shayotganini o'ylamagani singari, buning shavqi orqasida tag'in bir narsani xayoldan faromush qilganini ertasi kuni do'sti Hamdam bilan bir eshakka arqon va qop tashlab, shu joyga kel-ganida bildi.

Uchala o'ja ham dabdala bo'lgan, besh-oltita bahaybat, bo'yni tuksiz g'ajirlar ularni «hashar» qilmoqda edi. Omon miltig'ini o'nglaguncha, ular o'zlarini jarlikka «tashlab» uchib ketishdi. Shunday esa-da, Omon ular orqasidan o'q bo'shatib qoldi.

Uning ta'bi xira bo'lgan, ikki kiyig-u bir arxar-dan ajralgan edi. Bu yerda ortiq turmay, orqaga qaytishdi.

– Uvol bo‘pti-e, uvol, – dedi Hamdam. – Yomon ekan-ku, bular, a? Arxarning ko‘zini o‘yib yeayotgan ekan bittasi.

Tog‘dan ena boshlaganda Omon mergan, ni-hoyat, tilga kirdi:

– Otam aytgich edi, urush yillari tog‘da yolg‘iz qolgan odamlarni ham yeb ketishgan bu qushlar. Rost aytding... Bo‘riga tashlansayam ko‘zini o‘yadi oldin. – Keyin u siniq kulimsiradi. – Biron joyda shikastlanib yotib qolsang, hech chalqancha yotma...

Qishloqqa yetishgan edi.

Yo‘lni kesib suv urgan arna o‘tadi. Uning tubidagi suv allaqachon muzlab qolgan, eni ikki gazdan oshiq esa-da, Omon undan bemalol sakrab o‘tib ketib yurardi.

Eshak qurg‘ur ariqning tor joyidan ham o‘tmay taysallayverdi. Hamdam narigi betga hatlab, no‘xtadan tortdi. Omon uning quymuchidan zo‘r berib itargandi, hayvon lipillab o‘tib ketdi-yu, Omonning oyog‘i ostidagi qor ko‘chib, to‘p etib muzga tushdi. Arnaning bu tor yeri ancha chuqur edi. Undan ham chuqurroqqa Omon sakrab tushsa, hech narsa bo‘lmasdi. Chunki tabiiy hol, u tizzalarini bukibroq sakrar edi. Hozir esa, muzga tikka tushdi.

Oyoqlari sal og‘ridi, xolos. Biroq o‘rnidan turgan edi, to‘piqlarida og‘riq shunday zo‘raydiki, u engashib qoldi. Shu ko‘yi qirg‘oqqa tirmashdi. Hamdamning qo‘lidan ushlab, arnadan chiqib oldi. Biroq yana o‘rnidan tursa og‘rishini tusmollab qorda o‘tirgancha, mahsisini yechib qaradi. Ikki oyog‘ining to‘pig‘i ham shishib ketgan,

yon-verida jigarrang dog'lar paydo bo'lgan edi. Omon mahsini kiyib:

– Jo'ra, hech munday bo'lмаганман. Eshak-ni qaytar, – dedi.

Hamdam eshakni qaytarib kelib, unga o'ng qildi. Omon bir qo'lini do'stining yelkasiga tirab, eshakka minib oldi.

– Oyog'im chiqqan bo'lsa, chatoq... Eski siniq-chi ustalardan qolganmi?

– E, ustani nima qilasan? – dedi Hamdam. – Shifoxonaga boramiz. Eng zo'r ustalar o'sha yerda. Rentgen qilishadi. Bilishadi...

– Bo'lmasam ko'chadan yurmaylik.

– Mayli, Ichaksoydan boramiz.

Ichaksoydan borib, kasalxonaning etagidan chiqishdi. Omon miltiqni qopga solib, qorga ko'mdirdi-da, nihoyat, to'qimda boshini egib o'tirgancha kasalxona darvozasidan kirdi. U garaj oldida Hamdamni biroz kutib qoldi. Hamdam borib, jarroh va rentgenchilar bilan gaplashib keldi.

Omon eshakdan tushib yurolmay qoldi. Uyal-ganidan ter chiqib ketib, do'stiga suyana-suyana tegishli xonaga yetdi. Uni tanish hamshira tepasiga qandaydir apparatlar engashib turgan muzdek karavotga yotqizdi.

Oyoqlari shishib ketgan edi. Mahsilar qo'njini yorib chiqarishdi. Keyin oyog'i uchini dam shiftga qaratib qo'yib, dam yonboshlatib, rentgenga tushirishdi.

Birozdan keyin ho'l, yaltiroq-sarg'ish qog'ozni keltirib, Omonga ko'rsatishdi.

– Ana. Katta boldir suyagingiz singan. Bolshoy bertsoviy kost singan... To'piqning ustidan.

Ikki oyog'ingiz ham... Yomon bo'pti, Omon aka. Ochig'ini aytamiz, buning tuzalishi qiyin bo'ladi. Oyog'ingiz gipsdan chiqqandan keyin ham besholti oy qo'lтиqtayoqda yurasiz. Gavdaning og'irligi to'piqqa tushadi-da...

Omon merganning oyoqlarini oq sement aralashmasi shimdirlgan qalin dokalar bilan tizzasigacha o'rab gipslashdi. Gips tezda qotar ekan.

Keyin Hamdam eshakni deraza pastiga olib keldi. Omonni o'tqizib jo'nadi.

– Kelgan yo'limiz bilan ketamiz, jo'ra. Qop bilan miltiqni olib berib, o'zing qolsang ham, mayli.

– Gapirma. Mening boshimga shunday kun tushsa, nima qilarding sen?

Omon g'amgin kulimsiradi.

– Bilmadim.

– E, toshni yesa bo'lmasmidi go'sht o'rniga, o'sha boshliq? Qani, endiyam izingdan tushib ko'rsin!

– Bo'lmasam, men bilan uygacha bor... Sandiqda mo'miyo bor... Olib bersang, bo'ldi. Keyin, he-e, Qizilqishloqda Mazifa ammam turadi...

– Bilaman, bilaman. Senga birov qaramasa bo'ladimi?

Shunday qilib, Omon mergan arzimagan bir ehtiyotsizlik orqasida ikki oyoqni nogiron qilib, yotib qoldi.

Amma kelib yig'ladi.

– Senga ko'z tegdi, – dedi. – Keyin – hadeb joni-
lini jonsiz qilishingniyam xosiyati yo'q. Qusham xudoning maxluqi... Uyam bir vaqtlar odam
bo'lgan emish...

Omon oyoqlarining singan joylarini solayotgan-
da ham inqillamagan edi. Endi ihrab yubordi.

– Miltiqni obering! Yonimda tursin...

Amma qo'rqa-pisa «indamas»ni, keyin u aytgan yerdan bir changal o'qni olib berdi.

...Kun degani shundayki, boshingga og'ir savdo tushganda ham, o'ynab-o'ynoqlab yurganiningda ham – o'taveradi.

Omon mergan birinchi kunlar, kishi bilmas, juda siqildi. Keyin bu siqilishni o'zidan ham yashirishga bo'lgan beixtiyor intilish tufayli ahvoliga ko'nika... boshladi.

Hamdam ikki-uch kunda bir kelib ketardi. Mazifa opa esa kunora ayvondagi o'choqda bir issiq piyova qilib, Omonning oldiga bir kosa tortadi-da, qolganini sandal qo'riga qo'yadi.

Omon mergan sandal yonida, ichkarida o'tirgan odamga tashqari bermalol ko'rinsin uchun past qilib qurilgan deraza tagida yotardi.

Yigirma kunlar o'tib, Omon to'piqlari usti qichishayotganini sezaga boshladi: bu – tuzalish alomati edi. Lekin boshqa narsa uning g'ashi-ga tegardi: oyoqning shishi qaytib, «kichraygani» sari gipsga yopishgan tuklar tortilar...

Omonning o'zi tizzasida cho'kkalab yurib, hujatga chiqib kelardi.

...Olimidan bir kun oldin kechasi bilan qor yog'ib chiqdi. Keyin qattiq shamol esdi: qor uchqunlari deraza oynasiga potirlab urilardi. O'rikzorda ikki-uch marta bo'ri uvlagani eshitildi. Ertalab havo tund, osmonni past tushgan bulutlar qoplab olgan, ayvonda chumchuqlar chirqillashar edi.

Omon ittifoqo kaklik sayrashini eshitib qoldi!

«Ha, qor qalin. Yemish uchun qishloqqa engan», deb o'yladi va shunday paytlarda chol-

devorlar ichida kezib, ham kakliklarni uchirib otgani, qanotlari muzlab qorga kirib qolgani-ni tayoq bilan urib olganini... eslab, shunday betoqatlandi! Darhol turib o'tirib, miltiqqa o'q joyladi. Keyin derazadan bog'ga uzoq tikildi. Ammasi bilan Hamdam bosib keladigan so'qmoq ham ko'rinas edi.

«Kak-kiba, ka-kiba, kak-kak-kak!..»

Kaklik uyi orqasidan, chamasi, o'sha Quruqsoy tomonda sayrardi. Omon aqlini yo'qotgandek kalovlanib, tik kiteli kissasiga ham uch-to'rtta o'q soldi-da, choponining yenglarini ham kiyib, o'rmalay ketdi. Ayvonga chiqdi.

Kaklik haqiqatan ham Quruqsoy tomonda sayrardi. Shunda u Hamdamning yaqinda sov-xozdan ikkita odamni yo'lda uchratgani, ular ikki eshakka bug'doy to'la xurjun ortib, tog'ga keta-yotganlarini aytganini eslab, miyig"ida jilmaydi. «Soy bo'yidagi qo'riqqayam don sepishgan...»

Boshqa payt bo'lganda Omon bu tariqa ovdan or qilardi.

Hozir...

U shahd bilan supa labiga emaklab bordi-da, qorga tushsa, gipsi nam tortishini o'yladi. Keyin: «Sandalda quritib olaman-da!» – deya bir qo'lini qorga botirdi – qor tirsakdan keldi. Keyin ikkinchi qo'lini botirdi. Keyin sudralib tushib, oyoqlarini tizzadan ko'tarib oldi.

Shu tobda uzoqdan qaragan kishi uni ko'rmas edi.

U ketarkan, harbiyda shunday qilib – «po plas-tunski» yurgan chog'larini ham esladi...

Omon birinchi tepalik ustiga chiqqanida, oyog'ini tizzadan bukishni unutgani, bemalol

sudralib kelayotganini ko'rdi. Garangsib uni siypab ko'rayotgandi, kaklik narigi do'ng ortida sayrab yubordi yana.

Omon mengan burila solib yana o'rmalay ketdi. Bu yoq enish edi. Tez tushdi. So'ng oxirgi kuchi-ni to'plab olmoqchidek birpas hansirab, bo'yniga osig'liq miltiqni pastdan ko'tarib turdi-da, yana shahd bilan tepalikka tirmasha ketdi. U ba'zi joylardan sirg'alib tushar, yana emaklar, bunga sari ko'ziga qon to'lib borar edi.

«Ularni otmasam, qaytmayman!»

Omon o'rkachda!..

Simto'r bilan o'ralgan «qo'riqxona» ichida, qordan chiqib turgan yapaloq xarsang ustida uchta chiroyli oqish kaklik «chug'ur-chug'ur», «g'ut-g'ut» qilib donlashar edi.

Omon g'ayritabiyy olayib, bittasini nishonga oldi. Shoshilmasdan otdi. Kaklik nariga surilib ketib tek qoldi. Omon miltiqni o'qlay solib, ikkinchi kaklikni ham otdi. U tipirchilab qoldi. Shundan keyin uchinchi kaklik uchmoqchi bo'lib, chetga bordi-da, sheriklariga, keyin tevarakka biroz qarab turib, tag'in tez-tez donlayverdi.

Uning nihoyatda och ekani ko'riniq turardi.

U ham cho'zilib qolgach, Omon mengan tezroq tushib bormasa, uchovi ham tirilib uchib ketadi-gandek shitob bilan pastga ena boshladi.

Endi...

Yapaloq tosh. U yonboshlab yotgan ko'yi kakliklarni bitta-bitta terib oldi. Nihoyat, ularga jilmayib qarab, patlarini titdi: o'q tekkan joylarini ko'rdi.

So'ng o'zidan qanoatlanib, hali... tuzalib, oyoqqa turib ketsa, yana ovlarga chiqishi, mayli, hozir

kakliklar kamayib, kiyiklar yuksak cho‘qqlarga chiqib ketgan bo‘lsa ham, o‘zining o‘sha yerkarda ham chiqib borishini xayol qilib, bir muddat rohatlanib o‘tirdi.

Keyin tuyqus xayoliga bir gap keldi: «Olatog‘da jonivor zoti qurisa, nima qilaman? – uning ko‘ziga Hamdamning uyida televizorda ko‘rgani Kavkaztog‘ manzarasi, kiyiklar ko‘rindi. – Boraman. U yerkargayam boraman...»

U mana shunday xayol bilan band ekan, qor yana uchqunlayotganini ko‘rdi. Shunda yana... oyog‘i esiga tushdi: chamasi, bu shunday ikki oyoqli maxluq ediki, yarim tanasi uzilib qolgan chog‘da ham, ruhi ovda... o‘ldirishda... bo‘lar, chamasi, shuning o‘zi unga bas, shu hayot edi.

...Omon mergan shu o‘ylaridan keyin besh daqiqa ham o‘tar-o‘tmas nobud bo‘ldi.

U miltiqni tag‘in bo‘yniga osib, kakliklarning bittadan oyog‘ini bir qilib tishida tishlab, kelgan izi bilan o‘rmalab ketar ekan, simto‘rni tagidan ko‘tarib o‘tgan yeriga yetganda, bir sir-pandi-yu, og‘zidan kakliklarning oyoqlari chiqib ketdi. Omon ularga qo‘l cho‘zganda yonbag‘irga ko‘ndalang bo‘lib qoldi. So‘ng asta-sekin dumalay boshladи.

U dumalagani sari bir o‘ram oq kigizga o‘xshab ko‘rinar, biroq kigiz tobora yo‘g‘onlashar edi. Oqibat, ajabtovur paxta toyidek bo‘lib borib, yulg‘unlar ichiga kirib to‘xtadi.

...Omon bu paytda ham tirik edi. «Nima bo‘lyapti? Nimaga?» deb o‘ylardi. Nihoyat, nafasi bo‘g‘ildi. Ko‘tarilmoxchi bo‘lgan ko‘ksini qor bosib, dami ichiga tushib ketdi. Miyasida esa o‘sha savol javobsiz qoldi.

Qor yoqqandan yog'ib, kechasi bo'ron turdi.
Qorni to'zitib, tekis yerlarda kurtuklar paydo qil-di, qori qalin betlarni yalab-supurib ketdi.

Erta ko'klamda o'rikzorga qorovul etib tayin-langan Ulton piyon degan kishi qishloqda bu-zilmay qolgan yakka-yagona uy – Omon ovchi-ning uyini ko'rgani kelib, uni xosiyatsiz deb topdi: egasi g'oyib bo'lgan, axir. Keyin yonida olib kelgani yarimta aroqni maydalash uchun Quruqsoy bo'yidagi tepalikka ko'tarildi. Ancha o'tirdi. Kun bota boshlab, shisha ham yarimla-ganda qo'zg'aldi. Soy ichi bilan ketishni ma'ql bilib pastga enayotgan edi, hali barg chiqarishga ulgurmagan yulg'unlar orasida do'mpayib yot-gan g'alati qor kurtugiga e'tibor qildi. Unga ya-qinlashib o'tarkan, undan chiqib turgan bir juft oppoq...

Burila solib soy ichi bilan qochdi. Uyiga yaqin-lashganda, o'pkasini bosib olish uchun shishada qolgan aroqni ham simirdi-yu, uyg'a yetib o'chib qoldi.

...Ertasi Ulton piyonning vahimasiga «er-gashib» tumandan chiqib kelgan bir to'da odam Quruqsoy yoqasiga enaverib, ko'ngil aynituvchi manzarani ko'rди.

Bir gala masliqxo'r g'ajirlar yulg'unzor ichida, go'yo qor supasida yotgan bir kimsani cho'qib-cho'qib yer edi.

1985

BODOM QISHDA GULLADI

Men burchakda, karavotimda chalqancha yotardim, behol. Ko'kragimda Stendalning «Qizil va qora» romani. Eshikdan oq xalatli, semiz Polina, uning ketidan pakana, qora patli xalating etagi yerga tegib turgan bir yigitcha kirdi. Uning iyagi oldinga turtib chiqqan, ko'zi chuqur, peshonasi botiq edi.

– Sizlarga yangi mehmon olib keldim, – dedi Polina hammamizga tegishli qilib. So'ng men tomonda yotgan jo'raboshimiz Ziganshinga qaradi: – Qabul qiling, o'rtoq starosta. Bu kishining ismi... – u yigitchadan so'radi: – Ismingiz nimaydi?

– Nosir, Nosirjon! – dedi mehmon hozirjavoblik bilan.

– Ana, Nosirjon ekan, – dedi Polina. – Palataning tartib-qoidasini o'rgating, – so'ng elektr choynak qoshida turgan kursini unga ko'rsatdi: – O'tiring, Nosirjon. Men hozir kelaman.

Nosirjon onasi ish buyurgan yosh boladek kursiga o'tirib, kalta qo'llarini tizzasiga qo'ydi. So'ng birdan irg'ib turib, dam u, dam bu tomonga qarab:

- Assalomalaykum, assalomalaykum! – dedi.
- Vaalaykum, – dedi Ziganshin. – Endi tani-shib olamiz-da. Qani, o'zlar ni ma ish qiladilar?
- Kuryer, – dedi Nosirjon o'rnidan turib.
- O'tiring... Kuryer? Qayerda?
- Aptobus parkida.
- A, ni ma bo'lib... siz ham jigar kasalmi?
- Jigar! – Nosirjon o'ng biqiniga kaftini bosib qo'ydi. – Hech munqa kasalim yo'q edi. Erta-

lab parkka kelsam, bitta tanish shopir: «Ko'zing sarg'ayipti, tibbiyot punktiga kir», deb qoldi. Tibbiyot punktiga kirsam, jigar kasali, deb aytishdi. Keyin «skoriy pomosh»ga o'tqizib, buyoqqa yuborishdi. Pastda tekshirishdi. Cho'miltirib, mana bularni kiydirishdi. Keyin bu yerga... o'zingiz nima ish qilasiz, aka?

Ziganshin g'urur bilan kului:

– Karavotsozlik fabrikasida injenerman!

Nosirjon juda ulug' odamga duch kelganday o'rnidan turib ketayozdi. So'ng boshqa bemorlariga ham hurmat va sezilarli qo'rquv bilan bir-bir qaradi.

– Bu yerda yotgan boshqalar ham... chakana odamlarmas! – dedi Ziganshin. – Anavi odam yozuvchi! – deb meni ko'rsatdi.

Nosirjon menga tikildi. Men unga «shunaqa aybim bor», degandek siniq iljaydim. Lekin uning ko'zлari katta ochilib ketgan edi. Jo'ra-boshimizning so'zi davomiga qulq solmay:

– Men shoir Rafiqiyni ko'rganman! – dedi u hayajon bilan. – Apisha zakaz qilish uchun bosmaxonaga boramiz-da! He, ko'cha devorlariga, avtobuslarga yopishtiriladi-ku, apisha? O'sha uchun... O'shanda ko'rganman. Oq sochli kishi ekan.

Dam hajviyanamo, dam qasidanamo she'rlar yozib yuradigan, qalam ahli orasida obro'siz, menga yoqmaydigan bir tizmakash edi Rafiqiy. Men horg'in bosh irg'agan bo'lib:

– Taniyman... Yaxshi, – dedim.

Ziganshin hamxonalarini tanishtirishda davom etdi:

– Bu kishi – tilshunos, institutning ilmiy xo-dimi; bu kishi – mashhur montyor, ushbu kasalxonaga ikkinchi bor tushishlari: u kishi – Qodir etikdo‘z, ammo zo‘r kitobxon; anavi yigit – buxorolik. Gazli zilzilalarini ko‘rgan, xolalari-ning uyiga kelganda shu kasalga yo‘liqib, bu yer-ga tushib qolganlar; narigi kishi – miliitsiya ka-pitani, yoshliklarida lo‘li qizga oshiq bo‘lganlar...

Polina kirdi. Qo‘ltig‘idagi choyshab va adyollar-ni burchakdagi bo‘s sh karavot chetiga qo‘yib, bi-rin-ketin yozdi. Qappaytirilgan oppoq yostiqning yon-veriga «tap-tap» urib, sochiqni karavot boshi-ga tashladi. Tumbani ochib, bir pachka qog‘ozni g‘ijimlab oldi-da, Nosirga jilmayb, ta’zim qildi:

– Marhamat, Nosirjon!

Nosir sakrab turdi. U ham beo‘xshov ta’zim qilgan bo‘ldi.

– Shumi mening karavotim, shumi? – deya tumba qoshiga o‘tdi.

– Shu, shu! – dedi Polina faxr bilan.

Nosirni bir men emas, boshqalar ham kuzatib yotishardi. U jilmaygancha oppoq choyshabni si-lab ko‘rdi.

Yostiqqa qo‘l tegizdi. So‘ng to‘sak chetini qat-lab, karavot qirg‘og‘iga o‘tirdi. Polina kulib:

– Xo‘b. Tezroq tuzalib keting. Tartib-intizom-ga rioya qiling... Ko‘p harakat qilmang. Hoziroq yoting! – deb chiqib ketdi.

Nosir shosha-pisha xalatini yechdi. Qidirinib, eshik yaqinidagi ilgichga ildi. Keyin zimdan bizning qanday yotganimizni ko‘zdan kechirib, asta adyol-ni ko‘tardi. Tovoni qiyyayib ketgan eski tuflisidan kichkina oyoqlarini chiqarib, karavotga tizzalab chiqdi. Asta cho‘zildi. Adyolni ko‘ksigacha tortdi.

– Xo'b, gurung bering endi, Nosirjon! – dedi Ziganshin.

Chindan ham palatada aytilmagan gap kam qolgan, ko'p latifalar ikki-uch marotalab aytilgan, kimning nima to'g'risida gapirishi ham taxminan ma'lum edi.

Bunday vaqtda kishi ermakka muhtoj bo'ladi.

Nosirjon Ziganshinga o'xshab karavotining boshi tomon surilib o'tirdi.

– Shu bizning ishimiz qiziq-da, – dedi.

– Nimasi qiziq?

– Deylik, o'zim... – Nosir bu tomonga o'ngarilib oldi. Birdan hayajonlanib: – Odamlarga hayronman! – deb xitob qildi. – O'zlari aptovusga chiqadigan bekatning nomini bilishmaydi, aka! Uni bilsa, narigi bekatni bilishmaydi. Uni bilsa, qanday aptovuslar to'xtab o'tishini bilishmaydi!

– O'shalarni bilish juda shartmi?

– E, qiziq ekansiz-ku, siz ham! Bilmasa adashadi-da!.. Adashadi! – deb ta'kidladi u zo'r qanoat bilan. So'ng o'zicha maza qilib davom etdi:

– Desangiz, bizga... menga har oy bepul abonelement qog'oz berishadi. Bo'sh vaqtim bo'ldimi, duch kelgan aptovusga tushaman. Shaharni aylanaman... Misol uchun, aptovusda ketyapman. Ko'rib qolamanki, bekatda bir chol alanglab turipti. Sezaman: yo'lni bilmaydi, adashgan... Shartta aptovusdan tushaman. «Salomalaykum, otaxon! Yo'l bo'lsin?» «E, bolam, adashib qoldim. Falon joyga bormoqchi edim». Men darrov u kishiga tushuntiraman: «Shundoq aptovus ke-ladi, o'shangan o'tirib, falon bekatda tushasiz»...

Vassalom. Chol bizni duo qiladi. Men yana aptovusga tushib ketaveraman. Yana bir bekatda...

– O‘, siz juda olijanob ekansiz! – dedi tilshunos qo‘schnim ovozida sezilarli kinoya va quvlik bilan.

Nosirjon yayrab ketdi.

– E, unchilik emas, aka!

– Nosirjon, uylanganmisiz? – deya yotgan joidan turib o‘tirarkan, so‘radi Eshim montyor.

Hamma kulib yubordi: Eshim ayollar haqida, nuqul o‘shalar haqida suhbatni yoqtiradi va o‘zi ham shundan so‘zlab charchamaydi. Bu borada behayo gaplarni ham aytib yuboraveradi.

Nosir Eshimga tikilib qoldi-da, duv qizardi.

– E, qo‘ying-e! – dedi yosh boladek.

– Iye, nega qo‘yar ekanman? – deya avj qila boshladi montyor. – Hayot – o‘shalar bilan hayot, uka! Bizni bor qiladigan ham, yo‘q qiladigan ham o‘shalar, sizga aytsam! Masalan, o‘zim! Uylanganman. Ikkita bolam bor... – u davomini aytishdan o‘zini tiyib, Nosirga tikildi. – Hali... yaxshi ko‘rganingiz ham yo‘qmi?

Nosirjon battar qizarib, boshini egdi. So‘ng qandaydir titrab...

– Odamdan kulmang-da, aka, – dedi.

– Nega kular ekan? Siz yigit kishisiz! – deya luqma tashladi buxorolik Aminjon.

Nosirjon o‘zining yigit kishi ekanini ilk bor eshitgandek, Aminjonga hayrat aralash o‘qraydi. Keyin o‘zicha jiddiy tortib, bemalol shiftga boqdi. O‘ylandi.

– Yo‘q, – dedi.

Uning jiddiyati ham kulgili, ham yoqimli edi.

- A, bolapaqir-a! – deya xitob qildi Ziganshin.
- Dunyoning lazzatidan benasib yurgan ekan-san-ku, uka! O, muhabbat! – yana bir parda ko'tarildi: – San'atsiz turmush – vahshiylik, deymiz. Lekin muhabbatsiz turmush-chi?!

Nosir «Rosti bilanmi?» degandek jo'raboshiga uzoq tikilib qoldi-da, so'ng bordan menga qaradi. O'rnidan qo'zg'aldoqchi ham bo'ldi. Polinaning gapini esladi shekilli, yana yotdi.

Men bunday sodda yigitni ko'rmagan edim.

Osma ukollarni olib kelishdi. Odam boshiga bittadan. Sepoya ustiga shisha idish o'rnatilgan, idishning biqinida – qizil rezina ichak. Ichak uchida – igna. Shu igna bilak tomiriga sanchib qo'yiladi. Idishdagi qonni tozalovchi suyuqlik shu orqali tomirga o'tadi. Qon suyilib, badan sovib ketadi.

Navbat Nosirjonga yetganda Polinaning ishi o'ngidan kelmadi. Palatamizga qarovchi shifokor – Qobil doktorni chaqirdi. Qobil doktor, odadagicha – labida sigaret, Nosirning boshida xo'b kuymalandi. Oxiri:

– Siz dorili suv ichasiz. Stakanga quyib bering, Polina! – dedi-da, mening yonimga keldi. – Qalaysiz, shoir? – u qo'llarini xalati kissalarini yirtgudek qilib tirab, menga tikildi. Yonboshimdan Stendalning kitobini oldi. – A, – dedi. – Buyam she'r yozganmi?

– Men she'r yozmayman, – dedim.
– Baribir, – dedi u. – Eski zamonda hammalingni shoir deb atashgan.

U tabobatdan ham o'sha zamonlar muolajasi ni ko'proq tan oladi. Ota-bobosi tabib o'tgan.

– Bu gapingiz to'g'ri, doktor, – dedim.

– Oqshom bir she'r olib kiraman. Ko'rib berasiz.

U nuqul Usmon Nosirning she'rlaridan ko'chirib kelib, menga ko'rsatadi. Men unga: «Yaxshi she'r yozibsiz», – deyman. U: «Men baribir shoir bo'lmayman. Shunchaki ko'ngil uchun...» – deb qo'yadi. O'zining ahvoli-ku, ma'lum, mening yolg'on gapistishimni ham bilsa kerak. Mayli-da. Vaqtini ayamay bir shoirdan she'r ko'chirib-dimi... yaxshi ko'rganidan ko'chirgan. Rafiqiyga o'xshash da'vogarlardan shular tuzuk-da.

– Nosirga... ichishni buyurdingizmi?.. – deb so'radim.

– Tomiri et orasida qolib ketgan. Yoshligida raxit bo'lgan. Hechqisi yo'q, – dedi u. Keyin sigaretini bemalol burqsitib chiqib ketdi. Polina havoda suzayotgan pag'a-pag'a tutunni sochiq bilan yelpigan bo'lib, zorlandi:

– Qobil aka hammani hayron qiladi, tavba!

– Lekin qo'llari yengil-a? – dedi montyor.

Polina ko'zlarini katta ochib:

– Voy, asti so'ramang! ToshMigayam chaqirib turishadi! – dedi.

Idishdagi suyuqlikning kamayishi, tamom bo'lishini kutib yotish kerak. Kishi zerikadi. Qo'l uvishadi.

Polina chiqib ketgach, Nosirjon tumba ustiga olib qo'yilgan idishdagi suyuqlikni birpasda ichib bo'ldi. Keyin o'ziga favqulodda bir yengillik berilgan-u, biz, bechoralar atay mashaqqatga solingandek, mammuniyat bilan jilmayib, karavoti qoshida biroz turdi. So'ng qo'shnisi – Aminjonning yoniga asta o'tdi. Engashib, uning bilagiga qaradi.

- O‘, qon chiqyapti-ku, yana!
- Bor ekan, chiqadi-da, – dedi Aminjon. Nosirjon bosh chayqab kuldil.
- Mening tomirimni topisholmadi, – dedi quvonch bilan. – Ilgariyam topisholmagan. Keyin oyog‘imga ukol qilishgan.

Bemorlar tomirlaridan igna chiqib ketmasligi uchun ohista kulishdi. Nosirjon har bir bemor yonida bir to‘xtab, mening qoshimga yetib keldi. Stulni olib o‘tirganida Ziganshin toqat qilib turolmadi:

– Mulla yigit, hamshira nima dedi sizga?.. Nega yuribsiz? Jigar kasal deydilar buni! Jimgina yotish kerak!

– Rost, – dedim men ham. – Sizni bu ahvolda ko‘rsa, urishadi.

Nosirjon sapchib stuldan turdi-yu, nochorlik bilan eshikka qarab, bir zum tek qoldi. Keyin:

– Sizdan bir-ikkita gap so‘rayman, – deb shivirladi menga...

Polina sepoyalarni ikkitadan-uchtadan qilib ko‘tarib chiqib ketgach, eshikdan Qobil doktor ko‘rindi. Menga ko‘z qisib, xotinim kelganini, hozir kirishini aytdi.

Uyga qishloqdagi bir do‘stimdan xat kelgan ekan. Sadaf shuni olib kelibdi. Xatga bir baxshi shoirning to‘rt qator she’ri ham qistirilgan ekan. Menga yoqdi. Shoir osmondan turnalar karvonii o‘tayotgani, allaqayerdan sumalak hidi kelayotgani, havolar ipakdek mayin bo‘layotganini aytib: «Enajon, bilmadim, Navro‘z keldimi?» deb she’rni yakunlaydi. Ayniqsa, shu satri yoqdi.

– «Enajon, bilmadim, Navro‘z keldimi?..» Yaxshi-ya? – dedim xotinimga.

U ham yig‘lamsirab, ham kulimsirab:

– Tashqarida esa qish! – dedi.

– Qor qalinmi?

– Hammayoqni qoplab yotibdi. Sirpanchiq...

Anavi shifokor yaxshi. Meni kiritvordi.

– Yaxshi. Bo‘pti. Jigar kasali ham yuqumli.

Qaytaver endi.

Nosirjon karavot qoshiga kelib turgan ekan.

– Assalomalaykum, kennoyi! – dedi.

Sadaf alik oldi.

– Tuzalyapsizlarmi? Tezroq tuzalib chiqing-lar-e.

– E, hademay otday bo‘lib ketamiz! – dedi quvonib Nosir. – Bu yerning sharoiti!.. Jannatda topilmaydi! Qarang, kennoyi, hammayoq oppoq, ozoda... Hozir osma ukol qilishdi! Shu deng, men dorini ichdim. Baribir foydasi bo‘lar ekan!

Turgan gap, Sadafga uning xunuk qiyofasi yoqmadi. Lekin u andishali ayol – bildirmadi:

– Doktorlar tanishingiz bo‘lsa kerak-da, – deya kulib qo‘ydi.

Hamisha hammaning gapiga qulog‘i ding Eshim montyor gap otdi:

– Bu ukamiz ustasi farang ekan, kelin!

Tushlik ovqatni ahvoli og‘irroq bemorlar to‘sagida o‘tirib yeydi. Bu yerga oldinroq tushganlar, ya’ni tuzalib qolayozganlar esa o‘rtada-gi stolda tamaddi qilishadi. Kostryul va boshqa idishlar qalangan aravachani ham ko‘pincha Polinaning o‘zi g‘ildiratib kiradi.

Polina asli yahudiy bo'lsa ham, juda o'zbeklasihib ketgan, nuqul, «O'zimizning o'zbeklar-da...» deb gap boshlaydi. Kasallarga mehribon. Ichida Qobil doktorni yaxshi ko'rsa kerak. Ayniqsa, zond yutgan paytlarimizda unga suyanib qolamiz. Zond – yarim gazdan oshadigan rezina ichak. Bir uchidan asta-sekin yuta boshlaysan. Tomog'ing qichimsirab ketaveradi. O'qchisang, bo'g'ilib qolasan. Polina dalda berib: «Oz qoldi. Yigitsiz-ku! Ha, bo'ling!» – deb turadi. Zondni sug'urib olish o'zingning qo'lingdan kelmaydi. Boyoqish hamshira ikkinchi uchidan sochiq bilan ushlaydi-yu, ko'z ochib-yumguncha chiqarib oladi. Juda engil tortib ketasan.

Tushki ovqatdan keyin bir muddat gan-gir-gungur suhbat; so'ng uyqu elitadi. Jigari og'rigan bemorlar juda zaif, madorsiz bo'larkan. Ovqatning ham mazasi yo'q. Kuchli taomni esa doktorlar yo'latmaydi.

Tush ko'ribman shu kuni. Tomda turgan emishman. Ko'kdan turnalar karvoni o'tayot-gannish. Osmonning u yer bu yerida pag'a-pag'a, quchoq-quchoq oppoq bulutlar. Yosh bola emishman. «Enajon, Navro'z keldi!» – deb baqi-rarmishman.

Biz uyg'onganda Nosirjon uxbab yotardi. Uning g'iybati boshlandi. Tilshunos qo'shnim yonboshlab:

– Kechirasiz-u, men shu yigitchani... maymunga o'xshatdim, – dedi.

Men kulib qo'ydim. Tilshunos shivirlab gapirgan bo'lsa ham, qo'shni – Qodir etikdo'z eshitgan ekan.

– Abdulla Qahhorning «Sinchalagi»da Eshon bor-ku, xuddi o'shaning o'zi! – dedi.

Aminjon ham uni Eshonga o'xshatgan ekan. Jo'raboshimiz Ziganshin:

– Kelinglar, uni «Eshon» deb ataymiz! – dedi.

Militsiya kapitani jilmayib:

– Har qaysilaringning bittadan-ikkitadan bolalaring bor-u, o'zlarining bolaga o'xshaysizlar-a! – dedi.

Oshpaz uyg'ur yigit:

– Ey, Tangrim, o'zing kechir, – deb qo'ydi.

Bu yigit ellik beshinchi yillarda Qashqardan buyoqqa o'tgan, ko'p xudojo'y, ko'p kuygan bandada edi.

– Jim! Qimirladi! – Eshim montyorning shu gapidan keyin g'iybat to'xtadi.

Nosirjon uyg'onib, birdan turib o'tirdi. Bir daqiqa bizga begona nazar bilan qaragach, oppoq pishiq tishlarini ko'rsatib jilmaydi:

– Yaxshi uxbab turdilaringmi, akalar?

– O'zingizdan so'rasak? – dedi Ziganshin.

Nosirjon jilmayib, tizzasidagi adyolni ikki tomonga qaratib siladi. Oppoq devorlarga quvonch bilan boqdi. Uning ancha faqir oilada o'sgani ko'rinish turardi. U jilmayishini qo'ymay birpas o'tirdi-da, karavotdan tushdi. Sochiqni olib:

– Betni yuvish kerak, betni yuvish kerak, – deb chiqib ketdi.

– Ichimizda yolg'iz musulmonimiz shu ekan! – deb xitob qildi uyg'ur yigit.

Uning gapida jon bor: uyqudan keyin istaganlar chiqib, bet-qo'lini chayib kelar, istamaganlar turiboz turpmi, olmami kavshashga tushar

edi. Sirasi, hadeb yo'lakka chiqaverishimizni shifokorlar, hamshiralalar ham xushlamasdi. Ayniqla, endi tushgan kasallarning chiqishini... Shu kuni Nosirning qilig'imi, oshpazning gapimi ta'sir qilib, hammamiz yuvinib keldik.

Nosir mening yonimga keldi.

– Aka, muhabbat nima?

Men horg'in kulimsiradim.

– Uni boshidan kechirmagan odam bilmaydi...

U yurakda sodir bo'ladi, Nosirboy. Uni ko'rsatib ham bo'lmaydi. Jahlingiz chiqqanda, birovni urasiz. Quvonganda – suyasiz... Muhabbat ham shunga o'xhash narsa... Lekin u nodir his. Boyagi hislar ham, kezi kelganda, unga bo'y sunadi, ukam, – «Qizil va qora»ni qo'lga oldim. – Mana shu kitobni yozgan odam, hayotning asl ma'nosi muhabbatda, deydi...

– O‘-o‘!

Men ham zerikkan edim, shunday mavzularda uzoqroq gapirishni istardim-u, lekin hamxonalarining diqqatini ortiqcha jalg etish, ularga mahmadona bo'lib ko'rinishdan cho'chirdim.

– Shunaqa, – deb qo'ya qoldim. – Ha, siz chindan ham biron qizni...

– Qo'ysangiz-chi, aka.

– Ota-onangiz bordir, Nosirjon?

– Otamiz hayot...

– Aka-ukalar?

– Yo‘q. Yolg‘iz farzandmiz.

– Nechanchi sinfni bitirgansiz?

– E! – dedi u kulib. – Beshinchidan o'qishni tashlab ketganmiz, aka! – so'ng shod-xurramlik bilan davom etdi: – Sho'x bo'lganmiz-da, yosh-

likda! Lekin bir bola uzun temirni boshi ustida aylantiraman deb bizning boshni yorib qo'ygan. Shunda o'zimdan ketib qolgan ekanman... Olti oy kasalxonada yotdim. Tuzalishga tuzaldim-u, harfni tanimay qoldim, aka. Keyin javob berishdi. Lekin «o'qima», deyishadi. Bu qanaqasi, dedim. Maktabga chopdim. Sinfga kirib o'tirdim. Lekin aka, doktorlar rost aytgan ekan, salga boshim og'rib qolaverdi. Boshim og'risa, muallimga ayta-man. U kishi menga javob beradi. Oxiri: «Boshing og'risa, bemalol chiqib ketaver», – dedilar. Keyin istagan paytimda darsga kirib, istamaganimda chiqib yuraverdim. Bolalarning menga havasi kelardi... Bitta fizika o'qituvchimiz bor edi. He, yettingicha o'tganda! Yettigacha maktabga qat-nadim-da, – Nosirjon qah-qah otib kuldi. – Lekin meni sinf jurnaliga yozishmagan ekan. Beshin-chi sinfda qolavergan ekanman... O'sha fizika o'qituvchimizni yaxshi ko'rardim... Ba'zan o'zлari: «Endi bor!» – der edilar. Men chiqib, bog'chadan u kishining bolasini uylariga oborardim. Hovlisi-da ishlardim. Gul kesardim, meva terardim...

Polina kirdi. Nosirjon karavotiga qochib bordi. Hamshira bizga bittadan harorat o'lchagich berib, Nosirga barmog'i bilan po'pisa qildi-da, tag'in chiqib ketdi.

Jigar kasalining tuzalayotgani haroratda ham ko'rindi. Biroq eng ishonchli belgisi – ko'z bilan badandan sariqning ketishi, kishi o'zini tetik tuta boshlashi. Yana biri – jigar dagi shishning pasayishi, yo'qolishi. Nihoyat, qonning tozalanishi.

Oldinroq tushgan kasallar jigarining usti qichiy boshlasa, shish qaytyapti, deb quvonishardi.

Shu kuni harorat o'lchagichni olgani qaytib kirgan Polina shivirlab, militsiya kapitaniga ikki kundan keyin javob berilishini aytdi. Hammamiz quvonib ketdik, u kishiga havas bilan boqdik.

Kechki ovqatga biroz vaqt bor, har kim o'z ishi bilan mashg'ul. Birov kavshanadi, uyg'ur o'rtog'imiz karavoti tagiga yashirib qo'ygan bankadagi baliqqa tikilib o'tiradi. Aminjonning ikki ko'zi derazadan tashqarida. Men «Qizil va qora»ni o'qiyan. Ziganshin bilan Eshim o'zaro shivirlashib, «piq-piq» kuladi. Men onda-sonda ularga qarab qo'yaman. Aniq esimda: Nosirjon karavotda qo'llarini tizzasiga qo'yib, jiddiy, allarnarsani o'ylab yotardi.

Xubbijamol kirib keldi. Xonamiz to'lib, go'yo hammamiz tuzalib qolganday bo'ldik. U ToshMIning to'rtinchi kurs talabasi. Bizning nomi xunuk kasalxonamizda amaliyotini o'tar, haftada ikki-uch kun navbatchilik ham qilar edi. Uni hali shifokor deb bo'lmasdi, albatta. Biroq ko'zları xiyol qiyiq, xipchagina bu qizda kishining ruhini daf'atan ko'taradigan, uni olis ken-gliklarga undaydigan va yaxshi kunlarini yodga soladigan bir o'ktamlik, hayotbaxshlik bor edi.

– Assalomu alaykum, akajonlar!

Nosir o'rnidan turib ketib, hammamizdan oldin alik oldi:

– Vaalaykum. Keling, opa!

Xubbijamol Nosirga qiziqish bilan tikildi. Chehrasida kinoya ham, istehzo ham, yigitcha-

ning maymunga o'xshash qiyofasidan hayronlik alomati ham ko'rinnadi. Ichimda qizdan minnatdor bo'ldim.

– Siz... qachon keldingiz? – deb so'radi qiz.

– Bugun, bugun! – dedi Nosirjon hovliqib. – Hali... tushdan oldin. Shu deng, opa, hech mu-naqa kasalim yo'q edi. Ertalab garajga kelsam, bitta shopir: «Ko'zing sarg'ayibdi, tibbiyot punktiga kir», deb qoldi. Tibbiyot punktiga kirsam, sen «jeltuxa» – deb, mana... – u mung'ayib yelkasini qisdi. – Hozir...

Xubbijamol allaqanday suyib yigitchaning kiftiga qoqdi.

– O'tiring. Yoting... Ismingiz nima?

– Nosirjon! – dedi Ziganshin.

– Yo'q. «Eshon»... «Eshon»jon! – dedi Qodir etikdo'z.

Eshim ham kulib, uning so'zini ma'qulladi.

– Yo tavba. Qulog'iga azon aytib qo'yilgan oti bor-ku! – deya xitob qildi uyg'ur yigit.

Xubbijamol qah-qah otib kulib, Nosirga:

– Qaysi ism yoqadi sizga? – dedi.

– Menga... O'zimniki-da! Bizda «Eshon» o'tmagan, – dedi Nosirjon.

– Bo'pti. Bo'lmasa, sizni Nosir «Eshon» deymiz. Yoqadimi?

Nosirjon «Bu kishiga nima deyin?» deganday, biz tomonga ko'zlarini kattartirib qaradi.

– Rozi bo'lmaysanmi? Rozi bo'l! Shunday qiz... seni eshon deb tursa-ya! E, Xubbijamol, menga aytmaysizmi, haqqingizga duo qillardim!

Nosirjon endi Xubbijamolga qaradi.

– Ixtiyor o'zingizda, – dedi qiz.

– Yo‘q. Mayli! – dedi Nosirjon birdan hayajon bilan. – Xohlasangiz, Nosir «Eshon» deyavering, opa! Mayli!

– Hah, yoqmay qolsin, – deya qiyqirib kului Eshim.

Xubbijamol ham kulib:

– Bo‘pti! – dedi. – Siz bugundan e’tiboran – Nosir «Eshon»siz!

– Ura! – dedi etikdo‘z.

Xona kulgiga to‘ldi.

– Bo‘lmasa, Nosir «Eshon»im, siz ham bu aka-laringizga o‘xshab yotasiz! – dedi Xubbijamol va nihoyat, biz tomon burildi. Biroq uning «Eshonim» degani yangidan kulgi uyg‘otgan edi. Har kim Nosirga har yoqdan gap otadi. Eshim esa, hammaning so‘zidan xulosa chiqargandek, men tomon kelayotgan Xubbijamolga sirli ovozda:

– Bu, juda g‘alati bo‘ldi-ku! – dedi. – A, singlim? «Eshon»im dedilar... Hoy, Nosirboy, nima balo qilib qo‘ydingiz hozir? Xubbijamolning so‘zini eshitdingizmi?

– Nimani eshitdim? – dedi Nosirjon gap nimaligini uqolmay.

– Axir, sizni «Eshon»im» deb, o‘zlariniki qilib gapirdilar-ku?

Nosirjon yalt etib, hatto, ko‘zлari olayib qizga qaradi. Xubbijamol kula-kula:

– Ha, nega endi o‘zimniki qilib gapirmsas ekan-man! – dedi. – Balki...

Xona yana qiyqiriqla to‘ldi.

– Balki... balki-ya! – deb oh chekdi Eshim. – O‘, «Eshon»! Baxting bor ekan, uka! Yoki bo‘lmasa... o‘lgudek «uxajo‘r» ekansan, uka! Birpasda shunday qizning boshini aylantirib tashlading-a!

Nosirjon qo‘rqib, ammo ishshaygancha dam unga, dam bunga boqar edi. Xubbijamol karavotim oldiga kelib, uni to‘sib qo‘ydi. Qiz shu kungacha bizning har birimizni o‘rganib bo‘lgan, har birimizga tegishli gapni allaqanday ichki sezgi bilan his qilib aytar edi.

– Kitob... Haliyam kitob! Zerikmaganingizza hayronman! – dedi menga. – Kennoyimning o‘rnida bo‘lganimda, kitobdan boshqa narsalar ham bor, der edim...

– Xuddi xotinimning gapini aytdingiz, singlim, – dedim.

Qurmag‘ur yigitlar shu gapdan ham qiyiq topib kulishdi.

Xubbijamol tilshunosga uning tuzalib qolgani, shifokorlar nima uchun javob berishmayotganga hayron ekanini aytdi: holbuki, uning ko‘zidan hali sarig‘i ketmagan edi. Montyorga:

– Kasalxona sizga yoqibdi. Bu gal ham chiqqandan keyin tuxumdan ko‘proq yeng. O‘zimiz opkelamiz! – deb hazillashdi.

Yana qiyqiriq, yana kulgi bo‘ldi. Eshimboy o‘tgan gal tuzalib chiqqach, xotiniga bozordan o‘nta tuxum keltirtirib, o‘novini ham paqqos yutib, ertasi kechga qolmay yana kasalxonaga kelib tushgan ekan.

Xubbijamol Ziganshinga kasalxonadan chiqqach, ko‘proq ichishni «maslahat» berib, Aminjondan:

– Gazlini sog‘inmayapsizmi? – deb so‘radi. So‘ng shunday barvasta yigitga kasal bo‘lib yotish yarashmasligini aytib, kapitan bilan so‘rashdi. Oshpazga yetganda karavot tagiga qarab olib:

– Rahmingiz kelsin-a? – dedi.

Yana Nosirjonning yoniga qaytib, unga qandaydir ham achinish, ham mehr bilan boqdi. So'ng yana hammamizga tegishli qilib:

– Akajonlar, bugundan boshlab yana xizmatin-gizdamiz! – deb chiqib ketdi.

Nosirjonning Xubbijamol bilan uchrashushi shunday bo'lgan edi. Buning davomi... Davomini kim o'yabdi deysiz!

O'sha kuni Xubbijamolning Nosirga «eshonim» deganini eslatib, men ham qandaydir ilmoqli gaplar qildim. Eshim-ku, tinmadi. Hatto, miliitsiya kapitani ham Nosirjonga: «Sizga juda boshqa-chacha qaradi», – dedi. Keyin qizning xonaga kiribooq Nosirga qiziqqani yana ancha gap bo'ldi...

Oqibatda Nosirjon o'ylanib qoldi. Odamzot qiziq-da: uning jiddiy o'ylanishi ham yoqimli, qiziq; ham kulgibop, ermakbop edi. Agar bu gap-so'zlar oqibati Nosirni qanday ko'ylarga solishini bilganimizda... Yo'q. Aksincha, unga hazil qilish, qizni eslatish bizga yoqar, bunga sari Nosirjonning Xubbijamolga qiziqlishi ortar edi. Buni ko'rib, biz xuddi yolg'on-yashiq gaplar bilan bir muhim natijaga erishayotgandek tuyardik o'zimizni.

Bular – keyingi gaplar. Lekin o'sha kunning ertasi Xubbijamol Polina bilan xonaga kirganda Eshim:

– Singlim, «Eshon»ingiz tuni bilan kiprik qoqmay chiqdi! Oshiqi beqaror bo'lib qolganga o'xshaydi! – dedi.

Qiz qah-qah otib, ukasining yelkasini silagandeck, Nosirjondan:

– Shundaymi? – deb so'radi engashib.

Nosirjon ko‘zlari katta ochilib, asta karavot-dan tusha boshlagan edi, qiz uning tizzasiga «shap-shap» urib: «Yoting, qimirlamay yoting!» – dedi. Nosirjon yotdi-yu, lekin qizdan ko‘z uz-madi.

Ha, Xubbijamol o‘ziga xos go‘zal, barno qiz edi. Bo‘yi Nosirjondan bir yarim qarichcha baland.

– Agar shu gap rost bo‘lsa, bo‘ldi! – dedi Xubbijamol qaddini ko‘tarib. – G‘animlar kuysin! To‘g‘rimi, «Eshon»im?

– Sevgilim, dengda-ye! – dedi Eshim.

Qiz qo‘llarini orqasiga qilib, qaddini ko‘tardi.

– Sevgilim, desam, nima qipti!

– Ura! – dedi Qodir etikdo‘z.

– Ura-a! – dedi Ziganshin.

– Aytmovdimmi, siz... zo‘r yigitsiz! – dedi Aminjon.

Nosirjon bir uning og‘ziga, bir buning og‘ziga qarar, ko‘zlari yana ham kattarib ketgan, ko‘rinib turibdi, ichidan qattiq hayajonlanar edi. Polina, odatdagicha, yana bittadan harorat o‘lchagich ulashdi. Harorat o‘lchagichni qo‘ltig‘imizga qisib, uyoq buyoqdan gaplashib yotdik: tashqari qor... O‘zga xonalardagi kasallar. Kimdir Polinadan: «Qobil doktor qayerda?» – deb tagdor qilib so‘radi. U qizarib ketib: «Eng yomon palata, shu, Jamol... Tag‘in siz shu xonaga kirasisiz-a!» – dedi. Bu gap yana yigitlarning jag‘ini ochib yubordi.

– Nega kirmasinlar? Bu yerda sevikli Eshon-lari yotibdi-ku!

– Obbo, «Eshon»-ey! Usta ekansiz, pirim!

– Ura!..

Yarim soatlardan keyin Qobil doktor sigaret tutatib kirdi. Har bir bemorning qornini ochib,

jigari ustini chertib ko'rdi. Tiliga, ko'ziga tikildi. U aytgan gaplarni, odatdagicha, Polina yozib oldi. Chiqa turib:

– Shoir, kecha ish chiqib qoldi, bugun kiramani, – dedi menga.

Ovqatlandik. Gurung. Kimlardir uxladi. Men ham biroz mizg'ib, kitobni qo'lga olgan edim, Nosirjon bir-bir qadam bosib qoshimga keldi.

Tumba oldidagi stulga o'tirdi. U ancha horg'in edi. Kulgim qistadi.

– Kecha yaxshi uxlamaganingiz rostmi? – deb so'radim.

– Men? Yo'q... uxladim, – dedi u nimadandir hayiqqandek. So'ng eshikka qarab oldi-da, qizariib, asta shivirladi: – O'zlari chiroyli-ya, opaning?

Tilshunos eshitib yotgan ekan:

– Nega opa deysiz? Nega? – dedi birdan do'q qilib. Uyg'oqlar kulib yuborishdi. Nosirjon endi oqarib:

– Opa-da! U kishi mendan katta! – dedi.

– Vey-vey, o'laman! – deb nido qildi Eshim mon-tiyor. – Shu kattami? Xo'b, katta bo'lsa, bo'ptida... Mening xotinim ham o'zimdan besh yosh katta. Bo'yi ikki qarich baland!

Yana kulgi bo'ldi. Uyg'ur yigit:

– Yo oblo! Buzildinglar, jo'ralar! – dedi. Kapitan ham uni quvvatladi:

– Bularning gapiga ishonmang, Nosirjon.

Nosirjon menga tikilib turdi-turdi-da:

– Shundaymi, aka? – dedi.

U mening, «Shunday emas», deyishimni kuttardi. «Nega buning ko'nglini cho'ktiray?» deb o'yladim-da:

– Kim biladi, – deya yelka qisgan bo'ldim. Nosirjonning chiroyi ochildi. Tag'in eshikka qarab qo'ydi. Shunda men bir adib sifatida... odamda bo'layotgan o'zgarishni ko'rdim; uni kuza-tish ahdim bo'lib qoldi. Yozuvchilik kasbi ba'zan shafqatsizlikni talab etadi. Deylik, aybdorni so'roq qilishyapti. Uning qarindoshlari yig'layap-ti, tomoshabinlar hayratda. Tergovchi esa pinak buzmaydi. Yozuvchi ham ba'zan shunday holga tushadi. Biroq sizni ishontirib aytaman, uning tergovchidan farqi bor – u qiynalib, o'rtanib ku-zatadi, «so'roq qiladi». Ammo tabiiy, buni sirtiga chiqarmaydi. To'g'ri, u ham odam, ba'zan sirtiga tepib ham qoladi.

– Rahmat, rahmat, aka, – deb shivirladi Nosir-jon va joyiga qaytib ketdi.

Yana osma ukol kirdi. Nosirjon shisha idish-dagi dorili suvni stakanga quyib, yana ichib oldi. Keyin lablarini yalab:

– Menga yoqdi. Men tuzalyapman, akalar! – dedi.

Polina sepoyalarni yig'ib chiqarkan, Nosirjon unga bir nima demoqchi bo'lib ko'p shaylandi. Nihoyat, uning orqasidan chiqdi. Eshim mon-tyorning ham ketishiga sanoqli kunlar qolgan, qoni tozalanayotgan edi. Endi o'ziga ehtiyyotkor bo'lib qolgan. Shunga qaramay, karavotdan shoshib tushib, eshikdan mo'raladi. Anchadan keyin qornini ushlagancha qaytib joyiga keldi. «Piq-piq» kulib:

– «Priyomniy pokoy»gacha bordi, – dedi. – Qo-bil quvib soldi... Xubbijamolni so'ramoqchi edi!

Kulgi ko'tarildi. Nosirjon shumshayib kirib, joyiga o'tdi.

- Bor ekanmi? Gaplashdingizmi? – dedi Eshim.
- Kim? – deya talmovsiradi Nosir.
- Kim bo'lardi, jonon-da.

Nosirjon sovuq o'qraydi. Menga qarab:

- Aka, jonon degani yaxshimi, yomon? – dedi.
- Qanday aytlishiga bog'liq, – dedim men. –

Menimcha, Eshim akangiz beg'araz...

Nosirjon Eshimga ishonchsizlik bilan qarab qo'ydi. Keyin to'shagiga chiqib yotdi. Shu bo'yi tushki ovqatgacha gap qotmadi. Turib-turib, mening unga rahmim kelar, lekin uni ko'nglida kechayotgan xayollaridan ayirishga ko'zim qiymas edi. Buning ustiga, bu holatlarning davomi menga qiziq tuyular, nazarimda, shunchaki o'yin bo'lyapti-yu, Nosirjon buni payqagach, kulib yuboradigandek... edi!

Ovqatdan keyin ham Xubbijamol ko'rinnadi. Kechki uyqudan uyg'onsam, u eshik og'zida qolla-rini qovushtirib turibdi. Hamma uyg'oq. Chamasi, men kitobga berilib, kech uxlagan edim.

– Mening qadrimga yetmadinglar, endi keta-man... – deyayotgan ekan u. Ovozidan shirin bir sho'xlikni, beazorlikni uqdim. Ilgarilari ham keta-yotganida, chamasi, shunday der edi. – Yo'q, imtihonlarimiz boshlanib qoldi, – deya davom etdi Ziganshinga qarab. So'ng yonida tik turgan Nosirjonga uqdirdi: – Har imtihonni topshirgandan keyin kelib, sizni... mana bularni ko'rib ketaman!

– Voy-voy, chidolmayman! – deb baqirdi Eshim.
– Sizni... dedingiz-a, Xubbijamol?!

Xona yana kulgiga to'ldi. Bir qarashda, shirinsuxan hamshiralalar bilan bunday hazil-huzul o'zga xonalarda ham bo'lishi mumkin edi. Lekin

ulardan farqi... bizning xonadagi hazil «cheti»da titrab-qaltirab Nosirjon turar, chamasi, Xubbijamolning ketayotganidan u qattiq iztirobda edi.

– Xo'b, «Eshon»im, hozircha xayrashamiz, – dedi qiz nihoyat. Keyin bizlarga ham bir-bir qarab, bir og'iz-yarim og'iz gap otib, yana Nosirjonga boqdi. Unga qattiq tikildi-da, kulib yubordi. Kulgisida qandaydir achinishni aniq sezdim. – Nega mundoq turibsiz? – dedi. – O'tiring!.. Yoting. Ha-ha, yoting, darrov yoting! Xafa bo'laman!

Nosirjon «Rosti bilanmi?» deganday, unga xo'mrayib boqdi-da, shosha-pisha karavotiga chiqib o'tirib oldi. Xubbijamol qo'lini orqasiga qilib, xiyol egildi.

– Muvaffaqiyat! Faqat «besh» bo'lsin! «Besh!» – deya tilak tiladi yigitlar.

– Lekin, – dedi qiz birdan qovoq solib, – men «besh» olib kelganimda, sizlar ham bemalol yuradigan bo'lmasalaring, bilasizlarmi, xafa qilaman!

U eshikdan chiqar ekan, Nosirjonga tag'in iliq, xayrixoh tabassum hadya qildi.

Men Nosirjonne kuzatar edim. U bir nafas qotgancha o'tirdi. Keyin qovog'ini uyib, karavotdan tushdi. Tuflisini oyog'iga ilib, kichkinagina bo'lib, eshikdan chiqdi. U chiqqan zahoti Qobilning shovqini eshitildi. Nosirjon qochib kirib, shu bo'yи yotib oldi.

Keyin Qobil kirib:

– Nima ish qilsang, qil, lekin hozir yotishing kerak, bola! – dedi... – Qadimdayam tabiblar yotqizib davolagan!.. O'zing dori ichib yotibsan. Tomirlaring... haliday! Yo'lakda nima bor?!

– Nima, nima... yo‘qmi? – deya to‘ng‘illadi Nosirjon.

– A?

Nosirjon teskari qarab yotdi. Qobil shoshilmay kelib, karavotim yonidagi stulga o‘tirdi. Katak daftar varag‘iga yozilgan she‘rni uzatdi. Ilk jumlasini o‘qib, kulimsiradim. Bu ham Usmon Nosirning she‘ri edi.

*Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o‘pmagan, kim tishlamagan?..*

Uning hurmati uchun she‘rni oxirigacha o‘qidim, ichimda maza qilib o‘qidim. U bemalol sigaret tutatar, mening hukmimni kutar edi.

– A’lo she‘r! – dedim.

– Shunaqa. Bo‘s sh vaqtida yozamiz, – dedi u.
– Men bostirishga qiziqmayman... Sizda qolishi mumkin.

– Rahmat! – dedim. U chiqib ketdi. Tilshunos qo‘s nim varaqn ni so‘rab olib, biroz tikildi-da, baland ovozda o‘qiy boshladi:

*Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o‘pmagan, kim tishlamagan?..*

Men bu she‘rni ilk marta o‘qigan chog‘larimni, erta bahor sobiq omborxonani darsxonaga aylantirib, lampachiroq shu’lasida o‘tirgan kezlarimni eslab, ko‘zimni yumdim.

Yigitlar she‘rni o‘zlaricha muhokama qilishdi, qo‘ldan-qo‘lga o‘tkazib o‘qishdi. Qattiq kulgidan ko‘zimni ochdim. Varaq Nosirjonning qo‘lida, u

titrabgina turardi. «Ajabo, yigitlar uni aldayapti-ku! – deb o'yladim. – Chakki bo'ldi, Xubbijamol ham uni aldadi. Yoki hazillashdi, balki ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldi... Umuman, u har birimizga ham shu taxlit hazillar qilishi mumkin...»

– Nimaga kulasizlar? – dedi Nosirjon. – O'qishni bilmayman, vassalom... ana, yozuvchi domlaga aytdim, yoshlikda kasal bo'lganman. Odamdan kuladi bular! – u karavotga tappa o'tirdi-da, Aminjonga favqulodda hayajon bilan so'zlay ketdi: – Lekin kinoafishalarni birov o'qisa, darrov yodimda qoladi...

Aminjon xo'rsindi.

– Ishqilib, kuryerlikdan xursandmisiz, uka?

– Juda! – dedi Nosirjon ishonch bilan. Garajni shunday yaxshi ko'raman! Bir kun bormasam, benzin hidigacha sog'inib qolaman, – u yana yayrab hikoya qila boshladi: – Meni butun shopirlar taniydi... Ish buyuradi. O'zinikiday... Direktorga bozordan somsa opkelishga chiqsam, ulargayam opkelaman.

Hayotda kim nochor kimsalarni ko'rib, ularga achinmagan? Ha, achinish mumkin, xolos... Biroq Nosirjon achinishdan «baland» yigit edi. U o'z ishini yaxshi ko'rardi, unda odamiylik ham mo'l-ko'l edi. Eng muhimi – soddadillik, ishohnuvchanlik...

Bunday kishini hurmat qilmay bo'ladimi? Lekin bunday mo'rt kishilarni har ko'yga solish ham odamlarning qo'lida. Ayniqsa, zerikkan, ermakka zor kimsalar qo'liga tushsa...

– Xullas, bu she'r siz uchun bitilgan, Nosirjon «Eshon»! – dedi Eshim.

Nosirjon bu gapdan hayron bo'lib, varaqqa qarab oldi. Keyin yana asta yurib, qoshimga keldi. Varaqni uzatib, iltimos qildi:

- O'qib bering, aka.
- Yodlaysizmi? – dedim.
- Ha! – dedi u hayajonlanib. – Mening xotiram yaxshi!

– Mayli... – she'rni o'qimoqchi bo'ldim-u, undagi Otello, Shekspir, Dezdemona kabi nomlar ni Nosirjonga qanday tushuntirsam ekan, deya o'yladim. Keyin bu she'r faqat sevgi haqida ham emas, zero unda:

*...Qanday qabohat,
Ki odamning o'ziginamas,
Hissini ham xarob qilsa davr! –*

degan gaplar bor.

– Nosirboy, siz shu qatorni yaxshi bilib, tu shunib olsangiz yetar, – dedim. – Shoir bu satrlarda: «Sevgi zahmatini chekmagan, sevgi uchun qonlar yutmagan odam bormi?» deyapti... Menimcha, shoir o'zi bilgan odamlarni ko'zda tutyapti. Holbuki, sevgi nimaligini bilmay o'tib ketadiganlar ham bo'ladi...

- Sevgi nima? – deya shivirladi Nosirjon yana.
- Kecha aytdim, shekilli.
- Sevgi... sizning Xubbijamolga bo'lgan munosabatingiz! – deya uqdirib qoldi tilshunos. – Bildingizmi? Uni ko'rgingiz kelyaptimi? Rostini ayting!..
- Ayting-da, endi! – dedi Eshim ham.
- O', ko'rgisi kelganda qandoq! – dedi Ziganshin.

– Ana o'sha his – sevgi... sevgining boshi! – deb xulosa yasadi tilshunos.

Uyalib, qimtinib turgan Nosirjon ko'zlarini yirib menga tikildi. So'ng varaqni olib, o'rnidan turdi.

– Menda tursin-a? – dedi. Keyin bir-bir qadam bosib kelib, qulog'imga shipshidi: – U kishiga beraman... opaga.

Men kulib:

– Mayli, – dedim. – Lekin opa demang-da.

– A, shundaymi?

– Uyat bo'lar.

– Ha, rost aytasiz.

Nosirjon karavotiga borib yotgach, varaqqa uzoq tikildi. Allanarsalar deb pichirladi. Chog'imda, o'sha ikki satrni takrorladi.

Kechki ovqatdan keyin yana suhbat boshlandi. Aminjon bilan kapitan qarta o'ynamoqqa tushdi. Uyg'ur o'rtog'imiz karavot tagidan baliqli bankani oldi. Eshim Ziganshinga o'zining ishqiy sarguzashtlaridan hikoya qila ketdi. Nosirjon dam yo'lakka chiqadi, dam xonaga kirib, polga to'kilgan tarvuz urug'larini teradi; kapitanning kichkina qo'l priyomnigini qulog'iga tutib, qo'shiq eshitadi, dam mening yonimga kelib, sevgi haqidagi bir nimalarni so'raydi.

Polina kirib, yana haroratimizni o'lchadi.

Men «Qizil va qora»ni o'qishda davom etdim: Sadaf bilan qanday tanishganimiz, sovuq qish kezlarida kimsasiz, qor bosgan istirohat bog'ida yurgan chog'larimiz bir-bir ko'z oldimdan o'tdi.

Chiroq o'chirilgach, Eshim montyor kapitanidan lo'li qiz bilan yana qanday sarguzashtlar bo'lganini so'radi. Kapitan:

– Ertaga ketaman, uka, – dedi. – Unaqa gaplarni erkak odam ko‘p eslamasligi kerak. Tajribadan-da, bu... Xotinning oldidayam og‘izdan chiqib ketsa bormi, barcha toat-ibodat bir pul bo‘ladi!

Aminjon uning gapini ma’qullab, Gazlida tanishgan qizini mast holda xotinining nomi bilan chaqirganini aytib berdi. Ziganshin qaysidir yoz kuni ikki o‘rtog‘i bilan butun boshli bir tovuqni yeb qo‘yganlarini hikoya qildi. Uyg‘ur yigit xo‘rsinib, Qashqarni esladi...

Kechasi shamol turib, derazalarni zirillatdi. Men bu ko‘klam shamoli bo‘lgani uchun qorlarni tezda eritib yuborishi, havo mayin tortib qolishini o‘yladim. Tilimga xotinim keltirgan xatdagি satr tushdi: «Enajon, bilmadim, Navro‘z keldimi?..»

Nazarimda, Nosirjonning o‘zgarishi asosan shu kunning ertasidan boshlandi. U ruhan tezik bo‘lib uyg‘ondi. Ha, kasalga sira o‘xshamasdi. Shisha idishdagi dorili suvni ichib bo‘lgach, sepovalarni olib chiqishda Polinaga ko‘maklashdi. U harchand do‘q qilib, yotishni buyurmasin, Nosirjon bilganidan qolmadidi. Polina ikki-uch sepoya ko‘tarib ketishi hamon yana bittasini yo‘lakka chiqarib qo‘ydi.

Tushki ovqat mahali Polina taqsimchani qo‘limga berarkan:

– Domla, Nosirga nima bo‘ldi? – deb shivirladi. – Nuqlil Xubbini so‘raydi. Qo‘ng‘iroq qilsalar, salom ayting, deydi.

Men yelka qisib qo‘ydim:

– Parvo qilmang, opa... Balki sevib qolgandir? Bo‘lishi mumkin-ku?

– Hay-hay, unday demang-a!.. Xubbining bir yigitib bor, havasingiz keladi!

Buni bilmas edim.

– A-a? – dedim. – Unga arzisa, yaxshi.

– Bir-biriga munosib!

Shu kuni tushdan keyin militsiya kapitaniga javob berildi. Biz u kishini havas bilan kuzatib qoldik. Boshqa joylarda, salomatlikda uchrashtaylik, dedik, niyat qildik. Ko'pincha bir xonada yotgan bemorlar, sog'ayib chiqqach, tez-tez uchrashib turaylik, deb bir-birlariga manzil beradilar. Ammo keyin juda ozchiligi bordi-keldi qiladi.

Kapitan Nosirjon bilan xo'shlashayotib:

– Nosir «Eshon», bularning gapiga ishonmang, inim. Amakingiz lo'li qizning gapiga ishonib, lo'li bo'lib ketishiga oz qolgan, – dedi.

Nosirjon kulib, zavqlanib xayrlashdi: kapitanning gapi unga, chamasi, hech narsa bermadi.

Tungi shamol ko'klam shamoli esa-da, qish qishligini qildi. Kechga tomon qor yog'a boshladi. Qor derazamiz ko'ziga shitirlab uriladi. Xonamiz iliqqina. Men «Qizil va qora»ni yarimdan oshirib qo'ydim. Unda mashhur yozuvchining hayot qatlamlarini naqadar mahorat bilan bera olgani haqida o'ylayman. Xayolim o'z asarlarimga og'adi; vazirlar, davlat arboblari haqida asar yozishni istayman. Istayman-u, baribir yoza olmasligim, ular qalbini ochadigan kalitim yo'qligiga iqror bo'laman.

Kunlar tez o'tar edi. Men ham vujudim bir yengillik sezadigan, yo'lakka chiqib, chekib kela-digan bo'ldim. Ana shunday kunlarning birida

Eshim montyor ham xonani tark etdi. U bilan ajralish ancha og‘ir bo‘ldi. U ketgach, ikki-uch kun aziz bir narsamizni yo‘qotgandek bo‘lib yurdik.

Eshim har birimiz bilan o‘pishib xo‘splashdi. Nosirjoni o‘par ekan:

– Xubbiga aytib qo‘y, rashk qilmasin. Ha-haha! – deb kuldi. Keyin uning kiftidan quchib: – Hazil, hazil, – dedi. – Hazilni tushunasan-ku, uka!

Eshim bu gapi bilan nimani ko‘zda tutgani-ni tusmollash mumkin. Biroq Nosirjon bu gapni ham o‘zicha tushundi:

– E, nega rashk qilar ekan? – deb qo‘ydi.

Nosirjon Xubbijamol haqida xuddi bir-biri bilan allaqachon oila qurishni ham kelishib qo‘ygan-dek gapirar, o‘qtin-o‘qtin uning bo‘yi balandligini aytib, «ko‘chada uyalsalar kerak», der edi. Ba’zan shaharda uy olishning mashaqqatlariga qiziqar, lekin shu ondayoq o‘zining ko‘pincha garajda – buzuq avtobusda yotib qolishini zavq-shavq bilan hikoya qilar edi: «Qorovul menga ishonib qolgan. Shuning uchun u kishi uyga ketsalar, o‘sim qorovullik qilaman... E, menga hamma ishonadi, aka... Ammo-lekin garajni sog‘indim. Benzinning hidini bilasizmi? O‘!..» Ba’zan Xubbijamolning qiyofasini o‘zicha tahlil qilib ketadi: «Chiroqli, a?..»

Unga faqat uyg‘ur oshpaz dakki berar, qizni eslomaslikka undar edi. Shunda Nosirjon unga sovuq tikilar, gapi ado bo‘lgach: «Oxun aka, siz ovqatni biling... Muhabbat boshqa narsa!..» deb yo‘lakka chiqib ketar edi.

Asta-sekin biz Nosirjonning Xubbijamol haqida
dagi gaplariga parvo qilmaydigan bo'lib qoldik.
Bu holga ko'nikdik. Shundoq gapirar ediki, ular
chindan ham bir-biri bilan oshiq-ma'shuq... No-
sirjon kasalxonadan chiqqach, Xubbijamol uni
kutib oladi... Keyin u Xubbijamolga uylanadi.
Ha, darvoqe, u yaqinda imtihonlarini topshirib
bo'lib, qaytib keladi. Lekin Xubbijamol imti-
honlarining bir-ikkitasini allaqachon topshirib
bo'lganiga shubhamiz yo'q edi, shunga qaramay,
kelmayotgani uchun parvo ham qilmas edik.

Qiziq bo'ldi: bir kuni hammamizdan qon olish-
di. Ertasi natijasini bilsak, Nosirjonning qoni
top-toza chiqdi! Uni Qobil doktor ham tabrikladi.
Polina quvonib: «Hammadan oldin siz ketadigan
bo'ldingiz!» – dedi. Nosirjon o'sha kuni talay vaqt
hech kimga gap qotmadni.

Aminjonga javob berildi. Bu novcha, qirrabu-
run, yosh esa-da, ko'p sarguzashtlarni boshi-
dan kechirgan yigit bizni Buxoroga chin dildan
taklif etdi. Manzilini qoldirdi. Nosirjon bilan
xo'shlashar ekan, unga negadir o'ychan boqib:

– Siz havas qilsa arziyidigan yigitsiz. Biz...
bo'lgancha bo'lganmiz, uka, – dedi.

Ziganshindan keyin Qodir etikdo'z bilan
uyg'ur oshpaz ham ketdi. Xonada tilshunos,
Nosirjon va men qoldik. Xona, bizlar chiqqach,
ta'mir qilinishi kerak edi, shuning uchun odam
qo'yilmadi. Xonamiz huvillab qoldi. Ko'p kara-
votlar bo'sh. To'shaklari buklanib qoshiga suyab
qo'yilgan. Xonaning issig'i ham odamlarning tafti
bilan ekan. Isitgich batareyalar kecha-yu kun-
duz qizib tursa-da, endi sovuq tuyular edi.

Polina kirib, men bilan tilshunosga harorat o'lchagich berdi-da, Nosirjonning yoniga borib:

– O'ynang, o'ynab bering, «Eshon»im! Keyin bir gap aytaman! – dedi.

Nosirjon hayajonlanib, hatto sal qo'rqb:

– Nima gap? – dedi.

Shu tobda u nimani o'yladi, kim biladi. Ota-si-yu qarindosh-urug'ini o'yladi, ular hayotida biron-bir yangilik sodir bo'lganini gumon qildi, deyish qiyin: shu paytgacha uni so'roqlab birov kelmagan edi. Nosirjonning o'zi ham birov keli-shini, chamasi kutmas, shunga qaramay o'sha birovlar haqida yaxshi so'zlar edi. Nojoiz bo'lsa-da, aytib qo'yish lozim: jigar kasaliga doktorlar, ayniqsa, ho'l meva va sabzavot yeishni buyuri-shadi. Albatta, bunda yotib ketgan yigitlarga shunday yemaklardan kelib turardi. O'z-o'zidan ma'lum, qishda bunday tarmevalarni topish mahol... Biz, albatta, o'zimizga kelgan mevadan Nosirjonga ham berardik. Dastlab men: «Olmas, uyalar», deb o'ylagan edim. Yo'q, u ikkilanmay, biroq siniq jilmayib oldi. Keyinchalik kim qog'oz xalta ko'tarib kelsa, u kirishi hamono o'rnidan dast turib borib, xaltani qo'lidan olar, eltib tegishli yigitning tumbasi ustiga qo'yar, kelgan kishiga kursi qo'yib berar edi. Albatta, uning bu harakatlarini kuzatish kishini allaqanday azoblaydi. Biroq o'ylab qaralsa... bunga ham ko'nikish mumkin. Xullas, Polina harorat o'lchagichni orqasiga qilib: «O'ynab bering, bir gap aytaman», – deganda Nosirjon nima uchun qo'rqi, nima uchun qattiq hayajonlandi – bilmayman. Faqat, g'ira-shira tusmol qilish mumkin: bunda Xubbijamolga aloqador bir nima bo'lishi kerak.

– Nima u? Oldin ayting. Ayta qoling! – deb bir-dan yig'lamsiradi Nosirjon.

– Xubbijamol sizga salom aytdi!

– Menga?

– Sizga... «Eshon»imga, sevgilimga!» – dedi.

Xiyol enkayib turgan Nosirjonning qo'l-oyog'i titrab ketganini tilshunos ham ko'rgan ekan. Tilshunos:

– Hoy, Polinaxon, yotig'i bilan ayting-da. O'zini tashlavordi-ku! – dedi.

Nosir tilshunosga yeb qo'ygudek bo'lib qarab:

– Ishingiz bo'lmasin! – dedi. So'ng Polinaga yaldoqlandi. – Salom dedilarmi?

– Ha.

– A, «Eshon»imga... yana... hm...

– Ha-ha.

– O'ynab beraymi?

Polina bizga qaradi. Chehrasida ayanch bor edi. Boshini sarak-sarak qildi-da:

– Keyin, keyin, – deya harorat o'lchagichni berib chiqib ketdi.

Ajoyib ayol, bu Polina!

Nosirjon karavot chetiga o'tirdi. So'ng tura solib, yostiqni ko'tardi. Tumbani ochib qaradi. Hamxonalar bergen mevalarni u tumbaga solib, asrab yer edi. Barini chiqarib qo'yib, tortmanning to'ridan bir qog'oz oldi. Ko'ziga tutib qaradi. Tanidim. Usmon Nosirning she'ri bitilgan o'sha qog'oz. U birdan shoshib lapanglab, mening qoshimga keldi. Qog'ozni ko'rsatib kuldi.

– Qarang, – dedi. – Salom aytibtilar.

– Sevgilimga salom ayting, debtilar, – deya qo'shimcha qildi tilshunos.

Nosirjon unga yana o'graydi-da:

– Ha, – dedi. – Alam qilsin!

– Obbo!

U yana menga yuzlandi.

– Qizig'-a?

Mening unga bo'lgan butun achinishim, u haqdagi o'ylarim, ikkilanishlarim – baribir zumda qaytadan yangilandi. Unga aytgan gaplarimizning bari yolg'onligi, buning esa o'ta ishonuvchanligi yana miyamga sanchildi. Shu tobdha o'zimizni ham, ishoning, Nosirjonni ham bir zumga yomon ko'rib ketdim. Keyin xayolim Xubbijamolga og'di... O'ylanib qoldim: unda nima ayb? Ehtimol, Nosirjonning tez tuzalib ketishi-ga uning o'sha hazillari sabab bo'lgandir? Biroq bu... Nosirjonning hozirgi qiliqlari... g'ashni kel-tiradi-da.

O'zimni bir amallab bosib, ichimda: «Mayli, quvonsin. Uyam quvonsin, deb salom aytgan-ku!» dedim-da:

– Ha, qiziq, – deb uni ma'qullagan bo'ldim.

– Muhabbat haqiqatan qiziq bo'larkan! – deya davom etdi Nosirjon hayajon bilan. – Men, men... tez-tez tush ko'raman, aka... siz yozuvchi, bila-siz-ku? Tushimda huv bola paytlarimni ko'raman. Uyimiz oldida chuchmomalar o'sardi. Biz ularni bo'tako'z deb terar edik. Qo'ziqorinning sigirquyruq degani bo'ladi. Oppoq!.. – u tilshunos-ga qarab olib, gapdan qoldi.

Xonaga «gurs-gurs» yurib kirgan Qobil doktor:

– Nosir «Eshon», «veshmeshok»ni hozirlang, ketasiz! – dedi. – Haliyam biz gumonsirab, sizni besh kun tutib turdik.

Nosir sekin o'rnidan turdi.

– Qayerga?

– Qayerga?.. Uy bormi, uy?

– Uy... bor.

– Ana o'sha uyga-da! – u Nosirjonne chetga srib, stulga cho'kdi. – Qalaysiz, shoir?

Men o'rtadagi vaziyatni yumshatish uchun:

– Haliyam meni shoir deysiz-a? – dedim.

– Baribir. Mana... yana bitta yozgan edim. Bu Polinaga bag'ishlanadi.

– O', zo'r-ku! – uning qo'lidan o'shandoq katak daftар varag'iga bitilgan she'rnı oldim. – Polinani, a?

– Sevamiz-da, – dedi Qobil doktor.

Men varaqqa ko'z yogurtirdim:

Yaxshi qol,

Oq dengiz, yaxshi qol,

To'lqinlar, qo'ynimga qizdek kirdingiz...

Bu ham Usmon Nosirning navbatdagi she'ri edi.

– Nima, siz ham biron yoqqa ketmoqchimisiz?

– dedim.

– Ha, ilmiy tekshirish institutiga chaqirish-yapti. O'qing... Qalay?

She'rnı o'qib chiqdim: xayolimda oppoq ko'piklangan to'lqinlar o'rmalayotgan dengiz jondandi. Bu orada Nosirjonning tashqariga chiqib ketganini payqagan-u, lekin o'zimni payqamanganga solgan edim. She'rnı maqtab, tilshunosga uzatdim.

– Shunaqa, – deb o'rnidan turdi Qobil doktor. – Yozib turamiz... Bu bola qayerga ketdi? O'zi ul-buli bormi? – u tumbochkani ochib qa-

rayotganda Nosirjon kirdi. Aftiga qarab, hayron bo'ldim. Rangida rang yo'q, boshi sochiq bilan bog'langan. Og'zini qo'li bilan to'sgancha kara-votga hansirab o'tirdi-da, birdan turib, o'rtadagi stol tagidan korsonni oldi. Engashib og'zini ochishi bilan yarim paqircha suv otildi... Bu yerdan ketgisi yo'q. Shuning uchun vodoprovoddan suv ichib kelgan. O'zini kasallikka solmoqchi.

Haqiqatan ham u qusib bo'lgach, Qobil doktorga qaramay karavotiga borib cho'zildi. Ustiga adyolni tortdi. So'ng qizargan ko'zlarini katta ochib:

- Men hali tuzalganim yo'q! – dedi.
- E! E! – Qobil doktor kelib, korsonga tikildi. Hidlab ko'rди. – Suv-ku, bu!
- Suv bo'lsa, suv! – dedi Nosir.
- Tavba! Ha, bu yer yoqib qoldimi?
- Yoqib qoldi!
- Hey, bola... odamlar bu yerdan tezroq ketishni istaydi. Sen bo'lsang...
- Men kasal!

Qobil doktor shoshilmay sigaret tutatdi. Bizga qarab yelkasini qisdi. Chiqib ketdi. U chiqishi bilan Nosirjon o'rnidan turib o'tirdi. Ovozi xirillab:

- Akalar, men qolishim kerak!.. Xubbijamol keladilar. U kishini ko'rishim kerak! – dedi va bo'g'ilib davom etdi: – Axir, o'ylab ko'ringlar, men qanday qilib ketaman? Uyat bo'ladi-ku? Mana, salom aytibdilar... Keladilar. Sevgilimga, debdil! Axir, men ham yigit kishiman! Axir, muhabbat nimaligini bilasizlar... Ko'nglimda orzularim bor... Men u kishini o'shandan beri kutaman, axir! Kecha-kunduz kutaman!..

Polina kirdi.

– «Eshon»im?

– Yo‘q, opa! Men ketmayman! – dedi Nosirjon va tag‘in yotib oldi. – Ko‘rib turibsiz, yotibman. Kasalman. Ana, qusdim!..

Polina turib-turib, xo‘rsindi.

– Xubbijamolni chaqiraymi?

Nosirjon boshini ko‘tardi. So‘ng yarim turib o‘tirdi. Qo‘llarini oldiga qovushtirib:

– Jon opa, jon Polina opa!.. – dedi. – Men, vaqtি kelsa, ishingizni qilaman. Manzilingizni ayting. Bog‘changiz bormi? Mening qo‘limdan ul-bulni tuzatish ham keladi, opa...

Tushdan keyin tilshunosga ham javob bo‘ldi. Men uni «tilshunos» deb atadim. O‘zining gapi bu. Ammo uning o‘z sohasi to‘g‘risida bir og‘iz ham eshitganim yo‘q. Onda-sonda uzr so‘rab, bir og‘iz-yarim og‘iz qitmir gap qilardi, xolos. Menga o‘zining manzilini yozib berib, Nosirjonga:

– Do‘srim, jo‘raboshimiz Ziganshin bir yaxshi gap aytgan edi... Bizdan o‘tgan bo‘lsa, uzr. Ko‘nglimizda tirnoqcha g‘ayirlik yo‘q. Men sizni hurmat qilaman, – dedi.

Bir necha marta do‘q qilgan, yovuz ko‘z bilan qaragan Nosirjon juda xijolat chekkandek kara-votdan tushib, unga qo‘l berdi.

– Siz kechiring, aka. Biz yosh, biz yosh, – dedi.

Ha, Nosirjon kekni bilmaydigan yigit edi.

Nosirjon bilan ikkimiz qoldik. Xona nihoyatda kengayib ketgandek tuyuldi. Mening ham er-ta-indin ketishim aniq; ikki tekshirishda ham qonim toza chiqdi. Nosirjonning esa bu yerda yolg‘iz qolishini tasavvur qilolmayman. Nazarimda, Xubbijamol kelsa, ular o‘zaro nimadir deb

gaplashishadi-da, keyin Nosirjon ham taqdirga tan berib, avtobus parkiga yo'l oladi...

Tushki ovqatdan keyin deyarli uxlamadim. Nosirjon karavotda mushtdek bo'lib o'tirar, o'qtin-o'qtin yostig'i orasidan Usmon Nosirning she'rini olib qarab qo'yar va menga kutilmagan savollar berar, o'zicha jiddiy mulohazalar yuritar edi.

– Aka, bir yaxshi ishlar qilgim kelyapti! – deb qoldi endi ko'zim ilinganda. – O'sha kishi uchun!.. – deya so'lg'in davom etdi. – U kishi bir joyda adashib qolgan bo'lsalar-u, men aptovusdan tushib ko'rsam-da, kulib, yo'nga solsam... – u birdan quvnab, hatto jilmayib menga tikildi. – A, yaxshi-ya! – dedi hayajonlanib. – Men bila-man, u kishiyam shaharning hamma yo'llarini bilmaydilar... Hech kim bilmaydi, menchalik! E, qancha odamlarni...

Yo'lakdan «do'q-do'q» qadam tovushlari eshitildi. Nosirjon dong qotdi. Qadam tovushlari o'tib ketdi.

– Ammo-lekin havo iliyabdi, – deya Nosirjon karavotdan tushdi. Yaxlit oynali deraza qoshiga bordi. Deraza baland. Oyog'i uchida ko'tarilib pastga qaradi. – Iya, gulzor bor ekan, aka! Ana, u yer bu yeridan qor ketipti! Qarang-a, ko'rma-gan ekanman!... Aka, deyman, shu o'zimizning pushti gul bor-ku, o'sha so'liy boshlaganda tagini kovlab shamollatish kerak ekan. Mana shu barmoqday-barmoqday qurt tushar ekan-da, tomirini yer ekan... Ko'rganman...

Nosirjon mening yonimga hali yetib kelma-gan edi, eshik ishonch bilan tortilib, ochildi. Bir jonon kirdi. Egnida Belgiya paltosi. Yoqasida op-poq mo'yna. Oyog'ida poshnasi baland qizil etik.

Qo'lida tasmasi uzun sumka. Men Xubbijamolni faqat oq xalatda va shippakda ko'rар edim. Bu parizodning, ziyoli ko'rinishli qizning o'sha Xubbijamol ekaniga daf'atan ishonmadim. Lekin bu kulcha yuzli, yonoqlari xiyol chiqiq, ko'zlari xiyol qisiq, oppoqqina, chehrasida sho'xlik va hayot-baxsh bir nur yog'ilib turgan qiz Xubbijamol edi.

– Vey, nima bo'ldi sizlarga? Yo bu xonaga kasal kirmasin, deb ketishdimi yigitlar? Huvillab qop-ti-ku! – Xubbijamol tez-tez gapirar, biroq ichdan hayajonlanayotgani sezilib turar edi.

– Ha, yigitlar nomardlik qilib, bizni tashlab ketishdi, – dedim.

– Yo'q! Sizlar nomardlik qilib yotibsizlar! – dedi u. So'ng Nosirjonga boqdi. – «Eshon»im, sizni allaqachon tuzalib ketdi, deyishgan edi.

– Men tuzaldim... Men... allaqachon tuzalib ketdim! – dedi Nosirjon hapriqib.

– Bo'lmasam...

– Siz bilan...

– Xayrlashay deb yotibsiz? – u qah-qah otib kului. – Hurmatli yozuvchi, mana, «Eshon»imdan o'rnak olinglar! Sadoqatni qarang! Rahmat sizga, Nosirjon... – so'ng ovozidagi hayajon bosilmagani holda, qandaydir hisob berayotgandek davom etdi: – Imtihonlar og'ir... So'nggi imtihonlar... Qiyin bo'ldi! – u yana kului. – Lekin telefonda so'rab turdim... Hammangizni... Voy-voy! – Xubbijamol uning yelkasini silamoqchidek ikki qadam bosdi-yu, ikkilanib to'xtadi. – Albatta so'rayman-da! – dedi. – Busiz bo'ladi? Ammo-lekin xursandman. Hammalaring otday bo'lib ketibsizlar... Yozuvchi aka, siz ham ertaga chiqarkansiz!

– Shunday gap bor.

- Kennoyimga telefon qilib qo'yaymi?
- O'zim...

Xubbijamol taraddudlanib, soatiga qaradi. Unga bu chiroyli ust-boshigina emas, shu holatda soatiga qarash ham yarashardi.

- Bo'lmasa, «Eshon»im, qo'lini bering, - deb u Nosirjonning qoshiga dadil keldi. Nosirjon kallovlanib, qo'lini uzatdi, so'ng darhol tortib, kafftini siladi, yana uzatdi. Xubbijamol o'zining barmoqlari uzun, oppoq qo'liga Nosirjonning barmoqlari kalta-kalta, biqqigina qo'lini olib silkitdi.
- Omon bo'ling, Nosirjon... Bir-birimizdan sira xafa bo'lmasligimiz kerak. Bir-birimizni tushunishimiz kerak. Biz tabib edik, siz bemor edingiz. To'g'rimi? Sizning vazifangiz bo'lak edi, bizning vazifamiz bo'lak. To'g'rimi?

- Ha. Albatta! Sizdan minnatdormiz, - dedi Nosirjon. So'ng xayolidan chalg'idi. - O'rtoqlar ham keta turib, sizga rahmat aytishni tayinlashdi. A, domla! Menga aytishdi...

- Salomat bo'lishsin! - Xubbijamol shunday deb qo'lini tortdi. Men tomon ikki qadam bosib:
- Yotib o'qish - ziyon, - dedi. - Siz hali ko'p o'qishingiz kerak-ku, ko'z jonivor kerak bo'ladi...
- tabassum qildi. - Xayr.

Men o'rnimdan turdim-u, qo'l uzatmadim, uning ham qo'l berishiga harakat ko'rsatmadim.

- Rahmat, - dedim.

Xubbijamol shoshib sumkasidan charm qo'lqop oldi. Bittasini kiya-kiya eshikka yo'naldi. Yetganda burilib, Nosirjonga tikildi.

- Nosirjon, ortiqcha hazil-huzul qilgan bo'lsam, ko'ngilga olmaysiz, - dedi. - Maylimi?

Nosirjon hovliqib:

– E, nega?! – dedi. – Rahmat, opa!

Xubbijamol tez burilib chiqdi. Eshikni zichlab yopdi. Nosirjon eshikka tikilgancha bir on turdi. Keyin «nega unday?» degan kabi menga hayrat bilan boqdi. So'ng oshig'ich eshikka bordi. Lang ochib, qaradi-da, darrov boshini tortdi. Qobil doktorni ko'rdi, shekilli. Birpas turgach, yana ochib qaradi. Yana yopdi. So'ng shoshib deraza qoshiga keldi. Men endi bu yerda chekish mumkin deb o'yladimmi, sigaret chiqardim. Tutatib, Nosirjon qatori derazadan qaradim. Biz uchinchi qavatda edik. Pastga qarayapmiz. Past – opopoq. Gulgordagi qorga ko'milgan ba'zi gullarning yuzi ochiq – qori yo erigan, yo shamol uchirgan. Yiroqda baland darvoza – kasalxona darvozasi. Undan beriroqda «Tez yordam» mashinasi turidi. Orqasidan tutun chiqyapti. Nosirjon deraza rafiga qo'lini tirab, o'sha tomonlarga ham bir-ikki qaradi-da, yana chopib, eshik og'ziga bordi.

– Nosirjon, nima gap? – dedim.

– E, qiziqmisiz! – dedi u va ilgichdan patli xalatini olmoqchi bo'ldi-yu, chiqara olmadni. Oq ko'ylak, oq lozimda yo'lakka chiqdi. Men borib, ortidan qaradim. Boshyalang, «Priyomniy pokoy» tomon ketib borardi. O'sha yerdagi oq parda bilan to'silgan joyda kimgadir duch keldi. Gaplashdi. So'ng burila solib, zinadan pastlab ketdi.

Izimga qaytdim. Deraza oldiga keldim. Xona chindan ham huvillab qolgan, nazdimda, o'zim yolg'iz bo'lib qoladigandek edim.

Derazadan pastga qarab turardim. Qora paltoni... Xubbijamolni ko'rdim. U mashina tomon borayotgan, mashina oldida esa novcha, timqora qunduz telpak kiygan yigit turar edi. Xubbi-

jamol unga yetay deganda sal toygan edi, yigit chaqqonlik bilan uni bilagidan tutib qoldi. Shunda Xubbijamolning ortidan xuddi kasalxonadan qochgan jinnidek oq ko'ylak, oq lozimda oppoq qor kechib borayotgan Nosirjonga ko'zim tushdi. Derazaga intildim. Nosirjon kaltabaqay qo'lini qimirlatib nimadir der edi. Xubbijamol to'xtadi. Nosirjon qizga yetib oldi. Qizning oldida u yosh boladek edi. Shunda bu yoqdan ularga qarab lapanglab borayotgan Polinani ko'rdim. Nosirjon Xubbijamolga allanimalar dedi. Xubbijamol kului, chog'i. Keyin u Nosirjonning kiftiga qo'l qo'yib, bu yoqqa qaratdi. Polina yetib borib, Nosirjonning bilagidan ushlab tortdi. Qunduz telpakli yigit Xubbijamolning tirsagidan olib, mashina tomon jildi. Nosirjon Polinaning qo'lidan chiqib, chetlandi. Ular orqasidan qaradi. Polina tag'in uni sudradi. Telpakli yigit mashina kabinasini ochdi. Xubbijamol Nosirjonga qarab, qo'l silkitdi-da, ichkariga kirdi. Ortidan yigit ham kirdi. Tutun taratib turgan mashina jildi. Darvoza qiya ochiq edi, katta ochildi. Mashina chiqib ketdi.

Polina hamon Nosirjonning qo'lidan tortar, u tislanib chiranan edi. Nihoyat, unga bo'ysungan-dek yurdi-da, gulzor yoqasida qaqqaygan bir tup daraxtdan ancha o'tganda to'xtab qoldi. Yana Polinaning qo'lidan chiqib, daraxt tagiga bordi. Qori supurilmagan skameykaga o'tirdi. Daraxt shoxlariga qaradi.

Bu manzara mening yodimdan chiqmas bo'lib qoldi.

Nosirjonne olib kelishgach, uni o'rab yotqizishdi. U hech kimga qarshilik ko'rsatmadi. Qobil doktorning do'q-po'pisalariga ham miq etma-

di. Ular chiqib ketishgach, yoniga bordim. U bo'g'riqib ketgan, naq yonar edi. Menga siniq il-jayib:

– Ketdilar, – dedi. – Meni, «Eshon»im, dedilar. Hamisha «Eshon»im bo'lib qolasiz, dedilar. Lekin bir yigit bilan ketdilar...

– Hayot shunaqa, do'stim, – dedim men.

– Hayot... – deya o'yga cho'mdi u. – Qiziq...

Ammo-lekin muhabbat ham qiziq ekan!

– Siz uni chindan ham...

– E, g'alatimisiz, domla? Siz o'zingiz kennoyimi-ni sevganmisiz?..

U jiddiy gapirar, biroq rangi qizarib bormoqda, peshonasiga, chakkasiga parcha-parcha jigar-rang dog' tushgan edi. Badanim uvishib, yo'lakka chiqdim.

Nosirjonning darhol issig'i chiqdi. Alahsiray boshladi... Bir amallab tunni o'tkazdim. Ham-xonalarning bu sodda yigitchaga qilgan muomalarini eslab, juda-juda o'kindim. O'zimni ham so'kdim. Biroq tag'in nimadir menga tasalli berar, nimaligini bilmas edim.

Ertalab tursam, Nosirjon olti oylik kasaldek. Ko'zlari sap-sariq, bir holatda. Lekin u menga jilmaydi.

– Aka, muhabbat qiziq... Muhabbatni bilmabsiz, bu dunyoga kelmabsiz... Ha! – U qandaydir ichki faxr bilan qimirlab qo'ydi. – Men buni... garajga borsam, aytib beraman. Direktorgayam aytaman!.. – u siniq jilmaydi. – Otam yo'q... Aldagan edim sizlarni. Bo'ladi-ku! U kishiyam qazo qilganlar. Lekin hovli-joyimiz bor! – deya hayajonlanib davom etdi. – Gulzo-rimiz bor! – So'ng bir zum ko'zlarini yumib

qoldi-da, yana charaqlatib ochdi. – Pastdag'i daraxt bodom ekan! Gullabdi! – o'rnidan turmoqchi bo'ldi. – Ana, qarang! Ana... Gullabdi... – so'ng bo'shashdi. – Lekin sovuq uradi.

– Ha, bevaqt gullagan daraxtni sovuq uradi, – dedim. Dedim-u, bu gapimdan ramziy bir ma'no chiqmasligi uchun, demakki, Nosirjoni chalg'itish uchun deraza yoniga borib qaradim. Bodom gullari menga ko'rinnadi.

Tushga yaqin menga ham javob berildi. Uyga qo'ng'iroq qilib, xonaga qaytdim. Polina kiyimboshimni chiqarib berdi. Kiyinib, xotinimning kelishini kuta boshladim.

Nosirjon uqlab yotar, biroq hamon ahyon-ah-yonda baqirar, alahlar edi.

Polina ohista kirib, Nosirjonga qaradi. Boshini sarak-sarak qildi. Labini qimtib kelib:

- Tushavering endi, – dedi.
- Rahmat, Qobiljon shu yerdami?
- Institutga ketdilar. Shoshilinch chaqirishdi. U kishini bilasiz-ku, zig'ircha odamgarchiligi yo'q.
- Unday emas. Sizni... yaxshi ko'radi.
- E-e!

Men Nosirjonning tepasiga bordim. U terga botib yotardi. O'zi odatda shunday bo'ladi: ba'zan uqlab yotganingda ustingga birov kelsa, darhol sezasan. Nosirjon ham sezdimi, bir qimirlab, ko'zini ochdi. Menga yovuzlarcha tikildi. Keyin shosha-pisha tagiga qo'l suqdi. G'ijimlangan she'rni oldi. Varaqqa bir qaradi-da:

- Unutibman. Bermoqchiydim, qarang. Mang,
- deb menga uzatdi.
- Qolaversin. Sizga, – dedim.

U g'amgin jilmayib, qog'ozni o'ziga qaratdi. Shunda men bir mo'jizani ko'rdim... Uning ko'zlari qinidan chiqqudek bo'lib ketdi. Ko'kragi ko'tarilib tushadi. Lablari pichirlaydi. Birdan menga boqdi. Xuddi men – men emas, o'zi ham – o'zi emasdek boqdi. Yana qog'ozga tikildi. Lablari pichirlaydi. Tag'in menga tikildi-da:

– Aka, – dedi behollik bilan, – men o'qiyapman-ku... O'qiyapman. Mana, qarang... «Sevgi, sening shirin tilingdan...» O'qiyapman! – u bo'g'iq, yovvoyi ovozda chinqirib yubordi-da, yuzini yostiqqa bosib ho'ngradi. So'ng o'rnidan turmoqchi bo'ldi, madori yetmadi.

Men hayron edim: ha, u harfni tanimay qolgan ekan... Ajab! Nahot bu kutilmagan to'lg'oq uning ongida o'zgarish yasadi! Eshitganman: qo'rquv yo hayajon asnosi tildan qolganlarning, tag'in qattiq qo'rquv ta'sirida tilga kirganlarini... Ammo bu holni... Endi men Nosirjonni tanimagandek unga tikildim.

– Unday bo'lsa, juda yaxshi.

U shart burildi.

– Yaxshi-da, yaxshi-da!.. Men ham odam... Yarimtaman deb yurardim. Muni qarang, aka... Mana, mana... «Tilingdan... kim o'pma...» O'qiyapman, Polina opa!

Polina yig'lar edi.

– Men juda xursandman, – dedi va «to'g'ri gapirdimmi?» degandek menga qarab qo'ydi: u Nosirjonning o'tmishini bilmasdi. Men «to'g'ri» deganday bosh irg'adim.

Keyin sezdimki... juda xursandman. Xursand ekanman! Sezdimki, o'sha yigitlarning sho'xligi,

o'zlari bilib-bilmay ermak qilganlari... o'shalardan ham xursandman. Boringki, «Olijanob bo'laman», deb buni yo'ldan qaytarishga urinmaganim uchun o'zimdan ham xursandman... To'g'ri aytadilar: hayotning har bir ko'rinishi o'z natijasini beradi. Uni sun'iy ravishda buzmaslik kerak.

Deraza pastida taksi signal berdi.

– Nosirjon, endi men ham ketaman, – dedim.

– Rahmat... – Nosir qo'llariga tiralib o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Polina uni bosib yotqizdi. – Ha-ha, yotishim kerak, – deya boshini yostiqqa qo'ydi. So'ng qo'lini uzatdi. Qisdim. Barmoqlari lov-lov yonardi. – Aka, qarang, o'qidim... O! – u behol kuldii. – O'sha... haligining kuchi-da, buyam?

– Rost aytasiz, – dedim. Nimaga ishora qilgani, chamasi, Polinaga ham tushunarli edi. – Endi tezroq tuzalish payida bo'ling.

– E, men tuzalamani! – dedi u. – Albatta... – keyin menga yana siniq tikildi. – Ketdilar-a?

– Ketdilar.

– Ha-ha... o'zim ham... Ha, mayli! Lekin, – deb jilmaydi u, – men unutmayman... U kishiyam aytidilar. «Eshon»im, sizni unutmayman», – dedilar...

– Men ham sizni unutmayman.

– Kennoyimni so'rang...

Shundan keyin men Nosirjonne ko'rmadim. Qaysidir kuni avtobus bekatida ko'zlari yoshti bolakay bilan cho'nqayib turib gaplashayotgan yigitchaga ko'zim tushdi. Mashinada edim. U Nosirjonmidi, boshqamidi – bilolmay qoldim.

1984

MUNDARIJA

QISSA

O'n sakkizga kirmagan kim bor.....	3
------------------------------------	---

HIKOYALAR

Tabassum.....	111
O'zbek xarakteri.....	131
Yosuman	157
Ko'ngil	167
Oy yorug'ida	172
Sog'inch.....	187
Qadimda bo'lgan ekan.....	193
Yozuvchi	217
Xumor	273
Ustoz	284
Bitikli tosh.....	296
Omon ovchining o'limi	315
Bodom qishda gulladi	337

Adabiy-badiiy nashr

SHUKUR XOLMIRZAYEV

O'N SAKKIZGA KIR MAGAN KIM BOR

Qissa va hikoyalar

Muharrirlar
Ma'mura QUTLIYEVA
Sayyora MELIQO'ZIYEVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Musahhihlar
Madina MAHMUDOVA

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Kompyuterda sahifalovchi
Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI №252. 2014-yil 02.10 da berilgan.

Bosishga 08.02.2017-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32.

Garnitura «Bookman Cyr-Uzb». Ofset qog'oz.

Bosma tobogi 12,0. Shartli bosma tobogi 20,16.

Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 47.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa
markazida tayyorlandi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14;

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87

faks – 273-00-14; e-mail: yangiasravlod@mail.ru